Suyuqlik haydovchi pompalar ishini maxsus nazorat paneli vositasida qo'l bilan ham boshqarish mumkin. Protseссораga kiraverishdagi sensorlar suyuqlik haydashni nazorat qiluvchi zanjirmi plyonka ichkariga kirgan zahotiyoq ushlab qoladi.

Kunduzgi yorug'likni kuchaytiruvchi moslama ochiq turgan vaqtda ham mazkur zanjir yopilib qolishi mumkin. Agar qayta yuvish moslamasi ochiq bo'lsa, unda suyuqlik haydovchi pompalarning harakatlanishi yuz bermaydi.

Harakatlanish tizimi (4.2-rasm) asosiy dvigateldan hamda unga yetkazib beruvchi sistema orqali ulangan chuvalchangsimon mexanizmdan tarkib topgan. Yetkazib beruvchi sistema har bir karkas ostidagi valiklarni aylantiradi hamda maxsus yo'naltiruvchi moslama bilan birga plyonkani protseссора seksiyalari orasidan o'tkazib beradi.

Suyuqlik bilan to'ldirilgan seksiyalarda pastki valiklar yengil materialdan tayyorlangan bo'lib, bu ularning ohista «suzib» yurishini ta'minlaydi.

Oqibatda plyonkaning yengil va silliq harakatlanishi uchun sharoit yaratiladi. Quritish seksiyasiga kiraverishda o'rnatilgan valiklar plyonkaning ustki qismidagi namlikni so'rib olib, ularni yana yuvish seksiyasiga qaytarib tashlaydi.



4.2-rasin. Multiline protsessoring harakatlanish tizini:

1 – plyonkaning protsessorga kirishi; 2 – kirish oynasi; 3 – ochiltirish seksiyasidan fiksatsiya seksiyasiga yo'naltiruvchi moslama; 4 – fiksatsiya seksiyasidan yuvish seksiyasiga yo'naltiruvchi moslama; 5 – kuritish seksiyasiga yo'naltiruvchi moslama; 6 – roliklar; 7 – plyonkani quritish seksiyasiga o'tkazish mexanizmi; 8 – plyonka uchun yo'naltiruvchi moslama; 9 – pastki yo'naltiruvchi moslama; 10 – yengil materialdan tayyorlangan roliklar.


4.2. Protsessorning asosiy qismlari

Multiline protsessoring asosiy qismlari 4.3-rasmda tasvirlangan. 1-asosiy yoqib-o'chirish qurilmasi protsessorga elektr energiyasini beradi va to'xtatadi. Yoqib-o'chirish qurilmasi ikki holatga ega – ON va OFF.

Elektron panel (2) da barcha asosiy elektron qismlar hamda boshqaruv zanjirlarining himoya qiluvchi qurilmalari joylashgan. Platalarni himoya qilish uchun panelga maxsus qopqoq o'rnatilgan. Boshqaruvning paneli (3) protsessorni yoqish-o'chirish hamda unga suyuqlik haydash bo'yicha dasturni tanlash va qayta ishlash uchun xizmat qiladi.

Odatda, protsessor uzatuvchi maxsus stol (4) ga ega bo'ladi. Mazkur stolni kunduzgi yorug'likda ishlashi uchun maxsus yorug'likdan himoya qiluvchi boks bilan jihozlash mumkin.

Boksda maxsus tokcha bo'lib, u turli hajmdagi kassetalar bilan ishlashda juda qo'l keladi. Mazkur tokchani ham uzatuvchi stol sifatida ishlatish mumkin. Protsessorga kirishda ikkita kirish sensorlari (5) joylashgan. Agar asosiy yoqib-o'chirish qurilmasi qo'shilgan bo'lsa, plyonka protsessorning ichiga kirishi bilan sensorlar avtomatik ravishda protsessorni ishga tushiradi.



4.3-rasm. Multiline protsessorining asosiy qismlari.

Tasvirni hosil qilish ochiltirish seksiyasi (6) rezervuaridan iborat bo'lib, unda sirkulatsion pompa, isituvchi element, darajani ko'rsatuvchi datchik, to'lib ketganda suyuqlikni to'kish tizimi mavjud. Rezervuarga valikli karkas ham o'rnatilgan. Valiklar maxsus, tez yechiladigan qisqichlarga ega, ularni hech qanday asbobsiz tez fursatda o'rnatish va yechib olish mumkin.

Ochiltirish seksiyasini ushlab turgan karkaslar, fiksatsiya va yuvish seksiyalarining karkaslaridan o'zida mavjud valiklari, kirish qismidagi valiklarning maxsus qisqichlari hamda kunduzgi yorug'likni boshqaruvchi moslamalari bilan farq qiladi.

Fiksatsiya seksiyasi (7) ning tuzilishi va undagi valiklarning joylashishi tasvirni hosil qilish ochiltirish seksiyasining tuzilishi va undagi valiklarning joylashishi bilan aynan bir xildir.

Yuvish seksiyasi (8) dagi valiklarning joylashishi fiksatsiya seksiyasidagi valiklarning joylashishi bilan bir xildir. Biroq yuvish seksiyasida suvni sirkulatsiya qilish hamda isitish sistemasi yo'q.

Har bir seksiyada kislotalarga qarshi maxsus qopqoq (10) mavjud bo'lib, ular seksiya rezervuarlaridagi reaktivlarning reaksiyaga kirishuvi natijasida ularning chirishi yoki ustki panelda (12) turli

kondensatlarning hosil bo'lishidan himoya qiladi. Shuningdek, protsessorda maxsus kondensat qopqog'i ham o'rnatilgan bo'lib, u yuqoridagi panel (11) ostiga o'rnatilgan hamda, aksincha ochiltirish seksiyasidagi kondensatning fiksatsiya seksiyasiga tushishiga qarshi himoya vositasi rolini o'ynaydi. Ayni paytda ushbu qopqoqdan karkaslarni tozalash chog'ida taglik sifatida ham foydalanish mumkin, chunki ularning ustida reaktivlar to'kilib ketmaydi. Protssessor shunday yasalganki, uni «devor orqali» holatida ham o'rnatish mumkin. Bu holatda kunduzgi yorug'likni kuchaytiruvchi moslama hamda qayta yuvish moslamasi protsessorni qorong'i bo'lmagan xonada ham ishlatish imkoniyatini beradi.

Protssessor ikkita ichki yoqib-o'chirish qurilmasi (13) va (16) ga ham ega. Agar yuqoridagi panel (12) yoki quritish seksiyasining qopqog'i ishlov berish uchun yechib olingan va hali o'chirilmagan bo'lsa, unda muayyan yoqib-o'chirish qurilmasi protsessorni o'chiradi. Ventilator (14) esa suyuqlikka to'la seksiyalardan bug'larni haydab chiqaradi.


Har bir rezervuar to'lib ketganda suyuqlikni to'kishga mo'ljallangan tizim (15) bilan ta'minlangan. Ochiltirish seksiyasida va fiksatsiya seksiyasida suyuqlik to'lib ketganda foydalaniladigan trubkalar yuqoridagi panelning chap tomonida joylashgan. Yuvish seksiyasidagi suvni to'kishga mo'ljallangan trubka yuqoridagi panelning ustki qismiga chiqqan bo'lib, protsessorning o'ng tomonida joylashgan. Rezervuardagi suvni to'kib tashlash uchun trubkani soat strelkasiga qarama-qarshi tomon 90° ga burish lozim, ana shunday qilinganda yuvish seksiyasining suvni to'kish tizimi qanday holatda (ochiqmi yoki yopiqmi) ekanligi juda yaxshi ko'zga tashlanadi.

Kunduzgi yorug'lik va yuvish indikatorlari (18) protsessorning qanday holatda ekanligini oddiy ko'z bilan kuzatish imkoniyatini beradi. Agar kunduzgi yorug'likni kuchaytiruvchi va qayta yuvish moslamalari ochiq bo'lsa, indikatorlar yonib turadi. Plyonka protsessordan chiqqach maxsus savat (19) ga kelib tushadi. Protssessor yopiq taglik (21) bilan birga qo'yiladi. Yopiq taglik ichida kimyoviy moddalarni haydash va ishlatilgan moddalarni solish uchun ishlatiladigan idishlar va aravacha uchun maxsus joy bor.

4.3. Elektron jihozlar

Protssessor qopqoq ostida joylashgan elektropanelda joylashgan mosiy plata vositasida boshqariladi (4.4-rasm). Shuningdek, elek-

tron panelda barcha nazoratchilar, termostatlar va pompalar uchun potensiometrlar o'rnatilgan. Bir necha relelarga ega bo'lgan ikkita sovitish radiatori I ham ayni shu yerda joylashgan, ular yuqori voltli chiqishni nazorat qiladi. Shakli unchalik katta bo'lmagan ikkinchi rele esa ON tugmachasi bosilgan holatda boshqaruv zanjiriga past kuchlanish yetkazib beradi. Barcha himoya qilish qurilmalari panelda joylashgan. Elektron panel boshqaruv pulti bilan bog'langan.



4.4-rasm. Multiline protsessorining elektron paneli.

Unda display 2 o'rnatilgan, shuningdek, boshqarish uchun xizmat qiladigan tugmachalarning ikkita bloki 3 ham bor.

Asosiy platada quyidagi sxemalar mavjud:

- bitta elektron plataning manbalari sxemasi;
- past voltli uchta detektor sxemasi;
- bitta ochiltirish seksiyasi uchun termostat sxemasi;
- bitta fiksatsiya seksiyasi uchun termostat sxemasi;
- bitta asosiy dvigatel tezligini nazorat qilish sxemasi;
- bitta asosiy dvigatel manbalarini nazorat qilish sxemasi;
- ikkita haydash sxemasi: biri — ochiltirish uchun, ikkinchisi — fiksatsiya seksiyasi uchun;
- ikkita oksidlanish natijasida yo'qotilgan aktivlikni tiklash uchun haydash sxemasi;

- ikkita kirish nazorati sxemasi;
- bitta protsessorni ishga tushirish va to'xtatish sxemasi.

Protsessor qo'shilgan, reaktivlar o'lchovlari belgilangan me'yorga yetgan, plyonka unchalik band bo'lmagan holatda — protsessor kutish rejimida bo'ladi. Mazkur rejim hech qanday dastur ishga tushirilmaganda ham kundalik ishga tushirishda qo'llaniladi.

Kutish rejimida protsessor quyidagi tartibda ishlaydi:

- harakatlantirish mexanizmi valiklarda hamda yo'naltiruvchi moslamalarda reaktivlar qotib qolmasligi uchun juda ham past tezlikda (taxminan bir daqiqada 33 sm) ishlaydi;
- yuvish seksiyasiga suv beradigan solenoid klapan yopiq holatda bo'ladi;
- quritish seksiyasining isitgichi belgilangan haroratni ushlab turadi.

Agar ishlov berish avtomatik rejimda amalga oshirilgan bo'lsa, protsessor plyonka quritish seksiyasidan chiqqach, har 15–30 daqiqada avtomatik ravishda kutish rejimiga o'tib oladi.

Protsessor ikkita rejimda: avtomatik va uzluksiz rejimda ishlashi mumkin.

Avtomatik rejim:

- harakatlantirish mexanizmi mazkur dastur tomonidan tanlangan tezlik bilan ishlay boshlaydi;
- quritish seksiyasining solenoid klapani suv berish uchun ochiladi;
- plyonka quritish seksiyasini tark etganda, protsessor yana har 15–30 daqiqada kutish rejimiga qaytadi (bu plyonkaning turiga bog'liq). Izchil ish rejimida ham protsessor xuddi avtomatik rejimdagidek ishlaydi, faqat bunda kutish rejimiga o'tmaydi xolos.

Protsessorning xotirasi to'rtta dasturga mo'ljallangan bo'lib, ular yordamida turli ish sharoitlaridan kelib chiqib, ochiltirishning 4 ta rejimini belgilash mumkin (ochiltirish vaqti, ochiltirgichning harorati, fiksaj va quritish seksiyasining harorati).

Rejimlar jarayon tezligini hamda uzatish tezligini o'zgartirishi mumkin. Kunduzgi yorug'likni kuchaytirish moslamasi ochiq bo'lganda protsessor avtomatik ravishda 4 dasturiga o'tib qoladi. Demak, 4 dastur kunduzgi yorug'lik bilan ishlash uchun moslashtirilgan ekan, 4.1-jadvalda mohiyatini dastur asosida anglab olish mumkin bo'lgan ayrim parametrlar ifodalangan.


4.1-jadval

Parametr №	Parametr nomi	Parametr miqdori	Odim
10	Ishlov berish harorati	20-50 ⁰ S	1 ⁰ S
11	Fiksaj harorati	20-50 ⁰ S	1 ⁰ S
12	Quritish harorati	20-70 ⁰ S	5 ⁰ S
14	Ishlov berish vaqti, dastur 1	15-60 s	1 s
15	Ochiltirgichni haydash darajasi, dastur 1	0-700ml/m ²	10ml
16	Fiksajni haydash darajasi, dastur 1	0-700ml/m ²	10ml
24	Ochiltirish vaqti, dastur 2	15-60 s	1 s
25	Ochiltirgichni haydash darajasi, dastur 2	0-700ml/m ²	10ml
26	Fiksajni haydash darajasi, dastur 2	0-700ml/m ²	10ml
34	Ochiltirish vaqti, dastur 3	15-60 s	1 s
35	Ochiltirgichni haydash darajasi, dastur 3	0-700ml/m ²	10ml
36	Fiksajni haydash darajasi, dastur 3	0-700ml/m ²	10ml
44	Ochiltirish vaqti, dastur 4	15-60 s	1 s
45	Ochiltirgichni haydash darajasi, dastur 4	0-700ml/m ²	10ml
46	Fiksajni haydash darajasi, dastur 4	0-700ml/m ²	10ml
52	Oksidlashni hisobga olganda ochiltirgichni haydash vaqti	0-600ml/ch	20 ml
53	Oksidlashni hisobga olganda fiksajni haydash vaqti	0-600ml/ch	20ml
55	Suv	50 yoki 100%	50%

Protessorni boshqarish boshqaruv pulti orqali amalga oshiriladi (4.5-rasm). Mazkur pult yetkazib beruvchi stolning o'ng tomonida joylashgan bo'lib, elektron paneldagi elektron moslamalar bilan bog'langan. Ishlarni amalga oshirish chog'ida boshqaruv pul-tining quyidagi tugmachalari va indikatorlaridan foydalaniladi:

- «ON» – tugmachasi (1);
- «OFF» – tugmachasi (2);
- suyuqlik haydovchi pompalarni qo'lda boshqarish tugmachalari (3,4);
- haydashning past darajasi indikator (5);
- kutish indikator (6);
- dasturni tanlash tugmachasi (7);

- dasturlar indikatori (8).



4.5-rasm. Protssessorning boshqaruv pulti.

Protssessorning ishida qo'llaniladigan aksariyat reaktivlar kuchli erituvchilar hisoblanadi. Ularni zinhor shahar oqava suvlari tarmog'iga quyish mumkin emas.

Ularni to'kib tashlash uchun maxsus idishlardan foydalanish zarur. Shunday qilinsa, protssessorning ishi jarayonida atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi.

4.4. Plyonkalar va poliyestrli plastinalar uchun yangi protssessorlar

Multiline Pro (off-line) va Multilink (on-line) protssessorlari-ning yangi avlodi Glunz @ Jensen firmasi tomonidan 5-avlodga mansub plyonkalar va tez ochiltiriladigan poliyestrli plastinalar uchun zarur ehtiyojlarni qondirishga ishlab chiqilgan edi.

Ochiltirish tezligini standart protssessorlardagiga nisbatan ikki baravar tezlashtirish zaruriyatidan kelib chiqqanda, qo'shiladigan komponentlarning haroratini va hajmini aniq nazorat qilish talab darajasidagi sifatga erishish uchun muhim omil bo'ldi. Shuningdek, quritish seksiyasi ishini ham ancha samaraliroq qilish taqozo etildi.

Ishlab chiqish jarayonida dizaynga ham katta e'tibor bilan qaraldi, zero, mashina ishlatishda qulay va chiroyli bo'lishi kerak. Va nihoyat, uning umumiy jihatlarida iqtisod qilish xususiyati yaqqol ko'zga tashlanishi lozim edi, ya'ni u, ayniqsa, suv va kimyoviy reaktivlarni iqtisod qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim edi.

Izchil olib borilgan bir necha yillik tadqiqotlarning natijasi o'laroq har qanday turdagi material bilan ham ishlay oladigan yangi protsessorlar yaratildi.

RRO oilasiga mansub protsessorlar eni 55, 72, 86 sm bo'lgan materiallar bilan, RRO-S oilasiga mansub protsessorlar esa eni to 125 sm gacha bo'lgan materiallar bilan ishlay oladi. Elektron nazoratning tartibli tizimi ishlab chiqilishi natijasida, protsessorning kirish sensorlari o'ta tez ochiltirish jarayonida ham operatsiyalarning yuqori darajali sifati uchun kafolat bera oladigan bo'ldi.

Quritish tizimi ham tubdan qayta ishlab chiqilganligi sababli plyonkalar va poliestrli bosma qoliplarda hech qanday dog' va quritish izlari qolmaydigan bo'ldi.

Shuningdek, yangi protsessoridagi seksiyalar qulay, olib qo'yishda ixcham modullar ko'rinishida ishlanganligi uchun ularga xizmat ko'rsatish, ishlov berish juda osonlashgan. Ergonomik va ixcham dizayni tufayli Multiline-Proprotsessorlarini har qanday binoga ham o'rnatish mumkin.

Yangi oilaga mansub protsessorlarning yana bir muhim xususiyati — ularda mustaqil ish olib boradigan yettita sensor mavjudligidir, vaholanki boshqa protsessorlarda atigi 2–3 tagina sensor bor edi. Sensorlarning ko'pligi endi plyonkaning enini juda aniq hisoblash imkoniyatini yaratib, ochiltirish jarayonini yanada aniqroq boshqarish mumkin bo'lib qoldi.

Elektron vositalar yordamida tiqilib, ochiladigan pompalar kimyoviy reaktivlarni haydash chog'ida plyonkalar va poliestrli plastinalarni ochiltirish uchun zarur miqdorni aniq belgilab ularni tejash imkoniyatini beradi.

Chuqur vannali protsessorlardan farqli o'laroq Multiline-Proprotsessorlari oilasi ochiltirish uchun keng vannalarga egadir, ular avvalgi protsessorlar vannalariga qaraganda birozgina chuqur bo'lib, ishlab chiqarish borasida protsessorning samarasini anchagina oshirgan.

Valiklar blokining joylashishi nafaqat ularni tozalashda qulay, balki ayni paytda ular materialning ish jarayonida qayrilib qolishining ham oldini oladigan qilib o'rnatilgandir, bu esa, ayniqsa

0,1 mm gacha qalinlikda bo'lgan materiallar bilan ishlashda qulaydir.

Multiline-Pro-S yangi modelidagi ikkinchi yuvish seksiyasidan birinchi yuvish seksiyasiga toza suvning sirkulatsiya moslamasi orqali purkalishi nafaqat plyonka va plastinalarning toza yuvilishini ta'minlaydi, balki, ayni paytda suvni tejash imkoniyatini beradi.

Multiline Proprotsektorlari hali zavoddaligidayoq to'la-to'kis avtomatik tarzda ishlash uchun Heidelberg Prepress firmasining har qanday fotonabor avtomati bilan moslashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, Multiline Pro sistemasida poliestr plastma bilan ishlaydigan aksariyat fotonabor avtomatlar mos keladi.

Multiline Pro sistemasida qo'l mehnati talab qilinmaydi, shuning uchun mahsulotlarida, chang, barmoq izlari bo'lishi mumkin emas; ishlab chiqarish jarayoni chiroqlar yorug'ida ham olib borilaveradi.

4.5. Ishlov berish protsektorlarining texnik ko'rsatkichlari

4.2-jadval

Ko'rsatkichlar	MS-17-S/D/HS	MS-25-S/D/HS	MS-33-S/D/HS	MS-39-S/D/HS
Fotonabor avtomatga mosligi	Dolev 250 Panther Pro/36 HS	Panther Pro/46 HS, Pro/62 HS	Dolev 450, 4 press	Dolev 800
Plyonkaning max. kengligi, mm	420	630	830	990
Plyonkaning max. o'lchami	100x100	100x100	100x100	100x150
Eritma uchun idishning hajmi, l	8/12/12	12/17/17	16/22/22	18/27/27
Aylanish hajmi, l/min	12/12/12	12/20/20	20	20
20 sekundli sikldagi tezlik sm/min	93/120/153			
Quruq pylonkaning chiqish vaqti, son	82/78/75			

Multiline Proprotsektorlari nafaqat yuqori samaraga ega, balki, ayni paytda qo'l mehnatiga daxldor bo'lgan materiallarni yuklash-

ni ham o'zi bajaradi. Qo'shimcha qulayliklar uchun protsessorlarning qismi ustki yuklash moslamasiga ega bo'ladi, bu moslamalar ikkinchi fotonabor avtomatidagi materiallarni ochiltiradi.

Multiline Proptsessorlarining variantida ishlatish uchun qulay uzatuvchi stollarga egadir, ular qorong'i xonada ishlashda yordam bersa, daylight-cassette box moslamasi yorug' xonalarda ochiltirish imkoniyatini beradi. Butun ish jarayoni o'qilishi nihoyatda qulay bo'lgan nazorat paneli orqali boshqariladi.

Nazorat savollari

1. Fotoqoliplarga ishlov berish uchun ishlatiladigan uskunalarni strukturasi?
2. Ishlov berish protsessorlarning asosiy ko'rsatkichlari?
3. Ishchi eritmalarni qaysi maqsadda sirkulatsiyalaydi?
4. Ishlov berish protsessorida fotomaterial qanday uzatiladi?
5. Protsessorning asosiy seksiyalari?
6. Protsessorning asosiy qismlari?
7. Elektron jihozlar?
8. Poliestrli plastinalar uchun protsessorlar.

V bob

NUSXA KO'CHIRUVCHI RAMALAR

5.1. Umumiy ma'lumotlar

Garchi so'nggi besh yil mobaynida Computer-to-Plate va Computer-to-Print texnologiyalari keng ommalashayotgan bo'lsa-da, hali yana uzoq yillar davomida aksariyat bosmaxonalarda kontaktli nusxa ko'chiruvchi ramalardan foydalanishlari shubhasiz. Ushbu turdagi uskunalar nafaqat rangli bosma qoliplarini tayyorlashda, balki trafaret usulida chop etish chog'ida matritsalar ishlab chiqish, rastrli diapozitivlarni tayyorlash chog'ida ana shunday bosma mahsulot namunalari olish uchun ham qo'llaniladi. Nusxa ko'chiruvchi ramalar uchun asosiy talablar bosma qoliplarni asl nusxaga yaxshilab qisish va nusxa ko'chirilayotgan tekislikka imkon qadar bir tekis yorug'lik tushishini ta'minlashdan iboratdir.

Nusxa ko'chirilayotgan materiallarning turiga ko'ra ramalarni quyidagi toifaga ajratish mumkin — faqat bosma qoliplarni tayyorlashga mo'ljallangan uskunalar, yorug'likni o'ta sezuvchan materiallarga eksponirlash, universal nusxa ko'chiruvchi uskunalar.

Universal nusxa ko'chiruvchi ramalar, odatda, bir necha yorug'lik munbarga ega bo'ladilar, ayrim ramalarda esa yana qo'shimcha tarzda almashtiruvchi filtrlar tizimi ham mavjud bo'ladi. Hozirgi kunda deyarli barcha nusxa ko'chiruvchi ramalar qaytuvchan aloqa tizimi bilan ta'minlangan. Zero, bunday tizim ramalar uchun nusxa olish jarayonida yorug'lik nuri me'yorlarini kuzatib borish va nusxa ko'chirish vaqtini to'g'rilab borish imkoniyatini yaratadi. Mazkur tizimdan qo'llanish, shuningdek, bir xil emulsion qatlam bilan ishlov berilgan materiallarga nusxa ko'chirishda ham nihoyatda qo'l keladi. Ayniqsa, bu aniq rang balansini talab qiladigan ishlarni amalga oshirish chog'ida muhim ahamiyatga ega.

Nusxa ko'chiruvchi ramalar turi quyidagi modullardan, ya'ni qismlardan iborat:

1. Yorug'lik manbai. U nusxa ko'chirilayotgan tekislikning tepasida ham yoki yonlama hamda ikki tomonlama stoldan foydalanish chog'ida pastda ham bo'lishi mumkin.

2. Vakuum tizimi. Ushbu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi: vakuum nasosi, shlanglar sistemasi, vakuummetr, zaryadlanishni boshqaruvchi moslama. Ayrim ishlab chiqaruvchilar nusxa ko'chiruvchi ramaning qisishini yaxshilash uchun qo'shimcha tarzda g'ildirakli tirsakli vallar, oldindan mahkamlab qo'yilgan metall yostiqchalarni o'rnatib havoni yanada ko'proq siqib chiqarishga erishadilar.

3. Nusxa ko'chiradigan material joylashtiriladigan ramaning o'zi.

4. Yorug'lik miqdorini o'lchash uchun maxsus datchigi bo'lgan yorug'lik oqimi integratori.

5. Dasturlash moslamasiga ega bo'lgan boshqaruv paneli.

Matbaa ishlab chiqarishda qo'llaniladigan yorug'lik manbalaridan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ksenonli lampalar;
- yuqori bosimli simobli lampalar;
- metallogalogenli lampalar.


Ushbu lampalarning har biri nur taratishiga ko'ra o'ziga xos spektrga va intensivlikka ega va shu boisdan ularning qo'llanish sohalari ham xilma-xil. Masalan, ksenonli lampalar quyosh nuri-ning spektriga yaqin nur spektriga ega bo'lganligi uchun ular nusxa ko'chiruvchi fotopolimerlarda qo'llaniladi. Simobli lampalar argon hamda biroz simob bilan to'yintirilganligi uchun, odatda, ulardan nusxalash mashinalarida ultrabinafsha quritgichlar uchun foydalaniladi. Galogen lampalar esa ultrabinafsha nurlariga sezgir materiallarga nusxa ko'chirishda qo'llaniladi (polimerlar asosidagi bosma qoliplar, kunduzgi yorug'likka muvofiq plyonkalar, rangli namuna olish uchun materiallari). Mazkur lampalar simob, galogen va argon aralashmasi bilan to'ldirilgan. Har qanday alohida material uchun alohida galogen tanlanadi, chunki har bir material o'ziga xos yorug'lik spektrini talab qiladi.

Bunday lampalarni ishlatishning o'ziga xos jihati shundaki, ularni yoqish va biroz qizdirib olish uchun muayyan vaqt kerak bo'ladi. Ularni qayta yoqib ishlatish uchun lampalarni oxirigacha sovutish talab etiladi. Shuning uchun nusxa ko'chirish jarayonlari oralig'ida lampalar o'chirilmaydi, faqat ularning yorug'lik darajasi eng kam miqdorgacha pasaytirib qo'yiladi, ya'ni ular «kutish»

rejtiriga o'tkaziladi. Lyuminissentli lampalar asosan fotoapparatlarda, tasvirlarni ko'rish qurilmalarida hamda montaj stollarida qo'llaniladi.

5.2. «Bacher» nusxa ko'chiruvchi rama

Biz muayyan nusxa ko'chiruvchi ramaning tuzilishini «Bacher» nemis firmasining nusxa ko'chiruvchi ramalari misolida ko'rib chiqamiz. «Bacher» firmasi nusxa ko'chiruvchi ramalarning uch turini ishlab chiqaradi. Ularning har biri o'ziga xos texnik yechimlarga ega. 3081 hamda 3086 modellarida yorug'lik manbai silindr shaklida aylanuvchi maxsus zatvor bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. 5.1-rasmda zatvorni ishlatish chizmasi berilgan (nusxa ko'chirish amallarining ketma-ketligi raqamlar bilan belgilangan).




5.1-rasm «Bacher 3081» ramasining aylanuvchi zatvori.

To'rt komponentli lampaning yuqori quvvati, vakuumlashning juda qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi ushbu nusxa ko'chiruvchi ramalarning nihoyatda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

5.2-rasmda nusxa ko'chiruvchi ramaning sxemasi keltirilgan. Rezina gilamcha (1) da yorug'lik sezuvchi qatlami tepaga qilingan qolip plastina (2) ning ustiga emulsion qatlami pastga o'rnatilib


fotoqolip (3) joylashtiriladi, oyna (4) tushiriladi va vakuum sistema 5 yordamida oyna (4), fotoqolip (3), plastina (2) va rezina gilamcha (1) orasidagi havo siqib chiqariladi va zich kontaktga olib kelinadi, keyin esa eksponirlovchi yoritgich (6) orqali bajariladi.



5.2-rasm. Nusxa ko'chiruvchi ramaning sxemasi.

«Bacher» firmasining nusxa ko'chiruvchi ramalarini Perfect Illumination Technology texnologiyasi asosidagi gradatsiyalarni juda yaxshi bera olish qobiliyatiga ko'ra chastotali modullashgan rastrlashda ham foydalanish mumkin.

Hozirgi zamonaviy sun'iy materiallardan foydalanish ko'rinishidan juda oddiy, biroq o'ta samarali texnik yechimlar qo'llanish imkoniyatlarini beradi. Biz ularni vakuumlash tizimi misolida ko'rib chiqamiz (5.3-rasm).



5.3-rasm. Nusxa ko'chiruvchi ramaning vakuumlash sistemasi:
1 — stol, 2 — rezina material; 3 — shtuser; 4 — kvarts shisha.

Ushbu rasmdan ko'rinib turganidek, nusxa ko'chiriladigan material joylashtiriladigan kesilgan gilamcha asosda harakatsiz yotibdi.

Vakuum uchun material perimetr bo'yicha zich qilib yopiladigan elastik silikon rezinadan yasalgan maxsus bortcha-gardish bilan o'rabi olingan. Zichlovchi bu gardish nusxa oluvchi materialni oynaga yanada yaxshiroq yopishni ta'minlash uchun maxsus shaklga ega. Ilgarigi ramalarda qo'llanilgan konstruksiyalardan farqli o'laroq bu ramalarda vakuumlash chog'ida rezina materiali oynaga qarab harakat qilmaydi, aksincha, oyna rezina tomon siljiydi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash kerakki, vakuum uchun material va oyna o'rtasidagi masofa unchalik ham katta emas.

«Bacher» firmasi faqat yorug'lik manbai yuqorida joylashgan nusxa ko'chiruvchi ramalarni ishlab chiqaradi, zero, bunday ramalar nusxa ko'chirayotgan materialning yorug'lik manbaiga nisbatan barqaror holatda bo'lishini yaxshi ta'minlaydi. Bu ramalardagi yorug'lik quvvatini istagancha o'zgartirish mumkinligi tufayli ular-dan har qanday qolip materiallari, kunduzgi yorug'lik plyonkalari, diazomateriallar bilan ishlashda foydalanish mumkin. Ramada turli optik filtrlarni o'rnatish imkoniyatlari ham ko'zda tutilgan. Barcha ramalar yopiq modul konstruksiyasiga ega va bir xilda tarqaluvchi folga bilan ta'minlangan.

«Bacher» firmasining ramalariga mikroprotsessorli boshqaruv pultlari o'rnatilgan. Maxsus klaviaturalar yordamida 16 ta har xil dasturning nusxa ko'chirish o'lchamlarini amalga oshirish mumkin. Ayni paytda nusxa ko'chirish vaqtini, lampaning yorug'lik quvvatini o'zgartirish, vakuumni boshqarish variantlarini o'zgartirish, yayiluvchan shitorasini avtomatik boshqarishni amalga oshirish imkoniyat-lari mavjud.

Boshqaruv pulti quvvatlanish jihatidan mustaqil bo'lgan xoti-maga ham ega bo'lib, u nusxa ko'chiruvchi ramalar o'chib qolgan hollarda, ish dasturining asosiy o'lchamlarini saqlab qolish imko-niyatini beradi.

5.3. Eksponirlovchi qurilmalar


Oxirgi yillarda yuqori va fleksografiya bosish usulida fotopo-limer qoliplardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan bosma mahsulotlarga bo'lgan talab katta hajmda o'sib bormoqda. Flekso-grafiya materiali sifatida metall ustida yoki metallsiz bo'lgan qattiq, suyuq kompozitsiya ishlatilmoqda. Fotopolimerlanuvchi material-larga yorug'lik ta'sirida o'zining kimyoviy va fizikaviy holatini o'zgar-tirishga qodir bo'lgan qattiq va suyuq monomerli, polimerli yoki

monomer-polimerli aralashmalar kiradi. Bu o'zgarishlar erimaydigan qattiq yoki egiluvchan polimerlarning shakllanishiga olib keladi.

Qattiq fotopolimerlanuvchi kompozitsiyalar (QFPK) bosma qolip tayyorlashdan oldin va tayyorlashdan keyin ham o'zining qattiq agregat holatini saqlab qoladi. Ular matbaa korxonalariga ma'lum bir o'lchamda fotopolimerlanuvchi plastina sifatida yetkaziladi.

Matbaa korxonalariga suyuq fotopolimerlanuvchi kompozitsiyalar suyuq holda ma'lum bir hajmda yetkaziladi yoki korxonaning o'zida tashkil etuvchi komponentlarni aralashtirish natijasida tayyorlanadi.

Fotopolimerlanuvchi kompozitsiyada fotopolimerlik reaksiyasi o'tib boradigan va natijada yashirin relefli tasvir hosil bo'ladigan texnologik jarayon (5.4-rasm) fotopolimerlanuvchi qatlamni eksponirlash deb ataladi. Fotopolimerlanuvchi qatlamda UB nurlarining nurlantirishga duch keladigan va faqat shu nur ta'sir etadigan joylarida fotopolimeritsiya hosil bo'ladi. Shuning uchun eksponirlashda negativ fotoqoliplar ishlatiladi.



5.4-rasm. Qattiq fotopolimerlanuvchi kompozitsiyadan fotopolimer bosma qolip tayyorlash texnologik jarayoni:


a — eksponirlash; b — oraliq elementlarni yuvish; s — bosma qolipni quritish; d — bosiluvchi elementlarni qo'shimcha eksponirlash.

Negativ orqali fotopolimer plastinalarni eksponirlashdan oldin uni UV nurlari yordamida navbatdagi qisqa vaqtli nurlantirishdan o'tkaziladi. Bu jarayon fotokondisionerlash deb ataladi. Natijada fotopolimeritsiya reaksiyasini bir me'yorda o'tkazilishiga xalaqit qiladigan fotopolimerlanuvchi qatlam tarkibidagi kislorodning erishi bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi. Buning ta'sirida tasvirlarning gradatsion uzatilishi va bosiluvchi elementlarning birikishi yaxshilanadi, asosiy eksponirlash vaqti kamayadi, bosiluvchi elementlarning profili yaxshilanadi.

Fotokondisionerlash vaqtida fotopolimeritsiya reaksiyasi sodir bo'lmaydi. Natijada fotopolimer plastinani yuvish jarayonida (5.4b-rasm) polimerlanmagan qismlarida relefli tasvir hosil bo'ladi. Yuvish shunga asoslanadiki, bosiluvchi elementlar fotopolimeritsiya jarayonida yuvuvchi eritmada erish xususiyatini yo'qotadi.

Qurtilgandan so'ng (5.4d-rasm) fotopolimer qolipni qayta eksponirlash talab etiladi (5.4e-rasm), bu esa bosiluvchi elementlarning fotopolimeritsiya darajasini oshiradi.

Suyuq fotopolimer kompozitsiyadan bosma qolip tayyorlashda, bu quyidagilik ikkita oyna 1 (5.5-rasm) orasiga qo'yiladi.



5.5-rasm. Suyuq fotopolimer kompozitsiyani eksponirlash.

Dastlab bitta oynaning suyuq kompozitsiyasi tomoniga emulsiya qatlamli negativ (2) joylashtiriladi. Negativ bilan suyuq kompozitsiya (4) ning aralashib ketishining oldini olish maqsadida negativ usti yupqa (6-12 mm) himoyalovchi polietilen plyonka (3) bilan yopiladi.

Eksponirlash vaqtida lyuminessentli yoki gazorazryadli lampa (6) lardan chiqayotgan ultrabinafsha nurlanish oqimi negativning rangsiz joylaridan o'tadi, bosiluvchi element (5) lardagi suyuq kompozitsiyani polimerlaydi va uni qattiq polimerga aylantiradi. Nur ta'sir qilmagan oraliq joylarida kompozitsiya o'zining boshlang'ich suyuq holatida qoladi. Bosma qolipning asosini tashkil etish maqsadida kompozitsiya shu lampalarning teskari tomoni bilan yoritiladi, bu esa mustahkam qattiq asos (7) ning hosil bo'lishiga olib keladi. Eksponirlashdan so'ng oraliq joylarda qolgan suyuq kompozitsiyani qisilgan havo yoki yuvish yordamida tozalab tashlanadi.

Fotopolimer qoliplarni tayyorlashda fotokonditsionerlash, eksponirlash va qo'shimcha eksponirlash kabi texnologik jarayonlar maxsus eksponirlovchi qurilmalarda bajariladi.

Shunday qurilmalar borki, ular fotoqolip orqali QFPK asosidagi fotopolimer plastinalarni eksponirlash uchun mo'ljallangan. Bu qurilmada fotokonditsionerlash va eksponirlashgacha bo'lgan jarayon ham bajarilishi mumkin. Fotopolimerlanuvchi suyuq kompozitsiyani eksponirlashda formiroval-eksponirlovchi qurilmadan foydalaniladi, u qurilma fotopolimerlanuvchi qatlamni eksponirlashdan tashqari negativ orqali qolip tayyorlashni amalga oshiradi. Yana shunday qurilmalar borki, ular ochiltirilgan fotopolimer nusxalarni eksponirlashgacha bo'lgan va bir vaqtning o'zida ularni quritish jarayonlariga mo'ljallangan qurilmada qo'shimcha kalorifer joylashgan bo'lib, u havoni isitadi va ventilator orqali bu havoni fotopolimer qolipni quritish zonasiga uzatadi.

Eksponirlovchi qurilmalar birinchi navbatda yorituvchi polimerlar konstruksiyasi va yorug'lik manbaining aktinik ko'rinishi bilan ajralib turadi. Yorituvchi qurilmalar quyidagi talablarni bajarishi kerak: qolip maydonining hamma joylarini bir tekisda yoritishni ta'minlashi kerak; yorug'likning aktinik oqimini hosil qilishi kerak; fotopolimer qolipning yuzasini ruxsat etilgan haroratdan yuqori qizdirmaslik; fotopolimer qolipning yuzasida fotoqolip monitajini fiksajlashda qulayliklarni ta'minlashi kerak.

Qattiq fotopolimer kompozitsiyadan tayyorlanadigan fotopolimer qoliplarni eksponirlash uchun mo'ljallangan qurilmalar ikkita variantda ishlab chiqariladi: tekis fotopolimerlanuvchi plastinalarni eksponirlash va dastlabki egilgan plastinalarni eksponirlash.

Bu ikkita qurilmada plastik yuzasi bilan fotoqolip orasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi va spektr uzunlik to'liqlaridagi ma'

lum bir diapazonda UB nurlarining nusxalanayotgan yuzani bir teshikda nurlantirishini ta'minlaydi.

Fotoqolip bilan fotopolimerlangan plastinalar orasidagi mustahkam bog'liqlik vakuum sistema bilan ta'minlanadi. Plastina bilan fotoqolip plastinoushlagichga o'rnatiladi, usti havosi so'rib tashlangan polietilen plyonka bilan qoplanadi. Fotoqolip va fotopolimerlanuvchi plastinani plastinoushlagich yordamida siqib ustdagi plyonka orqali atrof-muhit bosimi ta'sir qiladi. Plastinoushlagichga o'rnatilgan plyonka tagidan havo yaxshi o'tishi uchun vakuum sistema uchun maxsus yo'lakchalar joylashtirilgan.

5.3.1. Metallogalogen yorug'lik manbali eksponirlovchi qurilmalar

Metallogalogen yorug'lik manbali eksponirlovchi qurilmalar yuqori ishlab chiqarishni ta'minlaydigan qurilmalar hisoblanadi, ular suyuq fotopolimer kompozitsiyadan va qattiq fotopolimer kompozitsiyadan fotopolimer qolip tayyorlovchi yirik matbaa korxonalarda ham keng qo'llaniladi.


Metallogalogenli yorug'lik manbali eksponirlovchi qurilmalarining asosiy sxemasi 5.6-rasmida ko'rsatilgan.

Bu qurilma stol ustiga gorizontal tarzda joylashtirilgan fotopolimer plastinalarni ultrabinafsha nurlanish yordamida eksponirlovchi apparatining o'zida mujassamlashtirgan.

Stanina (1) qurilmaning asosi hisoblanadi va unga asosiy yig'ma birliklar va qurilmalar birlashtirilgan. Stol (2) fotopolimer plastinalarni va fotoqoliplarni yotqizish va mahkamlash uchun mo'ljallangan. Plastina va fotoqolip vakuum sistema yordamida mahkamlanadi. Buning uchun ishchi stolining yuzasida vakuumli sistema bilan birlashtirilgan maxsus teshiklar joylashtirilgan.

Fotoqolip va plastini yotqizilayotganda stol (2) oldinga joylashtiriladi. Stolning harakatlanishida uning roliklari planka yo'nalishining boshiga o'rnatiladi, so'ngra yuzaning oxiriga yetganda o'zining ortida staninada joylashtirilgan va roliklarning orasidan harakatlanadigan plankani tortadi.

Fotoqolip va plastinaning yuzasi valik (12) ga o'rnatilgan plyonka (3) bilan berkitiladi, bu valik stolning orqa tomonida joylashgan. Plyonkani oldingi qismi stolning yon tomonida joylashgan valiklarga o'rnatiladi. Bu plyonka stolning butun yuzasini egallaydi.



5.6-rasm. Metallogalogenli yorug'lik manbali eksponirlovchi qurilmalarning sxemasi.

Qurilmaning yuqori qismida fotopolimer plastina bilan fotoqolipga nurlantirish berish uchun mo'ljallangan nurlantiruvchi moslama (5) o'rnatilgan. Nurlantiruvchi moslama zich qilib tikilgan alyumin varaqlaridan iborat bo'lgan chilangarlik konstruksiyasining burchak karkasini o'zida namoyon etadi. Zatvor (6) nurlantiruvchi moslamani ikkita qismga ajratadi va ular sharnirli parallelogrammga mahkamlangan ikkita pardadan iborat. Zatvorning mexanizmi maxsus ulangan elektroyurituvchi yordamida harakatga keltiriladi.

Nurlantiruvchi moslamaning ustki qismida lampa (7) joylashgan va bu lampaning ostiga akslantiruvchi oyna (8) o'rnatilgan. Yoritgichda elektromagnitga ulangan ventilator (9) bor. Bu ventilator lampani sovutish uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, stolning tagida akslantiruvchi ekranlar mahkamlangan bo'lib, ular stol yuzasining bir tekisda yoritilishini va bir vaqtning o'zida qurilmaning yon devorlaridagi issiqlikni kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Qurilmaning pastki qismidagi stol ostida elektrojihozlar va vakuum sistema (14) joylashgan. Shu joyning o'zida fotopolimer plastina va fotoqolip ustidagi plyonkani sovutishga mo'ljallangan ventilator ham o'rnatilgan. Fotopolimer qolip yuzasining harorati 40°C dan oshmasligi kerak. Stol yuzasini qo'shimcha sovutish maqsadida tagidagi maxsus ventilatordan foydalaniladi.

Stol yuzasiga fotopolimer qolip va plyonkani mustahkam jipslashtirish vakuum yordamida amalga oshiriladi. Vakuum sistema (14) vakuumli nasos Ndan, ikkita resiver RS1 va RS2 dan, uchta elektromagnit havo tarqatuvchi R1, R2 va R3 lardan, ikkita bosim relesi RD1 va RD2 dan, vakuummetr V va pnevmatik stol (2) dan iborat.

Vakuum sistemaning ishlash prinsipi quyidagicha: ishni boshlashdan oldin vakuum nasosi N yoqiladi va resiver RS2 da $0,06\text{ MPa}$ dan past bo'lmagan vakuum hosil qilinadi, bu vakuum qurilmaning butun ishlash jarayoni bosim relesi RD2 yordamida qo'llanib turiladi.


Stolga fotopolimer plastina, fotoqolip va plyonka o'rami yotqizilgandan keyin vakuumning birinchi darajasi yoqiladi. Shu bilan birga elektromagnitli havo tarqatuvchi R1 va R2 ham yoqiladi, natijada stol 2 yuzasi resiver RS1 bilan birlashadi va bir vaqtning o'zida atrof-muhitdan uziladi. Havo tarqatuvchi R2 RS1 va RS2 resiverlarni birlashtiradi.

Birinchi darajada polietilen plyonka tekislanadi va uning ostida hosil bo'lgan havo pufaklari qo'lda tozalanadi. Plyonka tekislangandan keyin vakuumning ikkinchi darajasi yoqiladi. Shu bilan birga havo tarqatuvchi R3 ham yoqiladi va stol yuzasi bilan resiver RS2 birlashadi. Rele RD 1 elektromagnit havo tarqatuvchi R2 ni boshqaradi va u $0,02\text{--}0,03\text{ MPa}$ vakuumga o'rnatiladi. Stol 2 da zaryadlanish $0,03\text{ MPa}$ ga teng bo'lganda havo tarqatuvchi R1 o'chadi, zaryadlanish $0,02\text{ MPa}$ bo'lganda yoqiladi.

Nusxa ko'chirish tugaganda «Sbros» yoqiladi va stol yuzasi atrof-muhit bilan birlashadi, qolgan hamma uskunalar boshlang'ich holatiga qaytadi. Eksponirlashda vaqt miqdori ikkita: asosiy va qo'shimcha vaqt relesi yordamida bajariladi. Eksponirlash pasaytirilgan quvvatda (navbatchi rejim) va nominal quvvatda (ishchi re-

jim) o'tkazilishi mumkin. Ekspozitsiya rejimi maxsus yoqib-o'chi-
ruvchi yordamida tanlanadi.

Fotopolimer qolipni tayyorlash uchun formiroval eksponirlash
qurilmasidan foydalaniladi. Fotopolimer qolipni tayyorlashda suyuq
fotopolimer kompozitsiya ishlatiladi, uning tarkibida metallogalo-
gen yorug'lik manbaining qurilmasi ham shunga misol bo'la oladi.
Uning sxemasi 5.7-rasmda keltirilgan.



5.7-rasm. Formiroval eksponirlash qurilmasi.

Bu qurilmaning yuqori qismida UB yoritgich manbai joy-
lashgan. Shartli reflektor (2) quvvati 8 kVt bo'lgan metallogalogenli
lampa (1) fotoqolipga parallel yorug'lik nurni uzatadi. Yo'naltiruv-
chi (4) qisqich (3) harakati hisobiga lampa va fotoqolip orasidagi
masofani (2m oralig'ida) o'zgartirishi mumkin. Yung (5) yordami-
da lampa va eksponirlash qolipi orasida bo'shliq hosil bo'linasligini
va tashqi yorug'likning ta'sirini yo'q qiladi.

Qurilmaning pastki qismida stol (10) joylashgan, bunda opera-
tor vakuum sistema yordamida metall yoki polimer asosni va ramka
(11) ni mustahkamlaydi. Keyin esa asosga kompozitsiya surtiladi.
Eksponirlash jarayonida kompozitsiya haroratni bir meyorda saq-
lash uchun stol qizdiruvchi elementlar (14) bilan ta'minlangan.
Moslashtiruvchi tayanch (13) yordamida stolni gorizontol holatga
keltirish mumkin.

Fotopolimerlanuvchi kompozitsiya asosga maxsus tarqatuvchi (6), yig'uvchi bak (8), nasos (9) yordamida uzatiladi. Kompozitsiyaning aniq miqdorini uzatish maxsus sistema bilan ta'minlangan hamda u elektromagnit klapan bilan boshqarilib turiladi. Yig'uvchi bak aralashtiruvchi va degazirovkalovchi qurilma bilan jihozlangan.

Fotopolimerlanuvchi kompozitsiya qatlamini tekislash va ortiqcha qatlamni olib tashlash rakel (7) bilan bajariladi va u zanjirli uzatuvchi (16), privod (12) yordamida harakatlanadi. Kompozitsiyaning qoldiqlari chuqurlik (15) ga quyiladi, keyin trubadan yig'uvchi bakga yig'iladi.

Qurilmada eksponirlash ikkita etapda bajariladi: dastlabki eksponirlash — fotoqolipsiz — 1-2 s davomida, u qatlamda polimerizatsiya boshlanishini ta'minlaydi, keyin fotoqolip orqali asosiy eksponirlash, u 25 s davom etadi.

Asosiy eksponirlashdan oldin operator ramka (11) ustiga yana qo'shimcha ramani o'rnatadi, bu ramani birlashtiruvchi chegaralari ustki qismidagi ramka (11)ning chegaralari bilan ustma-ust tushadi, so'ngra fotoqolip bilan biriktirilgan asl nusxa ushlagich joylashadi. Asosga surtilgan kompozitsiya qatlami va fotoqolip orasidagi bo'shliq hosil qilinadi, u taxminan 0,2 mm ga teng bo'ladi.

Eksponirlovchi va formiroval eksponirlovchi qurilmalar mavjud bo'lib, ular metallogalogenli yorug'lik manbadan iborat. U qurilmaning pastki qismida joylashgan, xuddi ofset qoliplarni tayyorlash uchun ishlatiladigan nusxa ko'chiruvchi va kontakt-nusxa ko'chiruvchi ramalar kabi. Eksponirlash uchun mo'ljallangan bunday qurilma nusxa ko'chiruvchi ramadan iborat, nusxa ko'chiruvchi ramaning pastki qismiga reflektorli metallogalogen lampani yoqish uchun ishlatiladigan nurlantiruvchi moslama joylashtirilgan. Nurlantiruvchi moslama tagida ikkita rama joylashgan bo'lib, ulardan biri pastki tomondan oynali, ikkinchisi esa ustki tomondan rezinali gilamchali. Ramalar zanjirli privoddan iborat va individual vakuum sistema bilan ta'minlangan. Qurilmaning yuqori qismida pult boshqaruvi o'rnatilgan. Qurilmaning old qismida joylashgan stol ramalarni fotoqolip va fotopolimerlanuvchi plastina bilan zaryadlanishiga xizmat qiladi. Qurilma tinch turgan holatida ramalardan biri eksponirlash zonasida bo'ladi, ikkinchisi esa old qismidagi stolda joylashadi va uni ishga tushurishga tayyorlashadi. Operator old qismidagi stolda joylashgan ramaning qopqog'ini ochadi, oyna ustiga fotoqolip va fotopolimerlanuvchi plastinani joylashtiradi, keyin vakuumni yoqadi. Talab etilayotgan darajaga yetganda rama butunlay


ishga tushurilishga tayyor bo'ladi. Ekspونirlashni yakunlashda ekspонirlash zonasida bo'lgan rama old qismidagi stolga joylashadi, uning o'rmini boshqa rama egallaydi. Qurilmaning bunday rejimda ishlashini avtomatika va blokirovka sistemasi ta'minlaydi.

Pastki qismda joylashgan nurlantiruvchi moslamaga ko'ra ekspонirlovchi qurilma juda qulay, lekin shu bilan birga konstruksiyasi va xizmat ko'rsatishiga qarab murakkabdir. Ularning umumiy kamchiligi — UB nurlarini o'tkazish uchun maxsus oynalarning bo'lishidir. Oddiy oynalardan foydalangan holda ekspонirlash jarayonining davomiyligi bir necha marta oshib ketadi.

5.3.2. Lyuminessentli yorug'lik manbali ekspонirlovchi qurilmalar

Lyuminessentli nurlantiruvchi ekspонirlash qurilmalarining ishlab chiqarish darajasi past va katta o'lchamdagi joyni egallaydi. Bu qurilmalar matbaa korxonalarida kichik va o'rta hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Qurilma asosan tekis fotopolimerlanuvchi plastinani ochiladigan qopqoqda joylashgan lyuminessentli lampa yordamida ekspонirlash uchun chiqariladi.




5.8-rasm. Ochiladigan qopqoqda joylashgan lyuminessentli nurlantiruvchi ekspонirlash qurilmasi.

Bunday qurilma (5.8-rasm) vakuumli stol (1) dan iborat bo'lib, uning yuzasida vakuum uchun yo'lakchalar (2) mavjuddir. Operator fotopolimerlanuvchi plastinani fotoqolip bilan stolga qo'yadi va ustini polietilen plyonka yordamida berkitadi. Ochiladigan qopqoq (3) da lyuminessentli UB-lampa (4) ning paneli joylashtirilgan. Qopqoqning ochilishi va yopilishini yengillashtirish maqsadida qurilma maxsus asbob (5) bilan ta'minlangan. Pult boshqaruvi (6) da ekspozitsion jarayonini davom ettirish uchun vaqt relezi va vakuum nasosni yoqib-o'chirishga mo'ljallangan tugmacha joylashgan.


Qurilma konstruksiyasi va xizmat ko'rsatish darajasiga ko'ra oddiy, lekin fotopolimerlanuvchi plastinalarni ekspozitsion darajasining davomiyligiga ko'ra yuqori.

Yana shunday ekspozitsion qurilmalar (5.9-rasm) borki, unda lyuminessentli lampa (4) lar himoyalovchi oyna (2) tagidagi korpus (1) da joylashgan. Shuningdek, ochiladigan qopqoq (3) vakuum hosil qilishda bir tekisdagi siqilishni ta'minlashga mo'ljallangan antistatik rezinali gilamchadan iborat. Yuqoridagi korpusda boshqaruv pulti (5) joylashgan. Zamonaviy ekspozitsion qurilmalar vakuum chuqurligini moslashtirishga qaratilgan bir nechta mustaqil dasturlarni: nurlantirishni tezlashtirish va ekspozitsion vaqtini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.



5.9-rasm. Lyuminessentli lampalar korpusga joylashgan ekspozitsion qurilma.

Ba'zi eksponirlash qurilmalarida ishlab chiqarish me'yorini oshirish maqsadida xarakterlanadigan nurlantiruvchi moslamadan foydalaniladi. Bunda nurlantiruvchi moslama ikkita plastina ushlagichga o'rnatiladi (5.10-rasm). Bunday ko'rinishdagi qurilma nurlantiruvchi moslamani, plastina ushlagichni, staninani, ventilyatsiya sistemasini, elektruskunalarni o'z ichiga oladigan yarim avtomatli jihozlardan iborat.



5.10-rasm. Ikkita plastinushlagichli eksponirlovchi qurilma.

Nurlantiruvchi moslama (10) da markasi LUF-80 bo'lgan lamp (9) shaxmatli holatda ikkita qator qilib terilgan. Lampalarni o'zgartirishga qulaylik yaratish maqsadida ochiladigan ikkita qopqoq (8) o'rnatilgan.

Nurlantiruvchi moslama harakatlanuvchi tayanch (5), yo'naltiruvchi planka (16) va dastak (11) yordamida plastina ushlagichga joylashtiriladi. Nurlantiruvchi moslamaning chetki qismlari tayanch (4) ga mahkamlanadi.

Qurilma ikkita plastina ushlagich (12) dan iborat bo'lib, ularning alyumin yuzasi to'g'ri to'rtburchakli yo'lakchalardan tashkil topgan. Fotoqolip (14) vakuum ta'sirida plyonka (13) yordamida fotopolimerlanuvchi plastina (15) ga yopishadi, bu vakuum — nasos (20) yordamida hosil qilinadi.

Yo'lakchalar sistemasi kengligi 1,2 mm va chuqurligi 1,2 mm ga teng bo'lgan to'rni (yacheykalar o'lchami 120x125 mm) plas-


tinaga ushlagichda hosil qiladi. Yo'lakchalar vakuum sistema (2) orqali resiver (21) va vakuumli-nasos (20) bilan birlashgan.

Bosim relesi RD-3K! 0,07 dan 0,09 MPa gacha bo'lgan diapazondagi bosimni avtomatik tarzda qo'llab turadi. Zaryadlanish darajasini nazorat qilish staruna (17) da joylashgan vakuummetr (3) orqali amalga oshiriladi.

Markazda joylashgan ventilator (19) rastrub (18) orqali ekspozitsionirovchi plastinaga havoni uzatadi, fotopolimer qolip yuzasidagi haroratning doimiyligini ta'minlaydi. Fotopriyemnik bilan jihozlangan fotokallak (7), elektron blokli kabel (6) nurlantiruvchi moslamaga o'rnatilgan. Bu kabel alohida korpusga joylashtirilgan bo'lib, elektron sxema va induksiya elementlarni o'z ichiga olgan. Ishlash rejimi qo'lda va avtomatik revishda amalga oshiriladi.

Fotopolimerlanuvchi plastinani chap tomondagi plastinaga ushlagichda ekspozitsionirovchi vaqtida operator o'ng tomonini ishga soladi. Ekspozitsionirovchi tugagach, operator nurlantiruvchi moslamani o'ng tomondagi plastinaga ushlagichga surib, keyingi qismga tayyor qiladi.

Tayyor egilgan fotopolimer plastinalar uchun silindrik turdagi ekspozitsionirovchi uskunasini yaratilgan. Eunday uskuna 5.11-rasmda ko'rsatilgan. Ostov (1)da boshqarish pult (2) joylashgan. Pastki qismida esa yo'naltiruvchi (13) aravacha (12)ni surish uchun qotirilgan.



5.11-rasm. Silindr turidagi ekspozitsionirovchi qurilma.

Ostovda ekspozitsionirovchi kamerasi (3) jihozlangan, uning yuzasiga 42 ta lyuminessent lamp (5) tashkil topgan nurlantiruvchi mosla-

ma o'rnatilgan. Kameraning ichki yuzasi alyumin bilan qoplangan va lampa (5) uchun reflektor bo'lib xizmat qiladi. Kamera 2 ning ichida ventilator joylashgan, u eksponirlash jarayonida lampani sovutib turadi.

Arava (12)da qolip ushlagich (7) joylashgan, u qolip plastina va montaj qotirish sistemasidan iborat. Aravaning pastki qismida qolip ushlagich (7)ning aylanish va vakuum nasosi joylashgan. Qolip ushlagichning yuzasida yo'lakchalar joylashgan. Plastina qolip ushlagich yuzasiga polietilen plyonka bilan qisiladi. Plyonkaning bir tomoni qo'zg'almas, boshqa tomoni esa valik (6) ga o'ralgan.


Qolip ushlagich fotopolimerlanuvchi plastinani qotirish sistemi bilan statistik jihatdan balanslangandir. Qolip ushlagichni qo'lda aylantirish uchun dastak (9) xizmat qiladi. Arava (2) ning o'ng tomonida joylashgan disk (10) eksponirlashda kamera (3) ni yopadi.

Fotopolimerlanuvchi plastinani fotoqolip bilan biriktirib, qolip ushlagichga joylashtiriladi va vakuum — nasos yoqiladi.

Plyonkani yechish jarayonida operator plyonka yuzasidagi g'adir-budurlarni tekislaydi, tasvir maydonlarida va uning atrofida ifloslar paydo bo'lishining oldini olib turadi. Yechish tugallangach, u fotoqolip va plastik orasida havo tegmaganligini tekshiradi. Sistemada bosim 0,06—0,08 MPa bo'lishi kerak. Vaqt relesi yordamida operator eksponirlash vaqtini belgilaydi va qolip ushlagich (12) ni eksponirlash kamerasiga joylashtiradi. Qolip ushlagich yurituvchi, yorug'lik manbai va ventilatorni yoqadi. Eksponirlash belgilangan vaqt ichida avtomatik ravishda bajariladi. Eksponirlash tugallangach ventilator, nurlantiruvchi moslama va yurituvchini avtomatik ravishda o'chiradi. Operator vakuum-nasosni o'chiradi. Plastina ushlagichni aylantirib, plyonkani o'rab fotoqolipni va fotopolimer nusxani bo'shatadi. Tayyor nusxani yuvishga yuboradi.

Silindr turdagi eksponirlovchi qurilmalarning yana bir turiga ochiladigan nurlantiruvchi moslamali eksponirlovchi qurilmalarni kiritish mumkin (5.12-rasm).

Bu qurilmada plastina negativ bilan birga silindrik yuzaga mahkamlanadi. Ultrabinafsha yorug'lik manbai ikkita silindrsimon yarim kassetalar eksponirlash vaqtida bir-biriga birikadi va eksponirlovchi material atrofida silindrsimon nurlantiruvchi moslamani hosil qiladi. Lampalarning material yuzasiga yaqin joylashganligi intensiv yoritishda eksponirlash vaqtini qisqartirishni ta'minlaydi.



5.12-rasm. Ochiladigan nurlantiruvchi moslamali eksponirlovchi qurilma.

Yoritishning bir tekisda bo'lishini oshirish maqsadida silindr eksponirlovchi plastina bilan birga aylantiriladi. Fotopolimerlanuvchi qatlamning qizib ketishining oldini olish maqsadida qurilmaga sovutish sistemasi biriktirilgan. Eksponirlash jarayonining davomiyligini nazorat qilish va boshqarish elektron jihozlar orqali ta'minlanadi.

Nazorat savollari


1. Nusxa ko'chiruvchi ramalarda qanday yorug'lik manbai qo'llaniladi?
2. Nusxa ko'chiruvchi ramalarda vakuum sistemasi.
3. Nusxa ko'chiruvchi ramalarning konstruksiya bo'yicha asosiy turlari.
4. «Bacher» nusxa ko'chiruvchi ramaning ishlash prinsipi.
5. Eksponirlovchi qurilmalarning konstruksiya bo'yicha asosiy turlari.
6. Fotopolimer qoliplarni fotokonditsionerlash va qayta eksponirlash nega talab etiladi?
7. Lyuminessentli nurlantiruvchi eksponirlash qurilmalarining ishlash prinsipi.
8. Metallogalogen yorug'lik manbali eksponirlovchi qurilmalar.

VI bob

OFSET BOSMA QOLIPLARGA ISHLOV BERADIGAN PROTSESSORLAR

Ofset bosma qolipiga nusxa ko'chirish ramasi nur tushirilgandan so'ng ishlov berilishi shart. Bosma qoliplarga ishlov berish uchun maxsus ishlov berish protsessorlari bor. Glunz & Jensen firmasining Interplater-66 modelining ishlash prinsipini ko'rib chiqamiz.

Protsessor 4 ta asosiy seksiyadan tashkil topgan (6.1-rasm):




6.1-rasm. Interplater-66 protsessorining tuzilish sxemasi:

1. Ishlov berish seksiyasi (A);
2. Yuqish seksiyasi (V);
3. Himoya qatlam hosil qilish seksiyasi (S);
4. Quritish seksiyasi (D).

Eksponirlangan plastinaga har bir seksiyada ishlov beriladi. Plastina protsessorga stol (E) dan yuklanadi (6.1-rasm). Bu bosqichda protsessor odatda, «kutish» rejimida bo'ladi, lekin o'qish vaqtida kirish sensori «qayta ishlash» rejimiga o'tadi. Plastina protsessorga yuklangandan so'ng uni harakatlantirish tizimi qabul qiladi va asta-sekin hamma 4 seksiyadan o'tkazadi. Qisqa vaqt ichida plastina protsessorni tark etgandan va uzatish stoli (F)ra tushgandan keyin, protsessor «kutish» rejimiga qaytadi.

Protsessor *qayta yuvish-yuklanish qurilmasi* (G) bilan jihozlangan, ishlangan plastina protsessorga boshidan yuklanadi va qaytadan yuviladi hamda qaytadan himoya qatlami qoplanadi.

Ochiltirish seksiyasida plastinaning nur tushirilmagan qismlari ochiltiriladi (6.2-rasm), qolgan nur tushirilgan emulsiya plastina sirtida o'rnatilgan tozalovchi valik yordamida yo'qotiladi.



6.2-rasm. Ochiltirish seksiyasi:

- 1 – qizdiruvchi element; 2 – sochuvchi trubka; 3 – harorat datchigi;
4 – indikator; 5 – pompa; 6 – sirkulatsiyali pompa; 7 – ochiltiruvchi
pompa; 8 – oqim.

Zamonaviy reaktivlar yordamida pozitiv plastinaning emulsiyasi oson eriydi, shu bilan birga bitta tozalovchi valikdan foydalansa bo'ladi, lekin negativ plastinalar ochiltirilgandan so'ng yaxshiroq tozalashni talab qiladi. Shuning uchun ba'zi modellarning ochiltirish seksiyasi qo'shimcha tozalovchi valiklar bilan jihozlangan.

Sirkulatsiyali pompa ochiltirgichni sepish tizimidan havzaga qaytaradi, filtr esa eritmaning toza turishiga imkon beradi. Ochiltirish havzasida isitgich va termostat mavjud, ular kerakli haroratni saqlab turadi va reaktiv yetarli bo'lmasa, ishlov berishga imkon bermaydigan sath detektor bilan jihozlangan. Yuqoridagi teshik havzani to'lib ketishidan saqlab turadi.

Harakatlanuvchi pompasi avtomatik ravishda maxsus konteynerdan havzaga ochiltirgichni qo'shadi. Ochiltirgich buzilishi natijasida ochiltirish xususiyatini yo'qotganda ham havzaga qo'shiladi. Harakatlanish pompasini uzatib berish stolining chap tomonida joylashgan boshqarish pultidan boshqarsa bo'ladi. Protsessorda kirishdagi sensorlar plastina yuklangan paytda avtomatik ravishda so'rib olish tizimini ishga tushiradi.


Yuvish seksiyasida plastina sirtidan ochiltirgich yuvib tashlanadi (6.3-rasm). Suv ustki va ostki sachratish tizimidan keltiriladi. Suv oqimi plastina yuvish seksiyasiga kirishdagi ochiladigan sole-noidli klapan orqali boshqariladi. Bu toza suvning kam sarflanishiga olib keladi.

Nozik himoya qatlami ochiltirilgan va yuvilgan plastinaga kir barmoq izlari va hokazolardan himoya qilish uchun qoplanadi (6.4-rasm). Keyinchalik plastina bosish mashinasida bo'lganda, himoya qatlami sirtidan yuvilib ketadi. Plastinani qaytadan yuvib va qaytadan himoya qatlamini qoplash kerak.


Himoya qatlami maxsus kimyoviy konteynerda joylashgan. Panelning yon o'ng tarafida konteynerga bo'sh yo'l bor. Havza, pompa va konteyner yopiq tizimdir, unda gummirlovchi tarkib sirkulatsiyalanadi. Yuvish seksiyasida ham kirish sensori yoqilganidan so'ng beixtiyor pompa ishga tushadi.

Protsessorni boshqarish zanjiriga seksiyadagi taqsimlovchi trubkalarni va valiklarni tozalash uchun himoya qatlamini qoplash seksiyasini avtomatik ravishda yuvish dasturi kiritilgan. Bu dasturni kamida bir kunda bir marta ishga tushirish kerak. U ikkita sole-noidli klapanlar yordamida ishlaydi: bittasi toza suv kiritish uchun, boshqasi oqizish uchun. Toza suv taqsimlovchi trubkadan oqib,

valiklarga tushib, keyin oqib ketadi. Dastur tugagandan so'ng pro-
tessor avtomatik ravishda berkitiladi.



6.3-rasm. Yuvish seksiyasi.




6.4-rasm. Maxsus gidrofillovchi eritma bilan qoplash seksiyasi.

Quritish seksiyasida plastina quritiladi va uni protsessorni tark etgandan keyin qo'lga olish mumkin. Markaziy harakatlanuvchi qizdirish ventilatori issiq havoni qo'sh truboprovod orqali yo'naltiradi va plastinaning ikkala tomonini quritadi.

Bu tizim issiq havo aylanishini ta'minlaydi va shu bilan birga toza havoning ba'zi qismini ichidan tortib oladi.

Harakatlantirish tizimi dvigateldan va chuvalchangsimon uzatmali yuritmadan iborat (6.5-rasm).




6.5-rasm. Harakatlanish sistemasi.

Yuritma valiklar tizimini aylantiradi, shunda plastinaning protsessordan o'tishi ta'minlanadi. Protsessorga kirishdagi rezinali valiklar (1) teng ochiltirishni ta'minlash uchun doim quruq bo'ladi. Ochiltirish seksiyasi yo'naltiruvchi (2), tozalovchi valiklar (3) va (4) seksiyasi ostidan plastinani to'g'ri harakatlantirishni kafolatlaydi. Yuvish seksiyasining bir juft valiklari (5) plastinaning sirtidan qolgan reaktivlarni olib tashlaydi. So'ng plastina ikki tomonlama sepish trubkalari (6) va (7) orqali yuviladi va yana juft valiklar (8) orasida siqiladi. Himoya qatlamini qoplash seksiyasi uchta valikdan iborat, eng kichigi (9) ustki rezinali valiklar bilan tegib turadi. Himoyaviy trubka (10) orqali keladigan ikki valik orasida o'ziga xos bir kichik vannani hosil qiladi. Himoyaviy nozik qatlami plastinaning sirtiga qoplanadi, ortig'i esa olib tashlanadi.


Ishlovdan so'ng plastina *qabul qilish stoliga* (6.6-rasm) keladi.

Stolning hapakatlanuvchi tayanch shtangalari (A) uning egi-lishini o'zgartiradi. Chegaralovchini (V) surish va shu bilan stolning ishchi uzunligini o'zgartirish mumkin.

Protessor *aravacha* bilan jihozlangan, unda so'rib olish konteynerlarni va ishlatiladigan reaktivlarni joylashtirish juda qulay. Ba'zi modellar uchun aravacha komplektda keltiriladi (6.7-rasm).



6.6-rasm. Protessorning qabul qilish stoli.



6.7-rasm. Reaktivlarni joylashtirish uchun aravacha.

Elektron jihozlash uch blokdan iborat:

1. boshqarish;
2. rele bloki;
3. boshqarish pulti.

Boshqarish bloki va rele bloki uzatish stolining ichida, elektron panelga o'rnatilgan. Boshqarish pulti uzatish stolining yuqori qismida kirish teshigidan chap tomonda joylashgan.

Butun tizimning ishini boshqaradigan boshqarish blokida mikroprotsessor joylashgan. Shu yerda tugmachalar qatorida displey joylashgan, ularning tizim parametrlarini sozlash uchun boshqarish zanjiri bilan dvigatelni himoya qilish qurilmasi joylashgan.

Rele bloki protsessorning pompalar, isitgichlar, ventilatorlar va hokazolariga buyruq yuboradi. Shu yerda qolgan himoya qilish qurilmalari ham joylashgan. Operator boshqarish pulti yordamida protsessorning ishini nazorat qilib turishi mumkin.

Ish bajarish rejimlari. Protssessor beshta rejimdan bittasida bo'lishi mumkin:

1. «o'chirilgan» (OFF) rejimi;
2. kutish rejimi;
4. ishlash rejimi;
5. qayta yuvish rejimi;
6. tozalash rejimi.

Bosh yoqib-o'chirish qurilmasi yordamida yoqilganda protssessor avtomatik ravishda OFF rejimiga kiradi. OFF rejimida hamma pompalar, haroratni nazorat qiluvchi zanjirlar o'chirilgan. OFF tugmachasining indikatoridan tashqari boshqarish pultining displeyi o'chirilgan.

Agar «ishlash rejimi» parametrlari testga o'rnatilgan bo'lsa, test dasturi faollashadi.

Kutish rejimi. ON tugmacha bosilgandan keyin protssessor avtomatik ravishda «kutish» rejimiga o'tadi. Ochiltirgichning haroratni nazorat qilish zanjiri yoqiladi.

Ishlov berishning hamma parametrlari sozlanishga tayyor. ON tugmachasining indikatorini yoqiladi. Antikristallizatsiya dasturi yoqilgan yoki o'chirilgan bo'lishi mumkin.

Ish bajarish rejimi. Kirish sensori faollashganda plastinani yuklagandan so'ng, protssessor «kutish» rejimidan «ishlash» rejimiga o'tadi. Protssessor ochiltirish dasturini bajaradi. Ish vaqtida displey yoqilgan bo'ladi, ishlov berish parametrlari sozlangan bo'lishi

mumkin. Plastina chiqqandan so'ng qisqa vaqt ichida protsessor avtomatik ravishda «kutish» rejimiga qaytadi.

Qayta yuvish rejimi. «Qayta yuvish» tugmachasi bosilgandan keyin protsessor «qayta yuvish» rejimiga o'tadi. 15 daqiqa davomida operator plastinani qayta yuvishga yuklanadigan jihozga qo'yishi kerak. Shuningdek, protsessor «kutish» rejimiga avtomatik ravishda qisqa vaqt ichida qaytadi yoki 2 daqiqa davomida «qayta yuvish» tugmachasi bosilgan bo'lsa.

Tashlash rejimi. Olib tashlash dasturini ishga tushirish uchun, «dasturni qatlamini olib tashlash» tugmachasini bosish shart. Dasturning ish vaqtida OFF tugmachasidan tashqari boshqarish pulitidan foydalanish mumkin emas. Dastur tugagandan so'ng protsessor avtomatik ravishda OFF rejimiga o'tadi.

Protsessorni boshqarish *boshqarish puliti* orqali amalga oshiriladi, u uzatish stolining chap tomonida o'rnatilgan. Boshqarish pultida protsessorning ish rejimi indikatorlari va tugmachalari, harorat va uzatish tezligini belgilash tugmachalari hamda belgilangan parametrlarni ko'rsatib turadigan display joylashgan.

6.1-jadvalda bo'lishi mumkin bo'lgan ishdan chiqishlar va ularni to'g'rilash yo'llari keltirilgan.

6.1-jadval

Belgilar	Sabablar	To'g'rilash usullari
Protsessor yoqilmayapti	Ichki yoqib-o'chirish qurilmasi o'chmayapti Bosh yoqib-o'chirish qurilmasi ishlamayapti Kabelning bosh yoqib-o'chirish qurilmasi ulanmagan Elektr manba saqlagichi F8 yoki F1101 kuygan	Ichki yoqib-o'chirish qurilmasini o'chiring Bosh yoqib-o'chirish qurilmasini yoqing Kabelning bosh yoqib-o'chirish qurilmasini ulang Elektr manba saqlagichini almashtiring
Protsessor ishga tushmayapti	Ichki yoqib-o'chirish qurilmasi o'chmayapti Elektr manbasi saqlagichi F8 yoki F1101 kuygan	Ichki yoqib-o'chirish qurilmasini o'chiring Elektr manba saqlagichini almashtiring
Kutish indikator yoqilmagan	Kirish sensori o'chgan yoki ishlamayapti Ochiltirgich past darajada bo'lsa Ochiltirgichning harorati talabga javob bermaydi	Kirish sensori o'chgan yoki almashtiring Kerakli darajaga keltiring Harorat talab darajasida bo'lishini kuting

Protessor ishlov berish siklidan so'ng kutish rejimiga qaytmayapti	Kirish sensori o'chgan yoki ishlamayapti Elektron jihozlari ishlamayapti yoki sozlab bo'lmayapti	Sensorni almashtiring Servis ishchilari tomonidan to'g'rilanadi
Protessor plastina yuklangan almashtirish paytda ishga tushmayapti	Himoya qatlami seksiyasining yuvish dasturi bajarilayapti Kirish sensori ishlamayapti Elektronika ishlamayapti	Dastur tugashini kuting Sensorni almashtiring Servis ishchilari tomonidan to'g'rilanadi
Protessor ish rejimida bo'lishiga qaramasdan yuvish uchun suv yo'q	Elektronikani sozlab bo'lmayapti yoki buzuv Suvning solenoid klapani buzuv Suv krani berkitilgan Suv klapanining filtri berkitilgan	Servis ishchilari tomonidan to'g'rilanadi Klapanni almashtiring Kranni oching Filtrni tozalang
Yuvish kerakli darajada emas	Suv berish krani yopiq Solenoid klapan yoki filtr berkitilgan Sepish trubkalari berkitilib qolgan yoki sozlanmagan	Kranni oching Filtr va klapanlarni yuving yoki almashtiring Trubkalarni yuving yoki qaytadan sozlang

Yuqorida ko'rilgan protessor Ipterplate-66 sm kenglikdagi ofset qoliplarini ochiltirish imkoniga ega. Glunz & Jensen firmasi ochiltiriladigan qoliplarning maksimal o'lchami va ochiltirish jaryonini avtomatlashganlik darajasi bilan ajralib turadigan ofset qoliplarni ochiltirishga mo'ljallangan protessorlarning boshqa modellari ham ishlab chiqaradi. Lekin protessorlar qurilmalarining bosh prinsiplari va ishni boshqarish jihatidan Interplate-66 modelining ishlash va qurilma prinsiplariga o'xshash.

Bosiluvchi elementlarning maydoni haqidagi ma'lumotni bevosita bosma qolipni o'lchash orqali yoki kompyuterdagi axborotlar manbaidan olish mumkin. Heidelberg firmasi birinchilardan bo'lib, bosma qolipni skanerlash qurilmasini ishlab chiqdi (ular pleytskanerlar deb ataladi). Dastlabki yaratilgan pleytskaner CPC3 edi. Hozirgi vaqtda bunday maqsadlar uchun ancha takomillashgan qurilma – CPC-31 dan foydalaniladi.

CPC-11 vertikal holatdagi vakuumli stoldan iborat bo'lib, unga bosma qolip joylashtiriladi, uning tepasiga esa 2 ta fotodatchiklar chizg'ichidan iborat bulka o'rnatilgan, har bir chizg'ichda 32 tadan fotodiod mavjud. Chizg'ichlardan birining sensori bevosita bosma qolipdan qaytgan yorug'lik oqimini qabul qiladi, ikkinchi chizg'ichning fotodioldari esa olov rang yorug'lik filtri orqali qabul qiladi. Bu esa CPC-11 da turli xil qaytaruvchi yuzali (monometall, himmatil, poliestir) bosma qoliplarni o'lchash imkonini beradi. Bosma qolip turini operator qurilmani sozlayotganda kiritib qo'yadi. Bosma qolip vertikal holatda shunday joylanadiki, bunda o'lchash oynasi oldida bo'yoq zonasini ustiga aniq o'rnatish mumkin. O'lchash balkasi bosish (nuxtalash) yo'nalishi bo'yicha siljib boradi. Qurilma ishga tushgandan so'ng bosma qolipni yorituvchi lyuminescent lampalar yorug'lik oqimini barqarorlashguncha bir necha daqiqa qizib olishi kerak. Yorug'lik kuchi kalibrlash yo'lkasini o'lchash orqali aniqlanadi. Yorug'lik kuchining doimiyligiga erishilgandan so'ng bosma qolipda o'lchash ishlarini bajarish mumkin.

Kalibrlash har bir bosma qolipni o'lchashdan oldin o'lchash balkasining boshlang'ich vaziyati zonasida joylashgan 2 ta kalibrlash nishalari (0% va 100% nuxtalangan) bo'yicha amalga oshiriladi. Bosma qolip va olovli elementlarning qaytarish qobiliyati turlicha bo'lgani tufayli fotodatchiklar signali nazorat qilinayotgan qismning bosiluvchi elementlar bilan to'ldirilganligining nisbiy maydoniga bog'liq elementlar nazorat maydonchasi bosma qolipda bir fotodiod uchun 5,5x12,5 mm ni tashkil qiladi).

Kalibrlashdan so'ng o'lchash balkasi bosma qolipning boshlang'ich chekkasiga yetib boradi, u yerda ham 100% li va 0% li bosiluvchi elementlar maydoniga ega yulkalar bo'lishi kerak. Shundan so'ng o'lchash balkasi butun bosma qolip yuzasi bo'ylab siljib o'tadi, bunda har bir fotodiod o'ziga tegishli bo'yoq zonasini skanrlaydi. Bosma qolip oxirida ham 0% bosiluvchi elementlarga ega yulka bo'lib, u bosma qolipning qaytarish xususiyati bir jinsli ekanligini tekshirishga imkon beradi.


O'lchash balkasi datchiklardan olingan analogli signallarning amplitudasini standart 0-1N V darajagacha ko'tarish uchun kuchaytirgichdan o'tkaziladi va analog-raqamli kodlarga aylantiradi.

Bu nashrlar CPC-11 protessorida faylga aylantiriladi, bu yerdan qabulot interfeysi orqali aloqa kabeli yordamida bosish (nuxtalash) mashinasining boshqaruv pultiga yuboriladi. Axborot bo'li holatida faylarni magnit kartasi (CPC-jomemogu

card) orqali ham yuborilishi mumkin. Olingan ko'rsatmalarga asoslanib boshqaruv pultida bo'yoq zonolari tirqishlarining ochilish kattaligi hisoblanadi.

6.3. Fotopolimer qoliplarga ishlov berish uchun protsessorlar

Zamonaviy yuqori fleksograf bosish usulida fotopolimerli bosma qoliplar (FBQ)dan foydalaniladi, ular bosma-texnik va reproduksion grafik xossalari bo'yicha ofset (rangli) bosma qoliplaridan qolishmaydi, adadga chidamliligi bo'yicha esa odatda ulardan ham afzalroqdir. Yuqori va fleksograf bosish usuli uchun fotopolimer qoliplarning tuzilmasi 6.8-rasmda tasvirlangan.



6.8-rasm. Fotopolimer qoliplarning tuzilmasi:
a) yuqori bosish usuli; b) fleksograf bosish usuli.


Fotopolimer nusxalarga ishlov berish eksponirlashda fotopolimerlanuvchi qatlamning qismlarini yuvib tushiruvchi eritma bilan yo'qotishdan, quritishdan iboratdir. Ba'zan yuvib tushirilgandan so'ng fotopolimer qoliplarni yuvish, fleksografik qoliplar uchun esa ishlov berish (yopishqoqlikni bartaraf etish) talab etiladi.

FBQga ishlov beruvchi protsessorlar ikki turga bo'linadi: oldindan bukilgan plastinalarni va yassi plastinalarni yuvish uchun. Birinchi turdagi protsessorlar siklik ishlovchi mashinalar hisoblanib, ularda avval bir-ikkita plastina yuviladi, keyin chayiladi, shundan so'ng protsessorga navbatdagi plastina solinadi. Ikkinchi turdagi protsessorlar ko'pincha oqim tizimidan iborat bo'lib, unda plastinalarni yuklash va ishlov berish konveyer usulida amalga oshi-

plastinaga ishlov berilayotganda navbatdagi plastina protsessorga kiritiladi.

Yuvish protsessorlarining asosiy bo'g'inlari quyidagilar: vanna, plastina uzatuvchi sistema, termostatlash sistemasi, plastinotutqich (quritish turdagi mashinalar uchun) va tashuvchi qurilma (oqim prinsipida ishlovchi mashinalar uchun). Oqim usulida ishlovchi mashinalarda faqat yuvib tushirish amaligina emas, balki quritish va shaponirlashgacha amallari ham bajariladi.

Yuvish yuqori bosimli purkama oqim bilan amalga oshiriladigan, oldindan bukilgan FBQlarga ishlov berish uchun yuvish protsessorining ishlash prinsipini 6.9-rasmda keltirilgan protsessor tashkilotida ko'rib chiqish mumkin.



6.9-rasm. Oldindan bukilgan FBQni yuvish uchun protsessor.


Protsessorda vanna (1) bor bo'lib, unda gorizontaal o'q atrofida aylantiruvchi plastinotutqich (2) joylangan. Plastinotutqichda mexanik qisqirdlar bilan mahkamlangan qolip plastinasi sirtidan 100 mm masofada tismachika (3) lar joylashtirilgan. Plastinotutqich (2) cheryabli reduktor (4) va olqon muftasi (6) orqali aylantiriladi. FBQning tismachika qisqirdarini yuvish nasos (7) dagi forsunka (3) orqali uzatiladigan islovchi eritmaning purkalgan oqimlari bilan amalga oshiriladi. FBQni yuvish tugagandan so'ng ishlatilgan eritma nasos (7)

yordamida vannadan olib tashlanadi. Kran 8 va elektromagnit ventili (9) vanna lni vodoprovod suvi bilan to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ishchi eritma bevosita vannada tayyorlanadi. Dozator (10) quyuq ishqor eritmaning ma'lum miqdorini vannaga uzatadi. Undagi suv sathi qalqovichli sath rostlagich (11) bilan nazorat qilinadi. Kontaktsiz datchiklar (12), (13), (14) tegishli operatsiyalarni bajarishi uchun mashinaning elektr tarxiga buyruq beradi: 12 — vanna l dan eritma chiqarib tashlangandan so'ng nasos (7)ni o'chirish va suv uzatish ventili (9)ni ochish uchun; 13 — suvning o'rtacha sathiga erishilganda elektr isitish vannasini ulash uchun; 14 — vanna yuqori sathigacha suv bilan to'lganda ventil (9) ni yopish uchun. Elektromagnit ventillar (15), (16) mos ravishda eritmani nasos (7) dan forsunkalar (3)ga uzatish va ishlangan eritmani kanalizatsiyaga oqizib tushirish uchun xizmat qiladi. Nasosga begona buyumlarning kirishining oldini olish uchun filtr (17) o'rnatilgan.

Oldindan bukilgan plastinalarga ishlov beruvchi protsessorlarda yuvish jarayoni past bosimli oqim va mexanik cho'tkalar ta'sirida yuz berish mumkin. Bunday qurilmaning namunasi 6.10-rasmda keltirilgan. Bu qurilma fleksografik fotopolimer nusxalarni yuvishni va ishlov berishni yoki yuqori bosish usulidagi qoliplarni tayyorlash uchun fotopolimer nusxalarni yuvish va tozalashni amalga oshiradi.

Fleksografik nusxalarga ishlov berishda truboprovodlarni almashtirish shlanglar (17) yordamida bajarilish kerak, ular tarxda tutash chiziqlar bilan ko'rsatilgan. Bloklar (8) va (12) uzilgan, taqsimlagichlarning mos ventillari va potrubkalari berkitilgan. Eritma regeneratsion qurilmada joylashgan alohida idishga truboprovod (12) orqali uzatiladi. Q urilmada shu rejimda ishlash quyidagi tarzda yuz beradi.

Operator boshqaruv pultidan qurilmani ta'minot manbaiga ulaydi va fleksografik nusxaga ishlov berish tartibini tanlaydi: yuvib tushirish va tozalash vaqti relesini sozlaydi, nasoslarning ishlash tartibini belgilaydi (bitta yoki ikki nusxa uchun), qopqoq (2) ni ochadi, vanna (7) da eritma borligini va potrubok (18) orqali statina (6) bilan ulangan tortuvchi ventillatsiya sistemasining ishlashini tekshiradi. So'ngra nusxani boshqaruv pultida turtuvchi tugmacha bilan burib, uni silindr (1) ning qisqichlariga mahkamlaydi. Shundan keyin operator rostlovchi maxovik yordamida blok (3) ning cho'tkalari va silindr (4) orasida zarur oraliqni tanlaydi, bu mashinani ishga tayyorlashning yakuniy operatsiyasi hisoblanadi.



6.10-rasm. Yuqori va fleksograf bosish usulidagi FBQga
ishlov berish protsessorlar.

Keyin operator boshqaruv pultida mashinaning ish siklini ulash tugmachasini bosadi, bunda u yuvib tushirish va tozalash amallarini avtomatik bajaradi. Bunda truboprovod (17) bo'ylab eritmani uzatuvchi nasoslar (15) va (16), silindr (4) ni va cho'tka bloki (3) ning cho'tkalarini aylantirish uzatmalari ulanadi. Yuvish operatsiyasi tugashi bilan cho'tkalar uzatmasi avtomatik uziladi va nusxani tozalash operatsiyasi boshlanadi. Eritmaning ortiqchasi vanna (7) ning oqib chiqish potrubkasi (5) orqali yig'gich bak (10) ga oqib tushadi. Ishlov berish sikli tugaganda mashinaning hamma mexanizmlari to'xtaydi va tovush signali uzatiladi.

Operator qopqoq (2) ni ochadi va ishlov berilgan nusxani, zarur bo'lsa, burib, silindr (4) ning qisqichlaridan bo'shatadi. Buning uchun turtki tugmachadan foydalaniladi.

Qolip alohida qurilmada quritilgandan so'ng, zarur bo'lsa, operator kyuveta (20) dan foydalanib, qolipga ishlov berishi mumkin. Buning uchun u kyuveta (20) dan qopqog'i (24) chiqaradi, unda qisqichlar (23) yordamida nusxa (22) ni (bitta yoki ikkita) mahkamlaydi, uni kyuvetadagi eritmaga botiradi va ishlov berish vaqti relesini ulaydi. Tovush signali operatorni ishlov berish operatsiyasi tugagani to'g'risida xabar beradi. Operator tayyor qolipni kyuvetadan oladi.

Yuqori bosish usuli uchun fotopolimerli nusxalarga ishlov berishda truboprovodlarni almashtirish sxema buyicha bajarilishi kerak. Eritma uzatuvchi sistemaning bo'sh potrubkalari berkitilgan bo'lishi, ventil (19) esa berk turishi kerak. Mashinani ishga tayyorlashda operator sovuq suvni (s.s) va issiq suvni (i.s) uzatish uchun foydalanib va quyuk ishqor eritmasini qo'lda qo'shib, baktoplagic (10) ni ishchi eritma bilan to'ldiradi. So'ngra yuvish bloki (21) ni ma'lum miqdordagi suvni uzatishga sozlaydi, bunda uning sarflanishini blok (21) da suv uzatish bilan joylashgan sarf o'lchagich (rasxodomer) bo'yicha nazorat qiladi. Bunda suv uzatilishi boshqaruv pultidagi tumbler yordamida ochilishi kerak.

Bunday operatsiyalar o'tkazilgandan so'ng mashina ishga tayyor bo'ladi. Silindrda nusxani mustahkamlash, yuvish va tozalash rejimlarini tanlash, mashinani ulash (ishga tushirish) va tozalash operatsiyalari fleksografik nusxalarga ishlov berishga o'xshashdir.

Nusxalarni yuvish operatsiyasi tugagandan so'ng nasoslar (15) va (16) cho'tka bo'g'ini (3) ning cho'tkalar uzatmasi avtomatik tarzda uziladi va blok (21) suv uzatish bilan ulanadi. Trubka lga kelayotgan suv nusxani yuvadi. Yuviladigan eritmaning va yuvuvchi suvning ortiqchasi quyiladigan patrubok (5) orqali truboprovod (13) bo'ylab kanalizatsiya trubasi (14) ga tushiriladi.

Nusxaga ishlov berish sikli tugagandan so'ng mashina mexanizmlari o'chiriladi, tovush signali uzatiladi va operator fleksografik nusxalarga ishlov berishdagidek ish tutib, nusxani yechib olishi mumkin.

Ishlov berishdan keyingi kyuveta (20) (eritmasiz) tayyor qoliplarni joylab saqlash uchun yoki ishlov berilishi lozim bo'lgan nusxalarni saqlash uchun foydalanilishi mumkin.

Mashinada uni ishga tushirilishini va uning qopqoq (2) ochiq-
ligida o'chib qolishini hamda bakto'plagich (10) ning yuqorigi sat-
higaqcha to'ldirilishini yoki bo'shab qolishini man etuvchi to'siqlar
bor. Bu to'siqlar turtki tugmachasiga bosilganda silindr (4) ning
burilishiga qarshilik qilmasligi kerak. Ventillar (9) va (11) vanna (7) ni
va bakto'plagich (10) ni tozalashda eritmani to'la chiqarib tashlash
uchun foydalaniladi.

Bug'larni so'rib olish umumsex ventilatsiya sistemasidan pat-
rubok (18) ga ulanadigan egiluvchan shlang yordamida amalga
oshiriladi. Bug'lar mashina ichidagi bo'shliqdan ham, qopqoq (2)
va vanna (7) hosil qiladigan oraliqdan ham, uning butun yuqorigi
perimetri bo'yicha joylashgan tirqishlar orqali ham so'rib olinadi.

Mashinada bitta yoki bir vaqtda ikkita nusxaga ishlov berish
mumkin. Buning uchun uzunligi 960 mm, ichki diametri 20 mm
bo'lgan dushlash trubkasining butun uzunligi bo'yicha 20–25 mm
qadamli 2–3 mm diametrli bir qator teshiklar bor. Dushlovchi
trubka uch qismga bo'lingan: markaziy va ikkita yon. Markaziy
qismining uzunligi nusxaning eng katta eniga (450 mm) mos ke-
ladi. Bitta nusxaga ishlov berishda u silindr (4) da uning markaziy
qismida mahkamlanadi. Yuvuvchi va ochiltiruvchi eritmalar bitta
nasos bilan uzatiladi. Ikkita nusxaga ishlov berishda ular silindr
(4) da bir-birining yoniga joylashtiriladi. Bunda eritmalar ikkita na-
sos (15) va (16) bilan uzatilib, ulardan biri eritmani dushlash trub-
kasi (1) ning markaziy qismiga, ikkinchisi esa — ikkita yon qism-
lariga uzatiladi. Bitta nusxaga ishlov berishda suv bilan yuvish
uchun yuqori bosma qoliplari uchun plastinada blok (21) ni dush-
lovchi trubka bilan tutashtiruvchi truboprovodlardan biri operator
tomonidan uzib qo'yiladi.


Cho'tkali blok ishchi uzunligi 950 mm bo'lgan ikki juft silin-
drlik cho'tkadan iborat. Cho'tkalarining tashqi diametri 100–
105 mm, tukining bo'yi esa 15 mm. Silindr va cho'tkalarining
uzatmasi ularning ma'lum bir aylanish tezligi bilan harakat qilishini
ta'minlaydi: silindr — 15 ayl/min; cho'tkalar silindr bilan bir to-
monga aylanuvchi cho'tkalar — 32 ayl/min; silindrning aylanishiga
qarshi tomonga aylanuvchi cho'tkalar — 127 ayl/min.

Ishlov berilgan qoliplarni quritish maxsus qurituvchi qurilmada
amalga oshiriladi.

Yassi fotopolimer qoliplarga ishlov beruvchi protsessorlar,
odatda oqim tizimlaridan iborat bo'lib, ular yuvib tushirish, qu-
ritish va ekspozitsiyalashgacha operatsiyalarini bajaradi. Bunday pro-

tsessorlarda plastinalarni bir operatsiyadan ikkinchisi oldiga ko'chi-rish uchun tashuvchi qurilmalardan foydalaniladi. Quyida oqim turidagi protsessorlarni qurishning uch turi keltirilgan.

Yuqori bosimli purkalgan oqimlar bilan yuvib tushirish usuli va magnitli tashuvchi qurilma qo'llanilgan protsessorning asosiy tarxi 6.11-rasmda keltirilgan.



6.11-rasm. Aylanuvchi magnet roliklari asosida tashuvchi qurilmaning FBQga ishlov beruvchi oqim tizimi.

Oqimda uchta seksiya mavjud: yuvib tushirish (4), tozalash (7), quritish va qo'shimcha eksponirlar (11) FBQ. Plastinalarni ishlov berish operatsiyalari bo'yicha tashish magnet roliklar sistemasi yordamida amalga oshiriladi.

Birinchi seksiyada nusxaning polimerlanmagan qismlarini yuvib tushirib qo'yish yuz beradi. Taqsimlagichda shaxmat tartibida joylashgan forsunkalar purkalgan ishchi eritmani plastinaga pastdan yuqoriga tomon uzatadi. Ikkinchi seksiyada FBQning relefli tomonini yuvib tushirish mahsulotlarini butunlay yo'qotish uchun suv bilan yuvish amalga oshiriladi. Uchinchi seksiya quritish va qo'shimcha eksponirlash uchun mo'ljallangan. Unda plastina avval havo rakeli orqali o'tadi, havo rakeli uning sirtidagi yirik nam tomchilarini olib tashlaydi va keyin issiq havo bilan shu biron bir vaqtda lyuminescent lampalarning UB bilan nurlantirib quritiladi.

Tizim roliklari (24) bo'lgan yuklanish stoli (1), magnet roliklari (23) bo'lgan tashish sistemasi, yuvib tushirish (4), tozalash (7), quritish va qo'shimcha eksponirlash (11) seksiyalaridan hamda qabul qilish stoli (16) dan iborat.

Yuvib tushirish seksiyasida nasos (5) va filtr (3) bo'lgan eritma uzatuvchi sistema (6); termoregulyator (termosozlash) sistemasi bo'lgan beshita elektroisitkichlar (26) bilan ta'minlangan, 400 l. sig'imli eritma tayyorlash uchun vanna (2); toza suvni uzatish sistemasi va ko'piko'chirgich bor, u ko'piko'chirgichni bachondan (idishdan) uzatish uchun diafragmali nasosdan va toza suvni uzatish uchun (har bir yangi plastinaga) rostlanuvchi magnit klapanidan iborat. Plastina (22) ni yuvib tushirish seksiyasiga kiritilganda u tashish sistemasida ishonchli tarzda mahkamlanishi uchun qo'shimcha ravishda rezinalangan valik (25) bilan jihozlangan.

Tozalash seksiyasi vodoprovod tarmog'iga ulangan beshita forunkali uzatuvchi trubka (20) dan va to'siqlari bo'lgan polietilendan tayyorlangan naychalar (21) ko'rinishida ishlangan filtrli kyuvetalardan iborat. Kyuvetada betartib joylashtirilgan naychalar quruq filtrlovchi element vazifasini bajaradi. Ularning ifloslanishi darajasiga qarab, ular kyuvetadan chiqarib olinadi va issiq suv bilan yuviladi.

Quritish va qo'shimcha eksponirlash seksiyasi oldida kamera (8) ichida havo rakeli (19) joylashgan. Issiq havo (110°C) kaloriferdan ventilator (9) yordamida rakelning ikki soplosiga uzatiladi. Havo quritishi seksiyasi (11) dan olinadi.

Quritish va qo'shimcha eksponirlash seksiyasida fotopolimer nuxsa lyuminescent lampomer bloki (14) ustidan o'tib, kaloriferlar (10), (13) dan ventilator (12) uzatayotgan issiq havo bilan qo'shimcha ravishda termoishlovdan o'tadi. Lampalar ustida himoya oyna (17) joylashtirilgan.


FBQ qabul qiluvchi stol (16) ga chiqish oldidan uchta ventilator oldidan o'tadi, bu ventilatorlar uni xona haroratigacha sovutadi.

Tizimning yuqori qismida ochiladigan qopqoq (18) da joylashgan fotopolimer nusxalarni tashish sistemasi bir qator magnit roliklar (23) dan iborat bo'lib, ular zanjirli uzatma orqali elektr dvigatel orqali harakatga keltiriladi. Magnit roliklar bir-biridan 100 mm qadam bilan 500 mm masofada joylashgan.

Yuvib tushirish va tozalash seksiyalari oldida nusxalarning tizimida me'yorida o'tishini nazorat qiluvchi elektromagnit datchiklar joylashgan.

6.12-rasmda fotopolimer qoliplarga ishlov beruvchi oqim tizimining umumiy tarxi keltirilgan bo'lib, unda yuvib tushirish yuqori bosimli purkama oqim ta'sirida yuz beradi, tashuvchi qurilma si-

fatida esa rezinalangan valiklar jufti va magnitli yo'naltiruvchi plitalardan iborat aralash sistemadan foydalanilgan.



6.12-rasm. Aralash tashish qurilmasi bo'lgan FBQga ishlov berish oqim tizimi.

Tizimda quyidagi operatsiyalar bajariladi: nusxalarning oraliq elementlarini yuvib tushirish, FBQni suv bilan tozalash, issiq havo bilan quritish va qo'shimcha eksponirlash. Tizimdagi barcha jara-yonlar iloji boricha avtomatlashtirilgan.

Tizim yuvib tushirish (11), tozalash (13), quritish va qo'shimcha eksponirlash (15) seksiyasidan iborat.

Ishni boshlashdan oldin yuvib tushirish seksiyasining vannasi (37) va tozalash seksiyasining baki (24) ma'lum sathgacha suv bilan to'ldiriladi. Sig'imlarni to'ldirish qalqovuchli sath datchiklari (23), (38) bilan nazorat qilinadi. Yuvib tushirish seksiyasidagi vannadagi suv harorati 29°C gacha yetkaziladi.

Operator qo'shimcha stol (1) ga eksponirlangan fotopolimer nusxa (2) ning fotopolimerlanuvchi qatlamini pastga qaratib joylashtiradi va plastina borligini aniqlash datchigi roligi (3) ostiga qo'lda kiritadi, u esa nasos stanciyasi (35) ning uzatmasi va ishchi eritmani tayyorlashning avtomatik sistemasini ulaydi. Fotopolimer nusxa rezinalangan tashish valiklari (4) jufti bilan o'zaro ta'sirlashib, ishlov berish operatsiyalari bo'yicha harakatlana boshlaydi.

Yuqib tushirish seksiyasida fotopolimer nusxa quyi (5) va yuqori (6) yo'naltiruvchilar orasidan o'tadi. Plastinaning pastga bukilishining oldini olish uchun yuqori yo'naltiruvchida doimiy magnitlar (8) o'rnatilgan bo'lib, ular qolipning po'lat tagligini o'ziga tomon tortadi. Ishlov berish yuvuvchi eritmaning purkalgan oqimi bilan olib boriladi, u forsunkalar (7) orqali uzatiladi. Forsunkalar taqsimlash qutisining yuqori qopqog'iga o'rnatilgan. Yuqib tushirish seksiyasi (11) ning vannasi (37) to'siq (9) bilan ikki qismga ajratilgan va tutash idishlar tarzida ishlangan. Vannaning ikkala qismi olinuvchi qopqoqlar (12) bilan yopiladi. Yuqib tushirish seksiyasi bo'ylab fotopolimer qolip uch juft rezinalangan valiklar (4) yordamida tashiladi. Uchinchi va to'rtinchi juft valiklar oldida plastinalarning mavjudligini aniqlovchi datchiklar (datchik (3) ga o'xshash) joylashgan. Valiklarning to'rtinchi jufti oldida o'rnatilgan datchik tozalash seksiyasi (13) ning nasosi (25) uzatmasini ulaydi, valiklarning uchinchi jufti oldida o'rnatilgan datchik esa plastina yuvib tushirish seksiyasi orqali o'tgandan so'ng nasos (35) ning uzatmasini o'chiradi.

FBQni tozalash taqsimlagich (14) dan forsunkalar tomonidan purkalgan suv oqimlari yordamida amalga oshiriladi. Quritish va qo'shimcha eksponirlash seksiyasi (15) da FBQ issiq havo bilan quritiladi ($60-70^{\circ}\text{C}$), u havo rakeli (16) dan uzatiladi. Qo'shimcha eksponirlash LUF-80 turidagi uchta lyuminescent lamp (17) yordamida amalga oshiriladi. Ishlov berilgan FBQ qabul qilib olish stoli (18) ga chiqariladi.

Qolipni quritish uchun havo kaloriferda elektr isitish elementlari (19) bilan isitiladi va havo rakeliga markazdan qochma ventilator (20) ga uzatiladi.

Yuqib tushirish seksiyasidagi vanna (13) truboprovod orqali bak (24) bilan tutashtirilgan, bu bak ventil (21) orqali vodoprovod tarmog'i (22) dan to'ldiriladi. Bak (24) dagi suv nasos (25) yordamida taqsimlagich (14) ga uzatiladi. Bak (24) dagi suyuqlik sathi minimal qiymatdan pasayganda qalqovuchli sath datchigi (23) nasos (25) uzatmasini o'chiradi. Yuqib tushirish seksiyasi bakidagi va yuvib tushirish vannasidagi suvning haddan tashqari ortib ketmasligining oldini olish uchun ularda ortiqcha suyuqlikni kanalizatsiya (30) ga to'kuvchi naychalar (27), (33) bo'lgan quyiladigan idishlar mavjud. Vannalardagi suyuqlikni butunlay to'kib tashlash uchun ventillar (28), (29), (32) xizmat qiladi.

Vanna (37) dagi yuvib tushiruvchi eritma markazdan qochma nasos (35) ga kelib tushguncha filtr (34) orqali o'tadi va tozalanadi. Ishchi eritma vanna tubiga o'rnatilgan termoelektr isitish elementlari (36) bilan talab qilingan haroratgacha yetkaziladi.

Yuvib tushirish eritmasini avtomatik tayyorlash va tuzatish sistemasiga qalqovuchli sath indikator (38), quyuq ishqor dozatori (39), ko'pik o'chirgich dozatori (40) va suv dozatori (42) kiradi. Ishni boshlashdan avval vanna (37) ventil (41) orqali suv bilan to'ldiriladi. Qalqovuchli sath indikator (38) vannani talab qilingan sathgacha suv bilan to'ldirishda termoelektr isitish elementlari 36ning ulanishiga buyruq beradi. Fotopolimer nusxa plastina mavjudligini aniqlovchi datchikning rolik (3) ostiga kiritilganda vannaga suv dozatori (42) dan toza suv porsiyasi uzatiladi. Shu bilan bir paytda ishqor dozatorlari (39) va ko'pik o'chiruvchilar (40) vannaga ishqor va ko'pik o'chirgich porsiyalarini uzatadi. Markazdan qochma nasos (35) eritmani aralashtiradi va 10–15°C dan so'ng u ishga tayyor bo'ladi. Tizimga har bir yangi plastinani kiritishdan oldin ishchi eritma o'zgartiriladi.


Tayyor FBQni operator qabul qilish stolidan oladi va qoliplarning sifatini asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat qiladi. Oqim tizimining unumdorligi (12) qolip/soatda tashkil etadi.

Yirik matbaa korxonalari uchun yuqori unumdorlikka ega bo'lgan oqim tizimlari mo'ljallangan. 6.13-rasmda unumi 120 qolip/soatga yetishi mumkin bo'lgan FBQga ishlov beruvchi oqim tizimining umumiy tarxi berilgan. Bu tizimda yuvib tushirishning cho'tkali uslubi va plastinalarning tasmali transportyori qo'llanilgan. Tizim quyidagicha ishlaydi.

Operator fotopolimer nusxa (1) ni qiya stol (2) ga joylashtiradi, u yerdan uni transportyor (3) ning tasma-siga ulashadi va yuvib tushirish seksiyasi (4) ga uzatiladi. Yuvib tushirish seksiyasi vanna (24) dan iborat bo'lib, uning ichida transportyor ostida tayanch stoli (7) joylashtirilgan, unda fotopolimer nusxaning polimerlanmay qolgan qismlari cho'tkalar (8) bilan yo'qotiladi.

Cho'tkalar (8) ishchi eritmaga botirilgan va ishlov berilayotgan plastina harakatlanish yo'nalishiga ko'ndalang ravishda yassi parallel harakat qiladi. Cho'tkalar harakatni shtangalar (23) dan oladi. Yuvib tushiruvchi eritmani vannaga uzatish va uning sirkulatsiyasi uchun nasos (9) xizmat qiladi. Quyish patrulkasi (6) yordamida vannada ishchi eritmaning doimiy sathi saqlab turiladi. Ishlatilgan eritma tushirib tashlash klapani (5) orqali oqizib yuboriladi. Yuvil-

gondan so'ng FBQ tozalash seksiyasining qiya stoli (10) ga kelib tushadi, bu yerda forsunkalar (21) dan uning sirtiga oldindan suv o'tkich (22) da isitilgan suv uzatiladi.



6.13-rasm. Tasmali tashish qurilmasi bo'lgan FBQga ishlov beruvchi oqim tizimi.


Tozalash seksiyasidan chiqaverishda havo tormog'i (20) o'rnatilgan bo'lib, u plastinadan suv tomchilarini puflab tushiradi.

Quritish seksiyasiga FBQ valiklar (19) yordamida cheksiz po'lat tasma ko'rinishida ishlangan transportyor (19) ga uzatiladi. FBQni quritish ishlari kalorifer (13) orqali ventilator (12) ning soplolari (18) chiqaradigan issiq havo yordamida amalga oshiriladi. Energiya yo'qotishlarini kamaytirish uchun isitilgan havo quritish kamerasidan havo eltuvchi yo'l (11) bo'ylab takroran ventilator (12) ga uzatiladi. Quritish seksiyasidan FBQ qo'shirmacha eksponirlash seksiyasiga kelib tushadi, u lyuminescent UB lampalar (17) paneli yordamida amalga oshiriladi, shundan so'ng valiklar (16) FBQni qabul qilish stoli (15) ga olib keladi.

FBQga suyuq fotopolimerlanuvchi kompozitsiyalar (SFPK) asosida ishlov beruvchi protsessorlar o'z xususiyatlariga ega. 6.14-rasmida formalovchi-eksponirlovchi qurilmada olingan fotopolimer nusxalarni ochiltirish, quritish va eksponirlash uchun xizmat qiluvchi protsessorning umumiy sxemasi keltirilgan.

Bu protsessorda operator fotopolimer nusxa (4) ni segment (3) ga joylashtiradi, segment jarayonni talab etilgan haroratda tutib turish uchun isitiladi. Fotopolimer nusxa o'rnatilgandan va mahkamlan-

gandan so'ng uni ochiltirish avtomatik tarzda yuz beradi. Silindrik segment (3) burilganda nusxa (4) havo pichog'i ostiga tushadi, soplolar (5) dan chiqqan havo oqimi — 0,4 MPa bosim ostida, havo sarfi taxminan 60 l/s ni tashkil etadi. Polimerlanmagan suyuq kompozitsiya fotopolimer nusxadan havo pichog'i yordamida puf-lab tushiriladi, natijada bosma qolipi vujudga keladi.




6.14-rasm. FBQga SFPK asosida ishlov berish uchun mo'ljallangan protsessor.

Kompozitsiya qoldiqlari olinadigan bunker (1) ga oqib tushib, manba (2) vujudga keltirayotgan UB nurlanish ta'sirida qattiqlashadi. Qolip havo pichog'i ostidan chiqayotganda u rulondan uzatilayotgan bosma (shimuvchi) qog'oz (6) kirishadi. Qog'oz qolipning sirtidagi fotopolimerlovchi kompozitsiyaning juda mayda qoldiqlarini shimib oladi. Keyin FBQ rom-panjara (7) bo'ylab sirpanib, 60 s davomida umumiy quvvati 12 kVt bo'lgan ikkita lampa (8) tomonidan UB nurlanishga duchor qilinadi. Uning oraliq qismlarini oshlash yuz beradi.

SFPK asosli fotopolimer qoliplarni quruq ochiltiruvchi bunday protsessor 30 qolip/soat unumdorlik bilan ishlov berishni ta'minlashi mumkin.

Kichik bosmaxonalar uchun kichik hajmli, ko'p operatsiyalar bajariladigan qurilmalar ishlab chiqilgan va chiqarilmoqdaki, ularda nur tushirish, yuvib tozalash, quritish va qo'shimcha nur tushirish ishlari bajariladi.

Bunday qurilmada (6.15-rasm) suvda eriydigan fotopolimerlar asosida faqat plastinalarga ishlov berish mumkin. U seksiya tipidagi payvandlangan qurilmadan iboratdir. Uning yuqori qismida nusxa-niing polimerlanib ulgurmagan qismlari yuvib tashlanadigan qurilma (1) va boshqarish pulti (2); o'rta qismida lyuminescent lampalari panelidan iborat nur tushiruvchi kamera (3) hamda ko'chma vakuum stoli (4) joylashgan. Stolda fotoqolip va fotopolimerlashuvchi plastinalarni nur tushirish oldidan tiniq plyonkalar bilan o'rash uchun mo'ljallangan qurilma mavjud. Qurilmaning quyi qismida quritish seksiyasi (5) joylangan bo'lib, u termoventilator hamda ko'chma to'rsimon javonlar bilan jihozlangan.



6.15-rasm. FBQni tayyorlash uchun mo'ljallangan ko'poperatsiyali qurilma.

Operator qurilmada ishlash chog'ida vakuum stol (4) ni oldinga surib, uning ustiga fotopolimerlashuvchi plastina, fotoqolipni joylashtiradi hamda montajni tiniq plyonka bilan o'raydi. Shundan keyin vakuum qo'shiladi hamda plyonka yuzasidagi taram-taram

o'ziqlar tekislanadi; so'ngra operator stolni qurilmaga yaqin suradi hamda plastinalarga nur tushirish uchun lyuminescent lampalar panelini ishga tushiradi.

Nur tushirilgach, operator vakuum stolidan nusxa oladi hamda uni yuvish qurilmasining magnitli plastinotutqichiga o'rnatadi. Plastinotutqich qurilmaning ko'tarma qopqog'i ichiga o'rnatilgan bo'lib, plastinaning gorizontal yassilikda aylanish uzatmasiga ega. Yuvish seksiyasi oqaruvchi vannadan iboratdir. Vannaning tubiga elastik material (masalan, penopoliuretan)dan iborat paxmoq gilamcha mahkamlangan.


Vannani qopqoq bilan yopish paytida fotopolimer nusxa paxmoq gilamchaga yaqinlashadi. Operator boshqaruv pultida yuvish uchun talab qilingan vaqtni belgilab, plastinotutqichning aylantirish uzatmasini ishga tushiradi. Suv hamda paxmoq gilamchanning ayni bir paytdagi harakati fotopolimer nusxalarning polimerlanib ulgur-magan qismlarining tezda yo'qolishiga ko'maklashadi. Yuvish natijasida yuzaga kelgan kir-chirlar oqar suv bilan kanalizatsiyaga oqiziladi. Yuvib tashlash muddati 30–40°C haroratli suvda 2–3 minutni tashkil etadi. Operator, yuvib bo'lgach, FBQni quritish seksiyasiga joylashtiradi, unga bu yerda 50°C darajagacha qizdirilgan havo puflanadi. Qo'shimcha nur tushirish asosiy nur tushirish seksiyasida amalga oshiriladi.

6.4. Qo'shimcha jihozlar

Ofset va fotopolimer bosma qoliplarni, kontaktli nusxa olish qurilmalari va protsessorlardan tashqari, tayyorlash chog'ida qoliplarga ishlov berish uchun qo'shimcha jihozlardan foydalaniladi. Jihozlarning bunday turlariga perforatsion jihozlar, FBQning oldi chetini bukish uchun jihozlar, quritish va regeneratsion qurilmalar kiradi.

Perforatsion qurilmalar fotoqolip va bosma qoliplarda turli xil ko'rinishidagi (dumaloq, cho'zinchoq, to'g'ri uchburchak) shtiftli teshiklar ochish uchun mo'ljallangan. Shtiftli (uzatmali) teshiklar chop etish chog'ida tayyorlangan bosma qoliplardan olinadigan tasvirlarni moslashtirishni engillashtiradi. Teshiklar va pazalar plastinalarning oldingi chekkasi bo'yicha (6.16-rasm) o'tkaziladi.

Fotoqolip va plastinalar nusxa olishdan oldin uzatmali teshiklar bilan perforator bilan birgalikda yetkazib beriladigan maxsus lineyka shtiftiga kiygiziladi.




6.16-rasm. Shtiftli teshikli bosma qoliplar:
 L — tasvir maydonining o'lchami; S — qolipning oldi cheti;
 D — pazlar o'rtasidagi masofa.

Shakllar, teshiklar soni va ular o'rtasidagi masofa bosish o'lchami hamda uzatmaning qabul qilingan standartiga bog'liq bo'lib, bu esa bosish mashinasining shtiftli lineykasiga mos kelmog'i lozim. Tayyor qolip bosish mashinasida ushbu lineykaning tegishli shtiftiga kitygiziladi.

Qo'lda va pedal bilan harakatlantiriladigan uzatmali perforatsion uskunalar mavjud. 6.17-rasmda qo'lda harakatlantiriladigan uzatmali perforatsion uskunaning tuzilishi ko'rsatilgan.

Uskuna quyidagi tarzda ishlaydi. Qiya karkasda (1) plastina taxminan markaz bo'yicha joylashtiriladi. Bundan oldin markazlashtiruvchi qurilmaning dastaklari tegishli ravishda karkasning cheklilariga yaqinlashtirgan holda chapga yoki o'ngga buziladi. So'ngi, dastaklardan biri (4) qurilmaning markazi sari burilgan holda plastinani siljitadi va u markazlashtiruvchi qurilma yordamida karkasda to'g'ri va aniq qilib joylashtiriladi. Plastina o'lchamiga bog'liq ravishda o'lchamga nastroyka qilish dastagi (6) eng chekka holatga o'rnatiladi. Shundan so'ng puansonlar mexanizmini harakatga keltiruvchi dastak (5) yordamida shtiftli teshiklar ochiladi. Ko'x, ya'ni g'ilof ushbu mexanizmni yopib turadi. Puansonlar

mexanizmi vaqti-vaqti bilan joylab turiladi, buning uchun kojux (2) zashyolka tugmachasini bosish orqali ochiladi.




6.17-rasm. Perforatsion uskunaning tuzilishi.

Hozirgi vaqtda polda va stol ustida ish bajariladigan turli xil perforatsion uskunalar juda ko'plab ishlab chiqarilmoqdaki, ular turli tipdagi bosish mashinalar uchun uzatma teshiklar (tuynuklar) ochish imkonini beradi.


FBQ old chekkalarini bukish uchun mo'ljallangan jihozlar. Qo'lipning old chekkasini bukish FBQni bosish mashinaning magnitli tagligiga mustahkam o'rnatilishini ta'minlaydi. Ushbu operatsiya maxsus qayishqoq, ya'ni egiluvchan dastgohlarda bajariladi (6.18-rasm). FBQ dastgoh stoliga chop etuvchi relyefi bilan quyi holda joylashtiriladi hamda uzatmali teshiklar bilan egiluvchan balkalarning uskunani shtiftlariga kiygiziladi. Siquvchi planka tushiriladi va egiluvchan balka aylantirilgan holda, qolipning old chekkasi bu-

kiladi. Shunday tarzda tayyorlangan qolip bosish mashinasiga o'rnatiladi.



6.18-rasmi. FBQ chekkalarini bukish dastgohi.

Yirik korxonalarda FBQni qayta ishlash uchun tizim oqimlar chekka old chekkalarni bukish hamda qayta ishlangan nusxalarni bukish uchun qoliplar uzatmalariga rioya etgan holda qurilmalar komplekti bilan jihozlangan (6.19-rasm).



6.19-rasm. Plastinalar chekkalarini bukish uchun qurilmalar komplekti.

Qurilmalar komplekti uchun quyidagi tarzda amalga oshiriladi. Protsessor (1) dan iborat plastina FBQga qayta ishlov berish uchun burilish seksiyasi (2) ga tushadi, u esa plastinani rolikli transporter-ga uzatadi. Transporter plastinaning chetlarini bukash va bukish seksiyasiga joylashtiradi 4 (5).

Ushbu seksiya komplektda asosiy hisoblanadi. Seksiyaga kelib tushuvchi plastina 4 (5) yuqori ta'sirli pnevmatik pirovord o'chirgichlarga ta'sir etadi, ular operatsiyalarni bajarish yuzasidan buyruq beradi. Uzatmalarga rioya etgan holda bukish, dastlabki bukish bilan birgalikda pnevmatik boshqarish asosida bukish uchun mo'ljallangan shtamp yordamida bir ish jarayoni doirasida amalga oshiriladi. Bukish bukash uchun mo'ljallangan ikkita valikli qurilma (8) yordamida, shuningdek, pnevmatik uzatma bilan jihozlangan mazkur qurilma yordamida bajariladi. Buklangandan so'ng plastinalarni stapel (7) ga taxlash uchun seksiya (6) ga joylashtirish mumkin. Buklashning avtomatik seksiyasi soatiga 200 tagacha plastinaga qayta ishlov berishi mumkin.

Quritish uskunalari. Yuqori va fleksografik bosishning fotopolimer qoliplarini faqat yuvib tozalash ishlarini amalga oshiradigan protsessorlardan foydalanish chog'ida qo'shimcha uskunalarni qoliplarni quritish uchun mo'ljallangan qurilmalarni qo'llash lozim bo'ladi.

Quritish uskunasi konstruktsiyasi FBQni qayta ishlash uchun mo'ljallangan protsessorlarning texnologik parametrlarga muvofiq bo'lishi lozim. Quritish uskunasi konstruktsiyasini ishlab chiqish chog'ida quyidagi asosiy vazifalar hal etilishi zarur:

1) uskunada bir yo'la quritiladigan qoliplarning ehtimoliy miqdori belgilangan; u nusxalarning miqdoriga teng bo'lishi lozim, bu esa qoliplarni quritish uchun ajratilgan vaqt mobaynida nusxalarga ishlov berish uchun mo'ljallangan uskunada aniqlanadi;

2) har bir qolipni uning butun ishchi yuzasi bo'yicha quritish tengligi ta'minlanadi;

3) qoliplarni quritish uskunasi kiritish va undan chiqarish paytida eritma bug'inining operatorga urilishining oldini oluvchi sharoit yaratilgan;

4) uskunani jadal sur'atda ish rejimiga kiritish ta'minlangan.

Uskunaning ko'chma javonda sonini quyidagi ifodada hisoblash mumkin.

$$N = \frac{T_{or}}{T_v},$$

bu o'rinda T_{or} — fleksografik qoliplarni quritishning o'rtacha vaqti; T_v — nusxalarni yuvib tashlashning o'rtacha vaqti.

Ko'chma javonlarning hajmi ishlov berilayotgan nusxalarning maksimal hajmidan kelib chiqqan holda bir yilga eng katta hajmdagi ishlov berilayotgan nusxalarning miqdorini belgilaydi. Masalan, agarda yuvish uskunasida 600x820 mm maksimal o'lchamdagi bir nusxani yoki 600x450 mm qolipdagi ikkita nusxani qayta ishlash nazarda tutiladigan bo'lsa, o'chog'da ko'chma javonning foydali hajmi 900x600 mm ni tashkil etishi lozim. Bu holda javonni uskunaning ishchi kamerasiga shunday joylashtirish maqsadga muvofiqi, unda javonning hajmi 900 mm ga, chuqurlik bo'yicha 600 mmga tengdir.

Quritish kamerasida havoni sirkulatsiya qilishga mo'ljallangan uskuna ishchi kamera ichidagi qizdirilgan havoni sirkulatsiya etishni ta'minlashi lozim. Bu har bir qolip maydoni bo'yicha ham, har bir javonda ham qoliplarni quritishda bir xil sharoitni vujudga keltirish maqsadini ko'zda tutadi.


Suriluvchi javonlar gorizontal joylashgan holatda ishchi kamerada havoni sirkulatsiya qilish vazifasini ado etishning ehtimol tutilgan variantlaridan biri o'qli ventilatorni mazkur kameraning orqa devoriga o'rnatilishi bo'lishi mumkin. Ventilator yordamida uzatiladigan havoning javonlari kirishi uchun kameraning orqa devori bilan har bir javonning old chekkasi o'rtasidagi oraliq, ya'ni tirqishi taxminan 50 mm dan iborat bo'lishi ko'zda tutilgan.

Havo oqimining harakat tezligi markaziy javonlar ustida kameraning yuqori va quyi javonlari ustidagiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Bu oqimlarni tenglashtirish uchun kuraklar oldida ventilator o'qiga diametri 150–170 mm bo'lgan disk o'rnatish maqsadga muvofiqdir, evaziga ventilator oldida havoning siyraklashuvi kanalda, uning harakat zonasi esa kengayadi.

Quritish kamerasida havoni sirkulatsiya qilish tizimidan foydalanish paytida quritish kamerasing oldindagi devori xizmat zonasi tomonidan havoning so'rib olinishini ta'minlash lozim. Ana shu maqsadda quritish kamerasing yon devorlarida vertikal darchalar bo'lishi ko'zda tutilgan, ular kameraning old devorida joylashtirilib, ana shular orqali nusxalarni quritish chog'ida bug'larni chiqarib tashlash amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, ushbu zonada vujudga keltiriladigan siyraklashuv xonadagi havoni javonlarning old qopqoqlarining nozikligi orqali (javonlar suzib qo'yilganda) hamda javonlar uchun teshiklar (polka yuklash uchun surilganda) orqali surib olishga ko'maklashadi. Buning natijasida eritma bo'g'inning xizmat zonasiga kirib qolishining oldi olingan bo'ladi.

Havoni sirkulatsiya qilish va bug'ni chiqarib tashlashning tanlab olingan tizimidan foydalangan holda havoning namunaviy sxemasi 6.20-rasmda keltirilgan.



6.20-rasm. Fotopolimer qoliplarni quritishning konvektiv usulining tavsiya etilayotgan sxemasi:

- 1 – quritish kamerasi; 2 – issiqlikdan saqlash g'ilofi; 3 – javon;
- 4 – quritish kamerasining yon darchasi; 5 – javonni sirkulatsiya qilish ventilatorining uzatma shkivi; 6 – qanotcha; 7 – aks ettiruvchi disk;
- 8 – yo'naltiruvchi truba; 9 – isitgichlar.

Bug'larni chiqarib tashlash mahalliy tortib oluvchi ventilatsion tizim ventilatori yordamida amalga oshiriladi. U yo bevosita quritish qurilmasiga yoki undan alohida tarzda ventilatsion tizimga o'rnatiladi. Ventilatorning samaradorligi eritma bug'ining ish zonasida yo'l qo'yiladigan darajada to'planishini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi lozim.

Amalda fotopolimer qoliplarni quritish uchun mo'ljallangan barcha mavjud qo'llanmalarda konvektiv usuldan foydalaniladi. Shu holatdan isitish elementlarining konstruksiyasi va joylashadigan yeri quritishning mazkur usulini e'tiborga olgan holda tanlab olinishi zarur.

Isituvchi elementlar quritish kamerasining yon devorlari hamda issiqdan himoya qiluvchi g'iloflar orqali hosil bo'lgan yon sirtlarida joylashtiriladi va ana shu yon sirtlar orqali quritish kamerasidan oltima bug'ini chiqarib tashlash tizimi ventilatori bilan so'rib olingan havo yuboriladi.

Issiqlik manba sifatida yo trubkali isitish elementi yoki ochiq turdagi nixrom spiral qo'llaniladi.

Trubkali isitish elementining afzalligi shundaki, ular seriyali usulga asoslangan ixtisoslashgan zavodlarda tayyorlanadi. Bu esa xizmat qilish muddatining nisbatan yuqori bo'lishini hamda ishdan chiqqan elementlarni almashtirishning soddaligini ta'minlaydi. Kamchiliklari — nisbatan yuqori inersiyalilik, parametrlarni (quvvat, kuchlanish) hamda element qolipini tanlashning cheklanganligi, havoning issiqlik berish ko'effitsiyenti pastligi, yuboriladigan havoga ko'rsatiladigan qarshilikning sezilarli darajada bo'lishi.

Ochiq nixrom spiraldan isitish elementi tayyorlanganda uning inersiyaliligi kamayadi, havoga issiqlik berish ko'effitsiyenti ortadi, pirkalinyotgan havoga qarshilik ko'rsatish pasayadi, amalda istalgan quvvat va qolipdagi elementni qo'llash imkoni paydo bo'ladi. Spiralli isitgichlarning asosiy kamchiligi shundan iboratki, xizmat ko'rsatish muddati ancha past, bu ularni ixtisoslashtirilmagan zavodlarda tayyorlash bilan bog'liqdir.

Fotopolimer qoliplarni quritishning tanlab olingan sxemasi (6.20-rasm) uchun ochiq nixrom spiral ko'rinishidagi isitgichlarni qo'llash, ayniqsa, maqsadga muvofiqdir. Ushbu isitgichlarning parametrlarini ularning umumiy quvvatidan kelib chiqib aniqlash mumkin.

Quritish uskunalarining isitish elementlari quvvati, asosan, quritish kamerasini isitishga hamda issiqlikdan saqlash uskunasi va tortuvchi qurilmaning ventilatori orqali chiqib ketadigan issiqlikning yo'qolishiga sarflanadi:

$$N_H = 1,163 \left(\frac{P}{T} + Q_{\text{dan}} + Q_{\text{vent}} \right), \quad (6.1)$$

bu o'rinda R — quritish kamerasini ishchi haroratiga qadar isitish uchun ketadigan issiqlik miqdori, Dj ; Q_{dan} — issiqlikdan himoya qilish orqali bo'ladigan issiqlik sarfi (yo'qotilishi), Vt ; Q_{vent} — ventilatsion tizim ventilatori tomonidan chiqarib yuboriladigan issiqlik sarfi (yo'qotilishi), Vt ; T — kameraning ishchi haroratiga qadar qizish vaqti, $^{\circ}C$.

$$P = m_k c_k (t_p - t_0),$$

$$Q_{vent} = V_v c_v \rho_v (t_r - t_0),$$

bu o'rinda m_k — quritish kamerasining massasi; s_k va s_v — kamera materiali va havoning solishtirma issiqlik sig'imi; V_v — havo sarfi; ρ_v — havoning zichligi; t_r — formalarni quritishning ishchi harorati; t_0 — xona harorati.


Issiqlikdan himoya qilish vositasi orqali atrof-muhitga yo'qoladigan issiqlikning FIK (KPD)ni taxminiy ravishda isitish vositasi yordamida hisobga olish mumkin, u biz guvoh bo'lgan holatda $\eta \approx 0,8$ ni tashkil etadi. U holda

$$Q_{dan} = \frac{P}{T} (1 - \eta) \quad (6.2)$$

Quritish uskunasi konstruksiyasi, ya'ni tuzilishini prinsipial sxemadan (6.21-rasm) foydalangan holda qarab chiqish mumkin.

Ushbu sxemada quyidagi belgi-alomatlar qabul qilingan: 1 — issiqlikdan saqllovchi va g'ilofli korpus; 2 — quritish kamerasi; 3 — kar-kas; 4,5,6,7,8 — tegishli havo priyomnigi, markazdan qochma ventilator, uzatmali elektrodvigatel, zaslonka (to'siq), quritish ka-merasidan eritma bug'ini chiqarib yuborish tizimining truboprovodi va xizmat ko'rsatish zonolari; 9,10,11,12 — tegishli qanotga, aks ettiruvchi disk, tasmali uzatma, isitilgan havoni ishchi kamera ichida sirkulatsiya qilish qurilmasining uzatmali elektrodvigateli; 13 — puflash teshigi; 14 — surilma javonlar; 15 — quritish kame-rasining yon darchalari; 16 — termodatchik; 17,18 — isitish ele-mentlari; 19—boshqarish pulti.

Bundan tashqari, uskunada to'rtta vaqt rele si ko'zda tutilgan bo'lib, ular uskunaning o'ng tomonidan o'rnatiladi va nusxalarni quritishning vaqtini nazorat qiladi.



6.21-rasm. Fotopolimer qoliplarni quritish uskunasi-
ning prinsipial sxemasi.

Uskunada ikkita blokirovka mavjud bo'lib, ulardan biri elektroisitgichlar (17,18) ni quritish kamerasidan eritma bug'ini chiqarib yuborish tizimi hamda havoni sirkulatsiya qilish qurilmasi ishlamay turgan paytda yoqish imkonini bermaydi; ikkinchisi quritish kamerasida havoni ishchi haroratga qarab isitish paytida yuqori javon surib qo'yilganda yuqori isitgichlar (17,18) ni yoqishga imkon bermaydi (ishchi haroratiga yetishganda mazkur blokirovka yuqori javonning holati qandayligidan qat'i nazar o'chiriladi).

Termodatchik (16) isitgichlar (17), (18) ning ishlashini boshqarib turadi, ya'ni bu bilan quritish kamerasida aytilgan haroratning doimiylikini ta'minlab boradi. Puflash teshigi quritish kamerasi to'la bo'lganda, shuningdek, isitgichlar o'chirib qo'yilgan holda ushuna shamollatilganda qiya ochib qo'yilishi mumkin.

Uskunani ishlatishga tayyorlash chog'ida operator uni tarmoqqa ulaydi, quritish uchun talab qilingan harorat bo'yicha topshiriq beradi, havoni sirkulatsiya qilish qurilmasi uzatmalari hamda quritish kamerasidan bug'larni chiqarib yuborish tizimining, isitish

elementlarining ishlashini boshqarib turuvchi tumblerlarni yoqadi; yuqori javonlarni 50–100 mm ga suradi.

Ushbu operatsiyalar natijasida quritish kamerasidan bug'larni chiqarib yuborish tizimi hamda havoni sirkulatsiya qilish qurilmasi ishlay boshlaydi. 3–5 daqiqa o'tishi mobaynida, ya'ni quritish kamerasiga havo purkalishi uchun talab qilinadigan vaqt ichida isitish elementlari avtomatik tarzda yoqiladi va yuqori javonlarning blokirovkasi o'chiriladi. Quritish kamerasidagi havo aytilgan haroratga yetishi bilan uskuna ishlashga tayyor hisoblanadi va bu haqda pultda yonadigan lampa xabar beradi.

So'ngra operator javonlarning birini oldinga suradi va unga quritilishi lozim bo'lgan nusxalarni joylashtirib chiqadi; javonni quritish kamerasiga kiritadi va quritish jarayonining talab etilgan davomiyligini belgilaydi. Ushbu muddat tugagandan so'ng ovoz va yorug'lik signali eshutiladi va operatorni jarayonning tugaganligi haqida xabardor etadi, qurigan nusxalar uskunadan chiqarib olinishi mumkin.


Regeneratsion uskunalar. Fleksografik fotopolimer qoliplarga ishlov berish chog'ida ko'pincha etilatsetat hamda perxloretilen (3:1) dan iborat eritmalar qo'llaniladi. Ushbu ishlatilgan eritmalar kanalizatsiyaga oqizish mumkin bo'lmaganligi uchun ana shu ishlatilgan eritmalar tiklash uchun regeneratsion uskunalaridan foydalanish lozim.

6.22-rasmda ishlatilgan eritmani regeneratsiya qilish uskunasi-ning prinsipial sxemasi taqdim etilgan. Uskuna distillashtiruvchi kub (1), muzlatgich-kondensator (2) hamda nasos (3) dan iborat.

Distillashtiruvchi kub (1) termohimoya (4) bilan ta'minlangan bo'lib, qayta ishlov beriladigan eritma saqlanadigan va isitiladigan kamera (4) ni, elektrisitgichli (7) moyli qobiq (6) ni, qulfli qurilma (9) ga ega bo'lgan uskunani tozalash lyukini, ya'ni tuynugi (8) ni, regeneratsiya chiqindilari oqizib yuboriladigan kran (10) ni o'z ichiga oladi. Uskunaning yuqori va yon devorlarida kuzatish dera-zalari (11) joylashgan. Distillashtiruvchi kamera pastida moyning oqizilishini tartibga soladigan qopqoq (12) mavjud. Moy harorati datchik (13) tomonidan, eritma bug'larining harorati esa datchik (14) tomonidan nazorat etib boriladi.

Kondensator (2) korpus (15), zmeyevik, ya'ni burama naycha (16) hamda issiqlik almashishi jarayonini tezlashtirish uchun mo'l-jallangan silindrli stakan (18) dan iboratdir. Kondensator chiqa-

riluvchi distillat (17) ning haroratini nazorat qiluvchi datchik bilan ta'minlangan.



6.22-rasm. Ishlatilgan eritmani regeneratsiya qilish uskunasi-
ning prinsipial sxemasi.

Moyli qobiq (6) kamida (5) litr suv sig'adigan bachok (18) bilan birlashtiriladi. Nasos (3) distillashtiruvchi kamerani yuvish uskunasi-
ning yig'uvchi baki-
dan olingan ishlatilgan eritma bilan to'ldirish uchun mo'ljallangan.

Uskunada ishlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi. Yu-
vish us-
kunasi-
ning yig'uvchi baki to'ldirilgandan so'ng operator rege-
neratsion uskunaning nasosi (3) ni ishga tushiradi hamda distillashtiruvchi kamera (5) ni uskunaning oldingi devorida joylashgan ku-

zatish derazasi o'rtasiga qadar «iflos» eritma bilan to'ldiradi. Kamera to'ldirilgandan so'ng operator datchik yordamida isitish tizimining zarur haroratini o'rnatadi (jarayonning birinchi bosqichi uchun — 165°C). Bu holda distillat eritmasining bug'i haroratining nazorat datchigi tegishli ravishda 125 va 35°C ga o'rnatilishi lozim.

So'ngra moyli qobiqning (6) isitgichlari (7) ishga tushiriladi va uskuna rejimga kiritilgandan keyin (2 soat mobaynida) distillashtirish jarayoni boshlanadi. Bu holda eritma bug'i burama naycha (16) ga ko'tariladi hamda u yerda kondensiyalanadi, ya'ni suvga aylanadi va oqizish patrubkasidan oqib tushadi. Oqib tushayotgan distillatning harorati datchik (17) tomonidan nazorat etib boriladi. Distillashtirish kamerasiidagi bug' va distillatning o'zining harorati ko'rsatilganidan yuqori bo'lgan taqdirda moyli qobiq isitgichlari o'chiriladi.

Distillashtirish jarayoni amalda kameradagi bosimni atmosfera bosimidan oshirmasdan olib boriladi. Biroq kondensator burama naychasi ifloslangan hollarda kamerada bosimini oshirish mumkin.

Uskuna, ana shunday holatni e'tiborga olib, 0,5 kgs/sm² bosimga sozlangan saqllovchi klapan (19) bilan ta'minlangan, bu bosimdan yuqori hollarda kameradagi eritma bug'ining yo'qolishi ro'y beradi. Distillashtiruvchi kameradagi bosimni nazorat etish manometr (20) bo'yicha amalga oshiriladi.

Distillashtirish jarayonini kuzatish derazasi (11) orqali kuzatib borish mumkin, bu holda bitta derazadan pastdan salgina yoritib turish uchun foydalaniladi. 5–6 soat o'tgandan keyin distillashtirish jarayoni sekinlashadi, moy haroratining zaryadchigi 195°C haroratga o'tkaziladi hamda eritmaning og'ir cho'kindilarini yanada qayta ishlash amalga oshiriladi. Regeneratsiya jarayoni tugagandan so'ng, ya'ni qabul sig'imi 200 l qayta ishlangan eritma bilan to'ldirilgach, jarayon samaradorsiz bo'lib qoladi (distillatning oqizish patrubkasi orqali sarflanishi keskin pasayadi), operator uskunani to'xtatadi hamda u sovib bo'lgandan keyin quyqa kran (10) orqali maxsus lotokka oqiziladi, u yerda quyqa qipiqalar bilan aralashtirilib, quritiladi. Ishlatilgan quyqa briket ko'rinishida qayta tiklanadi.

Regeneratsiya jarayonlari uch-besh marta o'tkazilgach, distillashtirish kamerasiining ichki devorlari yopishib qolgan quyqalardan tozalanadi. Operator buning uchun qulflash qurilmasi (9) yordamida lyuk (8) ni ochadi, maxsus qirgich va metall cho'tkalar bilan kamera devorlarini tozalaydi.

Distillashtirish kamerasini tozalashni yaxshilash uchun regeneratsiya oldidan eritmaga 100 litr eritma uchun taxminan 3 kg parfin qo'shiladi. Qayta ishlangan eritmaga o'zgartiruvchi qo'shimcha solinadi.

Regeneratsion uskuna har biri 250 litrdan sig'imga ega bo'lgan ikkita standart bochkalardan (mazkur bochkalar buraladigan qop-qoqlarga ega), «iflos» va tozalangan eritmalarini chiqazib yuborilishi uchun mo'ljallangan shlanglar, uskunani tozalash va xizmat ko'rsatish asboblariidan tashkil topadi. Boshqarish pult alohida xonada joylashtiriladi.

Nazorat savollari

1. Ofset bosma qoliplarga ishlov berish protsessorlar.
2. Ishlov berish protsessorlarning tuzilish sxemasi.
3. Fotopolimer bosma qoliplarga ishlov berish protsessorlar.
4. Fotopolimer bosma qoliplarga ishlov berish uchun tizim oqimlari.
5. SFBQ asosidagi fotopolimer bosma qoliplarga ishlov berish protsessorlar.
6. Qo'shimcha jihozlar.

VII bob

KOMPYUTER-BOSMA QOLIP SISTEMALARI

Computer-to-Plate (kompyuter-bosma qolip) texnologiyasi — bu kompyuter orqali olingan raqamli ko'rsatmalar asosida u yoki bu usul orqali qolipda tasvir hosil qiladigan, bosma qolip tayyorlanadigan usuldir. Jarayon mobaynida oraliq yarim mahsulotlar: fotoqoliplar, reproduksiyalanadigan asl nusxa-maketlar, montajlar va boshqalar ishlatilmaydi.

7.1. Umumiy ma'lumotlar

Computer-to-Plate (CtP) o'z mohiyatiga ko'ra kompyuter orqali boshqariladigan bosma qolip tayyorlash jarayoni tasvirni to'g'ridan-to'g'ri qolip materialiga yozish usulidan tashkil topgan. Bu jarayon eng aniq bo'lib, raqamli ko'rsatmalar orqali tayyorlangan har bir plastina birinchi asl nusxa hisoblanadi hamda bir yoki bir necha lazerlar bilan bajariladi. Natijada chiqayotgan tasvirning butun diapazon bo'yicha aniqligi, rastr nuqtasining kam rastrlanishi bosish mashinada ta'minlanadi.

Computer-to-Plate texnologiyasi matbaachilarga 30 yildan ortiq tanishdir. Lekin keyingi besh yil ichida bu texnologiya juda keng tarqala boshladi. Chunki uning keng yoyilishi, kirib kelishi uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan. Qolip materiallarini to'g'ridan-to'g'ri lazer yordamida yozishda yuqori samarali uskunalar paydo bo'ldi, nashrlarni nashrgacha tayyorlashning ishonchli tezkor dastur vositalari vujudga keldi.

CtP texnologiyasining kirib kelishi an'anaviy fotonabor va bosma qolip tayyorlash jarayoni texnologiyasiga qaraganda ko'p afzalliklarga ega:

— bosma qolipni tayyorlashga ketgan vaqt qisqaradi (fotomaterialga qayta ishlov berish, qolip plastinalariga fotoqolipdagi tas-

virni o'tkazish, eksponirlangan plastinalariga ishlov berish kabi jarayonlar qisqaradi);

— ishlab chiqarishdan fotonabor avtomatlar, ochiltirish mashinalari, nusxa ko'chiruvchi ramalar chiqariladi, natijada ishlab chiqarish maydoni, texnikaga ketadigan mablag', elektroenergiyaga qilinadigan sarf-xarajat tejaladi, ishchi o'rinlari qisqaradi. Kichik adad uchun ham to'g'ridan-to'g'ri plastinalarni eksponirlash (ularning qimmatligiga qaramay) iqtisodiy tomondan tejamli chiqadi. Chunki fotoqolipni tayyorlashga xarajat qilinmaydi;

— bosma qolipdagi tasvirning sifati yuqori bo'ladi, chunki fotomateriallarni an'anaviy qayta ishlash va eksponirlashda paydo bo'ladigan nuqsonlar qisqaradi. Qoliplarni to'g'ridan-to'g'ri eksponirlash jarayonida plyonkalar montaj qilinmaydi;

— plyonkaga kimyoviy ishlov berilmasligi natijasida matbaa korxonalaridagi ekologik sharoitlar yaxshilanadi. Texnologik jarayon va ishlab chiqarish madaniyati yuksaladi.

Computer-to-Plate texnologiyasining Computer-to-Film texnologiyasi oldida ancha afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay, CtP texnologiyasi tez sur'atlar bilan o'zlashtirilmayapti. Bu jarayon hozirgi kunda ko'p matbaachilik korxonalari uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Boshlang'ich sarmoyalar bilan bog'liq muammolar. Agar ishlab chiqarishda katta o'lchamli (A1 va undan yuqori) bosish mashinalari ishlatiladigan bo'lsa, CtP texnologiyasining o'zlashtirilishi uchun juda ko'p boshlang'ich sarmoyalar talab qilinadi. Chunki tarkibiy bosma qoliplaridan bosish umuman mumkin emas. Bosish mashinasidan to'laqonli foydalanish uchun to'liq o'lchamdagi qoliplarni eksponirlash kerak. Bu o'lchamdagi CtP sistemasining xaridi arzon emas. Katta bo'lmagan o'lchamdagi FA orqali har xil sahifaning montajini qo'lda bajarish mumkin, undan so'ng uncha qimmat bo'lmagan nusxa ko'chiruvchi ramada to'liq o'lchamdagi qolipni tayyorlash mumkin.

Korrektura nusxalari bilan bog'liq muammolar. Katta o'lchamdagi korrektura nusxasini olish juda qiyin kechadi. Chunki hatto A2 o'lchamdagi korrektura oladigan printerlar mavjud emas. Buning natijasida korrekturani kichiklashtirib A3 o'lchamga chiqarishga to'g'ri keladi. Bu esa oddiy matnning 4–5 marta kichrayib ketishiga olib keladi va matnning o'qilishi qiyinlashishiga olib keladi. Agar katta o'lchamdagi fotoqolipning chiqishida vizual nazorat qilish mumkin bo'lsa, bosma qolipni o'qish noqulay bo'ladi.

Chunki undagi tasvirning kontrastligi kam bo'ladi. Tayyor bo'lgan bosma qolipning sifatini tekshirish uchun namuna oluvchi bosish uskunada (probopechatniy stanok) yoki bosish mashinadan olingan nusxaning sifatini tekshirish mumkin. Nusxadagi har bir noaniqlik butun jarayonning boshidan bajarilishiga olib keladi.

Operatorning malakasiga qo'yiladigan yuqori talablar. CtP texnologiyasida bosishgacha bo'lgan jarayon an'anaviy jarayonga qaraganda ancha puxta bajarilishi kerak. Bosma qolipda barcha kerakli elementlari qog'ozda qanday bo'lsa, shunday tartibda o'zida mujassam bo'lishi lozim. Bunda sahifani kesish va buklash, nazorat shkalasini aniqlash kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, operator-dan yuqori malaka va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Hozirgi kunda ofset va fleksograf bosish usulida ofset hamda fotopolimer qoliplar tayyorlashga mo'ljallangan CtP sistemasida 3 xil asosiy turdagi rekorder — lazerli eksponirlash uskunasi-dan foydalaniladi (7.1-rasm):

- barabanli, tashqi baraban texnologiyasi asosida bajarilgan. Bunda qolip aylanayotgan silindrning tashqi yuzasida joylashgan (7.1.a-rasm);

- barabanli, ichki baraban texnologiyasi asosida bajarilgan. Bunda qolip aylanmaydigan silindrning ichki yuzasida joylashgan (7.1.b-rasm);


- planshetli, bunda qolip gorizontal tekislikda joylashgan bo'ladi va tasvirning yozilishi yo'nalishiga perpendikulyar holatda harakatsiz yoki harakatda bo'ladi (7.1.d-rasm).

Plastinalarni amalda eksponirlash uchun ko'pincha ichki barabanli rekorder deb ataladigan yoki barabanning ichki yuzasiga yozadigan rekorderlar qo'llaniladi (7.2-rasm).


Ichki barabanli ham, tashqi barabanli ham qurilishiga ko'ra o'ziga xos kamchilik va afzalliklarga ega. Afzalliklaridan biri nurlanishning birgina manbasi yetarli bo'lishi tufayli yuqori aniqlikda yozishga erishish, nurlanish manbasining qulay almashtirilishidir.

Tashqi barabanli qurilmalar shunday afzalliklarga egaki, ular ko'p sonli lazer diodlarining katta o'lchamlarni eksponirlash mumkinligidir.

Ularning kamchiligiga kelsak, ko'p miqdordagi lazer diodlarining va axborot kanallarining qo'llanilishidadir. U va bu holda ham termosezgir qolip plastinalarini eksponirlash spektrning infraqizil sohasida bajariladi. Bunday eksponirlash energiyaning ko'p sarflanishini talab qiladi.



7.1-rasm. Qolip plastinalarini eksponirlash usullari.



7.2-rasm. Gutenberg «Computer-to-Plate» sistemasining tuzilishi.

Yozilish tezligi bo'yicha ikki texnologiya ham nazariy jihatdan ayni bir xil natijani ta'minlashi kerak. Amaliyotda bu aksincha ko'rinadi. Fotonabor avtomatlarida o'chiruvchi elementlarning aylanish chastotasi 50000 aylanma/daqiqagacha boradi. Bosma qoliplarga yozishda rekorderlarning tezlik xususiyatlari qolip materialining sezgiriligiga bog'liq.

Shunday qilib, CtP sistemasi taraqqiyotining keyingi oqimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 70x100 sm li bosma qolip o'lchamlariga tasvir yozilishining ikki prinsipi uchun bir xil sharoit mavjuddir. Yozishning planshet usuli tashqi baraban bilan yaratilayotgan qurilmalarning miqdori bo'yicha deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Lekin gazeta ishlab chiqarish uchun 50x70 sm o'lcham ustun keladi.

Hozirgi kunda bosma qoliplarni eksponirlash rekorderlarida lazerli yorug'lik manbalarining 6 turi ishlatiladi:

- 1) 488 nm to'lqin uzunlikdagi geliy-ionli havorang lazer.
- 2) 633 nm to'lqin uzunlikdagi geliy-neonli qizil lazer.
- 3) 670 nm to'lqin uzunlikdagi kam quvvatli qizil lazer diod.
- 4) 830 nm to'lqin uzunlikdagi infraqizil lazer diodi. Yuqori energetik sarflarni talab qiladigan va tashqi barabanli rekorderlarda qo'llaniladigan termosezgir plastinalarni eksponirlashda keng tarqalgan.
- 5) 1064 nm to'lqin uzunlikdagi ittriy — alyuminiy NDYAG kuchli infraqizil lazeri. U quyidagi afzalliklariga ko'ra CtPning barcha sistemasida qo'llaniladi:

- to'liqning katta bo'lmagan uzunligi 10 mkm diametrdagi dog' hosil qilish imkonini beradi;

- Yorug'lik tolalaridan yorug'lik o'tkazgichlardan o'tayotgandagi minimal yo'qotishlar va lazer qurilmalari tuzilishini yengillashtiradigan modullashtirish osonligi.

6) 532 nm to'liq uzunlikdagi NDYAG ikki chastotali ittriy-alyuminiy granatasidagi yashil lazer.

Fleksograf va yuqori bosma uchun fotopolimer qolip plastinalari fotopolimerli kompozitsiyalarni o'z ichiga oladi. Yuzaning eksponirlangan maydonlari ishlov berish davomida texnologik ishqorlarda erish qobiliyatini yo'qotadi. Buning natijasida bosiluvchi elementlari hosil bo'ladi. Eksponirlanmagan maydonlar ishqor bilan yuvib tashlanadi, oqibatda oraliq elementlari paydo bo'ladi.

Ofset bosmasining qog'ozli, polimerli va metall tagliklardagi qolip plastinalari eksponirlash va kimyoviy ishlov bergandan so'ng galogen-kumushli yuzaning qatlamida bosiluvchi hamda oraliq elementlar hosil bo'ladi.

Qog'oz asosida olingan ofset bosma qoliplari 5000 nusxagacha chidaydi. Lekin qog'oz asosining plastik deformatsiyasi tufayli ofset va qolip silindrlarning kontakt qismida tasvirning shtrixli hamda rastri nuqtalari yo'qoladi, shuning uchun qog'ozli qoliplar faqat bir bo'yoqli bosmada ishlatilishi mumkin. Polimer asosli qoliplarning maksimal adadga chidamliligi 20000 nusxadir.

Ko'p qatlamli tuzilishni o'zida aks etgan gibriddi qolip plastinalari galogen-kumushli emulsiya qatlamidan, nusxalovchi qatlamdan va metall taglikdan tashkil topgan.

Bosma qolip tayyorlashning texnologik jarayoni eksponirlashdan so'ng galogen-kumushli emulsion qatlamning kimyoviy-fotografik ishlov berilishini o'z ichiga oladi. Galogen-kumush qatlam sifatida negativ fotografik emulsiya qo'llaniladi. Pozitiv nusxalovchi qatlam ortonaftoxinondiazidlar asosida shakllangan bo'lib, kimyoviy-fotografik ishlov berishga chidamlidir. Ofset bosish usulida bunday qoliplarning adadga chidamliligi 250000 nusxani tashkil qiladi.

Fleksografiya bosma qoliplari uchun gibriddi qolip plastinalarini ham ishlatish mumkin. Bu holda oltingugurtli qatlam bilan birga eksponirlash paytida fotopolimer qatlamida kimyoviy — fotografik usulida qayta ishlov berilayotgan paytida qo'shimcha eksponirlanadi. Shundan so'ng texnologik eritma bilan birga yuqori oraliq va bosiluvchi elementlar yuviladi. Qolipga lazerning 830 nm va undan yuqori bo'lgan to'liq uzunligi bilan bosiluvchi element-

lar yoziladi. Qolip bosiluvchi va oraliq elementlari termoqatlamidagi issiqlik gidrofildan gidrofobga o'tadi yoki diffuziya prinsipiga asosan tasvir ko'p qatlama yoki 2 ta qatlam hisobiga IK nurlanishidan so'ng bosiluvchi va oraliq elementlari har xil qatlamlardan tashkil topadi va mikrorelef tasvir hosil bo'ladi.

Termoplastina yorug'lik nuriga sezgir emas, shuning uchun eksponirlashdan so'ng «ho'l» usulida qayta ishlanmaydi. Muta-xassislarning aytishicha, kelajakda faqat termoplastinalar texnologiyasidan foydalaniladi. 7.1-jadvalda qolip plastinalarining yaxshi va yomon tomonlari berilgan.

7.1-jadval

Plastina nomi	Afzalligi	Kamchiligi
Kumush diffuziyasi DuPont/Silver lith/ Lithostar	imkonli qobiliyati yaxshi; arzon, argon, quvvati kam lazer yordamida eksponirlash mumkin; ishlov berishda standart kimyoviy eritmalar qo'llaniladi; an'anaviy yoki raqamli usul bilan eksponirlash mumkin	adadga chidamliligi past; kumush ishlatilganligi uchun qimmatroq; ishlov berilishi qimmat
Kumush galoid va fotopolimer Polychrome/C TX Fuji/FHN	qayta ishlangandan so'ng qolip oddiy qolipdek tasvir hosil qiladi; matbaada qo'llaniladigan har xil lazer bilan eksponirlash mumkin; an'anaviy yoki raqamli usul bilan eksponirlash mumkin	qimmat ishlov berish mashinasi kerak
Yorug'likni sezuvchi fotopolimer Hoechst/N90 Mitsubishi/LA /LY-1 Anitec/Electra	qayta ishlangandan so'ng qolip oddiy qolipdek tasvir hosil qiladi; qolipning qatlamiga qarab oddiy standart suv eritmasida ham ishlov berilishi mumkin	qayta ishlashdan oldin dastlabki qizdirish zarur
Issiqlikni sezuvchi fotopolimer Kodak/Digital Printing Plate/IR	qayta ishlangandan so'ng qolip oddiy qolipdek tasvir hosil qiladi; qolipning qatlamiga qarab oddiy standart suv eritmasida ham ishlov berilishi mumkin	qayta ishlashdan oldin dastlabki qizdirish zarur

Digital Printing Plate va Kodak firmasidagi termoplastinalar eksponirlash uchun keng qo'llanilmoqda. Bu plastinalarda olingan tasvirni imkonli qobiliyati — bir dyumda 600 chiziq. Shu sababli termotishlov berilmagan qolipning adadga chidamliligi 25000 nusxa, agar ishlov berilsa, unda 1 mln. nusxa olish mumkin. Eksponirlashdan so'ng qayta ishlov berish jarayonining to'rtta bosqichi 9 daqiqa ichida bajariladi.

Dastlabki qizdirish: plastinaning ustki qismi 130–145 gradusda 30 s davomida qizdiriladi, bosiluvchi elementlar mustahkamlanadi, oraliq elementlar esa yumshaydi.

Sovitish. Qizdirilgandan so'ng, ochiltirishdan oldin plastina sovutiladi.

Ochiltirish Yuvish eritmasiga solib cho'tka bilan ishlov beriladi, filtrlanadi va quritiladi.

Qizdirish. Plastinaga qayta ishlov berilgandan so'ng uni 200–220°C gacha qizdiriladi va bu uning adadga chidamliligini oshiradi.

Elektra plastinalarga ishlov berish 2 seksiyaga (ochiltirish va gummirlash) ega bo'lgan ochiltirish protsessorida 0,75 m/min tezlik bilan bajariladi. Plastinalarning adadga chidamliligini oshirish uchun ular qayta ishlengandan so'ng kuydiriladi. Kuydirish 250°C haroratda uch daqiqa davomida bajariladi.

TP830 plastinalari spektorning ikkita sezgir maydoni bilan xarakterlanadi. CtP sistemasidagi raqamli eksponirlashda termik sezgirlik (830 nm) ishlatiladi, oddiy nusxalashda esa ultrabinafsha sezgirlik (380–400 nm) qo'llaniladi.

Bu plastinalar adadga chidamliligi, tasvirning yuqori liniatura-da yozilishi bilan alohida ajralib turadi. Oddiy nuqtaning minimal o'lchami 4,8 mkm ni tashkil etadi. Bunda 1% li rastr va dumaloq nuqta 600 lpi liniaturaga mos tushadi.

Agar adadga chidamliligini oshirish talab qilinsa, u holda kuydiriladi. Plastinalarga ishlov berish oddiy yorug'likda bajariladi (qorong'u xona talab qilinmaydi).

TP830 plastinalari 60 s davomida 140°C da ishlov berishdan oldin dastlabki qizdirishni talab qiladi.

Plastinalarning asosiy texnik xususiyatlari:

emmulsiya turi — termopolimer;

asos materiali — anodlangan alyuminiy;

qalinligi — 0,14; 0,2; 0,3; 0,38; 0,5 mm.

Yorug'lik spektri bo'yicha sezgirligi:

analogli jarayon — 380–400 nm;

raqamli jarayon — 750–880 nm;
rastrning maksimal liniaturasi — 300 lpi gacha;
kuydirishsiz adadga chidamliligi — 250000;
kuydirish bilan adadga chidamliligi — 1000000 gacha;
ishlov berish jarayoni — negativ (pozitiv reaktivlar qo'llanilsa ham);

dastlabki qizdirish talab qilinadi;
oddiy yorug'likda ishlov beriladi.

CtP sistemasining ofset qolip tayyorlashda yuqori sifatli raqamli jarayonni ta'minlaydigan ilk sistemasi Gutenberg hisoblanadi. Lynotype-Hell firmasi tomonidan Drupa-95 ko'rgazmasi Gutenberg sistemasi namoyish etilgan. Bu sistema «ichki baraban» texnologiyasi asosida bajarilgan.

Hozirgi kunda Neidelberg Prepress va Creo firmalari qolip plastinalarini eksponirlashda Trendsetter rekorderlarini ishlab chiqarishmoqda. Unga Trendsetter 3230, Trendsetter 3244, Trendsetter AL, Trendsetter Spectrum modellari va ularning modifikatsiyalari, shuningdek, Platesetter-3244 rekorderlari kiradi. Bu rekorderlar «tashqi baraban» texnologiyasi asosida qurilgan bo'lib, eksponirlash uchun 830 nm to'lqin uzunlikdagi lazer diod bilan ishlaydi.

Aniq rangli tasvimi, mayda rastrlarni yuqori sifatli bosish bilan bir qatorda hozirgacha RIP ning texnologik imkoniyatlari cheksiz. Gutenberg sistemasi eksponirlash qurilmasi axborotni ikkita o'zaro bog'langan RIP dan oladi. Bundan tashqari, bu tizimning loyihaviy va texnologik imkoniyatlari eng qiyin buyurtmalarni ham intensiv rejimda qayta ishlash imkonini beradi.

Lazer yordamida eksponirlanayotgan ofset plastinalar, diazo-plastinalarga nisbatan yorug'likka o'ta sezgirdir, shuning uchun lazerli eksponirlash qurilmasi qorong'i xonada yoki unda kasseta bo'lishi shart, shunda plastinalar kunduzgi yorug'likda ham eksponirlash qurilmasiga o'rnatilishi mumkin bo'lsin. Gutenberg rekorderlari asosan katta o'lchamga ega va kunduzgi yorug'likda ham ishlatiladi. Shuning uchun kasseta ishlab chiqilgan va kassetaga 0,15 mmli 100ta ofset plastina sig'adi. 0,3 mm qalinlikdagi to'liq o'lchamidan 60 tasi sig'adi. Kassetani plastinalar bilan to'ldirilgandan so'ng uning yuzlari berkitiladi. Shundan so'ng rolikli karetkaga o'rnatilgan kasseta harakatlanadi va yetkazib berish mexanizmiga joylashadi. Avtomat himoya qog'ozini olib tashlaydi, plastinani kassetadan oladi va uni rekorderning eksponirleydigan qis-

miga yetkazib beradi. Navbatdagi jarayon avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Rekorder uchta uzviy bog'langan qurilmalardan iborat: kiritish; eksponirlash; chiqarish.


Plastinani kiritish qurilmasi bosma plastinasini ichki barabanli eksponirleydigan qurilmaning o'rtasigacha yetkazib beradi. Bu yerda plastina barabanga o'rnatiladi, vakuum hosil qilinadi, eksponirlanadi, shundan so'ng plastina chiqarish qurilmasi yordamida ochiltirish seksiyasiga yuboriladi.

Plastina ichki barabanli eksponirleydigan qurilmadan vertikal holatda chiqadi, chiqarish qurilmasiga tezgina o'tkaziladi va u yerda ochiltirish mashinasiga to'g'ri kirishi uchun aylantirib qo'yiladi.

Eksponirleydigan qurilmada plastinada shtift uchun teshiklar tasvir hosil qilishdan tashqari ham amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi plastina turiga ko'ra ochiltirish mashinasi turini tanlaydi. Polychrome CTX singari yuqori sezgirlikka ega plastinalar uchun 10 mVt li eksponirlash lazeri kerak bo'ladi.

Rekorderning optik sistemasi (7.3-rasm) tasvirlarni yuqori aniqlikda 1270, 1692, 2540 va 3386 dpi yechim bilan yozish imkonini beradi. Bu sistemada 532 nm yoki 1064 nm li ND YAG lazer nuri (1) zatvor (2) va tekis plastina (3) dan o'tib, akustooptik modulyator (4) yordamida modullanadi. Talab qilinadigan yechimga ko'ra (5) dagi optik o'qqa lazer nuri aperturasini o'zgartiradigan linza o'rnatiladi.



7.3-rasm. Gutenberg rekorderning optik sxemasi.

Lazer nurlanish quvvatini fotodiod (6) nazorat qiladi. Quvvatni susaytirish va uni plastinaning yorug'likka sezgir holatiga moslash uchun (7) va (12) turellarda joylashgan yutuvchi yorug'lik filtrlari xizmat qiladi.

Ko'zgu (9) qo'zg'almas, ko'zgu (8) esa o'z holatini ikkita koordinata o'qi bo'yicha o'zgartirishi mumkin. Ko'zgu (8) holatining o'zgarishini pezelement ta'minlaydi. Ko'zgu (8) ning chekinish qiymati va yo'nalishini fotodiod datchik (11) aniqlaydi. (10) va (8) datchik fazodagi nurning sistema elementlarini korrekturalaydi. Bu xatoliklar (10) optik kallakning mexanik harakatlanishiga bog'liq.

(9) oyna o'zining lazer nurini (12) tunneldagi yorug'lik filtrlari (13) orqali o'tkazib fokusirovkalaydi. Nuqta-rastr katorlarni qo'zg'almas baraban (17) ning ichki yuzasiga vakuum sistemasi orqali mustahkamlangan qolip plastinaga yozilishini pentaprizma 15 ta'minlaydi.


Pentaprizma (15) elektrodvigatel (16) ga mustahkamlangan bo'lib, obyektiv (13), turel (12) va datchik (11) optik kallak (10) ga kiradi. Optik kallak (10) ning harakatlanishi, ya'ni tasvirning plastinaga tushirilishi, pentaprizma (15) ning harakatlanishiga bog'liq. Gutenberg rekorderi bir soatda 6 tadan 8 tagacha plastina tayyorlashi mumkin. Rekorderning o'lchami 5,16x1,7x1,3 m, agar ishlov berish protsessori qo'shilsa, unda uzunligi 10 metrdan oshib boradi, bu esa uning kamchiligi hisoblanadi.

7.2. Termoplastinalarga tasvir yozish texnologiyasi

An'anaviy texnologiyalardan farqli ravishda CtPda lazer ko'rinadigan to'liq diapazonida ishlaydi, termoekspozitsiyada lazer nurining issiqlik energiyasidan foydalaniladi. Uning yordamida bosma qolip plastinasi yuzasida tasvir nuqtalari hosil qilinadi.

Trendsetter va Platessetterda kuchli lazerli diod qo'llaniladi (to'liq uzunligi 830 nm). Plastina faqat infraqizil nurlanish spektriga ta'sirlanadi va ko'rinuvchi yorug'likka sezgir emas. Bu bir qancha qulayliklar yaratadi, chunki bunday plastinalar bilan ishlashda qorong'u xona talab qilinmaydi.

Termoplastinalar alyumin asosga surtilgan emulsiya qatlamiga ega (7.4-rasm). Lazer bilan ekspozitsiyada emulsiya qiziydi, bu paytda emulsion qatlamda kimyoviy reaksiyalar hosil bo'ladi va bu qattiqlashini tezlashtiradi.




7.4-rasm. Termoplastinalarga tasvir yozish:

1 – emulsiya qatlami (termopolimer), 2 – alyumin asosi, 3 – lazer nuri,
 4 – eksponirlangan polimer, 5 – qizdirish elementi, 6 – bosiluvchi
 elementlar, 7 – ochiltirgich, 8 – bosma bo'yog'i.

Lazer bilan eksponirlanmagan maydonlar ochiltirgich bilan yuviladi va protsessorida cho'tka bilan tozalanadi. Navbatdagi kuydirish emulsiyani qattiqlashtiradi, bu esa bosma qolipni adadga chidamliligini uzaytiradi.

Ochiltirish natijasida bosma qolipda hosil bo'lgan bosiluvchi elementlar bosish mashinasida bo'yoq bilan moylanadi. Termo-plastinalarni eksponirlash texnologiyasi yordamida ofset bosma qolip tayyorlashda 3 ta asosiy qurilmadan iborat uskuna kompleksi kerak: termoeksponirlash uchun rekorder, kuydirish uchun moslama va plastinalarni ochiltirish uchun protsessor (7.5-rasm).



7.5-rasm. Bosma qolip tayyorlash uchun uskunalar majmui.

Bosma qolipning sifati protsessor va uskunalarining quyidagi xususiyatlariga bevosita bog'liq:

- rekorder uchun —urning fokusirovkasi, lazerning quvvati, barabanning aylanish chastotasi;
- dastlabki kuydirish uchun moslamada — harorat (juda yuqori bo'lganda — vullanadi, juda past bo'lganda — tasvir qismlari yuvilib ketadi), transportyorning tezligi;
- protsessor uchun — siljish tezligi (yuqori bo'lganda — vullanadi, past bo'lganda — tasvir qismlari yuvilib ketadi); ochiltirgichning harorati (juda yuqori bo'lganda — vullanadi, juda past bo'lganda — tasvir qismlari yuvilib ketadi, ochiltirgichdan foydalanish muddati kamayadi); ochiltirgichning qo'yilish tempi (juda yuqori bo'lganda — kimyoviy eritma yo'qotiladi, juda past bo'lganda — ochiltirgichdan foydalanish muddati kamayadi); ochiltirgichning tayyorlangan muddati (juda eski bo'lganda — vullanadi).

Ko'p tusli tasvirning rastrlanishi va rastr maydonlari yuqori sifatli bosma mahsulot olishda asosiy ahamiyatga ega. Bosishgacha

bo'lgan raqamli texnologiyada rastr nuqtasi turli formulalar bo'yicha hisoblangan dasturlar yordamida hosil qilinadi. CtP texnologiyasida rastr nuqtasi birinchi bo'lib bosma qolip plastinasida hosil bo'ladi va bosish jarayoni natijasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Agar rastr nuqtasi siljigan bo'lsa va bosish jarayonida uning fizik kattalashishini saqlash mumkin bo'lmasa yoki namlanish va bo'yoq bo'yicha cheklanishini aniqlash mumkin bo'lmasa, bu siljishlar bosish jarayonida kuchayib boraveradi. Rastr nuqtasining siljigan ko'rinishi, ayniqsa, u bosma qolipda qanday bo'lishi va olingan nusxada qanday bo'lishi «rastiskivaniye» deyiladi.

«Rastiskivaniye» bosish jarayoni normal yo'nalishdan cheklanishining va mahsulot sifati pasayishining asosiy sababidir.

Termoplastinalar eksponirlash energiyasining faqat ma'lum to'lqin uzunligiga sezgirligidir. Agar energiya kam bo'lsa, plastina eksponirlanmaydi: agar ko'p bo'lsa, bunda ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Mana shunday («ha-yo'q») raqamli xususiyat yordamida qoliplarning sifatini nazorat qilish mumkin.

Albatta, termoeksponirlashning barcha tizimlari bir xil emas. Ko'pgina tizimlar quyidagicha ishlaydi:

Raqamli eksponirlash butunicha rastrga bog'liq holda kvadratlar ko'rinishida xotiraga joylanadi, odatda 1 dyuymga 2400 ta. Mayda dumaloq rastr nuqtalari bir-biriga nisbatan shunday joylashishi kerakki, natijada kerakli shakldagi rastr nuqtasi hosil bo'lsin, masalan, aylana, ellips va boshqalar. Eksponirlovchi lazer nuri doim dumaloq, bunda nuqta kvadrat rastr to'riga mos kelmaydi va natijaviy rastrda bo'shliq bo'lmasligi uchun kattaroq berilishi kerak. Bu qolipdagi nuqta o'lchamlarining kattalashishiga olib keladi. Lekin shu narsa ahamiyatliki, bunday lazer nuqtasining energiyasi markazdan boshlab chekkalariga qadar kamayadi. Shunga bog'liq ravishda plastinaning plastina eksponirlanish boshlaydigan energiya qiymati aniq emas.


Bu ikki muammo — aniqlikka, jarayonning muhimligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi lazer nuqtasining shakli va uning tarqalish energiyasining profili — Trendsetter va Plassetter rekorderlarida hal qilingan.

Sreo firmasining natijasi shuki, plastina kvadrat lazer nuqtasi bilan eksponirlanadi, bunda maydon bo'yicha lazer energiyasining markazdan boshlab chekkalarga farq bilan tarqalishi deyarli yo'q. O'zining shakliga ko'ra kvadrat nuqtalar bir-biriga mos joylashadi va kerakli shakldagi rastr nuqtasini olish imkonini beradi. Bunda

bosish mashinasini sozlash vaqti kamayadi, chiqindilar ham ko'p bo'lmaydi. Rastr nuqtasi va uning o'zgarishi bilan bosishda vujudga keladigan muammolar deyarli yo'qotiladi. Plastinani mashinaga o'rnatgandan so'ng ishni adadni bosishdan boshlayverish mumkin.

7.3. Chuqur bosish usuli uchun bosma qoliplarni elektron-o'yish avtomatlarida tayyorlash

Hozirgi davrda chuqur bosish usulidagi bosma qoliplar asosan nashrlarni chop etish oldidan chiqaruvchi tizim qurilmalari sifatida elektromexanik va lazerli-o'ymakor avtomatlaridan foydalanib, CtP texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqiladi. Chuqur bosish usulidagi bosma qoliplar — bu uzunligi 3,5 metrgacha bo'lgan po'lat silindr, uning yuzasiga qalinligi 2 mm bo'lgan asosiy mis qatlami (7.6-rasm) va qalinligi 100 mkm bo'lgan yupqa ishchi qatlami (adad ko'ylagi) yotqizilgan. Chuqur bosish usulidagi bosma qoliplarning adadga chidamliligini oshirish uchun yupqa xrom qatlami (5–8 mkm) qoplangan.




7.6-rasm. Chuqur bosish usulidagi bosma qoliplarning strukturasi.

Chuqur bosish usuli uchun bosma qolip tayyorlash jarayoni— uzoq vaqt egallaydi va murakkab jarayondir, unda silindr yuzasiga mis, nikel va xrom qatlamlarini o'stirish uchun galvanika uskunalaridan, silindrga mexanik ishlov berish, asosiy mis qatlamini tekislash, adad ko'ylagini silliqlash uchun uskunalar, aravachalar va yuk ko'taruvchi qurilmalaridan foydalaniladi.

Chuqur bosish usuli uchun bosma qolipida chop etuvchi element bo'lib chuqurlashtirilgan katakcha bo'ladi, uning hajmi va o'lchamlariga olinadigan nusxaning tushiligi bog'liq bo'ladi.

Chuqur bosish usuli uchun bosma qolip silindrda rezes yoki lazer nuri bilan bajariladigan chuqurchalar o'zaro birlashtirilishi yoki birining ustiga ikkinchisi tushishi mumkin emas, chunki chop etuvchi qo'shni elementlar orasida ko'tarma qolishi kerak, u chop etilayotganda rakel uchun tayanch bo'ladi. Shunday qilib, o'yib ishlov berilayotganda och-to'q rangning barcha diapazonida rezes har bir nuqtani hosil qilgandan keyin materialdan chiqishi kerak. O'yib ishlov berilganda och-to'qligini o'zgartirish yoki uning ishchi yuzasini o'zgartirish hisobiga o'zgaradi. Oraliq ko'tarmalarning o'lchamlari har xil och-to'qligi uchun turlicha. Chuqur chop etish silindridagi bosiluvchi elementlari, agar ular elektronli o'yish bilan yaratilgan bo'lsa, to'g'ri to'rt qirrali piramida ko'rinishida bo'ladi, uning asosi silindr yuzasida joylashgan bo'ladi (7.7-rasm). Bosiluvchi elementlarning qiya devorlarining yuzasi silliq bo'ladi, u esa qog'ozga bo'yoqni yaxshi singishini ta'minlaydi va bosiluvchi elementlarning chuqurchalarida bo'yoq qoldiqlari cho'kib qolishini bartaraf etadi. Matnli va rasmiy ma'lumot materiallari bir vaqtda o'yiladi. O'yilayotgan tasvir rastri bo'lgani tufayli matn mayin, birmuncha yirtilgan konturga ega bo'ladi.



7.7-rasm. Chuqur chop etish qolipining ko'rinishlari:
a - och tusli, b - kul rang tusli, d - qora tusli.

Chuqur chop etish silindrlarini o'yish uchun asosan olmos uchli rezeslardan foydalaniladi. Aytarli yuqori tezlikda o'yilganda bosiluvchi elementlari ketma-ket yaratiladi. Bu holda o'yishning umumiy vaqti o'yilayotgan yuzaning o'lchamlariga to'g'ri proporsional bo'ladi. Chuqur bosish usuli uchun bosma qolipni spiralli o'yish, aylanma bo'ylab o'yish va tez o'tish rejimidan foydalanib


tayyorlash mumkin (7.8-rasm). Spiralli o'yishda (7.8a-rasm) kesuvchi silindr spiral bo'yicha silindrni o'yadi, bunda u o'yish jaryonida silindrni tashkil etuvchi yuzasi bo'ylab uzluksiz harakat qiladi. Aylanma bo'yicha o'yish rejimi (7.8b-rasm) berk aylanma o'yishni ehtimol qiladi, undan keyin bir aylanmadan boshqa aylanmaga kesuvchining ketma-ket o'tishini ehtimol qiladi. Tez o'tish rejimi (7.8d-rasm) silindrning o'yilmaydigan uchastkasi ustidan tez o'tib ketib silindrning yuzasi bo'yicha kesuvchi tez o'tkazish uchun foydalaniladi.



7.8-rasm. Chuqur chop etish silindrlarini o'yish rejimi.


Katta silindrlarga ishlov berishda umumiy vaqtni kamaytirish uchun tasvirni yoyish va o'yish bir vaqtda bir necha kesuvchi bilan amalga oshiriladi. Har bir kesuvchi silindrning alohida uchastkasini o'yadi, bunda o'yishning vaqti kesuvchining soniga proporsional kamayadi. Bunday ishlashning iloji bor, chunki katta silindrlarda, odatda, tasvir uzluksiz bo'lmaydi, bu kitob yoki jurnalning ayrim beti bo'ladi, ularning har biriga alohida kesuvchi bilan ishlov berish mumkin.

7.9-rasmda ikki elektromexanik o'yish avtomatlarning konstruksiyasi keltirilgan, ularning biri bitta kesuvchiga ega (7.9a-rasm), ikkinchisi esa (14) kesuvchiga ega. Elektromexanik o'yuvchi avtomatda qolip silindri (2) massiv stanina (4) ga o'rnatiladi. Elektroyuritgich (1) qolip silindrini tekis aylanishini amalga oshiradi. Silindr yuzasi bo'ylab yo'naltiruvchi (5)lar bo'yicha karetk (6) yuradi. Karetkada bir yoki bir necha kesuvchilar (3) o'rnatiladi. Avtomat pult (7) dan boshqariladi.



7.9-rasm. Elektromexanik o'yuvchi avtomat.

Kesuvchining konstruksiyasi 7.10-rasmda keltirilgan. Kesuvchi (2) to'g'rilanadigan karetk (1) ga mustahkamlangan. Kesuvchining yengil olinishi, o'yish jarayonida bir liniaturadan ikkinchisiga o'tish uchun kerak, bunga esa kesuvchining elektromexanik qismini almashtirish bilan erishiladi. Silindrning «adad ko'ylagi» (5) ga kesuvchini minimal kiritish chuqurligini rostlash uchun mikroskop (3) dan hamda mikrometrik uzatish uchun dastak (4) dan foydalaniladi. O'yishda chiqqan qirindi kuchli nasos bilan so'rib olinadi.




7.10-rasm. Kesuvchining konstruksiyasi.

O'yish jarayonida boshqaruvchi signallar nashrni chop etish-gacha tayyorlash tizimida elektromexanik o'yish avtomatning kontrolyoriga kelib tushadi (7.11-rasm), undan keyin raqamli analog o'zgartiruvchiga (RAO) tushadi.


Analog shakliga o'zgartirilgan boshqaruv signallari elektromagnit chulg'amiga uzatiladi, uning yakori esa o'yuvchi olmos kesuvchi bilan qattiq biriktirilgan. Bu signallar qolip silindrining misli yuzasiga kesuvchining kirish chuqurligi darajasini aniqlaydi, vibratorning chastotasi 4000 dan 9000 Gc gacha bo'ladi va shunga muvofiq olmosli kesuvchi qolipda 4000 dan 9000 gacha chuqurchalarni o'yadi. O'yish jarayonida kesuvchi yoyilgani oqibatida nazorat qilinmaydigan og'ishlarga yo'l qo'ymaslik uchun elektronli to'g'rilash nazarga olingan.

O'yilayotgan chuqurchaning chuqurligi va diagonal bo'yicha o'lchami aniq o'zaro bog'liqlikda bo'ladi; agar o'yish chastotasini o'zgartirmasdan silindrning aylanish chastotasi o'zgartirilsa, unda chuqurchalarning shakli va joylanishi o'zgaradi. Aylanish chastotasi katta bo'lsa, chuqurcha shahobchalari uzunchoq, chastota kichik bo'lsa siqilgan bo'ladi. Bu holda paydo bo'ladigan rastr burilish burchagi bo'yoqni «rastiskivaniye» effektini pasaytirish uchun sharoit yaratadi. Bu nuqtai nazardan har xil bo'yoqlar uchun o'yish

quyidagi rastrlar ustuvordir (7.12-rasm): ko'k va to'qqizil ranglar uchun uzunlashtirilgan (7.12a-rasm) yoki siqilgan (7.12b-rasm) elementli, sariq bo'yoq uchun — qo'polrog'i (7.12d-rasm), qora bo'yoq uchun ingichkaroq (7.12e-rasm) bo'lishi kerak. Masalan, berilgan 70 lin/sm rastrda, tegishli rastrlarning samarali liniaturasi quyidagicha bo'ladi: uzaytirilgan/siqilgan — 70, qo'poli — 58 va ingichkasi — 100 lin/sm. Ingichka rastrdan foydalanilsa, harflarni deyarli daraja sifatida chop etish mumkin.



7.11-rasm. Kesuvchining ishlash rejimi.



7.12-rasm. Turli bo'yoqlar uchun rastrlar.

Xavfsizlik maqsadida elektromexanik o'yish avtomatlarini ekspluatatsiya qilishda qoplama bilan jihozlanadi, u avtomatik holda

ochiladi va yopiladi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni doimo va ishonchli himoyalashni ta'minlaydi, shu hisobda shovqin ta'siridan ham himoyalalanadi. Jurnal va reklama mahsulotini chop etishda foydalanadigan og'ir qolip silindrlari qulaylik uchun avtomatik holda o'rnatilishi va rostlanishi kerak. Shu maqsadda har xil diametrli jurnal silindrlari uchun ishlab chiqarilgan va maxsus o'tish qurilmasisiz bo'lgan o'yish silindrlarini o'rnatishga imkon beruvchi podshipnik va muftalarning ochiq birlashtirish konstruksiyalaridan foydalaniladi. Ushbu konstruksiya silindrlarni avtomatik yuklash va yuksizlash tizimini ulashga imkon beradi.

Chuqur bosish usulidagi bosma qoliplar tayyorlash uchun lazerli o'yish avtomatida katta quvvatli lazerli nurlanish qo'llaniladi, u silindr yuzasidan epoksid smolasidan tayyorlangan maxsus tarkibni bug'lantirib chiqarib yuboradi. Qoliplarni tayyorlashda ushbu usulning ustuvorligi — ishlab chiqarishning yuqori unumdorligi: uzunligi 160 sm va aylana uzunligi 120 sm bo'lgan bitta silindr 33 daqiqada tayyorlanadi, shu hisobga tayyorlash operatsiyalari ham kiradi. Bunday usul rasmlar va mayda harfli matnni yuqori sifatda chiqarishni ta'minlaydi.

Lazer yordamida qoliplarni tayyorlash uchun qurilma silindr seksiyasi, lazerli nurlanish seksiyasi va alohida o'rnatiladigan boshqaruvchi elektron qurilmalari shkafidan iborat.

Chuqur bosish usulidagi bosma qoliplarni tayyorlash prinsipi quyidagicha: dastlab silindrning butun yuzasida oddiy kimyo usulida bir xil chuqurlikda (50 mkm) rastr chuqurchalari eritiladi. Undan keyin silindr chuqurchalari elektrostatik usulda changlatib epoksid smolasi bilan to'ldiriladi. Smola qotgandan so'ng silindr silliqatlanadi, natijada silliq yuza hosil bo'ladi. Bunday usulda tayyorlangan silindrlarni uzoq vaqt saqlash mumkin. Silliqlangan silindr o'yish avtomatiga o'rnatiladi, u yerda u 1000 aylanma/daqiqa chastotasida aylantiriladi. Silindr yuzasida karbonat angidrid (SO_2) lazerning nuri nur tushiruvchi fotokallak yordamida fokuslantirib tushiriladi, uning quvvati chuqurchaning talab qilingan chuqurligiga bog'liq holda o'zgartiriladi. Lazer nuri epoksid smolasi bilan to'ldirilgan chuqurchaga tushadi va nurning quvvatiga proporsional holda uni bug'lantiradi. Shunday qilib, lazer quvvatining kuchini o'zgartirib rastr chuqurchalarining minimal va maksimal chuqurligini yaratish mumkin bo'ladi. Ekspozitsiyalangan silindrlar chop etishga tayyor. Katta adad talab qiliinsa, ular qo'shimcha ravishda oddiy texnologiya bo'yicha nikel yoki xrom bilan qoplanadi. Adad

qolip etilgandan so'ng silindrlar quyidagicha qayta tiklanadi: smola qoplamasi va bo'yoq chiqarib tashlanadi, undan keyin chuqurchalar qaytadan epoksid smolasi bilan to'ldiriladi va silliqlanadi. Bundan keyin silindr qayta foydalanishga tayyor. Qayta tiklash 5–10 marta o'tkazilishi mumkin, undan keyin silindr yuzasiga yangi «adad ko'ylagi» bichiladi.

Qurilmada uzunligi 260 sm gacha, diametri 160 sm gacha bo'lgan silindrlarda qolip yaratiladi. Ekspozitsiya tezligi silindr uzunligi bo'yicha 7,5 mm/min. Rastr liniaturasi 50–300 lpi. Chuqurchalarda smolaning bug'lanish chuqurligi 0,5 mm dan 3,5 mm gacha. Iste'mol qilinadigan quvvat – 35 kv.

Nazorat savollari

1. Computer-to-Plate texnologiyasining afzalligi va kamchiligi.
2. Ofset bosma qolip tayyorlashda qanday plastinalar turi qo'llaniladi?
3. Rekorderlarning asosiy turlari.
4. Rekorderlarda bosma qolip tayyorlashda qanday fizik-kimyoviy reaksiya o'tib boradi?
5. Rekorderlarda qanday lazer turlari ishlatiladi?
6. Fleksografiya bosish usuli uchun bosma qolip tayyorlash qanday o'tadi?
7. Rekorderlarning ishlash prinsipi.
8. Chuqur bosish usuli uchun bosma qolip tayyorlash texnologik sxemasini tuzing.
9. Elektromexanik o'yish avtomatlarning konstruksiyasi.
10. Kesuvchining ishlash rejimi.

VIII bob

NASHRLARNI BOSISHGACHA TAYYORLASH TIZIMIDA SIFATNI NAZORAT QILISH QURILMALARI

Nashrlarni bosishgacha tayyorlash jarayonining turli bosqichlarida muhim texnologik ishlarning bajarilishi nazorat qilinadi. Nashr betlari sahifalanganini nazorat qilish va matnni o'qish uchun bir rangli (oq-qora) elektrofotografik yoki oqimli printerlarda olinadigan nusxalar xizmat qiladi. Rangli tasvirlarni qayta ishlash sifati grafik stansiya kompyuteri monitorida va raqamli hamda yoki analogli svetoprobe uskunalarida olingan tasvirlar bo'yicha tekshiriladi. Birinchi holda yumshoq svetoprobe ishlatilib, u tasvirli axborotga ishlov berish jarayonida ishlatiladi va tasvirlarga ishlov berilgandan so'ng ularni dastlabki baholash uchun xizmat qiladi. Monitorning rang qamrovi bosish jarayoni imkoniyatlaridan past bo'lgani uchun yumshoq svetoprobe kelgusi nusxa haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Ikkinchi holda elektrofotografik yoki oqimli printerlarda raqamli svetoprobe yoki kontaktli nusxa ko'chirish qurilmasi va laminator yordamida ranglarga ajratilgan fotoqoliplardan analogli svetoprobe kabi «qattiq» svetoprobalar olinadi.

Fotoqolip va bosma qoliplarining sifatini qurilmada nazorat qilish uchun densitometrlar, tasvirlarning rang tavsifnomalarini o'lchash uchun esa — spektrofotometrlar ishlatiladi.

Nashrlarni bosishgacha tayyorlash sifatini to'liq baholash uchun sinov nusxasini olish qurilmalaridan foydalaniladi. Bu uskunada qolipdan bosish mashinasida olingan nusxaga yaqin nusxalar olish mumkin.

8.1. Elektrofotografik printerlar

Elektrofotografik printerlar (nusxalovchi qurilmalar) nashr sahifalaridan oddiy qog'ozda matbaa ko'rinishidagi nusxalarni olish uchun xizmat qiladi. Matn, surat va boshqa elementlarning tasviri yuqori kontrastga ega bo'ladi va bosish jarayonida olinadigan nusxalarga o'xshash.

Printerda tayyorlangan nusxalar musahhih va muharrirlik o'qishlari uchun, texnik va badiiy muharrirlar uchun, shuningdek, bosma qolipi tayyorlashda reproduksiyalanadigan asl nusxa-maket sifatida ishlatilish, mumkin.

Hozirgi vaqtda elektrofotografik printerlarni lazerli va yorug'lik diodli turlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, ular oq-qora (bir rangli) va rangli bo'lishi mumkin.

Lazerli printerlar boshqarish tamoyili, tasvir yozish usuli va optik-mexanik tizimlarining qurilishi bo'yicha lazerli fotonabor avtomatlariga yaqin. Lazerli printerlar lazerli fotonabor avtomatlaridan tasvirni qayd qilish usuli bilan farqlanib, bu usul elektrofotografiyaga asoslangan. Mohiyat jihatdan lazerli printer lazerli fotonabor avtomat bo'lib, unda fotomaterialni saqlash va harakatlantirish kassetasi mexanizmlari elektrofotografik nusxa ko'chirish qurilmasi bilan almashtirilgan.

Yorug'lik diodli printerlarda, lazerli printerlardan farqli o'laroq yorug'likka sezgir fotoyarimo'tkazgichli tasvir tashuvchisini eksponirlash uchun yorug'lik manbai sifatida lazer emas, balki yorug'lik diodlari to'plami ishlatiladi.

Elektrofotografik printerlarning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar: imkoniyat, tasvirning eng katta o'lchami, unumdorlik.

8.1.1. Elektrofotografik jarayonning asosiy bosqichlari


Elektrofotografiya — bu maxsus yuzalarda tasvir olishning usul va texnik vositalari yig'indisidir. Bu yuzalarning elektr xususiyatlari yuza qabul qiladigan yorug'lik nurlanishining miqdoriga qarab o'zgaradi. Elektrofotografiyada metall asosga (odatda alumin) yuritilgan fotoyarimo'tkazgichning yupqa qatlami yorug'likka sezgir hisoblanadi.

Elektrofotografiya tasvirni qayd qilish usuli sifatida fotoo'tkazuvchanlikka, ya'ni ba'zi fotoyarimo'tkazgichlarning qorong'ulikda zaryadni qabul qilishi va saqlashi, yorug'lik ta'sirida esa elektro'tkazuvchanlik oshib, zaryadsizlanishiga asoslangan. Yashirin elektrostatik tasvir olish amalda fotoo'tkazuvchanlikka asoslangan. Elektrofotografiyada ko'rinadigan tasvir yashirin tasvirni maxsus kukun (toner) zarralari bilan ochiltirishi va qizdirish yoki biror kimyoviy usulda mustahkamlash orqali olinadi.

Elektrofotografiyada fotosezgir qatlamlar sifatida toza selen (Se), qo'shimchalarga esa selen (As_2Se_3 , CdSe), kadmiy sulfat (CdS) va rux oksidi (ZnO) ishlatiladi.

Elektrofotografiyada fotosezgir qatlamlarning fotografik tavsifnomalari kumushgalogenli fotografiyadagi singari ko'rsatkichlar (umumiy va spektrai-yorug'likka sezgirlik, imkonli qobiliyat, kontrakt va fotografik kenglik) bilan tavsiflanadi.

Elektrofotografik qatlamlar uchun boshlang'ich potensial, qorong'iga chidamlilik, qoldiq potensial, qatlamning charchaganligi adadga chidamlilik kabi ba'zi fizik ko'rsatkichlar ham muhim. Elektrofotografiya uchun fotoyarimo'tkazgichli qatlamlar o'z holiga yorug'likka sezgir emas. Yorug'likka sezgirlikka qatlamni elektrlash jarayonidan so'ng erishiladi, natijada qatlam zaryadsizlanadi (8.1-rasm).



8.1-rasm. Elektrofotografik jarayonda selen qatlamida potensial relyefning hosil bo'lish sxemasi:

- U_3 — zaryadlash potentsiali; U_0 — boshlang'ich potentsiali;
- U_1 — tasvir maydonlari potentsiali; U_{oct} — oraliq maydonlar potentsiali;
- ΔU — potensial relyef; t — zaryadlash vaqti; t_T — tushib ketish vaqti;
- t_n — potensialining yarim tushib ketish vaqti; t_0 — eksponirlash vaqti.

Elektrofotografik qatlam (EFQ)da tasvir olish jarayoni uch (I-III) bosqichdan iborat. I-zaryadlash, uning natijasida yuza potentsiali U_3 zaryad potentsialigacha o'zgaradi. II bosqichda EFQ ekspon-

nurlash maydoniga o'tadi. Yuza potentsiali boshlang'ich potentsial U_0 gacha tushib ketadi. Ekspozitsiya maydoni III da hosil qilinadigan tasvirning yorug' qismlariga to'g'ri keluvchi EFQ bo'limlari ma'lum qoldiq potentsial U_{qol} gacha zaryadsizlanadi. Shu vaqtning o'zida EFQning yoritilmagan qismlarida potentsial ma'lum kattalikkacha U_1 tushib ketadi. $DU=U-U_{qol}$ ushbu elektrofotoqrafik jarayonda olinishi mumkin bo'lgan eng katta elektrostatik kontrastni aniqlaydi va oq qog'ozda yuqori zichlikka ega qora tasvir hosil qiladi.

Elektrofotografiya bilan taqqoslaganda optik zichliklarning ahamiyati yo'naltirilgan tavsifga ega, ya'ni kam ekspozitsiyaga yuqori optik zichliklar to'g'ri keladi.

Elektrofotografik materialning umumiy (integral) yorug'likka sezgirliigi — bu uning ma'lum tarzda oq yorug'likka ta'sirlanish qobiliyatidir. Spektral sezgirlik — bu monoxromatik nurlanishga nisbatan yorug'likka sezgirlikdir.

Spektral sezgirli quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_{\lambda} = \frac{1}{N\lambda} = \frac{1}{E_{\lambda}t}; \quad \frac{\Delta U}{U_0} = 0.5$$

bu yerda, N_{λ} — λ nurlanish spektri ma'lum to'lqin uzunligidagi energetik ekspozitsiya; E_{λ} — to'lqin uzunligi λ bogandagi yoritilganlik; t — nurlanish vaqti; ΔU — nurlanishda potentsialning o'zgarishi; U_0 — boshlang'ich potentsial.


Spektral sezgirlik nurlanish spektri ma'lum to'lqin uzunligida energetik birliklarda (m^2/Dj) aniqlanadi. U odatda $S_{\lambda}=f(\lambda)$ egri chiziq ko'rinishida bo'ladi. 8.2-rasmda ba'zi elektrofotoqrafik qatlamlarning spektral sezgirliigi, 8.1-jadvalda esa uning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ko'p marta qo'llanadigan elektrofotoqrafik qatlamlarning asosiy ko'rsatkichlari

8.1-jadval

Ko'rsatkich nomi	Elektrofotografik qatlam turi				
	Se	Se-Te	As ₂ Se ₃	Ko'p komponentli tizimlar	Amorf kremniy
Spektral sezgirlik sohasi	400-500	400-800	400-750	400-900	400-800
Ischi ekspozitsiya	15-20	1.4-1.6	1.5-1.6	≤1	1.5-2

Integral sezgirlik, $\text{lk} \cdot \text{l} \cdot \text{s}^{-1}$	0.05-0.07	0.6-0.7	0.6-0.7	≥ 1	0.5-0.7
Spektral sezgirlik, m^2/Dj					
$\lambda_{\text{da}}=400-500 \text{ nm}$	200-850	600-700	550-650	1000-1150	300-500
$\lambda_{\text{da}}=500-600 \text{ nm}$	0-200	600-700	550-650	1100-1150	500-800
$\lambda_{\text{da}}=600-700 \text{ nm}$	-	200-600	100-450	800-1100	400-900
$\lambda_{\text{da}}=700-900 \text{ nm}$	-	0-200	0-100	250-800	50-400
Potensialning yarim tushib ketishi, s	>100	>20	>20	20-30	>30
Adadga chidam- lilik, ming nusxa	30-200	30-200	100-500	100-500	500- 10000



8.2-rasm. Ko'p marta qo'llanadigan EFQning spektral sezgirliigi:
 S_{λ} – fotosezgirlik; λ – to'liqin uzunligi; 1 – Se, 2 – Se-Te; 3 – As_2Se_3 ; 4 – ko'p komponentli tuzilmalar; 5 – amorf kremniy.

Elektrofotografik qatlamning mayda qo'shni detallardan iborat alohida tasvirlar berishi imkonli qobiliyat deb ataladi. U tasvirning 1 mmga to'g'ri keladigan fotoqatlamda hosil qilinadigan parallel chiziqlarning eng katta soni bilan aniqlanadi. Elektrofotografik qat-

lamlarning imkonli qobiliyati katta diapazonga ega. Selen elektrofotografik qatlamlarining potensial imkonli qobiliyati 100 lin/mm gacha etishi mumkin. Elektrofotografiyada imkonli qobiliyat ma'lum darajada tanlangan nusxa ko'chirish usuli va ochiltirgich turi bilan aniqlanadi.

Tasvirni yozish. Elektrofotografik jarayonda tasvimi yozish tasvirni eksponirlashda yorug'likka sezgirlik berish uchun elektrofotografik qatlamni zaryadlashni nazarda tutadi. EFQ da yashirin elektrofotografik tasvirning hosil bo'lishi tasvirni yozish natijasidir. Bunday tasvirning asosiy tavsifnomasi elektrostatik kontrast, ya'ni tasvir bor va oraliq maydonlardagi potensiallar farqidir.

Yozish jarayonining ushbu muhim tavsifiga zaryadlashning ishchi potentsiali, EFQning yorug'likka sezgirligi, qorong'ida qatlamlarda potentsialning tushib ketish tezligi va eksponirlashdan so'ng oraliq elementlardagi qatlam potentsiali katta ta'sir o'tkazadi.

Elektrofotografik qurilmalarda sezgirlashtirish maqsadida EFQni, zaryadlash uchun totli razryaddan foydalaniladi. U fotoyarimo'tkazgichli qatlam yuzasiga manfiy va musbat ionlarni keltirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Zaryadlash jarayonida totlantiruvchi elektrod bilan bir xil qutblilikka ega totli razryad sohasidagi ionlar tot toklarini hosil qilib, elektr maydon bilan mashg'ul bo'ladi va EFQda potentsial hosil qiladi:

$$U_c = \frac{I_c d}{\epsilon_0 \epsilon_c \nu} = \frac{q d}{\epsilon_0 \epsilon_c},$$

bu yerda, I_c — zaryadlanadigan EFQ da oqadigan tok; d — EFQ qalinligi; ϵ_0 — elektrik doimiysi; ϵ_c — EFQ ning nisbiy dielektrik singuvchanligi ν — zaryadlanadigan EFQ ko'chish tezligi; q — EFQga yuritiladigan zaryadning yuza zichligi.

Yozish jarayonining yakunlovchi bosqichi — eksponirlash. Yuvasida elektr zaryadlari mavjud bo'lgan EFQda yorug'lik (jumladan lazerli) nurlanishi ta'sirida tok tashuvchilari paydo bo'lib, ular yorug'lik ta'sir etgan joylarda zaryadlarni neytrallashtiradi. Bu potentsialning keskin tushib ketishiga va yashirin elektrostatik tasvirning hosil bo'lishiga olib keladi.

Tasvir sifatini aniqlovchi eng muhim ko'rsatkich eksponirlash vaqtidir. U yorug'lik nurlanishining spektral tavsifnomasiga, fotoyarimo'tkazgichli qatlam xususiyatlariga va yorug'lik nuriga bog'liq.

Tasvirni ochiltirish. Bu bosqichda EFQda shakllantirilgan yashirin elektrostatik tasvir (YAET) ko'rinadigan holga keltiriladi. Tonerda ochiltirish elektrofotografiya tasvirni ko'rinadigan qilishning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, oq-qora (bir rangli) va rangli tasvir olish imkonini beradi. Toner bilan ochiltirish zaryadlangan zarralarning yashirin elektrostatik tasvir maydoni bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida sodir bo'ladi. Kulon tortish kuchlari ta'sir ostida toner zarralari EFQ yuzasiga tanlab yopishadi va YAET ni ko'rinadigan tavinga aylantiradi.

Ochiltirish jarayonida toner zarralarida yopishgan YAET zaryadi kompensatsiyasi jarayon jadalligining doimiy kamayishiga olib keladi, bu uning kinetikasini tavsiflaydi. Umumiy holda ochiltirish jarayoni kinetikasi quyidagicha:

$$D_t = D_{\max}(1 - e^{-t_n/T}),$$


bu yerda, D_t — ochiltirish vaqti t_n bo'lgandagi tasvirning optik zichligi; $D_{\max}$ — $t_n \rightarrow \infty$ dagi tasvirning optik zichligi; t_n — ochiltirish vaqti; T — ochiltirish jarayonining elektrostatik sezgirligini aniqlovchi konstanta.

Ochiltirish jarayoni kinetikasini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, tez harakat qiluvchi qurilmalarda bu jarayon to'yinganlikdan yiroq. Shuning uchun natijaga ochiltirish kinetikasining boshlang'ich bosqichi asosiy ta'sir o'tkazadi. Bunda yopishgan toner zarralari miqdori ochiltirish qismidagi maydonning kuchlanishiga bog'liq bo'lib, zaryadning yuza zichligiga bog'liq emas. Faqat $t_n \rightarrow \infty$ bo'lganda optik zichlik zaryadning yuza zichligiga mutanosib bo'ladi.

Ochiltirishning yakuniy natijasi YAETning elektrostatik kontrasti ΔU_c ga bog'liq. $D=f(\Delta U_c)$ funksiyasi ochiltirish jarayoni egri chizig'ini tavsiflashga xizmat qiladi. EFJ zaryadi va toner zarralari qutbliligidan kelib chiqqan holda jarayonning ikki varianti mavjud (8.3-rasm):

1. To'g'ridan-to'g'ri ochiltirish, bunda toner qutbliligi EFQ zaryadi qutbliligiga teskari, shuning uchun toner zaryad zichligi maksimal bo'lgan maydonlarga yopishadi ($D_n=U_2$).

2. Yo'naltirilgan ochiltirish, bunda toner qutbliligi EFQ zaryadi qutbliligiga mos keladi, shuning uchun toner zaryad yo'q joylarga yopishadi ($D_n=U_1$).



8.3-rasm. To'gridan-to'g'ri (a) va yo'naltirilgan (b) ochiltirish varianti sxemalari:

U_c — EFJ potentsiali (manfiy yoki musbat); U_1 — zaryadsizlangan maydonlar potentsiali; U_2 — zaryadlangan maydonlar potentsiali; ΔU_c — elektrostatik kontrast; D — optik zichlik; D_n — tasvirning optik zichligi; D_f — fonning optik zichligi; X — koordinata.

1 — YAET relyefi musbat razryadi shakli; 2 — manfiy zaryadli relyef shakli; 3, 4 — tonerning manfiy va musbat zarralari

Ikki holatda ham tasvir pozitiv (yorug' fonda qora shtrixlar) yoki negativ (qora fonda yorug' shtrixlar) bo'lishi mumkin. Birinchi holda tasvir ko'rinishi o'zgarmaydi, ikkinchi holda pozitiv negativga, yoki aksincha, negativ pozitivga aylanadi. Nusxa ko'chirish qurilmasi uchun asosan pozitiv tasvirni to'g'ridan-to'g'ri ochiltirish ishlatiladi. Rangli elektrofotoografiyada pozitiv tasvirni ham to'g'ridan-to'g'ri, ham yo'naltirib ochiltirish qo'llaniladi.


Elektrofotografik printerlarda ochiltirishning ikki usuli ishlatiladi: ikki komponentli va bir komponentli quruq.

Birinchi usul «magnitli kist» turidagi qurilmadan foydalanishga moslangan. Bunday qurilmani sodda qilib oddiy magnitga yo'nal-

tirilgan temir qirindilar yoki boshqa ferromagnit zarralar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Ular tashqi ko'rinishidan kist to'lalariga o'xshash zanjirni hosil qiladi. Kukunli ochiltirgich zarralarini ferromagnit zarralar bilan aralashtirilsa, ular o'zaro elektrlanadi.

Masalan, agar temir qirindilarini pigmentiangan mum zarralari bilan aralashtirilsa, qirindilar manfiy, mum zarralari (ochiltirgich) musbat zaryadlanadi. Ochiltirilgan tasvir elektrofotografik yuzadan kistni o'tkazish natijasida olinadi.

«Magnitli kist» turidagi ochiltirish qurilmasiga ega printerlarda (8.4-rasm.) ochiltirgichni ochiltirish zonasiga yetkazish antimagnit materialdan tayyorlangan aylanuvchi silindr (5) yordamida amalga oshiriladi. Uning ichida oboyma 4 ga mahkamlangan magnitlar 7,8 joylashgan. Ular ochiltirish kengligi bo'yicha bir tekis magnit maydoni hosil qiladi.



8.4-rasm. «Magnitli kist» turidagi ochiltirish qurilmasining sxemasi.

Silindr aylanganida ochiltiruvchi tarkib magnit maydoni ta'sirida elektrostatik tasvir (3) yuzasiga intiladi. Bir tekis momiq olish uchun ochiltiruvchi tarkibning balandligi to'sin (6) bilan sozlanadi. Toner EFJ yuzasi bilan tutashgandan so'ng magnit maydon ta'siridan qutulib, plastina (1) bilan chegaralangan yigilish zonasiga tushadi. Plastina (1) va silindr (5) orasidagi tirqish vint (2) bilan sozlanadi. Ochiltiruvchi aralashma dozator yetkazib beradigan

toner bilan yangilab turiladi. Shundan so'ng u maxsus moslamalarga ega val (9) yordamida yana doimiy magnitlar ta'sir zonasiga yo'naltiriladi.

Olinadigan nusxalarning yuqori sifatini ta'minlovchi ikki komponentli ochiltirgichlar ba'zi kamchiliklarga ega. Ularning ishlatilishi oraliq tasvir tashuvchisi yuzasining vaqtidan oldin yemirilishiga olib keladi. Bundan tashqari, toner va tashuvchining optimal nisbatini saqlash bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin.


Bir komponentli ochiltirish boshqacha tuzilishidagi tonerga asoslangan. Ochiltirgich tarkibiga ham bo'yovchi, ham magnitlovchi elementlar kiritilgan bo'lib, toner va tashuvchini harakatlantirish moslamalaridan voz kechishga imkon beradi. Bir komponentli ochiltirgichning tarkib va tuzilishi olinadigan nusxalarni mustahkamlash uchun kuch ishlatiladigan usulni qo'llash imkonini beradi. Natijada uskunani ishdan oldin qizdirish yo'q bo'lib, elektr energiya sarfi kamayadi.

Bir komponentli ochiltirish tizimi (8.5-rasm) ichi bo'sh baraban (1) dan iborat bo'lib, uning ichida harakatsiz silindrik magnit (2), po'lat piska (3) va bir komponentli ochiltirgich (4) joylashgan. Aylanuvchi baraban va po'lat piska chekkasi orasida hosil bo'ladigan konsentrlangan magnit maydoni toner zarralarini piska chekkasiga tortadi va shtorka (5) ni hosil qilib, uni ushlab turadi. Toner zarralaridan iborat bu shtorka aylanayotgan silindr yuzasiga bir tekisda toner qatlamini o'tkazadi. Amalda ochiltiruvchi bo'lgan barabanga uncha katta bo'lmagan doimiy (100 V atrofida) va yuqori o'zgaruvchan kuchlanish (1300 V atrofida) ta'sirida piska siljiriladi. Siljish kuchlanishining bunday tuzilishida o'zgaruvchan kuchlanishning musbat yarimto'lqin sinusoidi manfiylikidan har doim katta.

Bir komponentli ochiltirgichda ochiltirish mexanizmi ochiltiruvchi baraban (1) ning magnit kuchlari, silindr (7) zaryadi musbat elektrostatik kuchlari va ochiltiruvchi barabandagi siljish kuchlanishi nisbatlariga asoslangan. Kuchlanish bo'lmaganda magnit maydon kuchlari ochiltiruvchi baraban yuzasida toner (6) ni ushlab turadi. Silindrning musbat zaryadlari esa uni o'z yuzasiga tortishga harakat qiladi. Tonerning muvozanati siljish kuchlanishi natijasida buziladi.

Siljish kuchlanishi musbat bo'lganda, manfiy zaryadlangan toner ochiltiruvchi silindr magnit maydoni kuchi va musbat kuch-

lanish ta'sirida ochiltiruvchi barabanga tortiladi. Bu holda toner silindrning yashirin elektrofotografik tasviri maydonlariga o'tirmaydi.




8.5-rasm. Bir komponentli ochiltirish tizimi.

Manfiy yarimto'lqin amplitudasining ma'lum darajasiga erishilgandan so'ng ochiltiruvchi silindrning tortishi kuchlari yengiladi va toner silindrga proyeksiyalanadi. Bu holda yashirin tasvir ko'rindigan holga keltiriladi.

Baraban aylanib o'tishi sodir bo'lishi kerak bo'lmagan holda siljish kuchlanishining o'zgaruvchan tarkibiy qismi o'chirib qo'yiladi, doimiy kuchlanish esa oshadi. Yuqori musbat potensiallarining hosil qilinishi ochiltiruvchi barabanda tonerning ishonchli ushlab turilishini ta'minlaydi.

Bir komponentli ochiltiruvchi qurilmalarni qo'llash tasvirning yuqori sifatiga erishish va ochiltiruvchi uskunalarining o'lchamlarini kichraytirishga sharoit yaratdi.

Ochiltirilgan tasviri ko'chirish. Ochiltirilgan elektrostatik tasvirni ko'chirish tasvirni qog'ozga elektrostatik kuchlar ta'sirida ko'chirishga asoslangan. Pozitiv-pozitiv sxemasida tasvirni ko'chirish uchun qo'llanadigan zaryadlovchi qurilma qutbliligi EFJni sezgirlashtirish uchun ishlatiladigan oraliq tashuvchi qutbliligiga mos kelishi kerak (8.6-rasm).



8.6-rasm. Ochiltirilgan tasvirni qog'ozga o'tkazishning elektrostatik usuli: 1 - silindr; 2 - kukunli tasvir; 3 - nusxa uchun qog'oz; 4 - qog'oz uzatish yo'naltiruvchilari; 5 - elektrizator; 6 - quvvat manbai.

Ko'chirish jarayoni samaradorligi ko'chirish koeffitsiyenti bilan baholanadi:

$$K = \frac{M_o - M_1}{M_o},$$

bu yerda, M_o — EFQ dagi tonerning ko'chirishgacha bo'lgan og'irligi; M_1 — ko'chirilgandan so'ng EFQ dagi toner og'irligi.

Samaradorlik toner zarralarining kattaligiga, zarralar orasidaai adgeziya kuchlariga, SETning qoldiq relyefiga, shuningdek, tashqi sharoitlarga (masalan, havoning kamligiga) bog'liq. Ko'chirish koeffitsiyentini tonerli tasvirni zarra qutbliligiga nisbatan qarama-qarshi qutbli totli razryadda zaryadlab oshirish mumkin.


Ochiltirilgan tasvirni mustahkamlash. Zamonaviy uskunalarda mustahkamlashning termik kontaktli usuli ishlatiladi, u ochiltirilgan tasvirni bosim bilan qizdirishni nazarda tutadi.

Mustahkamlashning termik kontaktli uskunalarida issiqlik energiyasi qabul qiluvchi yuzaga qizdirilgan silindrdan kontaktli

issiqlik uzatish hisobiga uzatiladi. Valik yuzasining harorati (200°C atrofida) silindr ichiga o'rnatilgan qizdiruvchi hisobiga bir maromda ushlab turiladi. Mustahkamlovchi valik va qog'ozning o'zaro zich termik kontaktiga erishish uchun elastik yuzaga ega qizimaydigan valik ham ishlatiladi. Mustahkamlangan tasvirga ega qog'oz bu valiklar orasidan o'tkaziladi. Toner zarralari issiqlik va bosim ostida erib, qog'oz tolalariga o'chib ketmaydigan tasvir hosil bo'ladi. Qog'ozning kuyib ketishini oldini olish va valiklardan oson ko'chishini ta'minlash uchun yuqori valikka yupqa silikon moyi qatlami yuritiladi.

Elektrofotografik qatlamni tozalash. Elektrofotografik qatlamdan qayta foydalanish uni tozalashdan keyingina mumkin bo'ladi. Tozalashning quyidagi mexanik usullari keng tarqalgan: EFQni mexli valik va rakel bilan tozalash.

Silindrni rakel bilan tozalash tizimi (8.7-rasm) rakel 1 ni, tonerni yig'ish uchun magnitli valik 2ni va tonerni foydalanish bunkeriga qaytarish uchun aylanuvchi foydalanish bunkeriga qaytarish uchun aylanuvchi shlek 2 dan iborat. Rakel metall bo'lmagan materiallardan, masalan, poliuretan kauchugi, polietilen mumi kabilardan tayyorlanadi.



8.7-rasm. Rakel yordamida kukunli tasvirni tozalash qurilmasi.

Bunday qurilmalarning mexli valik yordamida tozalash qurilmalariga nisbatan afzalliklari: kichik o'lchamlar va og'irlik, ishdagi yuqori ishonchlilik hamda ishlatishdagi kam xarajatlar.


8.1.2. Elektrofotografik printerlarning tuzilishi

Elektrofotografik printerlarda eksponirlash asosan quyidagi ikki usul bilan amalga oshiriladi:

— yarimo'tkazgichli lazer nuri bilan. Uning elektrofotografik silindr yo'nalishi bō'ylab yoyilishi optik-mexanik tizim yordamida amalga oshiriladi. U tez aylanuvchi ko'p qirrali prizmagga ega.

— yorug'lik nurlantiruvchi LED diodlari chizg'ichi bilan. U elektrofotografik silindrning butun uzunligini qamrab oladi.


Elektrofotografik printerlarda tasvir yozish uchun lazerdan foydalanib eksponirlashning optik sxemasi 8.8-rasmda keltirilgan. x koordinatasi bo'yicha yoyilish ko'p qirrali ko'zguning aylanishi hisobiga, y koordinatasi bo'yicha yoyilishi esa elektrofotografik silindrning aylanishi hisobiga amalga oshadi. Shuni ta'kidlash joizki, spektrning infraqizil sohasida 760–850 nm ishlovchi quvvati 5–15 mVt bo'lgan yarimo'tkazgichni lazerlar bilan tasvir yozishda ekspozitsiya 5–10 mJ/m² gacha yetadi. Bunda EFQning boshlang'ich organik potentsiali 600 dan 100 V gacha tushib ketadi.



8.8-rasm. Lazerli printerning optik sxemasi:

- 1 — elektrofotografik silindr; 2 — yarimo'tkazgichli lazer; 3 — modulyator;
4 — kollimator linza; 5 — skaner dvigateli; 6 — ko'pqirrali ko'zgu;
7 — sferik linza; 8 — toroidal linza; 9 — qator boshi datchigi;
10 — cheklovchi ko'zgu; 11 — datchik ko'zgusi; x, y — koordinatalar.

Ko'p nurli lazerli yozishga ega elektrofotografik printerlar ham ishlatiladi. Bunday printerning optik sxemasi 8.9-rasmda keltirilgan. Bu printerda optik tizim yordamida ko'p emitterli yarimo'tkazgichli lazer (1) ning nurlanishi to'rtta (yoki undan ko'p) parallel nurdan iborat chiziqqa aylanadi. Ular ko'pqirrali prizma (9) ning aylanishida silindrik elektrofotografik yuza (11) ga bir vaqtning o'zida to'rtta chiziq chizadi. Printerning imkoniyati 600 dpi bo'lganda EFQ tekisligidagi chiziqlar orasidagi masofa 42,3 mkmni, eksponirlangan maydonning umumiy eni esa 127 mkmni tashkil etadi. Ko'pqirrali prizmaning aylanish chastotasi 10000–20000 ay/min ni tashkil qiladi. Nuqta ekspozitsiyasi 10^{-9} – 10^{-8} s ni tashkil etadi. Yarimo'tkazgichli lazerni boshqarib yoki ko'pkanalli akkustooptik modulyator (4) ga signal berib yozishni alohida-alohida boshqarish mumkin.




8.9-rasm. Ko'pnurli skanirlovchi lazerli printerning optik sxemasi:
 1 – lazer; 2 – nurni taqsimlash panjarasi; 3 – L_2 kollimator linzasi;
 4 – ko'p kanalli AO modulyatori; 5 – L_2 kollimator linzasi; 6 – ko'zgu;
 7 – prizma; 8 – silindrik linza; 9 – ko'pqirrali ko'zgu; 10 – fokuslovchi
 linzalar; 11 – elektrofotografik silindr; 12 – yorug'lik nurlarining
 joylashishi; 13 – bir vaqtda yoyilgan linzalar.

Prizma (9) ning boshqa qirrasini kelganida va silindrning sinxron aylanishida EFQ tezasida navbatdagi to'rtta qator chiziladi va hokazo. Shu tarzda, kompyuter ma'lumotlari bo'yicha yoziladigan kadrning butun surati hosil qilinadi. Numri o'chirib-yoqishni boshqarib yoziladigan nuqta kattaligi va EFQ ekspozitsiyasini o'zgartirish mumkin. Elektrofotografik silindr aylanish chastotasini boshqarib qatorlar chastotasini sozlash mumkin.

Ko'pgina lazerli printerlarda ba'zi nuqtalarning joylashishi va o'lchamini boshqarish uchun har xil effektlar ishlatiladi. Lazer nuri impulsi davomiyligini qisqartirib elektrofotografik silindrning bir nuqtasiga tushayotgan yorug'lik miqdorini kamaytirish mumkin. Natijada silindrning zaryad darajasi o'zgargan joylari maydoni kichrayadi. Lazer impulsini ilgariroq yoki kechroq ishga tushirib nuqtalarning gorizontal bo'yicha holatini boshqarish mumkin.

Nuqta o'lchami va joylashuvini boshqara oladigan yuksak printer standart o'lchamli nuqtalar orasidagi bo'shliqni yanada mayda nuqtalar bilan to'ldira oladi. Bu matn va shtrixli grafikadagi qiya va egri chiziqlardagi bosqichlilikni kamaytirish imkonini beradi va natijada olingan hujjatlar imkoniyati 2-5 marta yuqori printerlarda olingandek ko'rinishda bo'ladi.


8.10-rasmda ikkita kesishuvchi chiziq hosil qilgan toner nuqtalarining kattalashtirilgan tasviri keltirilgan: biri-deyarli vertikal, ikkinchisi - deyarli gorizontal. O'ngdagi tasvir imkoniyatni oshirish texnologiyasiga ega printerda olingan. Gorizontal chiziqning bosqichlilikligi standart o'lchamdagi nuqtalar orasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi mayda nuqtalar yordamida kamaytiriladi. Vertikal chiziq hosil qiluvchi nuqtalar bir oz siljirilgan. Chapda imkoniyatni oshirish texnologiyasiz chiqarilgan o'sha chiziqlar ko'rsatilgan.



8.10-rasm. Nuqtalarning kattalashtirilgan tasviri:

a - imkoniyatni oshirish texnologiyasi ishlatilmaganda; b - bu texnologiya ishlatilganda.

Ko'pgina printer modellari 1200x600 dpi bo'lgan nosimmetrik imkoniyatga ega. Bunda lazer nurining ko'chish aniqligi 1/1200 dyumni, silindr qadami esa avvalicha 1/600 dyumni tashkil etadi. Hosil qilinadigan tasvir elementar kvadratlarga emas, tomonlari 1/600 va 1/1200 dyum bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklarga parchalanadi (8.11-rasm) Lazer nuri nafaqat gorizonttal, balki vertikal bo'yicha ham ko'chishi mumkin, shuning uchun u nuqtani to'rtburchakning yuqori yoki past qismiga qo'yishi mumkin. Bunday holda 1200 dpi algoritmik imkoniyat haqida gapiriladi.



8.11-rasm. 1200 dpi imkoniyat:
a — algoritmik; b — real.

Oydinki, algoritmik yuqori imkoniyat real imkoniyatni qisman almashtiradi. U tasvir chekkalarini silliqroq qilish imkonini beradi. Yaxshi sifatli qora rang talab qilingan joyda bitta elementar to'rtburchakda ikkita nuqta qo'yish talab qilinadi. Buning esa imkonio'q.

Imkoniyatni oshirishning yana bir keng tarqalgan texnologiyasi elektrofotoqrafik silindr aylanish chastotasini kamaytirishdir. Bunda vertikal bo'yicha skanerlash chiziqlari soni ikki marta ko'payishga

erishish kerak. Odatda, bu texnologiya imkoniyati 1200x1200 dpi bo'lgan printerlarda ishlatiladi.

Yorug'lik diodiga ega elektrofotografik printerlarda qatordagi har bir nuqtani yoritishi uchun yagona lazer o'rnida butun qatorni qamrab oluvchi bir necha individual yorug'lik diodlaridan (8.12a-rasm) foydalaniladi. Qator uzunligi va imkoniyatiga bog'liq holda chizg'ich bir necha qatorda shaxmat tartibida joylashgan 2560 dan 7424 tagacha yorug'lik diodiga ega bo'lishi mumkin. Yorug'lik diodlarining nurlanishi mikrolinzalar tizimi yoki yorug'lik tolasi yordamida amalga oshiriladi (8.12d-rasm).

Individual yorug'lik diodlari chizg'ichini umumiy qattiq asosdagi ko'ppqatlamli tizimlarni vakuumli arralash yo'li bilan hosil qilish mumkin (8.12b-rasm). Har ikki holda ham tasvirni yoyish silindr o'qiga nisbatan perpendikular ravishda amalga oshiriladi. Bu turdagi tizimda (optik-mexanik yoyishli lazerli tizimdan farqli o'laroq) tez aylanadigan mexanik qismlar yo'q, ishda tebranish xavfi yo'q va boshqarilishi sodda.


Biroq ba'zi kamchiliklarga ham ega: ko'pelementli prezizion chizg'ichlarni hosil qilishdagi texnologik murakkabliklar va b.q.

Turli xildagi nurlanish manbalarining ko'ppqatorli joylashuvi chizg'ichning imkoniyati 300—600 dpi darajasida bo'lishiga erishish imkonini beradi. Bunda har daqiqada 12 bet nusxalash mumkin. Hozirda 1200 dpi imkoniyatni ta'minlovchi LED chizg'ichlari yaratilgan.

Yarimo'tkazgichli yorug'lik nurlanuvchi diodlar (YOND) ular-da sodir bo'ladigan fizik jarayonlar bo'yicha yarimo'tkazgichli lazerlardan ortda qoladi. Bir lahzali rekombinatsiya natijasida yuzaga keladigan yorug'lik diodlari nurlanishi nokogerent bo'lib, uning spektri lazerlarnikiga nisbatan ancha keng. YOND ni yarimo'tkazgichli lazerlar bilan solishtirganda ularning tezkorligi pastroq. Biroq tayyorlashning nisbatan sodda texnologiyasi, past narxi va uzoq xizmat muddati YOND dan nurlanishning keng chizig'i kamchilik bo'lmagan joyda foydalanish maqsadga muvofiqligini bildiradi.

Yorug'lik diodiga ega printerlarda r-p-o'tish tekisligiga perpendikular yo'nalishdagi nurlanishga ega yuza YOND dan foydalaniladi. Yuza YOND da faol qatlamdagi bir lahzali nurlanish barcha yo'nalishlarda bir xil kechadi, oshirish energiyasining yorug'likka aylanishi 100% ga yaqin bo'lgan yuqori ichki kvant chiqishi bilan kuzatiladi. Biroq yarimo'tkazgich — have chega-


rasidagi to'liq ichki qaytarish shunga olib keladiki, yorug'likning katta qismi kristallda qoladi va tashqi kvant samaradorligi bir necha foiznigina tashkil qiladi. Yuzadan nurlanish lambert tipidagi yo'nalganlik diagrammasiga muvofiq amalga oshadi.



8.12-rasm. LED lineykasidan foydalanuvchi printerning sxemasi:

- a – alohida yorug'lik diodlari varianti; b – yagona ko'pqatlamli yorug'lik diodlan tizimi varianti; d – yoyish sxemasi elementlari joylashuvi;
- 1 – yorug'lik diodlari moduli; 2 – yorug'lik tolali jgut; 3-n – elektrod;
- 4-r – elektrod; 5 – faol qatlam; 6 – fotoreseptor; 7 – linzalar panjarasi;
- 8 – LED chizg'ichi; 9 – asos; 10 – boshqaruv platalari; 11 – yorug'lik nuqtalarining joylashuvi; 12 – bir vaqtda yoyiladigan chiziqlar.

Yuza YOND takomillashgan konstruksiyasida (8.13-rasm) tolalar bevosita nurlanuvchi maydon bilan to'qnashadi. Uning diametri tola markazi diametriga yaqin. Esda tutish kerakki, hech qanday optik tizim yuza YOND nurlanishining tolali yorug'lik o'tkazuvchiga kirish samaradorligini oshira olmaydi. Nurlanish quvvatini saqlab qolib nurlanuvchi maydonni kamaytirish oshirish nuqtasi zichligining o'sishiga olib keladi. Bu uskunaning xizmat muddatini qisqartiradi. Shu bilan birga yuza YOND ning kichik maydonli va muvofiqlashtiruvchi linza tizimlariga ega konstruksiyalari mavjud.




8.13-rasm. Yuza YOND:

1 — tolali yorug'lik o'tkazuvchi; 2 — kontaktlar; 3 — p-JnP asos; 4 — keng zonali n-I_nP qatlami; 5 — tor zonali p-GaJnAsP qatlami; 6 — keng zonali p-I_nP qatlami; 7 — dielektrik (SiO₂); 8 — kontakt va radiator; 9 — faol qism.

YOND yuzasining nurlanish spektri bir lahzali nurlanish spektriga mos, yarim quvvat darajasi bo'yicha uning kengligi 30—50 nm. Nurlanish to'liqini — Λ_0 ning markaziy uzunligi, xuddi lazerlar singari, mall qilingan zona kengligi, ya'ni material bilan aniqlanadi. Yuza YOND ning vatt-amper tavsifnomasi $I=I_{\max}$ gacha chiziqli. Bunda faol r-p-o'tishining qizishi kirish quvvatini pasaytiradi. YOND nurlantiradigan quvvat $I=I_{\max}$ bo'lganda 1—10 mVt ni, tolali yorug'lik o'tkazuvchiga kiritiladigan quvvat 50—500

mk Vtni tashkil qiladi. Yuza YOND lari vatt-amper tavsifnomalarining yuqori chiziqliligi nurlanish quvvatini oson boshqarishni ta'minlaydi.



8.14-rasm. Turli yuza YOND ning vatt-amper tavsifnomalari:
1-GaAlAs; 2-Jn GaAsP/JnP.


Varaqli qog'ozda nusxa oladigan stol lazerli printerining ish sxemasi 8.15-rasmda keltirilgan.

Impuls rejimida ishlovchi yarimo'tkazgichli lazer (3) nurni shakllantiradi. U beto'xtov aylanuvchi ko'pqirrali metall deflektor (1) bilan yoyiladi.

Obyektiv (2) ga mahkamlangan fokuslovchi va kompensator linzalari yorug'lik tutamini fokuslaydi. U ko'zgu (4) dan qaytib, elektrofotografik silindr (6) yuzasiga yo'naltiriladi va lazer nurlanishiga sezgir elektrofotografik qatlamda yashirin elektrostatik tasvir hosil qiladi. Yashirin tasvimi ochiltirish qurilma (15) da bir komponentli ochiltirgich bilan amalga oshiriladi.

Ochiltirilgandan so'ng zaryadlangan tasvir ko'chirish elektrizatori (10) shakllantirgan elektrostatik maydon bilan qog'ozga ko'chiriladi va qurilma (11) da mustahkamlanadi. Shundan so'ng qo-

g'oz varag'i valik (12) lar yordamida qabul stoliga (13) chiqariladi. Ko'pgina printerlarda friksion o'zi uzatgich (14) dan uzatiladigan varaqli qog'ozdan foydalaniladi.




8.15-rasm. Lazerli printerining sxemasi.

Almashtiriladigan kasseta (kartridj) elektrofotografik silindr (6) va ochiltirish qurilmasi (15) dan tashqari silindrni ochiltiruvchi kukun qoldiqlaridan tozalovchi rakelli pichoq (9) ga ega qurilma (9) ni va silindrni zaryadlash elektrizatori (5) ni ishga tushiradi.

Zaryadlash elektrozi sifati korotron va skorotron deb ataladigan qurilmalardan foydalaniladi.

Korotronning asosiy tuzilish elementi totlantiruvchi elektrod va zaryadni stabilizatsiya uchun mo'ljallangan ekrandan (8.16-rasm, a) iborat. Odatda korotron to'rtburchak yoki yarimsilindrik shaklidagi ekranga joylashtirilgan diametri 0,025—0,080 mm bo'lgan totlantiruvchi simdan iborat. Korotron ekrani yo bevosita yoki rezistor orqali yerga ulanadi. Zaryadlashni tezlashtirish uchun umumiy ekranga joylashtirilgan ikkita totlantiruvchi simli korotron-

lardan foydalaniladi. Ba'zi hollarda qo'shimcha elementlar, masalan, simni chang yoki toner zarralaridan tozalash vositalaridan foydalaniladi.



8.16-rasm. Korotron (a) va skorotron (b) turidagi elektrizatorlarning sxemasi:


- 1 — EFQ yuzasi; 2 — totlantiruvchi sim; 3 — ekran;
4 — boshqaruvchi to'r; 5 — quvvat manbai.

Skorotronlar korotronlardan zaryadlangan EFQ va totlantiruvchi elektrod orasiga joylashtirilgan to'ring mavjudligi bilan farqlanadi. Boshqaruvchi elektrod — to'ring kiritilishi EFQ zaryadlanishini berilgan nazorat qilinadigan kattalikkacha amalga oshirilishini ta'minlaydi. Standart geometrik o'lchamlar quyidagicha; totlantiruvchi sim va to'r orasidagi masofa 6–12 mm; to'r va EFQ orasi 4–10 mm; totlantiruvchi sim va ekran orasi 8–15 mm. Totlantiruvchi va to'r simlarining diametri 0,025–0,08 mm. Tezkor uskunalarda bir necha totlantiruvchi simli skorotronlardan foydalaniladi.

Zaryadlash, ochiltirish va tozalash bo'limlari bitta blokka birlashtiriladigan almashtiriladigan kartridjlarni (8.17-rasm) qo'llash printeriarga xizmat ko'rsatishni soddalashtiradi. Ish zaxirasi yoki material sarfi tugaganidan keyin kartridj chiqarib olinadi va yangisiga almashtiriladi. Ishlatilgan kartridj qayta tiklanishi va ochiltiruvchi kukun bilan to'ldirilish mumkin.


Ko'chirish jarayoni yakuniga yetgandan so'ng qog'ozning orqa tomonida zaryad qoladi. Uning yordamida fotoretseptor asosi va qog'oz orasidagi elektrostatik tortishish kuchlari ta'siri davom etadi. Qog'ozning og'irlik kuchi bu tortishishni yengish uchun har doim

ham yetarli emas. Qog'oz uskunada «tiqilib» qolmasligi uchun uni ajratuvchi maxsus mexanizmlar ko'zda tutilgan. Bu ajratish barmoqlari (8.18-rasm) va ajratish korotroni bo'lishi mumkin.



8.17-rasm. Kartridj ish sxemasi:

- 1 – kartridj korpusi; 2 – elektrofotografik silindr;
3 – zaryadlash bo'limi;
4 – eksponirlash uchun darcha; 5 – lazer nuri; 6 – ochiltirish bo'limi;
7 – ko'chirish elektrizatori; 8 – qog'oz varag'i.



8.18-rasm. Ajratish barmoqlari.


Ajratish korotroni ko'chirish korotroniga nisbatan qarama-qarshi qutbli tot hosil qiladi, natijada qog'ozning orqa tomonidagi zaryad neytrallanadi. Biroq zaryadning bir qismi mustahkamlan-gunga qadar tonerli tasvirni ushlab turishi kerak. Ajratish korotroni ko'chirish korotronidan keyin joylashtiriladi. Zamonaviy uskuna-larda totli simiga o'zgartuvchan kuchlanish beriladigan ajratish ko-rotronidan foydalaniladi.

Elektrofotografik silindr yashirin elektrostatik tasvir va toner qoldiqlaridan tozalash uch bosqichda amalga oshadi; dastlabki to-zalash, tozalash va zaryadni o'chirish. Tozalash qurilmasi tozalash bo'limi, tonerli tozalash zonasidan tashlash bo'limi va ishlatilgan toner-ni chiqarib tashlash yoki qayta ishlatish uchun yig'ish bo'li-midan iborat.

Elektrofotografik silindrda ko'chirishdan so'ng 30% gacha to-ner qoladi. Uni yuzada elektrostatik kuchlar ushlab turgani uchun tozalash qiyin. Shuning uchun tozalash qurilmasi ikkita tozalovchi element — cho'tka va rakelga ega. Cho'tka dastlabki, rakel pichog'i esa yakuniy tozalashni amalga oshiriladi. Bir komponentli magnitli ochiltirgich bo'lganda dastlabki tozalash magnitli valik bilan amalga oshiriladi.

Zamonaviy printerlarda issiqlik kuchida mustahkamlash keng qo'llaniladi. Issiqlik kuchida mustahkamlash tamoyili quyidagicha. Tonerli tasvirli nusxa bir vaqtning o'zida ham harorat, ham bosim ta'siriga uchrab ikki valiklar (8.19-rasm) orasidan o'tadi. Bosuvchi valik issiqlikka chidamli rezina qatlami bilan, qizdiriluvchi mustah-kamlovchi valik esa ftoroplast qatlami bilan qoplangan. Mustah-kamlashning bunday qurilmalari elektr energiyasi sarfini kamay-tiradi, yong'indan xavfsiz va o'lchamlari nisbatan kichik. Mustah-kamlash jarayonini aniqlovchi ko'rsatkichlar quyidagilar: yuza mus-tahkamlovchi valik harorati, qizish vaqti va mustahkamlash zona-sidagi bosim. Bu usulning kamchiliklari — toner-ni mustahkam-lovchi valikka yuqib qolishi va valik elastik qatlamining tez yemi-rilishi. Yuqib qolishni kamaytirish uchun mustahkamlovchi valikka odatda silikon moyi yoki optistatik suyuqligi surtiladi.

Elektrofotografik stol printerlari shaxsiy EHM asosida qurilgan nashriyot tizimlarining rivojlanishi tufayli matbaa sanoatida keng tarqaldi. Printerlardan kichik bosmaxonalarda ish hujjatlarini tay-yorlashda, nashriyotlarda turli adabiyotlarni reproduksiyalanadigan aslnusxa-maket usulida chiqarishda va musahhih nusxalarini olish-da muvaffaqiyatli foydalanadilar.



8.19-rasm. Issiqlik kuchida mustahkamlash qurilmasi:

- 1 — bosish qismi; 2 — bosuvchi valik (bosim beruvchi valik);
 3 — yo'naltiruvchilar; 4 — mustahkamlovchi valik; 5 — qizdiruvchi;
 6 — moylovchi valik; 7 — rakel; 8 — ishlash valigi.


Musahhih nusxalarini tayyorlash uchun 300–600 dpi imkoniyatli printerlardan foydalanish yetarli. Reproduksiyalanadigan asl nusxa-maket olish uchun esa 600–1200 dpi yoki undan yuqori imkoniyatli printerlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Raqamli svetoproba qurilmalari sifatida ham rangli elektro-fotografik printerlardan foydalaniladi. Ularda ham oq-qora printerlar singari, optik-mexanik yoyishli yarimo'tkazgichli lazer yoki LED chizg'ichidan foydalaniladi.

Rangli printerlarning tuzilishi rangli tasvir olish elektro-fotografik texnologiyasining bir yoki ikki silindrli varianti tamoyiliga asoslangan. Bir silindrli variant sxemasi 8.20a-rasmda keltirilgan.

Bir silindrli variant — bu ketma-ket ranglarga ajratilgan ekspozitsion va to'rt marta (qora bo'yoqni ham qo'shganda) triada EFG

silindrida rangli tasvirni to'plashdir. Olingan rangli tasvir bevosita qog'ozga o'tkaziladi va mustahkamlanadi.



8.20-rasm. Rangli lazerli printerning bir silindrli (a) va ikki silindrli (b) variant tuzilishlari: 1 – EFG silindr; 2 – zaryadlash bo‘limi; 3 – lazer; 4 – ochiltirish bo‘limlari; 5 – ko‘chirish bo‘limi; 6 – ko‘chirish silindri; 7 – tozalash bo‘limi; 8 – mustahkamlash bo‘limi.

Ikki silindrlı variant sxemasi 8.20b-rasmda keltirilgan. Ikki silindrlı variant va uning ochiltirish bo'limlari avtomatik almash-tiriladigan modifikatsiyalari lazerli printerlarda ishlatiladi. Bu va-riant bo'yicha tasvir silindrida ko'p marta eksponirlanadi va ochil-tiriladi hamda har gal ko'chirish silindrida tutib turiladigan qo-g'ozga ko'chiriladi. Rangli tasvirni to'plash jarayoni yakuniga ket-ganidan so'ng qog'oz varag'i bo'shatiladi va mustahkamlash zona-siga uzatiladi. U yerda kukunli tasvir mustahkamlanadi.

Rangli elektrofotoografiya va yorug'likka sezgir materiallarga lazerli yozishning rivojlanishi raqamli bosish mashinasining yara-tilishiga olib keladi. Bunday mashinada har bir nusxa olishdan oldin tasvir qolip silindrida hosil qilinadi.

Bunday bosish mashinasi an'anaviy varaqli ofset mashinasidan deyarli farq qilmaydi: yon va ort tirgakli pnevmatik o'zi uzatgich; qolip, ofset va bosma silindri; qog'oz o'chirib berish mexanik qu-rilmasi; qabul stoli.

Qolip silindrida (8.21-rasm) fotoyarimo'tkazgichli qatlamga ega qolip mahkamlangan. Lazerli eksponirlash qurilmasi qolip silindrining har bir aylanishida tasvirni yangidan hosil qiladi.


Yozish quyidagicha amalga oshadi. Tozalangan qolip materiali skorotron yordamida — 800 V potentsialgacha zaryadlanadi keyin lazerli eksponirlash qurilmasi maydonlarni yoritib, yashirin elek-trofotografik tasvir hosil qiyadi. Bunda potentsial — 100 V gacha pasayadi. Bo'yoq yashirin tasvirli qolip silindri va ochiltirish silindri (ochiltirish silindri — 400 V potentsialgacha zaryadlangan) orasida purkaladi. Potensiallar farqi tufayli bo'yoqning zaryadlangan zarra-lari kam potentsial yo'nalishida — 400 dan — 100 V ga harakat qila-di. Shundan so'ng qolip silindrida ko'rinadigan ochiltirilgan tasvir hosil bo'ladi.

Ofset silindrida kiydirilgan ofset materiali mavjud bo'lib, u bo'yoqni qolipdan ko'chirib oladi.

Bosma silindri klapanlar yordamida bosiladigan materialni ushlab oladi va ofset silindriga bosadi. Bu vaqtda bo'yoq ofset ma-terialidan varaqqa to'liq o'tadi. Keyin nusxalangan varaq qabul qilish yoki o'chirib berish stoliga (ikki tomonlama bosmada) yo'naltiriladi.

Ko'rib chiqilgan mashinada bo'yoq va ofset materialining elektr o'tkazish xususiyatlari hisobiga bo'yoq 100% ko'chadi.

Asosan maxsus rezervuarlarda joylashgan SMYK bo'yoqlari ishlatiladi. Hosil qilinadigan ranglar gammasini kengaytirish uchun esa qo'shimcha ikkita rezervuarni ulash mumkin.



8.21-rasm. Raqamli bosish mashinasi:

- 1 – lazerli eksponirash qurilmasi; 2 – intektor; 3 – skorotron;
- 4 – tozalash bo'limi; 5 – bo'yoqni yig'ish; 6 – qabul stoli; 7 – o'chirish stoli;
- 8 – ochitiruvchi qilindri; 9 – qolip silindri; 10 – ofset silindri;
- 11 – bosma silindri; 12 – tasvir xotirasi; 13 – boshqaruv monitori;
- 14 – qog'oz uzatish stoli; 15 – lokal tarmoq; 16 – ma'lumotlarni kiritish;
- 17 – strimmer; 18 – bo'yoq chiqindilari; 19 – tashuvchi; 20 – separator;
- 21 – rezervuar; 22 – aylantirish rolislari; 23 – bosim berish roligi;
- 23 – ventilyator.

Mashina 800 dpi imkoniyatni ta'minlaydi. Bunday mashinadan foydalanish uncha katta bo'lmagan (500–1000 nusxa) adatlarda maqsadga muvofiq.

8.2. Oqimli printerlar

Nashrlarni bosmagacha tayyorlash tizimlarida elektrofotografik printerlar bilan bir qatorda raqamli svetoproba olish uchun oqimli printerlar ham ishlatiladi.

Oqimli bosma — tasvir olishning shunday jarayoniki, unda tasvir yuzada maxsus moslamadan otilib chiqadigan siyoh tomchilari yordamida hosil qilinadi.

Lazerli yoki LED — printerlarga qaraganda oqimli uskunalar bir qator kamchiliklarga ega. Masalan, bosma sifatining qog'oz turiga bog'liq bo'lmasligini ta'minlaydigan siyohlar hozirgacha kashf qilinmagan. G'ovakli qog'oz siyohning yoyilishiga olib keladi. Natijada chiziq va konturlarning aniqligi kamayadi. Lekin silliq qog'ozda sifatli tasvir olinadi. Bundan tashqari, purkovchi moslama o'lchamlari va undan otilib chiqadigan siyoh tomchilari tezligi va o'lchamining har xilligi ko'zga ko'rinadigan yo'lkachalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Yana bir bosma sifatini pasaytiruvchi omil — bu «yo'ldosh» tomchilarning paydo bo'lishi. Ular kerakli trayektoriyadan surilib ketadi va qog'ozning kerakli joyiga tushmaydi.


Printerlarda elektrofotografik usulda tasvir olishga nisbatan oqimli bosmaning afzalliklari: oqimli printerda olingan rangli nusxaning narxi elektrofotografik printerda olingan rangli nusxaga qaraganda ancha arzon, sifat esa deyarli bir xil.

Rangli oqimli printer raqamli svetoprobe olishdan oldin kalibr lanadi. Unda nazorat rangli shkalasi chiqarilib, uning gradatsiyalari spektrofotometrda o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar printerning ICC-profilini maxsus linearizatsiya fayliga kiritiladi. Aniq masshtabli shkala bo'yicha optik zichliklar gradatsiyasi yakuniy aniq o'lchan ganidan so'ng printerning asosiy profili shakllantiriladi. Ba'zi printerlar tasvirni to'rt emas, oltita bo'yoqda bosadi. Bular odatiy SMYK bo'yoqlari va qirmizi hamda havorang bo'yoqlarning «ochartiril gan» variantlari.

Yuqori sifatli tasvir olish uchun fizik imkoniyati 1140x720, 1200x1200, 2880x720, 2400x1200 dpi bo'lgan printerlar chiqariladi. Imkoniyatning so'nggi ikki qiymati printer nusxalovchi kallagining ikki marta o'tishi hisobiga erishiladi.

Oqimli bosma usulida olingan tasvir asosan ikki kamchilikka ega: «suvdan qo'rqish» va ultrabinafsha nurlanish ta'sirida rangsiz lanish. Shu sababli so'nggi vaqtlarda pigmentli siyohlardan foydalanilmoqda. Ular qattiq bo'yovchi kukunning mayda dispersli suvli muhitini tashkil qiladi. Pigmentli bo'yoq namlikka chidamli va to'yingan rangga ega. Oddiy qog'ozga chiqariladigan nusxalarning chidamliligini oshirish uchun ba'zi oqimli printerlarda kartridjida qora siyoh uchun qo'shimcha kanal bo'lgan nusxalovchi boshcha ishlatiladi. Bu kanal optimizatorga ega bo'lib, uning vazifasi siyoh


tomchilarini mustahkamlovchi qatlamni hosil qilishdan iborat. Natijada tasvir suvga chidamli bo'ladi. (8.22-rasm).




8.22-rasm. Oqimli printerda siyoh optimizatoridan foydalanish sxemasi.

Oqimli bosma tasvir hosil qilish usuli bo'yicha uzluksiz va impulsli turlarga bo'linadi (8.23-rasm). Impulsli oqimli bosma o'z navbatida pufakli, pyezoelektrik va qattiq siyohlar bilan bosim kabi turlarga bo'linadi.

Uzluksiz oqimli bosma. Uzluksiz bosma usulidagi oqimli printerlarda (8.24-rasm) nusxalovchi boshcha siyoh tomchilarini qog'oz tomonga uzluksiz purkaydi. Nusxalovchi beligacha keluvchi siyoh oqimi tebranish hisobiga tomchilarga ajratiladi. Bunga pyezoelektrik generator yordam beradi. O'zgaruvchan elektr kuchlanishi ta'siri ostida pyezoelektrik kristali o'z hajmini o'zgartiradi va tomchini boshchadan sachratadi. Ma'lum qovushoqlikka ega siyoh olish uchun bu rezervuar eritma rezervuari bilan ulangan.



8.23-rasm. Oqimli bosma usullarining sinflanishi.



8.24-rasm. Uzluksiz oqimli bosma printerining sxemasi.

Elektrod yordamida purkalovchi tomchilar elektr zaryadiga ega bo'ladi. Shundan keyin ular yuqori kuchlanishni elektromaydoni hosil qiluvchi siljituvchi tizim orqali uchib o'tadi. Tomchilar zaryadga ega bo'lgani uchun ular elektr maydon ta'sirida o'z trayektoriyasini o'zgartiradi. Tasvir generatori tomchilar parvozi yo'nalishini boshqaradi. Ular yoki qog'ozning kerakli joyiga borib tushadi, yoki tutib oluvchi ularni qayta ishlatish uchun rezervuarga qaytaradi.


Nusxalovchi boshcha (8.25-rasm) axborot tashuvchisi (qog'oz) yuzasi yo'nalishi bo'ylab harakatlanib tasvirni hosil qiladi.

Siljituvchi elektrodlar maydonidagi zaryadlangan tomchining siljishini hisoblash tezlashtiruvchi elektrodlar bir jinsli bo'lmagan o'statsionar maydonidagi uning yakuniy tezligi U_{max} qiymatini bilishni nazarda tutadi. Modomiki, tomchilarni generilashda menisk davriy tebranadi, natijada vaqt bo'yicha r_0 va h o'zgaradi.

Elektrodlar o'rtasidagi oraliqda zaryadlangan tomchining harakatini quyidagi tenglama bilan yozish mumkin

$$m \frac{d^2 x}{dt^2} = F_e - F_c - F_n - F_g + F_B, \quad (8.1)$$

bu yerda, F_e — zaryadlangan tomchining tezlashtiruvchi elektrodga kulon tortishi kuchi; F_c — havoning aerodinamik qarshilik kuchi; F_n — elektr maydoni zaryadlangan tomchiga ta'sir qiladigan kuch; F_g — og'irlik kuchi; F_B — elektr shamoli kuchi; m — tomchi og'irligi.



8.25-rasm. Oqimli printerlarning tuzilish variantlari:

1 — axborot tashuvchi (qog'oz); 2 — nusxalovchi boshcha; 3 — qayishqoq kabel; 4 — yo'naltiruvchi.

Tomchini tezlashtiruvchi elektrodning bir jinsli bo'lmagan maydonida harakatlantirish uchun elektr shamoli kuchlari va polyaritatsion kuchlar yordamida davriy hosil bo'ladigan og'irlik kuchlarini inobatga olmasak, chiziqli bo'lmagan differensial tenglamaga ega bo'lamiz.

$$m \frac{d^2 y}{dt^2} = q_k \frac{U_0}{h_0} - 3\pi\rho_c V_c \frac{dy}{dt} d_k \left[1 + \frac{1}{6} \left(\frac{d_k dy}{v_c dt} \right)^{2/3} \right] = q_k E(x), \quad (8.2)$$

bu yerda, q_k — tomchi zaryadi, $\rho_c V_c$ — tomchi harakat qiladigan muhitning zichligi va kinetik koeffitsiyenti; $E(x)$ — tezlashtiruvchi elektr maydonning markaziy kuch chizig'i bo'yicha kuchlanishning taqsimlanishi. Tomchi zaryadi quyidagi formulada aniqlanadi:

$$q_k = k \pi \varepsilon_0 E_k d_k^2,$$

bu yerda, k — siyoh turi va tezlashtiruvchi elektrodlar (purkagich-menisk-teshikli tekislik tezlashtiruvchi elektrodiga ega suvli asosdagi siyohlar uchun $k=0,34$) ga bog'liq koeffitsiyent; ε_0 — dielektrik doimiy; E_k — tomchi yo'lining boshidagi maydonning kuchlanganligi; d — tomchi diametri.

Siljituvchi elektrodarga U_0 kuchlanish berilganda boshqarish kuchlanishi belgisiga bog'liq holda tomchi maydon harakati yo'nalishi bo'yicha ko'chadi (8.26-rasm y o'qi bo'yicha). Bu holda aerodinamik qarshilik kuchlaridan tashqari tomchiga siljituvchi kuch $q_k U_0 / h_0$ ta'sir qiladi, bu yerda h_0 — siljituvchi elektrodlar orasidagi masofa. Shunday deb tasavvur qilamizki, polyaritatsion va tomchidagi zaryadlarning elektr maydoni siljituvchi maydonli o'zgartirmaydi. Bu holda (8.2) ni hisobga olganda tomchining siljishini quyidagi tenglamadan topamiz:


$$m \frac{d^2 y}{dt^2} = q_k \frac{U_0}{h_0} - 3\pi\rho_c V_c \frac{dy}{dt} d_k \left[1 + \frac{1}{6} \left(\frac{d_k dy}{v_c dt} \right)^{2/3} \right] \quad (8.3)$$

boshlang'ich shartlarda $t=0$, $V_c=0$, $V_c = dy/dt=0$, $0 < t < t_0$, bu yerda t_0 — tomchining siljituvchi elektrodlar orasida bo'lish vaqti. Bu holda tomchining $l_n - l_0$ (8.26-rasmga qarang) bo'limda uchishining yakuniy bosqichini hisoblash uchun tomchi tezligi v_{emax} va tomchining siljishi y ni bilish kerak.

Siljituvchi elektrodlar chiqishi va grafik yoki belgili axborot tashuvchisi orasida joylashgan $l_n - l_0$ bo'limdagi tomchining harakati quyidagi tenglama bilan ta'riflanadi:

$$m \frac{d^2 y}{dt^2} = -3\pi\rho_c V_c \frac{dy}{dt} d_k \left[1 + \frac{1}{6} \left(\frac{d_k dy}{v_c dt} \right)^{2/3} \right] \quad (8.4)$$

Bu boshlang'ich shartlar: $t=0$, $V_c=0$, $v_{v0}=v_{vmax}$ $0 < t < t_n - l_0$ bo'lganda Runge-Kutt usuli bilan topiladi. Momchining l_n cheklanish zonasi bo'limida bo'lish vaqti.



8.26-rasm. Uzlaksiz oqimli bosmada zaryadlangan tomchining siljishini hisoblash sxemasi:

- 1 – soplo (purkagich); 2 – siyoh meniski; 3 – tomchi;
4 – tezlashtiruvchi elektrod; 5 – siljituvchi elektrodlar; 6 – grafik yoki belgili axborot tashuvchisi.

(8.4) dan siljish kattaligi y_2 va $l_n - l_0$ bo'limda tomchining tezligi v_{v2} ni topamiz. Axborot tashuvchi (masalan, qog'oz) bilan uchrashganda kinetik energiya potensial energiyaga o'tadi. Shuning uchun berilgan grafik yoki belgili axborot tashuvchisida siyoh turi, tomchi diametri va uning tezligi v_{v2} ni shunday tanlash kerakki, tomchining yanada mayda bo'laklarga parchalanishi sodir bo'lmasin. Tomchining natijalovchi siljishi:

$$y_r = y_1 + y_2 \quad (8.5)$$

Uzluksiz harakatli oqimli printerlarni hisoblashda boshlang'ich ma'lumotlar sifatida belgi o'lchamlari (natijalovchi siljish y_0 ning maksimal kattaligi), tomchi hosil qilish chastotasiga bog'liq bosma tezligi beriladi.

$$f_k = 1/t_0 \quad (8.6)$$

Bu holda, birinchi yaqinlashishdagi aerodinamik qarshilik kuchlari F_c ni hisobga olmasak, siljituvchi elektrodlar orasida tomchining x o'qi bo'yicha harakat tezligini va $v_{x\max}$ ga teng doimiy deyish mumkin $t_0 = l_0/v_{y\max}$

Tomchining umumiy siljishi [(8.5.) formulaga qarang] $v_{x\max} = v_{x\max}$ (8.26-rasmga qarang) ligini inobatga olganda

$$\gamma_r = y_1 + (l_n - l_0)v_{y\max} / v_{x\max}$$

y_1 va $v_{\max}$ qiymatlarni (8.3) tenglamadan topamiz. $F_c=0$ bo'lganda y quyidagicha

$$m \frac{d^2 y}{dt^2} = q_k \frac{U_e}{h_0} \quad (8.7)$$

O'zgaruvchilarni ajratib, (8.7)ni (8.6) ga qo'shiltirib, $t=0$, $y=0$ va $v_y=dy/dt=0$ deb hisoblab, quyidagini olamiz.

$$v_{y\max} = \frac{q_k U_0 t_0}{m h_0} = \frac{q_k U_0 l_0}{m h_0 v_{x\max}} = \frac{q_k U_0}{m h_0 f_k} \quad (8.8.)$$

$$y_1 = \frac{q_k U_0 t_0^2}{2 m h_0} = \frac{q_k U_0 l_0}{2 m h_0 v_{x\max}^2} = \frac{q_k U_0}{2 m h_0 f_k^2} \quad (8.9)$$

Tezlik $v_{x\max}$ ni (8.2)dan $F_c=0$ bo'lganda va $t=0$ $x_0=-(h-d_c)$ va $v_{x0}=dx/dt|_{t=0}=0$ sharoitda topamiz.

$$v_{x\max} = \sqrt{2q_k U_r l m} \quad (8.10)$$

(8.8)—(8.10) ni (8.7)ga qo'yib tomchining natijalovchi siljishini topamiz.

$$\gamma_p = \frac{U_o}{h_o} \left(\frac{q_k}{2mf^2k} + \frac{l_H - l_o}{f_k} \sqrt{\frac{q_k}{2mU_r}} \right) \quad (8.11)$$

Agar grafik yoki belgili axborot siljituvchi elektrodلarga bevosita yaqin joylashtirilgan bo'lsa, $l_H = l_o$ da (8.10) va (8.11) dan

$$\gamma_p = \gamma_1 = \frac{q_k U_o l_o^2}{2mh_o v_{x \max}^2} = \frac{U_o l_o^2}{4h_o U_r} \quad (8.12)$$

Yuqorida keitirilgan statik tavsifnomalar tezlatuvchi va siljituvchi elektrodلar elektr maydonida harakatlanuvchi bitta zaryadlangan tomchi uchun olingan. Qo'shni zaryadlangan tomchilar bilan o'zaro ta'sirlashuvi va aerodinamik qarshilik turli kuchlari inobatga olinmagan.

Elektrodلar o'rtasidagi oraliq h da (8.26-rasmga qarang) tomchilarning o'zaro elektrostatik ta'sirini yo'qotish (kamaytirish) uchun elektrodلar o'rtasidagi oraliq uzunligini tomchi hosil bo'lishi chastotasiga qarab tanlanadi. Bunda elektrodلar o'rtasidagi oraliq h da bitta yoki bir-biridan maksimal uzoqlikdagi ikkita tomchi bo'lsin.


Uzluksiz bosmali oqimli printerلarning asosiy afzalligi — bu yuqori sifatli rangli tasvir olish imkoniyatidir. Kamchiligi tasvir olishning nisbatan past tezligi (purkagichلarning unumdorligi sekundiga 50000 dan 150000 gacha tomchi bo'lganda ham), sarflarning kattaligi (siyohلar qimmat va xizmat ko'rsatish murakkab) va qurilmaning o'zi ham qimmat.

Impulslı bosmali oqimli printerلar ancha keng tarqalgan Uzluksiz harakat tizimlaridan farqli o'laroq, impulslı oqimli boshcha asinxron qurilmalardir. Nusxalovchi boshcha talab bo'yicha signal olgandagina siyohni «otadi».

Impulslı turdagi qurilmalarda tottnchi generatorida purkagich yonida uncha katta bo'lmagan kamera mavjud. Unda kerakli vaqtda yoki pyezoelektrik kristali, yoki issiqlik impulsi yordamida ortiqcha bosim hosil qilinadi. Ortiqcha bosim kameradan siyoh


tomchisini otib yuboradi, u inersiya yordamida purkagich va qog'oz orasidagi masofani bosib o'tadi. Tomchi ketidan tomchi, nuqta ketidan nuqta bo'lib tasvir shakllanadi (8.27-rasm).

Tomchi generator




8.27-rasm. Impulsi turdagi printerda tasvirni shakllantirish.

Pyezoelektrik oqimli boshchalarda siyohii kameradan ortiqcha bosim pyezoelektrik disk yordamida hosil qilinadi. Pyezoelektrikka elektr kuchlanish berilganda u bukilib o'z shaklini o'zgartiradi. Siyohli kamera devorlaridan biri bo'lgan disk bukilib uning hajmini kamaytiradi. Ortiqcha bosim ta'siri ostida suyuq siyoh purkagichdan tomchi ko'rinishida otilib chiqadi. Texnologik jihatdan nisbatan murakkab bo'lgani uchun pyezoelektrik nusxalovchi boshchalar pufaklilariga nisbatan qimmatroq.



8.28-rasm. Pyezoelektrik boshcha sxemasi.

Pufakli oqimli texnologiya ishlatuvchi nusxalovchi tizimlarda matn va grafika juda ingichka purkagichdan otilib chiqadigan siyoh tomchisining qog'ozga tushishidan hosil bo'ladi. Bu quyidagicha amalga oshadi (8.29-rasm). Purkagich devoriga qizdiruvchi element joylashtirilgan elektr impulsi berilganda uning harorati keskin ortib ketadi. Shundan keyin qizdiruvchi element bilan kontaktda bo'lgan barcha siyoh bug'lanadi.




8.29-rasm. Pufakli nusxalovchi kallanning ish tamoyili.

Bug'ning kengayishi zarbali to'liqinni hosil qiladi. Ortiqcha bosim ta'siri ostida tomchi purkagichdan otiladi. Otilgandan so'ng

bug' kondensatsiyalanadi, pufak «yoriladi» va purkagichda bosim pasayadi. Buning ta'sirida siyohning yangi qismi purkagichga o'tadi.

Bunday nusxalovchi qurilmasining asosiy xususiyati purkagichlarning oddiy va ishonchli tuzilganligidir.

Impulslı turdagi oqimli printerlarga, shuningdek, bosish jarayonida o'z fazasini o'zgartiradigan qattiq siyohdagi printerlar ham taalluqli. Bunday printerlarda (8.30-rasm) to'rtta rangli mumli tayoqchalar (havorang, qirmizi, sariq va qora ranglar) nusxalovchi xallakka joylashtiriladi.




8.30-rasm. O'zgaruvchan fazali oqimli bosma sxemasi.

Qizdiruvchilar mumni eritadi -90°C da u suyuq holatga o'tadi va rezervuarga oqib tushadi. Bu yerda u printerning ish vaqti davomida suyuq holatda ushlab turiladi. Tasvir olish uchun nusxalovchi qurilma siyohning katta bo'lmagan miqdorini chiqarib oladi va uni qo'shimcha qizdiradi.

Elektron qurilma talab qilingan vaqtda siyohning mayda tomchilarini «otadi». Qog'oz bilan kontakt vaqtida siyoh tezda qattiq fazaga o'tadi, shuning uchun u qog'ozga shimilmaydi, balki uning yuzasida qoladi. Bunda suyuq siyohlarga xos bo'lgan yoyilish effekti bo'lmaydi. Tomchilar tez qotib qolgani bois tasvirning yuzasi notekis bo'lib qoyadi. Shuning uchun tasvirli qog'oz valiklar orasidan o'tkaziladi. Ular qotib qolgan qattiq siyoh tomchilarini yoyadi va tasvirga yoqimli silliq ko'rinish beradi.

Ko'pchilik bunday printerlarning nusxalash mexanizmi (8.31-rasm) uzliksiz harakatli printerlarniki singari tuzilgan. Qog'oz aylanuvchi barabanga mahkamlangan va nusxalovchi boshcha bitta ilgarilama harakatda tasvir hosil qiladi.




8.31-rasm. Qattiq siyohli printerning nusxalash mexanizmi sxemasi.

Rang gradatsiyalari sonini oshirish uchun bir vaqtning o'zida ikki komplekt (I va II) nusxalovchi boshcha — standart pigmentli (III) va yarim optik zichlikli ishlatiladi. Shu tufayli har bir nuqtada bo'yoq zichligining to'rtta gradatsiyasiga erishish mumkin.

Eritilgan siyohda nusxalash mexanizmi boshchani ifloslanishni oldini olgani uchun qurilmaning imkoniyati 600 dpi, bir vaqtda nusxalanadigan nuqtalar 320/dak. Bu barabanning aylanish chastotasi nisbatan past bo'lganda ham bosmaning yuqori tezligini ta'minlaydi.

Faza o'zgaradigan oqimli bosmaning boshqa oqimli texnologiyalar oldidagi asosiy ustunligi shuki siyohning qog'ozga shimilmasligi tufayli bosmaning yuqori sifatiga erishiladi. Kamchilik bitta — olinadigan tasvirlarning narxi yuqori. Bir rangli bosmada bunday qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Ularni aniq rang berish va yuqori sifat talab qilinganda rangli tasvirlar chiqarishda qo'llash kerak.

Bosish tezligini oshirish uchun oqimli printerlar bir necha (1 dan 4 gacha) nusxalovchi boshchalar bilan jihozlanadi. Ularning har birida siyohning har bir rangi (4-6 rang) uchun ko'p sonli purkagichlar mavjud bo'ladi. Bunday boshchalarda purkagichlar gorizontal va qiya vertikal bo'lib, bir necha qatorda (8.32-rasm) joylashadi. Bunda n gorizontal qatorlar uchun printerning imkoniyati R quyidagini tashkil qiladi.



8.32-rasm. Ko'pqatorli nusxalovchi boshcha purkagichlarning joylashish sxemasi.

Bu yerda, a — hosil qilinadigan tasvir nuqtalari orasidagi masofa; a_x — gorizontal qatordagi purkagichlar orasidagi masofa; n — gorizontal qatorlar soni.

(8.13) tenglik bajarilishi uchun

$$\operatorname{tg} \alpha = (n - 1) \frac{a_y}{a_x}$$

bo'lish kerak, bu yerda, a_y — purkagichlarning gorizontal qatorlari orasidagi masofa.

Hozirgi vaqtda siyohning har bir rangi uchun 48, 64, 96, 208, 304 va 512 ta purkagichga ega nusxalovchi boshchalar ma'lum. Ba'zi printerlarda qora siyoh uchun nusxalovchi boshchada rangli siyohlarga nisbatan ko'proq purkagichlar joylashtiriladi.


8.3. Bo'yoqni isitib ko'chirish raqamli svetoproba

Nashrlarni bosmaga tayyorlash tizimida tasvirlarni ranglarga ajratish va qayta ishlash sifatini baholash uchun kerakli rangli nusxalar nafaqat rangli lazerli yoki oqimli printerlarda, balki bo'yoqni isitib ko'chirishli raqamli svetoproba uskunalarida ham olinadi. Bunday qurilmalarni uchta asosiy turga bo'lish mumkin: bo'yoqni isitib ko'chirishli, bo'yoq termosublimatsiyasili va bo'yoqni oraliq tashuvchi orqali isitib uzatishli. Dastlabki ikki turdagi qurilmalar bo'yoqni isitib ko'chirishli va sublimatsiyali printerlar deb ataladi.


Bo'yoqni isitib ko'chirishda maxsus materiallardan foydalaniladi. Bo'yoqni isitib ko'chirish uchun material (8.33.a-rasm) yuzasi himoya qatlami bilan qoplangan material-tashuvchidan, tagida gruntovka (bo'yoqning birinchi qatlami) va bo'yoq qatlamidan iborat. Bo'yoq qatlami sifatida mum yoki maxsus polimer ishlatiladi. Bo'yoq termosublimatsiyasi uchun material ham (8.33.b-rasm) yuzasi himoya qatlami bilan qoplangan material-tashuvchi va bo'yoq qatlamidan iborat. Termosublimatsiyada nusxalanadigan material diffuzion qatlam yuritilgan maxsus yuzaga ega.

Isitib ko'chirishda termoboshchani qizdiruvchi elementlari hosil qilgan issiqlik ta'sirida bo'yoq qatlamining bir qismi material-tashuvchidan ajraladi va nusxalanuvchi materialga o'tkaziladi (8.34-rasm). Kerakli rangli bo'yovchili plyonkaning qog'ozga qolishi kerak bo'lgan nuqtalarigina qizdiriladi va plyonka keyingi rangni ko'chirish uchun qayta o'raladi. Shunday qilib, nusxalash ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Buning uchun bo'yoq tashuvchi-tasma

asosiy ranglarning bo'yoq qatlamiga ega bo'limlarga bo'lingan. Termoboshcha esa nusxalanuvchi material bilan bir xil kenglikka ega (8.35-rasm).




8.33-rasm. Bo'yoqni isitib ko'chirish uchun materiallarning tuzilishi:
a – isitib ko'chirish uchun; b – termosublimatsiya uchun; 1 – himoya qatlami; 2 – material-tashuvchi; 3 – gruntovka; 4 – bo'yoq qatlami; 5 – nusxalanuvchi material; 6 – diffuzion qatlam; 7 – yuza.



8.34-rasm, Bo'yoqni isitib ko'chirish sxemasi:
1 – termoboshcha; 2 – bo'yoq tashuvchi-tasma; 3 – nusxalanuvchi material.

Bo'yoqni isitib ko'chirish uchun ishlatiladigan bo'yoqlar o'z rangi bo'yicha triada bo'yoqlariga yaqin, ular aralashuvi yo'qligi tufayli plashkali elementlar uchun yaxshi rang uzatishga erishish

mumkin. Yaxshi aniqlikka ega tasvir olishning iloji yo'q, chunki bunday qurilmalarning imkoniyati odatda 300 dpi. Bu usulning kamchiligi shuki, sifatli bosma uchun har qanday qog'oz ham yaroqli emas. Agar qog'oz yuzasi silliq (yoki bo'rlangan) bo'lmasa, bo'yovchi qog'ozga to'liq o'tmasligi mumkin. Ikkinchi kamchilik — bo'yovchili plyonka tez sarflanib ketadi. Agar varaqqa ham bo'yoq o'tkazilishi kerak bo'lsa ham, har bir bo'yovchidan bir betdan sarflanib ketadi. Tezlik oqimli texnologiya printerlariga qaraganda yuqoriroq: odatda 1–2 bet/min.




8.35-rasm. Bo'yoqni isitib ko'chirishli printer.

1 — termosxemasi; 2 — nusxalanuvchi material; 3 — bo'yoq tashuvchi-tasma.

Termosublimatsiyada bo'yoq material-tashuvchidan nusxalanadigan materialga diffuziya vositasida o'tadi. Qizdirish bo'yoqning bug'lanishiga olib keladi, natijada bo'yovchi moddalar qog'ozga diffuziyalanadi (8.36-rasm). Diffuziyalangan bo'yovchini qabul qilish uchun nusxalanadigan material yuzasi maxsus qatlarga ega bo'lishi kerak.

Agar isitib ko'chirishda bo'yoq tashuvchisi nusxalanadigan yuza bilan bog'lanadigan bo'lsa, termosublimatsiyada qabul qiluvchi qatlam va bo'yoq qatlami orasida katta bo'lmagan oraliq bo'lishi mumkin.

Sublimatsion printerlarda termoboshcha va qog'oz varag'i kengligi bir xil bo'lgani uchun bir vaqtning o'zida tasvirning butun bir qatori nusxalanadi. Bitta bo'yoqda nusxalangandan so'ng varaq tasvir boshiga, bo'yovchi tasma esa keyingi rang mavjud bo'limga qaytadi.



8,36-rasm. Bo'yoq termosublimatsiyasi sxemasi:

- 1 — termoboshcha; 2 — material-tashuvchi; 3 — bo'yoq qatlami;
4 — bo'yoq bug'lari; 5 — maxsus qog'oz; 6 — diffuzion qatlam;
7 — diffuzion qatlama kirgan bo'yoq.

Qog'ozga tushgan bo'yoq miqdori bosiluvchi elementni qizdirish davomiyligi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, har bir nuqta 156 rang gradatsiyasida ega bo'lishi mumkin. Bu imkoniyat 300 dri bo'lganda aniq rang uzatilishini ta'minlaydi.

Liniaturasi 300 dri bo'lgan bu nusxa va ofset nusxasida hosil qilinadigan rang haqidagi axborot miqdori deyarli bir xil. Afsuski, ko'chirish jarayonida bo'yovchining bir oz yoyilishi ko'p tusli tasvirlar aniqligini ofset bosmadagina nisbatan bir oz pasaytiradi.

Sublimatsiya bosma texnologiyasining asosiy afzalliklari tasvirning ko'rinadigan tuzilishi mavjud bo'lmaganda aniq tus uzatish, qurilmaning kichik o'lchamlari va yuqori ishonchlilikdan iborat.

Ranglarga ajratish va sahifalash sifatini aniq baholash uchun bo'yoqni omlig tashuvchi orqali isitib ko'chirish vositasida tasvirning rasmi tuzilishini hosil qiluvchi raqamli svetoproba ishlatiladi. Bu holda ikki qurilmadan — eksponirlovchi bo'lim va laminator — iborat to'plam ishlatiladi. Laminator bo'limida maxsus baraburning tasdiq tomonida yupqa metall folga varag'i — tasvir asosi joylashtiriladi. Uning yuzasiga yupqa latsan plyonka — pylonka-

tashuvchi mahkamlanadi. Ikkala varaqning baraban yuzasiga o'rnatilishi va bir tekis bosilishi vakuum yordamida amalga oshiriladi.

Shundan so'ng xuddi tashqi barabanli yozish qurilmasidagi singari, folga va plyonkali silindr aylana boshlaydi. Kuchli lazer esa uning yuzasiga rastr nuqtalarini fotoqolip yoki plastinada hosil qilganidek eksponirlaydi. Lazer ta'siri ostida bo'yoq eriydi va kerakli joylarda metall folga o'tadi.

Birinchi bo'yoq yorilgandan so'ng bo'yoq qoldiqlariga ega kerakmas asos mashinadan chiqarib tashlanadi. Ko'prangli tasvirning birinchi qatlami folga yuzasiga navbatdagi rangli plyonka mahkamlanadi va jarayon takrorlanadi.

To'rtta rangli tasvir tushirilgan folga eksponirlovchi bo'limdan chiqarib olinadi va asos-qog'oz varag'i bilan birgalikda laminatorga kiradi. Laminatorda pigmentni folgadan qog'ozga isitib ko'chirish ro'y beradi. Ko'chirish natijasida kutalayotgan ofset nusxasiga yaqin tasvir hosil bo'ladi. Eksponirlovchi bo'limning imkoniyati 4000 drini tashkil qiladi.

8.4. Analogli svetoproba tayyorlash qurilmalari

Nashrlarni bosmaga tayyorlash tizimida tasvirlarni ranglarga ajratish va ishlov berish sifatini nazorat qilish uchun turli rangli printerlar yordamida olinadigan raqamli svetoprobadan tashqari analogli svetoproba ham qo'llanilash mumkin. Svetoprobaning analogli turlari moddiy tashuvchi — ranglarga ajratilgan fotoqolip va bosma qoliplardagi tasvirlar haqidagi axborotdan foydalanadi.

Bosma qolip tayyorlanmaydigan analogli svetoproba: Svetoprobaning bu turini Comruter-to-Film texnologiyasini qo'llovchi va ranglarga ajratilgan fotoqoliplar to'plamini tayyorlovchi bosmagacha bo'lgan tizimlarda qo'llash maqsadga muvofiq. Fotoqoliplardan rangli tasvir olish uchun maxsus svetoproba materiallaridan foydalaniladi.

Analogli svetoprobalar «quruq» va «ho'l» deb ataladigan turlarga bo'linadi. Ularning farqi shundaki, «quruq» svetoprobada nusxa olish jarayonida kimyoviy eritmalar ishlatilmaydi: pigment oraliq elementlardan mexanik usulda olib tashlanadi. «Ho'l» svetoprobalarda ochiltirish jarayoni amalga oshadi, ya'ni eruvchanlik kasb etgan elementlar yuvib tashlanadi. «Quruq» va «ho'l» svetoproba jarayonlari xilma-xil, lekin ularning asosiy farqi ishlatiladigan svetoproba materiallari xususiyatlaridadir. Turli texnolo-

plyonkani ko'rib chiqishda nusxa olish jarayonining uchta asosiy bosqichini ajratish mumkin:

1. Laminirlash (pigmentli qatlamni asosga harorat ta'sirida yelimlash).

2. Eksponirlash (pigment qatlamiga UB-nurlanish bilan ta'sir qilish).


3. Ochiltirish (pigmentli qatlamni oraliq elementlardan olib tashlash: «ho'l» svetoprobe texnologiyasida).

Turli firmalar tomonidan taqdim qilinadigan analogli svetoprobe uskunalari to'plami odatda 2 yoki 3 qurilmadan iborat: laminator; eksponirlovchi qurilma; ochiltirish uchun protsessor (faqat «ho'l» svetoprobe uchun).

Ishni qulaylashtirish uchun laminator va ochiltiruvchi protsessor odatda bitta korpusga o'rnatiladi.

Laminatorlar — qog'oz va turli asoslarga termoyelimli qatlamga plyonkani mahkamlash uchun mo'ljallangan qurilmalardir.

Yelimlash bir vaqtning o'zida termoyelimni eritish uchun qizdirish va plyonka asosga yo'naltiruvchi valiklar bilan bosish hisobiga amalga oshiriladi (8.37-rasm).




8.37-rasm. Laminirlash jarayoni sxemasi:

- 1 — yo'naltiruvchi valik; 2 — plyonkali asos; 3 — pigmentli qatlam;
4 — termoyelimli qatlam; 5 — qizdiruvchi element; 6 — asos (qog'oz).

Shunday qilib, laminatorning asosiy a'zosi ichida qizdiruvchi elementlar joylashtirilgan yo'naltiruvchi valiklardir. Laminator tu-

zilishiga bog'liq holda bunday valiklar bir nechta bo'lishi mumkin. Laminator aniq svetoprobe tizimi uchun texnologik rejim, ya'ni kerakli harorat va tezlikni ta'minlashi kerak.

Ba'zi hollarda laminator tuzilishi murkkablashtiriladi. Shakllantirilgan tasvirni UB-nurlanish bilan qo'shimcha yoritishi uchun yoritgich bilan jihozlanadi (8.38-rasm).



8.38-rasm. Yoritgichli laminatorning prinsipial sxemasi:


1 — uzatish stoli; 2 — qizigan yo'naltiruvchi valiklar; 3 — plyonkani asosdan ajratish qurilmasi; 4 — yoritgich (UB-nurlanish); 5 — qabul stoli.

Ekspozirlovchi qurilmalar (kontaktli nusxa ko'chirish qurilmalari) svetoprobe materiallari pigmentli qatlamiga UB-nurlanish bilan ta'sir qilishga mo'ljallangan. Buning uchun qolip materiallarini (offset plastinalari va b.) ekspozirlovchi odatdagi kontaktli nusxa ko'chirish qurilmalaridan foydalanish mumkin. Odatda, svetoprobe tizimlari soddaroq tuzilishdagi uskunalar bilan to'planadi.

Ekspozirlovchi qurilmalar (kontaktli nusxa ko'chirish qurilmalari) svetoprobe materiallari pigmentli qatlamiga UB-nurlanish bilan ta'sir qilishga mo'ljallangan. Buning uchun qolip materiallarini (offset plastinalari va b.) ekspozirlovchi odatdagi kontaktli nusxa ko'chirish qurilmalaridan foydalanish mumkin. Odatda, svetoprobe tizimlari soddaroq tuzilishdagi uskunalar bilan to'planadi.

Ochiltiruvchi protsessorlar yoritilgan pigmentli qatlamni kimyoviy eritmalar yordamida tasvirning oraliq elementlaridan olib tashlashni ta'minlaydi. Tuzilishi bo'yicha ochiltiruvchi protsessorlariga o'xshash. 8.39-rasmda svetoprobe tasvirlarini ochiltirish protsessorlarining sxemasi keltirilgan. Protsessorda materialni ishlov berish zonasiga uzatuvchi stol (2) bo'lib, unga yo'naltiruvchi tizimni ishga tushirish uchun kontaktli o'chirgich (3) joylashtirilgan. Harakatlantirish tizimi to'rt juft valiklar (4) va yo'naltiruvchi (8) dan

iborat. Ochiltirgich taqsimlovchi trubka (5) yordamida ochiltirgichni svetoprobe materialiga surtishga xizmat qiladigan nakat valiga (6) ga beriladi. Ochiltirish material yuzasiga cho'tkali rakel (7) yordamida ishlov beruvchi mexanik ishlar bilan birgalikda bajiriladi. Ochiltirilgan svetoprobe tasviri taqsimlovchi trubkalar (10) dan beriladigan suv yordamida yuviladi. Kuritishi qurilmasi (11) yordamida nam yo'qotiladi va svetoprobe tasviri oxirgi juft harakatlantiruvchi valiklar yordamida qabul stoli (10) ga chiqariladi. Bu ochiltiruvchi protsessorga laminator (1) qo'shilgan.



8.39-rasm. Svetoprobani ochiltirish protsessorlarining prinsipial sxemasi.

«Quruq» usulda svetoprobe tayyorlash bir necha bosqichda amalga oshadi.

Dastavval zich qog'oz varag'i — maxsus yuzali asosga laminator yordamida himoya plyonkasiga ega yorug'likka sezgir material qatlami yuritiladi. Keyin himoya plyonkasi ustidan fotoqolip mahkamlanadi.

Laminirlangan qog'oz fotoqolip bilan birgalikda nusxa ko'chirish rankasiga joylashtiriladi va ultrabinafsha yorug'lik manbai yordamida qisqa vaqt (5 dan 30 s gacha) davomida eksponirlanadi.

Bunda sodir bo'ladigan fotokimyoviy jarayon tasvir shakllanishida asos bo'ladi. Eksponirlashga qadar butun yuza bo'yicha

yopishqoq bo'lgan yorug'likka sezgir qatlam polimerlanadi va yorug'lik tushgan, ya'ni oraliq elementli joylarda yopishqoqligini yo'qotadi. Yorug'lik bosiluvchi elementlar — rastr nuqtalari bilan berkitilgan joylar polimerlanmaydi.

Spektrning faqat ultrabinafsha qismigagina sezgir materialdan foydalanish barcha ishlarni yorug'likda bajarish imkonini beradi.

Eksponirlashdan so'ng fotoqolip olinadi va himoya plyonkasi olib tashlanadi. Yorug'likka sezgir qatlami bilan tasvirni qabul qilgan qog'oz valiklar orasidan o'tkaziladi. U yerda pigment qatlamiga ega folga qoplanadi. Bu vaqtda kechadigan jarayon ancha sodda: folga yuzasida kuchsiz ushlab turilgan pigment yopishqoq bosiluvchi elementlarga yopishib qoladi. Natijada fotoqolipning qora joylariga mos keluvchi qog'oz qismlarida tasvir hosil bo'ladi.

Rangli tasvir olish uchun yuqoridagi jarayon to'rt marta — havorang, qirmizi, sariq va qora bo'yoq fotoqoliplari uchun takrorlanarli. Har safar kerakli pigmentli folga olinadi. Bo'yoqlarni moslashtirish qo'lda bajariladi.

Oxirgi bo'yoq berilgandan so'ng tayyor nusxa tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lishi uchun laminat bilan qoplanadi.

Svetoproba tayyorlash texnologiyasida rastr nuqtasining kattalashuv miqdori 17—20%. Bo'yovchilar asosini ofset bo'yoqlarining pigmenti tashkil qiladi. Bu adad nusxalariga aniq kelishini ta'minlaydi.

Analogli svetoprobaning afzalliklari shuki, u ofset nusxalariga mos keladi, tayyor fotoqolip sifatini — rang, vektor elementlarining rastrlarini sifati va plyonkaning optik zichligini nazorat qilish imkonini beradi.

Svetoprobani «ho'l» usulda olishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Bu holda asosga yopishtiriladigan laminat yorug'likka sezgir qatlamda bo'yovchi modda bo'ladi.

Eksponirlashdan so'ng yorug'lik tushgan bo'yovchi qatlam joylari ma'lum eritmalarga sezgirligini o'zgartiradi va ochiltiruvchi protsessorda kimyoviy usulda laminat himoya qatlami bilan birgalikda olib tashlanadi. Pigmentlangan qatlamning fotoplyonka orqali eksponirlashdan himoyalangan joylari ochiltiruvchi protses-sorda mustahkamlanadi va tasvirni hosil qiladi.

Analogli svetoproba tizimining asosiy kamchiligi — nusxa tannarxining yuqoriligidir. Analogli svetoproba tayyorlash ancha mehnat talab qiladi va operatorning malakasi sifatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yana bir kamchilik — adad qog'ozida ishiash imkoni

yo'qligi va aniq bosma jarayoni parametrlariga sozlashning imkon-sizligi.

Bosma qolipi tayyorlanadigan analogli svetoproba

Ba'zida bosma qoliplar sifati adadni bosishgacha tekshiriladi. Bu ko'pbo'yoqli bosmada, ayniqsa, muhim, chunki mashinani bos-maga tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p vaqt hamda malakali mehnat talab qiladi. Bo'yoqlari moslangan qolip uchun nusxalari adad sifatini nazorat qilish uchun etalon bo'lib xizmat qiladi. Sinov nusxalash sinov nusxasini olish maxsus uskunalarida amalga oshi-rilib, ulardagi ish sharoiti bosish mashinasidagi maksimal yaqin-lashtirilgan. Sinov nusxalarining sifati nafaqat bosma qolipi sifatiga, balki bosma sharoitlariga (bosish, tezlik), materiallar sifati va bosh-qqa omillarga ham bog'liq. Sinov nusxasini olish uskunasiidagi bos-ma sharoitlari mashinadagi bosma sharoitlariga qanchalik yaqin bo'lsa, sinov nusxasi kutilayotgan natijalarni shunga aniq tavsif-laydi.


Ho'llovchi va bo'yoq apparatlari bilan jihozlangan zamonaviy ofset sinov nusxasini olish uskunalari nafaqat sinov nusxalash uchun, balki katta bo'lmagan adadlarni yoki shimmaydigan ma-teriallarda nusxalash uchun ham ishlatiladi.

Ofset sinov nusxasini olish uskunasiida nusxa olish jarayoni qolipni ho'llashdan, uning bosiluvchi eritmalariga bo'yoq surtish-dan, tasvirni bosma qolipdan ofset silindriga, ofset silindrdan esa qog'oz varag'iga o'tkazishdan iborat.

Ofset sinov nusxasini olish uskunasi (8.40-rasm) quyidagi aso-siy bo'limlardan tashkil topgan: bosma qolipni mahkamlash uchun gorizontal metall stol (1); qog'oz varag'ini qo'yish uchun gorizontal metall stol (2); ofset silindr (5), unga ho'llovchi (nakat (3) va ras-kat (4) valiklari) va bo'yoq (nakat (10) va raskat (6), (7) valiklar) apparatlari biriktirilgan; ho'llovchi eritma 13 ga tushirilgan statsio-nar ho'llovchi valikiar (11) va (12) hamda statsionar bo'yoq valik-lari (8), (9).

Ofset silindri karetkasi ilgarilama — qaytma harakat qiladi, ofset silindri esa o'z o'qi atrofida aylanadi. Bundan tashqari, silindr pasayishi va ko'tarilishi mumkin. Sinov nusxasini tayyorlashda ofset silindri karetkasi ishli va ishsiz harakat qiladi. Ishli harakat vaqtida u stol tomonga harakatlanadi. Karetka qolipli stol ustida hara-katlanganda bo'yoq va ho'llovchi nakat valiklari bosma qolipiga

tushadi va unga bo'yoq hamda ho'llovchi eritma yuritiladi. Qog'ozli stol ustida harakatlenganda esa ko'tariladi. Bu vaqtda ofset silindri bosim ostida bosma qolipi bo'ylab yumalaydi, natijada rezinali plastinada nusxa hosil bo'ladi. Shundan so'ng ofset silindri bosim ostida qog'oz varag'i bo'ylab yumalaydi va tasvir ofset silindrdan qog'ozga o'tadi.



8.40-rasm. Ofset sinov nusxasini olish qurilmasining sxemasi.

Ofset silindri karetkasi ishli harakatini to'xtatib, chekkaga o'tganda bosim o'chiriladi. Bu vaqtda nusxa stoldan qo'lda olinadi va navbatdagi qog'oz varag'i o'rnatiladi.

Ishsiz harakatda ofset silindr ko'tarilgan holatda bo'ladi, bosim o'chirilgan, karetk esa qog'ozli stoldan qolipli stolga tomon harakatlanadi, ya'ni boshlang'ich holatiga qaytadi. Navbatdagi nusxa olish uchun ish sikli takrorlanadi. Shunday qilib, ofset silindrining qolipi stoldan qog'ozli stolga tomon harakatlanishi ishli harakat, qog'ozli stoldan qoliplisiga — ishsiz harakat deb ataladi.

Yuqori bosma sinov nusxasini olish uskunolari ham mavjud. Ofset sinov nusxasini olish uskunalaridan farqli o'laroq, ulardan ho'llovchi apparat yo'q, tasvimi qog'ozga ko'chirish bevosita qolipdan amalga oshiriladi.

Chuqur bosmada qolip sifatini tekshirish uni xromlashdan oldin amalga oshiriladi. Sinov nusxalari ranglarga ajratish sifatini tekshirish uchun ham olinadi. Sinov nusxasini jarayonida rang va to'yinganlik bo'yicha bo'yoqlarni tanlash, rakelni qanday burchak

ostida o'rnatishni va natijalarni yaxshilash uchun qanday tezlikda nusxalashni aniqlash mumkin.

8.5. Densitometr va spektrofotometrлар

Nashrlarni bosmaga tayyorlash tizimida fotoqoliplar sifatini obyektiv nazorat qilish uchun o'tuvchi yorug'likdagi densitometer, qoliplar sifatini baholash uchun qaytaruvchi yorug'likdagi densitometrlar, rangli tasvirlar (svetoprobe va adad nusxalari) sifatini nazorat qilish uchun esa qaytuvchi yorug'likdagi densitometr va spektrofotometrlardan foydalaniladi.

Densitometrlar — bu optik zichlikni aniqlash qurilmalaridir. Bunda optik zichlik bevosita o'lchov natijasi emas, amalda yorug'lik o'tkazish x va qaytarish p koeffitsiyentlari aniqlanadi. Optik zichlik bu natijalarning matematik shakl o'zgartirilishidan kelib chiqadi:

$$D = \lg \frac{1}{\tau}; \quad D = \lg \frac{1}{\rho}$$

Zamonaviy bosmagacha bo'lgan jarayon zichliklarning o'lchov aniqligi va ishonchlilik bo'yicha juda yuqori talablar qo'yadi. O'lchov qurilmalari sifati nashrlarni tayyorlash natijasiga katta ta'sir o'tkazadi. Densitometrlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- o'lchov natijalarining obyektivligi: o'lchov natijasi vizual taassurotga bog'liq bo'lmasligi kerak;

- yuqori aniqlik; zichlik qiymati qurilma turiga bog'liq bo'lmasligi va o'lchanadigan tusning haqiqiy o'tkazishi (qaytarilishini) tavsiflashi kerak;

- yuqori sezgirlik: uskuna zichliklar qiymati 0,01—0,02 aniqlikda o'lchashi kerak;

- o'lchov natijalarining keltirilishi: bitta obyektning har xil vaqtda o'lchanishi 0,01—0,02 aniqlikkacha bir xil natija berishi kerak;


- turli densitometrlarda olingan ma'lumotlar orasidagi farq minimal bo'lishi: bitta oriektni ikkita uskunada o'lchash bir xil natija berishi kerak;

- o'lchovchi yorug'lik manbaining tebranishlarga bog'liq emasligi: uskunaning ishlashi shunday bo'lishi kerakki, o'lchov natijalari tebranishlarga bog'liq bo'lmasin;

— barcha o'lchovlar diapazonidagi ishonchlilik.

Optik zichlikni o'lchash jarayoni (8.41-rasm) ikki bosqichdan iborat:

- 1) o'tkazish (qaytarish) koeffitsiyentini aniqlash;
- 2) o'tkazish (qaytarish) koeffitsiyentini optik zichlikka o'tqazish (logarifmlash).




8.41-rasm. O'tkazishga asoslangan densitometrda optik zichlikni o'lchash sxemasi: L — lampa; z — fotoelektrik o'zgartirgichlar.

Ikki bosqich ham densitometrda kechadi. Ba'zi densitometr turlari ham zichlikni, ham o'tkazish (qaytarish) koeffitsiyentini ko'rsatadi.

Istalgan o'lcham — bu qilingan birlik bilan solishtirishdir. O'ichanadigan zichlik oq tus bilan taqqoslanadi.

O'tuvchi yorug'likda ishlovchi zamonaviy densitometrlarda (8.42-rasm) o'lchash quyidagicha amalga oshiriladi. Yorug'lik manbadan, odatda cho'g'lanma lampa (2) dan, reflektor (1) dan qaytariladi, ko'zgu (3) orqali o'chiriladi, issiqlik filtri (4) orqali o'tadi. Shundan so'ng ma'lum o'lchamli diafragma (6) orqali o'tib, densitometning predmet stoli (5) da joylashgan fototexnik plyonka (7) ning nazorat qilinadigan joyiga tushadi. Kuchsizlangan yorug'lik oqimi infraqizil (9) yoki rangli yorug'lik filtrlari (10) dan biri orqali yorug'lik o'tkazuvchi (8) dan o'tib fotoqabulqilgich (11) ga tushadi. ilgari fotoqabulqilgich sifatida fotoelektron ko'paytirgichlar ishlatilgan bo'lsa, hozirda kremniyli yarimo'tkazgichli elementlar ishlatiladi.



8.42-rasm. O'tuvchi yorug'likda ishlovchi densitometr sxemasi.

Fotomaterialdan o'tgan yorug'lik miqdoriga bog'liq holda fotoelement elektr impulsini modullaydi. U mantiqiy blok tomonidan optik zichlik va rastr elementlari maydoni nisbiy qiymati hisoblanadi:

diapozitiv fotoqolipda

$$S_d = \frac{1 - 10^{-(D_p - D_o)}}{1 - 10^{-(D_c - D_o)}} \cdot 100\%,$$

negativ fotoqolipda

$$S_d = \left[1 - \frac{1 - 10^{-(D_p - D_o)}}{1 - 10^{-(D_c - D_o)}} \right] \cdot 100\%,$$

bu yerda, D_p — rastr elementi optik zichligi; D_c — maksimal qoraygan maydon optik zichligi; D_o — eksponirlanmagan maydon (vual) optik zichligi.

Densitometrni «o»ga o'rnatish uchun fotomaterialning shaffof maydoni o'lchanadi.

Yorug'lik filtrlari 10 (8.42-rasmga qarang) nazorat qilinadigan fotoqolipdan nusxa ko'chirishda foydalaniladigan yorug'lik manbalari bilan mos tavsifnomaga ega.

Bosmagacha bo'lgan jarayonda spektrning turli bo'limlarida maksimal yorug'likka sezgir bo'lgan uch turdagi fotoplyonkalar ish-

latiladi: odatiy (sensabilizatsiyalanmagan) — ultrabinafsha va ko'k bo'limda; ortoxromatik — sariq va yashil bo'limda; panxromatik spektrning barcha bo'limlarida. Shuning uchun densitometrda fotoqolipni o'lchashda sezgir fotoqatlam turiga mos ustama filtr ishlatiladi.

Odatda, o'tuvchi yorug'likda ishlovchi densitometr diametrlari 1,2 va 3 mm bo'lgan uchta diafragma to'plami bilan ta'minlanadi. Turli diametrdagi diafragmalardan foydalanish turli imkoniyatlarda yozilgan fototexnik plyonkalarining optik zichligini o'lchash imkonini beradi. Past liniatura uchun odatda katta diametr, masalan, 3 mm, yuqori liniatura uchun esa kichik diametr ishlatiladi. Bunday yondashish diafragma maydoniga rastr elementlarining tushishi statistik ehtimolligi bilan tushuntiriladi. Matnli yoki boshqa shtrixli elementlarni o'lchashda ko'p hollarda tirqishli diafragma ishlatiladi. Shaffof materiallar bilan ishlaydigan densitometrlardan farqli ravishda, ko'rilayotgan nur qaytarish koeffitsiyentini o'lchaydi va uni optik zichlikka o'tkazadi.

Qaytarishga asoslangan densitometrning nisbiy spektral sezgirligi nurlanishi manbai spektrida energiyaning taqsimlanishi, fotoqabulqilgichning spektral sezgirligi, densitometrning yorug'likni yutuvchi muhiti va yoro'g'lik filtrlarining spektral o'tkazish bilan aniqlanadi.

Qaytarishga asoslangan densitometrlar o'tkazishga asoslangan densitometrlar singari optik-mexanik qism va o'lchovchi elektron blokdan tashkil topgan. Ularning asosiy farqi — yorituvchi va yorug'likni qabul qiluvchining joylashishi; katta miqdordagi yorug'lik filtrlarining ishlatilishi va o'lchanadigan kattaliklarni hisoblashda boshqa algoritmlardan foydalanishdir. Optik-mexanik qism yorug'lik o'tkazuvchi bilan filtr orqali bog'langan va o'lchov blokida joylashtirilgan fotometrik kallakdan iborat.

Bu turdagi densitometrlarning ish tamoyili yuqorida ko'rib chiqilganga o'xshash. Me'yorlangan manbadan chiqqan ma'lum rang haroratiga ega yorug'lik filtrlari orqali o'tadi. Ular nuxsada nazorat qilinayotgan bo'yoq spektrini taratadi (masalan, qizil filtr — havorangni, yashil — qirmizini, ko'k — sariqni). Shunday keyin yorug'lik qabul qilgichda qayd qilinadi. Densitometrik o'lchovlar natijasida ranglarga ajratilgan optik zichliklar aniqlanadi va densitometrning raqamli ekranida bo'yoqlarning o'lchangan zichliklari qiymatlari namoyon bo'ladi.

Spektrofotometrilar. Rangni obyektiv miqdoriy tavsiflash uchun ko'rishning uch rangli nazariyasiga asoslangan va rangni additiv sintez yo'li bilan qurimalarda o'lchash imkonini beruvchi usullar ishlatiladi. Barcha rang o'lchovlari asosida rang koordinatalarini aniqlash imkoniyati yotadi. RCB va CMYK rang sintezi kengliklari standartlashtirilmagan va apparatlarga bog'liq. Shuning uchun CIELab rang kengligi taklif qilingan. U standartlashtirilgan va zamonaviy bosmagacha bo'lgan hamda sifatni nazorat qilish tizimlarida qo'llaniladi.

Rangni nazorat qilishni ta'minlovchi qurilma spektrofotometrdir. Uning asosiy vazifasi — rang koordinatalarini o'lchash va o'lchanayotgan obyekt spektral egri chizig'ini qurishdir. Matbaa sanoatidagi ko'pchilik spektrofotometrilar xalqaro XYZ, CIELab, CIELCH tuzilmalaridan rang koordinatalarini omil imkoniga ega.

Spektrofotometrik o'lchovlarning ko'z o'lchovlaridan farqi shuki, uskuna natijalariga begona omillar ta'sir o'tkazmaydi, barcha o'lchov sharoitlari standartlashtirilgan.

Kelajakdagi bosma nashr ranglari haqida taassurot olish uchun turlicha yoritilganlikda spektrofotometrlarda ma'lum spektral tavsiflarga ega standartlashtirilgan nurlanish manbalaridan foydalaniladi.

Inson ko'zi rangning o'zgarishni faqat rang chegarasi buzil-gandagina sezadi. Zamonaviy spektrofotometrlarda qo'llaniladigan texnologiyalar bu omilni hisobga olish va rang farqi ko'rsatkichi deb ataladigan rangning asl nusxadan farqlanish kattaligini aniqlash imkoniga ega:


$$\Delta E = \sqrt{(L - L')^2 + (a - a')^2 + (b - b')^2},$$

bu yerda, L , a , b — asl nusxaning rang koordinatalari, L' , a' , b' — svetoprobe va sinov nusxalarini o'lchashda olingan ma'lumotlar.


Bu o'lchovlar bosmaning texnologik rejimlari, masalan, ho'llovchi eritma va bo'yoq uzatish, bosim yoki rang korrektsiyasiga kerakli o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

8.43-rasmda blok-sxema, 8.44-rasmda esa o'quvchi kallak sxemasi keltirilgan. Keltirilgan sxema bo'yicha kolorimetrik o'lchovlar quyidagicha amalga oshiriladi. Yorug' nuri (1) yorug'lik manbai (2) dan kollimator (3) orqali o'tadi. U ingichka parallel nurlarni shakllantiradi. Keyin nur ma'lum diametrli apertura (4) orqali o'tib nusxa (5) ga tushadi. Undan qaytib nur tolali — optik yorug'lik o'tkazgichlar (6), (7), (8) bo'ylab yorug'lik filtrlari to'plamiga

yetib boradi. Namunadagi axborotni o'qish bir vaqtning o'zida faqat ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshadi. Bunga dvigatellar (11) va (12) yordamida harakatga keldigan maxsus zatvorlar (9) va (10) xizmat qiladi.



8.43-rasm. Spektrofotometr blok-sxemasi.



8.44-rasm. Spektrofotometrning o'quvchi kallagi.

Yorug'lik o'tkazuvchilardan o'tib yorug'lik nuri ma'lum o'tkazib yuborish yo'lkalariga ega filtrlar to'plamiga tushadi. Qaytarishga asoslangan densitometrlardagi singari spektrofotometrlar to'plamiga turli polarizatsion filtrlar kiritilgan. Filtrlardan o'tib

yorug'lik fotoelektron ko'paytirgichga tushadi. U signalni kuchaytiradi va analogli — raqamli o'zgartirgichga yuboriladi. O'z navbatida u analogli signali qurilmaning markaziy protsessorida qayta ishlash uchun raqamli ko'rinishga o'tkazadi. Axborotlarga ishlov berilgandan so'ng ma'lumotlar displeyda namoyon bo'ladi hamda printerda nusxaga chiqarish yoki shaxsiy kompyuterga kiritib qo'yish mumkin.

Nazorat savollari

1. Bosmagacha bo'lgan jarayonning qanday bosqichlarida tasvirlarni qayta ishlash va bosma qolip tayyorlash sifati nazorat qilinadi?

2. Bosmagacha bo'lgan jarayonda elektrofotografik printerlarning qanday turlaridan foydalaniladi?

3. Lazerli printerlarda elektrofotografik jarayon qanday asosiy bosqichlardan tashkil topadi?

4. Lazerli va yorug'lik diodli elektrofotografik printerlar qanday asosiy qurilma va bo'limlardan tashkil topadi?

5. Lazerli printerda tasvir sifatini oshirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?

6. Sizga oqimli printerlarning qanday turlari ma'lum?

7. Uzluksiz oqimli bosmali printerning o'ziga xosligi nimada?

8. Oqimli printerlarning pyezoelektrik va pufakli nusxalovchi kallaklari qanday ishlaydi?

9. Qattiq siyohda ishlovchi printerning o'ziga xosligi nimada?

10. Tasvirni isitib ko'chirishli printerlar qanday ishlaydi?

11. Raqamli va analogli svetoproba nima va ular qanday texnik vositalarda amalga oshiriladi?

12. Svetoproba tasvirlarini olishda laminator ishini tushuntiring.

13. Svetoproba tasvirlariga ishlov berish uchun ochiltiruvchi protsessorning ish tamoyilini tushuntiring.

14. Ofset sinov nusxasini olish qurilmasining ish tamoyilini tushuntiring.

15. O'tkazishga va qaytarishga asoslangan densitometrlar qanday fizik kattaliklarni bevosita o'lchaydi?

16. Zamonaviy densitometrlarga qanday talablar qo'yiladi?

17. O'tkazishga asoslangan densitometning ish tamoyilini tushuntiring.

18. Spektrofotometning vazifasi va ish tamoyili qanday?

XULOSA

Mahalliy matbaada nashrlarni bosmaga tayyorlash avtomatlashtirilgan tizimlari keng tarqalgan. Ular yordamida badiiy, ilmiy-texnik, tijorat adabiyotlari, davriy va boshqa nashrlar ishlab chiqariladi. Bunga sabab shuki, nashrlarni bosmaga tayyorlash tizimlari asosiy va ko'plab yordamchi ishlarni avtomatlashtirish hisobiga mahsulotni nashrga tayyorlash muddatlarini qisqartirish, ularni bezash bo'yicha imkoniyatlarni oshirish, turli bosma usullari uchun fotoqolip va bosma qolip tayyorlashning yuqori sifatini ta'minlashga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda nashrlarni bosmaga tayyorlashning stoldagi nashriyot tizimidan tartib, tarmoqlangan tuzilishiga ega quvvatli ko'p mashinali xilma-xil tizimlar qo'llaniladi. Bu unda reproduksiyanadigan asl nusxa-maket tayyorlashdan mashinalarda tayyor bosma mahsuloti ko'rinishiga keltirishgacha bo'lgan texnologik jarayonlarning turli variantlari amalga oshiriladi. Tizimlar ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqariladigan bosma mahsulotning o'ziga xosligi va texnologiyalarga ko'ra bosmagacha bo'lgan jarayon uskunali, dasturiy va texnik vositalari bilan ta'minlanadi.

Bosmagacha bo'lgan jarayon uskunalarining yangi turini yaratishda asosiy tendensiyalardan biri matnli va tasvirli axborotlarga ishlov berishning keng tarqalgan texnologik va dasturiy vositalariga muvofiq keluvchi qurilmalarni yaratishdir. Bu xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya, unumdorlik va iqtisodiy jihatdan optimal bo'lgan nashrlarni bosmaga tayyorlash tizimini yaratish imkonini beradi.

Nashrlarni bosmaga tayyorlash zamonaviy tizimlari bosma-xonalarda, nashriyotlarda, repromarkazlarda, dizayn studiyalarda, reklama agentliklarida qo'llaniladi. So'nggi vaqtda tizimlar nashr qiluvchi tashkilotlarda ishlatilmoqda. Bu bosmaxona va nashriyot orasidagi musahhih almashinuvchidan voz kechishni ta'minlagani uchun bosma qolip tayyorlash muddatlari qisqarmoqda.

Nashrlarni bosma tayyorlovchi istalgan tizimning asosi katta hajmdagi matnli va tasvirli axborotlarga ishlov berish va saqlashni ta'minlovchi quvvatli shaxsiy qurilmalaridir. Hozirgi kunda ko'p-

chilik shaxsiy EHMlarining texnik tavsifnomalari muharrirlik-no-shirlik jarayonlarining texnologik talablarini qondiradi. Biroq axborotlarga ishlov berish dasturiy vositalarining doimiy takomillashuvi, EHM, skanerlarning imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan bosma mahsulotlari sifatiga bo'lgan talabning o'sishi tasvirlarga ishlov berish yangi texnik vositalari va usullarining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Hisoblash texnikasi, lazer texnologiyasi, yangi matbaa materiallari va mikroelektronika sohasidagi ilmiy-texnik yutuqlar, ehtimol, yaqin vaqt ichida tasvirlarni kiritish va ishlov berishning yanada tezkor qurilmalarining yaratilishiga olib kelar.

Zamonaviy bosmagacha, bosma va bosmadan keyingi jarayon uskunalarini deyarli barcha turlarida qo'llaniladigan EXM va mikroprotessorli texnikalardan foydalanish barcha matbaa qurilmalari va boshqaruv tizimlarini yuzaga chiqaradi. Bunday tuzilmalar nafaqat raqamli bosma mashinkalarida, balki an'anaviy tuzilishdagi mashinalarda ham amalga oshadi.

Yaqin vaqtlarda, raqamli bosma vositalari va texnologiyalari tez rivojlanishiga qaramay, lazerli fotonabor avtomatlari va qoliplarga yozish protsessorlarining, oqimli printer va skanerlarning yanada takomillashuvini kutish mumkin.

Kelgusida bosmagacha bo'lgan jarayon uskunalarining rivojlanish tendensiyasi axborot va lazerli texnologiyalar, telekommunikatsiya vositalari rivojlanish holati bilan aniqlanadi.

TESTLAR

1. Ofset bosish usuli uchun bosma qolip tayyorlashda qaysi uskunalar ishlatiladi?

- A) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori
- B) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- C) kompyuter, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama
- D) fotonabor avtomat, kopiroval rama
- E) kompyuter, printer, ishlov berish protsessori

2. Fotoqolip tayyorlash uchun qaysi uskunalar ishlatiladi?

- A) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori
- B) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- C) kompyuter, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama
- D) fotonabor avtomat, kopiroval rama
- E) kompyuter, printer, ishlov berish protsessori

3. Fotoqolipdagi tasvirni plastina yuzasiga o'tkazish uchun qaysi uskunalar ishlatiladi?

- A) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori
- B) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- C) kompyuter, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama
- D) kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- E) kompyuter, printer, ishlov berish protsessori

4. Fotoqolipdagi yashirin tasvirni ochiltirish va mustahkamlash uchun qaysi uskunalar ishlatiladi?

- A) fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori
- B) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- C) kompyuter, ishlov berish protsessori, kopiroval rama
- D) ishlov berish protsessori
- E) kompyuter, printer, ishlov berish protsessori

5. Computer-to-Film — texnologiyasida ishlatiladigan asosiy uskunalar — bu:

- A) kompyuter, skaner, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori
- B) kompyuter, printer, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- C) kompyuter, fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori, kopiroval rama
- D) kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- E) kompyuter, printer, ishlov berish protsessori

6. Computer-to-Film — texnologiyasida ishlatiladigan asosiy uskuna — bu:

- A) kompyuter, fotonabor avtomat
- B) kompyuter
- C) kompyuter, ishlov berish protsessori
- D) kopiroval rama, ishlov berish protsessori
- E) fotonabor avtomat

7. Computer-to-Plate texnologiyasida ishlatiladigan asosiy uskuna — bu:

- A) kompyuter, fotonabor avtomat
- B) kompyuter, rekorder
- C) kompyuter, ishlov berish protsessori
- D) rekorder
- E) fotonabor avtomat

8. Computer-to-Plate texnologiyasida ishlatiladigan asosiy uskunalar — bu:

- A) kompyuter, printer, fotonabor avtomat

B) kompyuter, skaner, printer, rekorder, ishlov berish protsessori

C) kompyuter, ishlov berish protsessori

D) rekorder, ishlov berish protsessori

E) fotonabor avtomat, ishlov berish protsessori

9. Ishlov berish protsessor — bu:

A) yashirin tasvirni ochiltirish va mustahkamlash uchun ishlatiladi

B) rasmlarni kompyuterga kiritish va unga ishlov berish uchun ishlatiladi

C) yashirin tasvirni ochiltirish uchun ishlatiladi

D) fotoqolip sifatini tekshirish uchun ishlatiladi

E) rangli namuna nusxa olish uchun va sifatini tekshirish uchun ishlatiladi.

10. Kopiroval rama — bu:

A) yashirin tasvirni ochiltirish va mustahkamlash uchun ishlatiladi

B) fotoqolipdagi tasvirni plastina yuzasiga o'tkazish uchun ishlatiladi

C) yashirin tasvirni ochiltirish uchun ishlatiladi

D) fotoqolip sifatini tekshirish uchun ishlatiladi

E) rangli namuna nusxa olish uchun va sifatini tekshirish uchun ishlatiladi

11. Kopiroval rama qaysi texnologiyada ishlatiladi?

A) Computer-to-Film

B) Computer-to-Plate

C) CTP

D) CTFlex

E) «plyonkasiz» texnologiyada

12. Printer qaysi texnologiyada ishlatiladi?

A) Computer-to-Film

B) Computer-to-Plate

C) hamma texnologiyada

D) CTFlex

E) «plyonkasiz» texnologiyada

13. Rekorder qaysi texnologiyada ishlatiladi?

- A) Computer-to-Film
- B) Computer-to-Plate
- C) «pigmentli» usulda
- D) CTFlex
- E) «plyonkasiz» texnologiyada

14. Nusxa ko'chiradigan qatlam qaysi uskunada surtiladi?

- A) kompyuter
- B) rekorder
- C) ishlov berish protsessori
- D) sentrifuga
- E) fotonabor avtomat

15. Fotoreproduksion jarayonini vazifasi nimadan iborat?

- A) qolipga kimyoviy ishlov berish
- B) fotoqolipning kopiyasini olish
- C) fotoqolip tayyorlash
- D) bosma qolipdan nusxa olish
- E) bosma qolip tayyorlash

16. Nusxa ko'chiradigan jarayonini vazifasi nimadan iborat va qaysi uskunada bajariladi?

- A) bosma qolipga ishlov berish protsessorida kimyoviy ishlov berish
- B) fotoqolipning kopiyasini koproval ramada tayyorlash
- C) fotoqolipni fotonabor avtomatida tayyorlash
- D) bosma qolipdan printerda nusxa olish
- E) bosma qolipni printer yordamida tayyorlash

17. Nusxa ko'chiradigan jarayonida qanday asosiy uskuna ishlatiladi?

- A) RGD-70
- B) FO-50p
- C) FK-116
- D) FSM
- E) FMO

18. Bosma qolipni fotomexanik usulida tayyorlashda qanday asosiy uskunalar ishlatiladi?

- A) RVD-40, FO-25, FSM, FK-116, FMO
- B) EP-12P, ERA-F, POL-35
- C) IBM, Laser Jet, Lotem 400, Inter Plater
- D) FO-50, EP-12P, FK-116, RVD-40
- E) IBM, Laser Jet, Dolev 250, Multilink, FK-116, Inter Plater

19. Bosma qolipni CTP-texnologiya yordamida tayyorlashda qanday asosiy uskunalar ishlatiladi?

- A) RVD-40, FO-25, FSM, FK-116, FMO
- B) EP-12P, ERA-F, POL-35
- C) IBM, Laser Jet, Lotem 400, Inter Plater
- D) FO-50, EP-12P, FK-116, RVD-40
- E) IBM, Laser Jet, Dolev 250, Multilink, FK-116, Inter Plater

20. Bosma qolipni CTF-texnologiya yordamida tayyorlashda qanday asosiy uskunalar ishlatiladi?

- A) RVD-40, FO-25, FSM, FK-116, FMO
- B) EP-12P, ERA-F, POL-35
- C) IBM, Laser Jet, Lotem 400, Inter Plater
- D) FO-50, EP-12P, FK-116, RVD-40
- E) IBM, Laser Jet, Dolev 250, Multilink, FK-116, Inter Plater

21. Bu qolip qaysi bosish usulida ishlatiladi, agar unda: bosiluvchi elementlarni o'lchami har xil, bo'yoqning qalinligi va olingan nusxani optik zichligi bir xil, bosish paytida qolipning ustiga namlaydigan eritma surtiladi.

- A) yuqori bosish usulida
- B) chuqur bosish usulida
- C) ofset bosish usulida
- D) trafaret bosish usulida
- E) fleksografiya bosish usulida

22. Qolip plastinasiga nusxa ko'chiradigan qatlam surtish uchun har xil uskunalar ishlatiladi, bu

- A) kopiroval stanok
- B) sentrifuga
- C) fotoreproduksion apparat

- D) kopiroval-ko'paytirish stanok
- E) printer

23. Ishlov berish jarayonini vazifasi — bu:

- A) polimer plyonka yuzasini ho'llab chiqish
- B) nusxa ko'chiradigan qatlamni erib ketadigan qismlarini yuvib tashlash
- C) polimer plyonkani mustahkamlash
- D) adadga chidamligini oshirish
- E) bosma qolip tayyorlash

24. Eksponirlash jarayonida qanday uskuna ishlatiladi?

- A) RGD-70
- B) FO-50p
- C) FK-116
- D) FSM
- E) FMO-120

25. Ortonaftoxinondiazid asosidagi nusxa ko'chiradigan qatlam qanday xususiyatlarga ega va qaysi bosish usulida ishlatiladi?

- A) gidrofob xususiyatlarga, ofset bosish usulida
- B) gidrofil xususiyatlarga, ofset bosish usulida
- C) oksid plyonka hosil qiladigan xususiyatlarga, chuqur bosish usulida
- D) plastinani adadga chidamligini oshiradigan xususiyatlarga, yuqori bosish usulida
- E) bosma qolip hosil qiladigan xususiyatlarga, ofset bosish usulida

26. UPA-DOZAKL plastinalari qaysi texnologiyada ishlatiladi?

- A) Computer-to-Film
- B) Computer-to-Plate
- C) «pigmentli» usulda
- D) CTFlex
- E) elektron-graviroval texnologiyada

27. XJS-LMZ plastinalari qaysi texnologiyada ishlatiladi?

- A) Computer-to-Film,
- Windows иш столуга янги ёрлиқлар ҳосил қилиш;
- Программы бўлимларининг вазифалари;
- Windows 98 дастурлари менюси ҳақида умумий маълумотлар;
- Windows 98 амалий дастурлари ускуналар мажмуаси тавсифи;
- "Менинг компьютерим" ёрлиғи ва унинг вазифалари;
- "Менинг ҳужжатларим" ёрлиғи. Файллар устуга амаллар;
- "Бошловчи" ёрлиғи. Файллар жилди. Дастурларни ишга тушириш;
- Windows 98нинг ишчи дастурлари. Маълумотларни архивлаш;
- Ускуналар панелуга янги тугмалар ҳосил қилиш.
- Бошқариш панели ва унинг асосий ёрлиқлари;
- Экран ёрлиғи ва унда амаллар бажариш тартиби;
- Бошловчи дастурида файл ва каталоглар устуга амаллар;
- Бошловчи дастурида файлларни ахтариш;
- Дискларни текшириш, тозалаш ва ресурсларни кўпайтириш;
- Windows 98 нинг ишчи саҳфи вазифалари;
- Windows 98 нинг айрим татбиқий дастурлари;
- Windows 98дан чиқиш.

Бошланғич маълумотлар

Windows операцион тизими Microsoft фирмаси томонидан IBM PC туридаги компьютерлар учун махсус яратилган дастур бўлиб, унинг фойдаланувчилар учун қулай бўлган имкониятлар мавжуд. Тизим кўмагида NC дастури каби файл каталог яратиш, нусха олиш, қайта номлаш, ўчириш, матнли файлларни чоп қилиш, бир вақтда бир неча каталог ва файллар мажмуаси билан яққол график режимида ишлаш мумкин. Шу боис бу дастурни айни вақтда миллионлаб фойдаланувчилар ўз амалий иш фаолиятларида кенг қўллашмоқда.

Microsoft фирмаси гарчанд Windows дастури дастлаб 1983 йилда яратган бўлсада, йилдан-йилга уни такомиллаштирмоқда. Дастлаб, Windows 3.1 версиялари, яқин ўтган даврда Windows - 95, орадан уч йил ўтиб Windows - 98 версиялари бутун жаҳонда хусусан Ўзбекистонга ҳам кириб келди. Жорий йилдан бошлаб Windows - 2000 версияси ҳам ишлатила бошланди.

Республикамызда айни вақтда олий ва ўрта махсус билим юрталари ўқув жараёнида кўпроқ Windows 3.1-3.11 версиялари, Windows 95 ҳамда Windows 98 версиялари ишлатилмоқда. Шу боис, бари барча Windows дастурлари учун ягона умумий маълумотлар хусусида (гарчанд улар бир-биридан фарқ қилса — да) ҳамда Windows дастури кўмагида ишловчи WORD, Excel, Paint дастурлари ҳақида қисқача маълумот берамиз.

Windowsни юклаш ва ундан чиқиш

Windowsни юклаш учун MS DOS операцион тизими бўйруқлар сатрида win бўйруғи клавиатури орқали киритилиб Enter босилади ёки NC дарчасидан Windows каталогига кириб, win.com файли устига

туткич келтирилиб **Enter** босилади. Натижада
анда дастлаб **Windows** белгиси туширилган



зарварақ, сўнгра
таъминлаш дастури
очилади. Замонавий

компьютерларда
Windows нинг зикр
этилган охирги

версиялари
ишлатилаётганлиги
сабабли улар асосий
операцион тизимга
айланган. **MS DOS**

операцион тизими ва
NC қобиқ дастурлари ва
улар асносида яратилган
дастурларга эҳтиёж

бароз сусайди. Шу боис кўпчилик компьютерлар
кўчилиши билан **Windows 98** қобиқ дастури
ёввосита ишга тушади. Унинг таркибидаги бошқа
дастурларга мурожаат этиш **Пуск (Юклаш)** тугмаси
ордамида бажарилади.

Windows дан чиқиш учун **Пуск** тугмасининг
Завершение работы бандига кириб у ерда
компьютерни ўчириш, қайтадан ишга тушириш, **MS**
DOS режимида ишга тушириш ёки компьютер
ишлашини вақтинча тўхтатиш каби ишларни
бажариш мумкин. "Alt — F4" тугмачаларни
биргаликда босиб **Windows** дан чиқиш ҳам
мумкин, бунда чиқиш ҳақидаги компьютер сўровига
ОК ни сичқонча кўрсаткиги билан танлаб жавоб
бериш зарур.

Эслатма. Айрим компьютерларда юклаш
бараси фойдаланувчи томонидан ўзгартирилган
булиши ҳам мумкин.

1-расм. Windows 98 таъминлаш дастурининг қуриллиши

Windows дастури юкланганидан кейин экранда Windows.98 дастурининг таъминлаш дарчасида "Иш столи" ҳосил бўлади (1 – расм).

Иш столида тизим ва амалий дастурларга мувофиқ келувчи ёрликларнинг турли кўринишлари ҳосил бўлади:

- **Менинг компютерим (Мой компьютер)** — дисклар билан ишлаш, янги файл ва каталоглар киритиш, компютерни ва ташқи қурилмаларни созлаш каби вазифаларни бажаради.
- **Менинг ҳужжатларим (Мои документы)** — фойдаланувчининг амалий дастурларда ишланган ҳужжатлари жамланади.
- **Бошловчи (Проводник)** — файл ва каталоглар устида амаллар, файлларни излаш ва иш...

тушириш каби вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

■ **Портфел** — Internet тизимида фойдаланиш учун танланган ҳужжатлар сақланади.

■ **Корзина** — нокерак дастурлар, файллар ва каталоглар узил—кесил йўқотилиши олдидан бақтинча сақлаш учун мўлжалланган дастур.

Айни вақтда Windows нинг инглизча ёхуд русча версияси компьютерингизда ўрнатилган бўлиши мумкин. Windows нинг инглизча версияси компьютерингизда ўрнатилган бўлса тизим ва таъбиқий дастурлар ёрлиқлари инглизча тавсифда берилган бўлади.


Эслатма. Windows 3.1—3.11 версияларининг таъминлаш дастури Windows 95 ва Windows 98 версиялариникидан фарқ қилади.

Иш столига янги жилд ёки ёрлиқларни қўшиш учун сичқончанинг ўнг тугмаси бирор бўш жойда босилади ва ҳосил бўлган мулоқот дарчасидан **Создаъ** банди фаоллаштирилади. Натижада ҳосил бўлган иккиламчи мулоқот дарчасидан керакли бўлгани танлаб олиниб, тизим кўргазмаси бўйича янги ёрлиқ ёки жилд иш столида ҳосил қилинади. Сўнгра уларга зарурий дастурлар мажмуасини қўйлаштириш ва ном бериш орқали фойдаланишимиз мумкин.

Пуск тугмаси ва унинг бўлимлари билан ишлаш

Иш столида мавжуд ёрлиқ ва жилдлардан фойдаланган ҳолда тизим ёки амалий дастурларни бевосита фаоллаштириш ва юклаш имкониятига эга бўламиз. Шу билан бирга компьютер хотирасида мавжуд барча дастурларни иш столида ҳосил қилиш мақсадга мувофиқ эмас


Windows	дастуридаги
ўзгаришларни	назорат
қилади ва тасдиқлайди	
Windows	нинг барча
дастурлари рўйхати	
Web	— саҳифа учун
танланган файллар	
Охирги 15 та мурожаат	
этилган ҳужжатлар рўйхати	
Тизим ёки иш столининг	
ҳолатини созлаш	
Файл ва жилдларни	
ахтариш	
Ёрдамчи маълумотларни	
олиш	
Web — саҳифани очиш ёки	
амалий дастурларни ишга	
тушириш	
Windows дан чиқиш	
Компьютерни ўчириш ёки	
қайта ишга тушириш	



2 — расм. Пуск тугмаси тавсифи..

Бу дастурларга мурожаат этишнинг самарали усули **Пуск** (Юклаш) тугмасини ишга туширишдир. Пуск тугмаси менюси тавсифи 2 — расмдан аниқланган.

орқали керакли дастур таклиф этилган жадвалдан танлаб олиниб мос келувчи ёрлиқлар қўйилади



4 – расм Пуск менюсига янги бўлимлар қўшиш


Панель задач дарчасида Параметры панели задач банди масалалар сатри(экранда энг қуйи сатр)ни таҳрирлаши мумкин.

Windows дастурлари дарчаси ва менюси

Windows нинг барча дастурлари дарчада жойлашган бўлиб ўз меню сатрига эга бўлади, яъни ҳар бир дастур учун алоҳида муҳит яратилган бўлади, у ерда махсус буйруқлар ва кўрсатмалар мавжуд. Дастур ойнасининг юқори қаторида дастур панели тагида меню сатри жойлашган. Ҳар бир менюда шу гуруҳга мансуб бандлар мавжуд, бу бандлар ўз навбатида қисм-бандларга бўлинади. Қисм-бандларнинг баъзилари кўрсаткичига эга, ва улар навбатдаги дарчаларига эга бўладилар (5 – расм).

Меню билан ишлаш учун сичқонча тугмасининг меню қаторида босиш лозим, сўнгра меню ости буйруқларини кўрсатувчи тўртбурчак шаклида сичқонча очилади. Керакли буйруқни бериш учун мос буйруқ банди танланади ва "сичқонча" тугмаси босилади. Агар бошқа бирор буйруқ киритилиши учун

хатингисини бекор қилиш лозим бўлса, шу менюдан ишқари жойда сичқонча тугмаси босилади.



5 — расм. Windows татбиқий дастурлари менюси

Хусусан, Windows 98 Microsoft Access татбиқий дастурида


"Файл", "Вид", "Вставка", "Сервис", "Окно", "?"

асосий меню бўлимлари мавжуд бўлиб (5 — расм), буларнинг мисолида деярли барча татбиқий дастурлар учун умумий бўлган бўлимлар вазифалари билан танишиб чиқамиз.

"Файл" буйруқлар тўпламидаги бандлар қуйидаги вазифаларни бажаради (1 — жадвал).


Создать	янги файл ташкил қилишда ишлатилади
Открыть	Хотирадаги файлни экранга чиқаради
Заккрыть	Экранни файлдан тозалайди
Сохранить	Файлни хотирага киритиш
Сохранить как	Файлни бирор ном билан хотирада сақлаш
Версии	Файлнинг бирор вариантыни сақлаб қолиш
Параметры страницы	Саҳифа учун ҳошия, варақнинг ўлчами, қоғозни узатиш усули берилади
Предварительный просмотр	Ҳужжатлар билан дастлабки танишув
Печать	Ҳужжатларни чоп этиш усулини аниқлаш
Отправить	Файлни танланган йўналиш бўйича жўнатиш
Свойства	Файл хоссаҳари ҳақида маълумот олиш

Жадвалда келтирилган асосий бандлар ўз навбатида иккиламчи дарчага эга бўлиб бу ерда банднинг вазифалари ва имкониятлари аниқ элтирилади. Масалан, қаралаётган қисмнинг **Свойства** банди фаоллаштирилганда (6 – расм)



6 – расм. Файл

юксалари иккиламчи дарчада файлнинг умумий
 асосси, яратилган ҳужжатнинг муаллифи,
 таъкилотли ҳақида ахборот, ҳужжатнинг



7 – расм. Саҳифани таҳрирлаш

ўзгартирилганлиги ҳақидаги статистика ва таркиби ҳақида маълумотлар олиш мумкин.


“Правка” қисмида жорий саҳифага тегишли таҳрирлаш ишларини амалга оширувчи бандлар мужассамлашган. Бу бандларнинг вазифалари билан танишиб чиқамиз(2 – жадвал).

Правка бўлими бандлари ҳақида умумий маълумотлар

2-жадвал

1.	Отменить ввод	Олдинги ҳаракатни бекор қилади
2.	Повторить ввод	Олдинги ҳаракатга қайтади
3.	Вырезать	Саҳифанининг ажратилган қисмини хотиранинг алмаштириш (буфер) қисмига жўнатади.
4.	Копировать	Саҳифанининг ажратилган қисмининг нусхасини олишга тайёрлайди.
5.	Вставить	Ажратилган қисмни керакли жойга олиб қўяди
6.	Очистить	Саҳифани тозалайди
7.	Выделить все	Барча файлларни белгилайди
8.	Найти	Файлда керакли белги ёки сўзни топади
9.	Заменить	Бирор сўзни керакли сўз билан алмаштиради
10.	Перейти	Керакли саҳифага ўтиш имкониятини беради

Эслатма. Менюнинг қолган бандлари ва уларга тегишли қисм – бандлар ҳар бир татбиқий дастурлар учун алоҳида қўринишга ва вазифаларига эга бўлади. Шу сабабли қолган қисмлар билан ҳар бир дастурда алоҳида танишиб чиқамиз.




8 — расм . Ускуналар панели

Жорий дастур исм қаторининг ўнг қисмида дастурни ёпиш, дарчани кенгайтириш ёки йиғиш учун махсус тугмалар мавжуд (8 — расмда кўрсаткич берилган) ва улар сичқонча кўрсаткичи берилган фаоллаштирилади. Худди шунингдек, Windows дастурларидан фойдаланишда ускуналар панели муҳим аҳамиятга молик (8 — расм). Бу ерда берилган тугмалар меню бўлимларидаги кўпчилик вондларнинг вазифасини бажаради:

- **Верх** тугмаси уст каталогига ўтказади.
- **Вырезать** белгиланган файл (қисм ва ҳ.к.) ни алмаштириш буферига ўтказади.
- **Копировать** белгиланган қисмнинг нусхасини алмаштириш буферига ҳосил қилади.
- **Вставить** алмаштириш буферигаги объектни ишчи соҳанинг керакли қисмига жойлаштирилади.
- **Удалить** тугмаси босилиши натижасида белгиланган қисм йўқотилади.
- **Свойства** тугмаси белгиланган қисмнинг хусусиятлари ҳақида маълумотни экранга чиқаради.


- Вид тугмаси дарчада маълумот берилиши усулини бошқаради



9 — расм. Ускуналар панелини созлаш

Ускуналар панелидаги тугмалардан фойдаланиш учун сичқончанинг кўрсаткичи улар устига келтирилиб чап тугмаси босилади.

Ускуналар панелида янги вазифали тугмалар ҳосил қилиш учун дастур менюсида **Вид** қисмининг **Панель инструментов** бандидаги **Настройка** бўлимига мурожаат қилинади. Натижада экранда иккиламчи дарча ҳосил бўлиб (9 — расм), у ерда **Панель инструментов**, **Команды** бандларидан фойдаланган ҳолда жорий дастурнинг **Меню** қисмлари ёки ускуналар панелига ўзгартиришлар киритиш ва янги вазифали тугмалар ҳосил қилиш мумкин. Масалан, ускуналар панелида янги тугмалар ҳосил қилиш учун **Настройка (Созлаш)** нинг **Панель инструментов** даги керакли қисмга сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб,




10— расм. Тизим дастурлари мулоқотли дарчаси

Чан тугма босилган ҳолда, ускуналар қаторида керакли бўлимлар ҳосил қилинади.

Одатда тизим дастурлари дарчасида фойдаланувчи томонидан қатъий ўзгартиришлар киритилмайди. Шу сабабли уларга хос бўлган дарчалар мулоқот учун мослаштирилган бўлади. Асослан, Махсус имкониятлар (Специальные возможности) дастурига мурожаат этилганда дарча 10— расм кўринишига эга бўлиб, у ерда ногиронлар учун керакли мослаш ишларини амалга ошириш имконини бўлади.

Менинг компьютерим дастурида ишлаш

Менинг компьютерим ёрлиги файл дискларни кўриш учун қулайлик туғдиради ва у ерда қуйидаги қисм ёрлиқлар ҳосил бўлиши мумкин.



- Қаттиқ дискни кўриш
- Тармоқдаги дискни кўриш
- Компакт — дискни кўриш
- Компьютер тизимини созлаш
- Чоп этишни созлаш
- Web — саҳифасига биркитилган ҳужжатлар
- Тармоқдаги компьютерлар билан боғланиш
- Жиддларнинг мазмуни билан танишиш



Бирор дискнинг мазмуни билан танишиш учун
столидаги **Менинг компьютерим** ёрлиғига
сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб чап тугма
якка марта босилади, натижада экранда ҳосил бўлган
сичқонча мурожаат этилади (11 — расм).

Бу дастур менюси бўлимлари Windows учун
тўғри бўлган бандлардан тузилган. Шу сабабли бу
дастур менюси устида тўхталмаймиз. Мазкур
дастурдаги асосий ёрлиқлардан бири **Бошқариш**
панели бўлиб, унинг устида сичқонча кўрсаткичи
органгадан сўнг фаоллашади.




Бошқариш панели

Бошқариш
панели компьютерни
фойдаланувчининг
эҳтиёжига боғлиқ
равишда бажарила —
ётган ишлар кўлами
ва мақсадидан келиб
чиққан ҳолда бирор
кўринишни энг
мақбул усулда ҳосил
қилиш имконини
беради.

Бу дастур
менюси амалий


дастурлар каби бўлиб, дастлабки иккита бўлимида
дастурдаги бандлар (1,2 — жадвал) қатнашади. Вид
юстининг бандлари номлари ўхшаш бўлса — да
амалга ошираётган вазифалари дастурнинг ички
таърифларига мослаштирилган.



Ускуналар панели;
Саҳифа ҳолатини аниқлаш;
Саҳифани ишчи кўриниши;
Интернетга мурожаат;

Ёрлиқни йирик кўриниши;
Ёрлиқни майда кўриниши;
Дастурларнинг рўйхати;
тўла маълумотли кўрин.
Ёрлиқларни тартиблаш;
Ёрлиқни жойлаштириш;
Ишчи соҳани янгилаш;
Жилдларнинг хоссаларини
аниқлаш;

Масалан, **Панель инструментов** бандиш
мурожаат этиб, дарчадаги ёрлиқларни турли



12 — расм. Жилд ва дискларни шарҳлаш

Тўғрида экранда ҳосил қилишимиз мумкин.


Панелы обозревателя бандидаги папки қисм банди фаоллаштириш орқали қаттиқ дискдаги датирий жилднинг моҳияти ва мазмунини бандириш панелининг ишчи саҳифасига амалдоримиз мумкин(12 – расм).

Бандириш панелидаги ёрлиқлар вазифаси ва амалдорликлари ҳақида қисқача тўхталиб ўтамиз:



Мультимедиа

Аудио, видео ва компакт – дисклар учун дастурларни ўрнатиш.



Сеть

Компьютерни локал тармоқларда ишлаши учун мослаштириш.



Шрифты

Тизим ва амалий дастурларда ишлатиш учун шрифтлар ўрнатиш.



Система

Жорий компьютер тизими ҳақида умумий маълумотлар жамланган.



Экран

Экран кутиш ҳолатидаги тасвирни танлаш, дарчаларни расмийлаштириш.



Модемы

Компьютерни ташқи тармоқларга улаш.



Свойства обозревателя

Интернет тармоқлар билан боғланишда хавфсизликни таъминлаш.



Установка оборудования

Янги қурилмаларни улаш учун керакли дастурни ўрнатиш.




Дата и время

Компьютерга жорий сана ва вақтни ўрнатиш.



Пароли

Компьютерда фойдаланувчилар фаолиятини тартибга солиш, калит ўрнатиш



Специальные возможности

Ногиронлар учун махсус имкониятлар яратиш



Язык и стандарты

Компьютер ишлатилаётган мамлакат учун пул, ўлчов бирлиги танлаш





Пользователи

Компьютерда кўп фойдаланувчилик ҳолатини ташкил қилиш

Тавсия этилаётган ҳар бир дастур ўзининг мулоқот дарчасига эга бўлиб, у ердаги кўрсатмалар асосида компьютернинг имкониятига кераклик ўзгартиришлар киритиш мумкин. Юқорида қайд этилган дастурларнинг орасида **Экран, Система, Специальные возможности, Шрифты, Установка и удаление, Принтеры** ёрлиқлари билан фойдаланувчи бошқаларига нисбатан кўпроқ мурожаат қилади.

Экран ёрлиғи

Дастурга мурожаат этилганда мулоқотли дарча ҳосил бўлиб, унда **Фон, Заставка, Оформление, Эффекты, Интернет, Настройка** каби қисмлар мавжуд.





11 - *рисм. Иш столининг кўриниши, ёрлиқларни ўзгартириш ва дарча қисмларининг ранглари танлаш*

Фон фаоллаштирилганда иш столидаги кўринишнинг берилган файллар рўйхатидан танлаб олиш имконияти ҳосил бўлади. Худди шу сингари **Оформление** қисми фаоллаштирилиб дарчаларнинг рангларини, шрифтларини танлаш ва ўзгартириш мумкин(13 — расм). Бунинг учун танлаб олишда дарча бўлагининг ранги ва ёзувлари **Размер** ва **Цвет** тугмалари орқали ўзгартирилади. **Эффекты** қисми орқали иш столидаги дастур учун белгиланган ёрлиқларнинг кўринишини ўзгартириш мумкин. Бунинг учун **Сменить значок** тугмасига мурожаат қилинади ва экранда иккиламчи мулоқот дарча ҳосил бўлиб у ердан керакли ёрлиқ нишони танлаб олиниб, белгиланган дастурнинг янги ёрлиғи сифатида ишлатилиши мумкин. **Настройка** банди ёрдамида экрандаги рангларнинг жилоланишини яхшилаш, янги ранглار ҳосил қилиш, шакллари рақамлашда тўлдириш усулини танлаб олиш мумкин бўлади.


Ҳужжатларни чоп этиш

Бошқариш панелининг **Принтеры** ёрлиғига мурожаат қилиш орқали компьютерга янги принтер улаш имкониятини яратиш ёки мавжуд принтер ишини тартибга солиш мумкин. Бунда чоп этишни тўхтатиш — **Приостановить печать** ёки навбатни бекор — **Очистить очередь** қилиш мумкин. **Свойства** банди орқали қоғозларнинг ўлчамини, узатиш ва чоп этиш усулини танлаш, тасвирларни (**Графика**) ҳосил қилиш усулини белгилаш каби бир қатор амалларни бажариш мумкин.

Установка принтера қисми орқали компьютерга янги принтерни улаш учун созлаш ишларини бажаришимиз мумкин, бу ерда мавжуд рўйхатдан



танлашимиз мумкин



13 – расм. Бошловчи дастурининг дарчаси



14 – расм. Файлларнинг турини аниқлаш

Бошловчи. Файл ва жилдлар устида амаллар

Бошловчи (Проводник) дастури Windows — 98 тизимида моҳияти бўйича Norton Commander қобиқ дастурининг файл ва каталоглар устида бажариладиган тегишли буйруқларни ўзида муҳассамлаштирган. Дастурнинг ўз меню сатри бўлиб, унинг бандлари **Менинг компьютерим** менюсидан деярлик фарқ қилмайди ва номланиши айнан сақланган. Лекин таҳририй дарча икки қисм, ўнг ва чап бўлакларидан иборат. Дарчанинг чап қисмида жилдлар дарахти, ўнг қисмида эса белгиланган жилдга мос кичик жилд ва файллар рўйхати келтирилган (13 — расм). Жилдлар дарахтида ҳар бир ёрлиқ олдидаги + белгиси жорий жилд кичик жилдга эга эканлигини, — белгиси жилднинг тўла очилганлигини билдиради.


Бирор файлни бир жилддан иккинчисига ўтказиш учун, белгиланган файл сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб, чап тутма босилган ҳолда силжитилиб, ўтказилаётган жилднинг устига олиб борилади ва тутма қуйиб юборилади. Бирор файлнинг нусхасини олиш учун юқоридаги амал клавиатурадаги **Ctrl** тутмаси босилган ҳолда амалга оширилади. Файл ёки жилдлар гуруҳини белгилаш учун, уларнинг ёнида сичқончанинг чап тутмаси босилади. Натижада ажратиб олинган гуруҳ ёрлиқларининг ранги ўзгаради. Улардан нусха олиш ёки кўчириш юқоридагига айнан ўхшаш бўлади. Бошловчи дарчасида барча файллар бажараётган назифаларининг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда мос ёрлиқлар орқали ифодаланади. Бу ёрлиқларнинг тури кўп бўлиб, уларни моҳиятини тушуниш учун **Менюнинг Вид** қисмидаги **Свойства** банди фаоллаштирилади.

Ҳосил бўлган мулоқотли дарчада **Типы файлов** бўлими орқали керакли маълумотга эга бўлишимиз мумкин. Бирор керакли файлни топиш учун **Менюнинг Сервис** қисмидаги **Поиск** бандига мурожаат қилиниб, ҳосил бўлган мулоқотли дарчада изланаётган файлнинг белгиси киритилади.

.EXE қўшимчага эга бўлган файл ёрлиқларининг фаоллаштириш орқали мазкур дастурни ишга тушириш мумкин.

Бошловчи дастурига ўхшаш вазифаларни **Менинг ҳужжатларим** ёрлиғини фаоллаштириш орқали ҳам бажариш мумкин. Бу ерда алоҳида олинган фойдаланувчи томонидан ҳосил қилинган ҳужжатлар мажмуаси жамланган бўлади.

Менинг ҳужжатларим тизим дастури менюсининг **Файл** қисми бандлари қуйидаги кўринишга эга бўлади.



диск ва жилдни очиш;

файлларни чоп этиш;

янги файл ҳосил қилиш;

файл мазмунини тез кўриш;

файлни таржима қилиш;

файлни архивлаш

архивга қўшиш

дискни вирусдан тозалаш;

гаг архивига узатиш;

файлни манзилга узатиш;

янги файл ҳосил қилиш;

янги ёрлиқ ҳосил қилиш

файл ва жилдни йўқотиш;

файлни қайта номлаш;

файл ҳақида маълумот ;

Демак, **Менинг ҳужжатларим** дастурида меню **Файл** қисмининг бандлари умумий ҳолдан бир мунча фарқ қилади. Шу билан биргаликда жорий ҳолатнинг имконияти ва вазифаларидан келиб чиқиб, Менинг ҳужжатларим дарчасида меню бўлимларининг баъзи бандлари бўлмаслиги ҳам мумкин. **Файл** бўлимининг **Отправить** бандидан фойдаланиб 1-жилд ва файлларнинг нусхаси юмшоқ ёки қаттиқ дискларда ҳосил қилиниши мумкин.

Баъзи ҳолларда татбиқий дастурларга мурожаат қилмасдан файлнинг мазмунини аниқлаш зарур бўлади. Бундай ҳолларда **Быстрый просмотр** бандидан фойдаланишимиз мумкин.

Файл ва жилдларни ҳажмини қисқартириб сақлаш учун **Архив** лашинг турли усуллариға мурожаат қилишимиз мумкин.

Файл бўлимининг бошқа бандлари юқорида таъкидланган умумий ҳоллардан деярлик фарқ қилмайди.

Windows нинг ёрдамчи дастурлари

Windows да бажариладиган вазифаларнинг кўлами жуда кенг бўлиб, уларни амалга оширишда фойдаланиш учун қулай ва тузилиши содда бўлган ёрдамчи дастурлар мавжуд.

Калькулятор.

Калькулятор — чўнтак калькулятори вазифаларини бажариб икки хил режимда: оддий ва муҳандис вариантыда ишлаши мумкин (14— расм). Оддий калькулятор тўртта арифметик амални бажаради, берилган қийматлардан илдиз чиқаради, фоизни ҳисоблайди ва тескари қийматни аниқлайди.

Муҳандис калькулятори бундан ташқари тригонометрик ва мантиқий функцияларни ҳисоблайди, қиймат ва бурчакларни турли саноқ тизимларига ўтказиш ва бошқа вазифаларни бажаради.



14 –расм. Оддий ва муҳандис калькулятори

Калькуляторни ишга тушириш Пуск тугмасида Программы, Стандартные кетма – кетлигида Калькулятор банди фаоллаштирилади.

Мазкур дастур ўз менюсига эга бўлиб , у учта бўлимдан иборат: Правка, Вид ва Справка. Правка бўлими ёрдамида киритилаётган ифодаларни

нускасини олиш зарур бўлган жойларга қўйиш мумкин. Вид бўлимида калькуляторнинг оддий ва муҳандислик кўринишлари танланади. Справка бўлимида калькуляторни самарали ишлатиш учун зарур маълумотлар жамланган.

Калькуляторнинг қийматларни киритиш дарчасидан сўнг қийматларни 16,10,8 ва 2 лик санок тизимларига ўтказиш ва бурчакларни радиан ва градусларда бериш учун мўлжалланган Hex, Dec, Oct, Bin тугмалари алоҳида қаторда жамланган. Бир санок тизимидан иккинчисига ўтишда ҳақиқий сонларнинг каср қисми ташлаб юборилади.

Калькулятор функционал тугмаларининг вазифаларини ва клавиатурада мос тугмаларни жадвал кўринишида акс эттирамиз.

3-Жадвал

Тугма	Клавиш	Вазифаси
Sta	Ctrl+S	Статистик ҳисоб ва Ave S Sum ва dat ни ишга тушириш
Ave	Ctrl+A	қийматлар, Inv +ave эса квадратлар ўрта арифметигини ҳисоблаш.
Sum	Ctrl+T	қийматлар Inv + Sum квадратлар йиғиндиси ҳисоблаш.
S	Ctrl+D	қийматлар ўртача фарқланишини ҳисоблаш
Dat	Ins	Қийматни статистика дарчасига киритиш.
Inv	I	Тригигонометрик, статистик, да – ражали функцияларнинг тескари – сини аниқлаш.
Hyp	H	Sin,cos,tan функцияларни гиперболик кўринишга ўтказди.
Mc	Ctrl+L	Хотирадаги қийматни йўқотади.
Mr	Ctrl+R	Хотирадаги қийматни кўрсатади.

Ms	Ctrl+M	қийматни хотирага киритади
M+	Ctrl+P	қийматни хотирада қўшади
F-E	V	қийматни табиий экспоненциал кўриниши
dms	M	10 ли санок тиз.бурчакни град – мин – сек ўтказиш.
x^y	y	x ни у даражага кўтариш
1/x	r	x га тескари қийматни топиш
n!	!	Факториални ҳисоблаш
Mod	%	Қолдиқни ҳисоблаш
And	&	Мантиқий кўпайтириш
Or	 	Мантиқий қўшиш
Xor	^	Инкорли мантиқий қўшиш
Lsh	<	Чапга разрядли силжитиш
int	;	Ҳақиқий сонни бутин қисми

Эслатма. Вазифаси белгиланиши орқали аниқ кўрсатилган тугмалар устида тўхталмадик.

Калькуляторда амал бажариш тартиби ҳақида қисқача тўхталиб ўтамыз:

Оддий ҳисоблашларни бажариш.

1. Биринчи қийматни киритинг.
2. Арифметик амал тугмаларини босинг.
3. Кейинги қийматни киритинг.
4. Қолган оператор ва қийматларни киритинг.
5. = тугмасини босинг.

Статистик ҳисоблашларни бажариш.


1. Биринчи қийматни киритинг.
2. Sta ва Dat тугмаларини кетма – кет босинг.
3. Dat тугмасини ҳар сафар босиб қолган қийматларни киритинг.
4. Sta тугмасини босинг.
5. Зарурий статистик функциянинг тугмасини босинг.

Муҳандислик ҳисоблашларини бажариш.

1. Санок тизимини танланг.

- Шундай қилиб калькулятор ёрдамида жуда мураккаб бўлмаган статистик ва муҳандислик ҳисобини бажариш мумкин.

Stylus — таржимон дастури




15 — расм. *Stylus* гаспури гарчасининг умумий кўриниши.

Маъмур дастур ёрдамида файлда жойлашган ёки бевосита киритилган матнларни таржима қилиш мумкин, бунинг учун Stylus менюси бўлимларидан фойдаланилади (15 – расм).

Мазкур дастур менюси бўлимлари моҳияти
и ҳақиқатдан Windows нинг амалий дастурлари

менюсига деярли ўхшаш. Фарқланиш **перевод** ва **словари** бўлимларида мавжуд бўлиб, бу ерда таржима қилиш учун луғатлар мажмуаси берилган, ундаги таржима қилиш усули танланади.

Меню қуйисида жойлашган ускуналар панели ёрдамида зарурий вазифалар тез ва ўнғай амалга оширилиши мумкин. (16 — расм)



16 — расм . Ускуналар панелининг вазифалари бўйича тақсимланиши.


Stylus дастурининг маълумот панели

Вид бўлимидаги **Информационная панель** мазкур панели дарчанинг пастки қисмда ҳосил қилади.

Маълумот панели таркибига урта қўйилма киради ва улар сичқоннинг ўнг тугмасини босиш орқали чақирилади.

Ишлатилувчи луғатлар — **Используемые словари** таржима қилишда фойдаланишимиз мумкин бўлган ва компьютер хотирасидаги мавжуд луғатлар рўйхатини келтиради.

Незнакомые слова қўйилмаси мавжуд луғатларда аниқланмаган номаълум сўзлар



руйхатини беради. Бу сўзларни таржима қилмасдан
ахирада сақлаш учун **зарезервированные слова**
қўйилмасига ўтказилади.

Зарезервированные слова қўйилмасида таржима
қилиниши зарур бўлмаган(масалан, Windows) сўзлар
руйхати сақланади.

Ҳужжатни таржима қилиш.

1. **Файл** менюсидан **Открыть** бандини танланг.

Таржима учун ҳужжат турли хил форматларда
берилиши мумкин ва улар компьютер учун қулай
форматларга ўтказилади..

2. **Открыть** мулоқотли дарчасининг матнлар
соҳасидан керакли файлни танлаб олинг ва **Открыть**
тугмасини босинг.

3. **Конвертировать файл** мулоқотли дарчасида
таржима қилиш йўналиши аниқланади ва бошланғич
матн экранда ҳосил бўлади.

4. Ҳужжат таржима қилиш учун тайёр. **Перевод**
бўлимида **Весь текст** банди фаоллаштирилгандан
сўнг экранда ўнг дарчада бошланғич ҳужжат, чап
дарчада эса унинг таржимаси ҳосил бўлади .

5. **Файл** бўлимида **сохранить** банди орқали
таржима бирор ном остида сақлаб қўйилади.

Натижада таржима қилинган ҳужжат керакли
форматда ҳосил бўлади ва уни бирор матн
муҳарририда қайта ишлаш мумкин.

Юқорида келтирилган ёрдамчи дастурлардан ташқари фойдаланувчининг шахсий блокнотини ташкил қилиш, тадбиркорларнинг вақтини туғри тақсимлашга ёрдам берувчи, маърузалар учун слайдлар ҳосил қилувчи, муסיқа эшитиш дастурлари мавжуд. Ҳар бир фойдаланувчи ўз олдига қўйган вазифалардан келиб чиқиб, бу дастурлар билан алоҳида танишиб чиқиши мумкин.



● Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга амалий жавоб беринг:

1. Windows 98ни юкланг.
2. Пуск (Start) тугмасини босинг, уни тавсифини аниқланг.
3. Windows 98 иш столида янги ёрлиқлар ҳосил қилинг.
4. Программы бўлимларининг вазифалари билан танишинг.
5. Windows 98 дастурлари билан танишинг.
6. Windows амалий дастурларидан бирини юкланг.
7. Ускуналар панелида янги тутмалар ҳосил қилинг.
10. Менинг компьютерим ёрлиғининг вазифаларини аниқланг.
11. Менинг компьютерим дастурининг менюси асосий бўлимлари билан танишинг.
12. Бошқариш панели ва унинг асосий ёрлиқлари вазифаларини аниқланг.
13. Экран ёрлиғи ва унда амаллар бажариш тартибига аҳамият беринг.
14. Бошловчи дастурида файл ва каталоглар устида ҳар хил амаллар бажаринг.
15. Бошловчи дастуридан файлларни ахтаринг.
16. Windows 98дан чиқинг.



VI қИСМ

Microsoft Word

Microsoft Word 97
матн муҳаррири
Хужжатларни
яратиш ва
таҳрирлаш



■ **Сиз китобнинг VI қисмини мутоала қилиб, Word матн муҳаррирининг имкониятлари билан танишасиз ҳамда қуйидаги назарий билим ва амалий кўникмаларга эга бўласиз:**

- **WORD ни ишга тушириш;**

- *Word* нинг меню буйруқлари билан танишиш;
- Маълумотларни кириштиш;
- Кирилган маълумотни дискка файл шаклида ёзиш;
- Дискдан файлни экранга чақириш;
- Матнни таҳрирлаш ва хотирада сақлаш;
- Таҳрирланган қисмни бекор қилиш;
- Матн қисмини ажратиш, уни қирқиб олиш ва махсус жойга нусхалаш;
- Қуюқ, оғма (курсив) ва оғатдаги шрифтлар билан ишлаш;
- Шрифтларни ўзгартириш (матндаги белгиларни катталаштириш ва кичиклаштириш);
- Матнни саҳифаларга бўлиш;
- Матнни чапга, ўнгга ёки ўртага суриш;
- Махсус символлар билан ишлаш (математик, кимёвий формулалар билан ишлаш);
- Жагвал ташкил этиш ва уни маълумотлар билан тўлдириш;
- Формула ва функциялар билан ишлаш;
- Матнга график ва расмлар қўйиш;
- Матнни чоп қилиш;
- *Word* матн муҳарриридан чиқиш.

Умумий маълумотлар

Word — Windows амалий дастурларидан ҳисобланиб, матнли ҳужжатларни тузиш, кўздан кечириш, таҳрир қилиш ва чоп этиш учун хизмат қилувчи ва Windows иловалари гуруҳига киради.

Word — матнли ва тасвирий маълумотлар устида юздан ортиқ операцияларни бажарувчи ва матнли дастурлар синфига кирувчи энг

таниллаган амалий дастурлардан бири бўлади.

Word ёрдамида ихтиёрий кўринишдаги ҳужжатни жуда тез ва юқори сифатли тайёрлаш мумкин. Дастурнинг яна бир қулайлик томони шундан иборатки, унда бир нечта ҳужжатлар билан ишлаш, яъни уларни қўшиш, бирдан иккинчисига айлантириш, ҳарфларни алмаштириш, матн ёнига тасвир қўйиш, ҳарфларни илгарилаш шаклда етарлича янги форматда чоп этиш мумкин.

Шунга қарамадан **Word** — ҳам айрим "камчиликлар" дан ҳоли эмас. Масалан: Математик формулалар ва Кимёвий формулаларни киритишда янги қийинчиликлар мавжуд. Бундан ташқари жуда мураккаб таркибли полиграфик (атласлар, албомлар, журнал муқовалари) материалларини тайёрлаш учун фойдаланиш ўнғай эмас.

Word ни ишга тушириш ва ундан чиқиш

Word дастури одатда дастурлар диспетчерининг Microsoft Office бўлимида жойлашган бўлади. **Word** дастурини ишга тушириш учун сичқонча курсаткичини **Word** ёрлигининг устига келтириб, унинг чап томони тутмачасини икки марта босиб, стандарт усулда ишга тушириш мумкин.

Windows 98да **Word**ни ишга тушириш учун «ПУСК» тутмаси ёрдамида «ПРОГРАММЫ» бандига кирилади ва сўнгра Microsoft **Word** сичқоннинг курсаткичи ёрдамида танланади ва унинг чап тутмаси босилади. Натижада экранда дастлаб Microsoft **Word** эскизи туширилган ойна, сўнгра Microsoft **Word** нинг иш столи ҳосил бўлади(1 — расм).

Дастурдан чиқиш қуйидаги ихтиёрий беш усулда бажарилиши мумкин:

- Ойна иловасини тизим менюси бошига келтириб, икки марта босиш билан;
- Ойна иловасининг тизим менюси очиб ва Closure (закрыт) буйруғини танлаш;
- [Alt]+[F4] клавиатура тугмачаларини биргаликда босиш;
- [Ctrl]+[Esc] клавиатура тугмачаларини биргаликда босиб;
- [File — Exit] (файл — выход) горизонтал менюдаги буйруқларни танлаш.



1—расм. Microsoft Word
иш столининг умумий кўриниши

Агар **Word** ойнасини ёпиш пайтида ҳужжатга янги ўзгаришлар киритилган бўлиб, уни дискда сақланмаган бўлса, экранда "**Хотители вы сохранить изменения в документе ?**" деган савол чиқади, у ҳолда ўзгаришни дискда сақлаш учун "**Да**", ўзгаришни сақламаслик учун "**Нет**", ёки таҳрир қилишни давом эттириш учун "**Cancel-Отмена**" тугмачалари тўланади.

Word менюсининг бўлимлари

Бу дастур ўз муҳитига эга бўлиб, бажарилаётган амаллар меню қисмлари орқали тартибга солинади.

Менюқуйидаги қисмлардан иборат:

Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис, Таблица, Окно, ?.

Бу қисмларнинг ичида **Файл** ва **Правка** бўлиmlари барча бандлари **Windows** нинг барча амалий дастурларидаги каби умумийдир. Менюнинг **Файл** бўлимида янги ҳужжатни тайёрлаш учун янги ойна очиш, олдинги сақланган файлларни хотирадан қидириш, жорий файлни ёпиш, тайёрланган ҳужжатни дискка ёзиш, янги ойнадаги ҳужжатга ном бериб сақлаш, барча ойналардаги ҳужжатларни сақлаш, керакли файлни қидириб топиш, саҳифалар тартибини ўзгартириш, матннинг саҳифада қандай жойлашганлигини олдиндан кўриш, матнни (матрицавий, лазерли) принтерларда бир нечта нускада, агар зарурат бўлганда матннинг танланган жойини чоп этиш, охирги 4 та таҳрирланган файллар номини кўриш ҳамда **Word** матн муҳарриридан (таҳрирчисидан) чиқиш каби бир қатор амалларни амалга ошириш мумкин.

Менюнинг **Правка** бўлимида бажарилган операцияни рад этиш ва қайта такрорлаш, белгиланган жойни қирқиб олиш ва керакли жойга

қўйиш, танланган жойни ўчириш, ҳужжатнинг барча жойини танлаш, матндан керакли сўзни излаб топиш ва уни алмаштириш каби ишларни амалга ошириш мумкин.

Қолган бўлимлар Word таҳрирчисининг саҳифаси устида зарурий вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

Вид бўлими. Ҳужжатларнинг турли кўринишлари

Мейюнинг Вид бўлими фаоллаштирилганди саҳифаларнинг турли хил кўринишларини ҳосил қилиш мумкин. Бу бўлимда ҳосил бўлган бандлар моҳияти қуйидагича:



оддий ҳужжатларни киритиш;

ҳужжатларни экрандан ўқиш;

саҳифани чоп этишга мослаш;

ҳужжатнинг тузилишини кўриш;

асосий ҳужжатни таҳрирлаш;

ускуналар панелини созлаш;

саҳифа ўлчамини белгилаш;


ҳужжатнинг электрон тузилиши;

колонтитулга ўзгартишлар киритиш;

экранни саҳифа билан тўлдириш


ҳужжатни экрандаги масштаби.

Вид бўлимининг дастлабки учта банди ёрдамида ҳужжатларнинг экрандаги турли кўринишларини ҳосил қилиш мумкин




2 — расм. Ҳужжатларнинг оддий кўриниши

2 — расмда ҳужжатларнинг экрандаги энг оддий кўриниши берилган. Бу кўринишда ҳужжат саҳифаларга бўлинмайди. Ҳужжатларни чоп этиш усулини экранда ҳосил қилиш учун **Разметка страницы** банди фаоллаштирилади. Бу ҳолда



3 — расм. Ҳужжатнинг саҳифаланган кўриниши.

ҳужжат саҳифаларга ажратилган, хошиялари ва суратҳои боши белгиланган кўринишда экранда ҳосил булади (3 – расм). Шунинг билан биргаликда ҳужжат хотирада кўп жой эгаллайди, натижада тасвирли



4 – расм. Ҳужжатнинг электрон кўриниши

саҳифаларни варақлаш учун кўп вақт сарфланади.

Компьютер экранда ҳужжатни кўздан кечириш ва таҳрирлашни осонлаштириш учун Электронный документ бандига мурожаат қилинади.

Натижада ойнада иккита дарча ажралади ва ўнг дарчада саҳифа, чап қисмида саҳифаларнинг дастлабки сатри берилиб, улар ёрдамида ҳужжатнинг ихтиёрий қисмига тезкорлик билан ўтиш имконияти мавжуд (4 – расм). Бунинг учун сичқонча кўрсаткичини чап дарчадаги керакли сатрга олиб келиб, сичқоннинг чап тугмаси босилиши зарур.


Ҳужжатни расмийлаштириш ва саҳифага тасвирлар тушириш

Меню нинг Вставка бўлими ёрдамида ҳужжатни саҳифалаш, саҳифаларни рақамлаш, номлаш ва уларга

амаллар жойлаштириш каби вазифаларни амалга ошириш мумкин. Бунинг учун бўлимнинг қуйидаги амалларидан фойдаланилади:

Формат Сервис Таб.	
Разрыв...	саҳифанинг жорий қисмини бўлаклаш;
Номера страниц...	Саҳифаларни рақамлаш;
Дата и время...	Ҳужжатнинг ёзилиш санаси ва вақти;
Автотекст	Саҳифага матнларни қўшиш;
Поле...	Ҳисоблаш учун бўш жойлар ҳосил қилиш;
Символ...	Клавиатурада йўқ белгини киритиш;
Примечание	Эслатмаларни қўшиш;
Сноска...	Саҳифага иловани қўшиш;
Название...	Расм ва жадвални номлаш;
Перекрестная ссылка...	Кесишувчи мурожаат;
Оглавление и указатели...	Мундарижа ва кўрсатмалар;
Рисунок	Ҳужжатга расм ва тасвирларни тушириш;
Подпись	Тасвирдаги устки ёзувлар;
Файл...	Файл мазмунини қўшиш;
Объект...	Саҳифада расм, формула ҳосил қилиш;

Шарҳланган бандларнинг баъзилари иккиламчи дарчаларга эга. Масалан, **Символ** бандига мурожаат этилганда, экранда клавиатурада мавжуд бўлмаган белгилар рўйхати ҳосил бўлади (5 — расм). Бу рўйхатда грек, араб алифбоси, махсус белгилар жойлашган.



5—расм. Белгиларни тушириш

Зарур белгини ҳужжатга тушириш учун рўйхатдаги шу белги устига сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб, чап тугма икки марта босилади. Худди


натижада экранда тасвирлар рўйхати ҳосил бўлади. Танлаб олинган рўйхатдаги тасвирлардан бирортасининг устига сичқонча кўрсаткичи олиб келиниб, чап тугма икки марта босилгандан кейин саҳифанинг курсор турган қисмида тасвир ҳосил бўлади. Бу тасвир устида таҳрирлаш ишларини амалга оширишимиз мумкин. Масалан, тасвирнинг ўлчамларини ўзгартириш учун, тасвир (7 — расм) устида сичқонча тугмаси босилгандан сўнг, кўрсаткич чегарасига олиб келиниб, тугмача босилади ва чегара керакли жойга силжитилади.

Ҳужжатни форматлаш, шрифтларни ўзгартириш

Матн компьютер хотирасига Кирилтилгандан сўнг, уни босмага энг қулай ва чиройли тартибда, ҳужжатнинг мазмунини бўрттириб кўрсата оладиган кўринишда тайёрлаш зарур бўлади. Бу вазифани Меню нинг **Формат** бўлими амалга оширади. Унинг бандлари моҳияти қуйидагича:

А Шрифт...	шрифтни танлаш
¶ Абзац...	сўз боши, ҳошия, форматлаш
☰ Список...	Матнни маркерлаш;
Границы и заливка...	матнни чегаралаш ва ранглаш
☰ Колонки...	матнни устунларга бўлиш;
Табуляция...	матнни текислаш;
Буква...	сўзбоши бош ҳарфини танлаш;
☞ Настройка текста...	ёзилиш йўналишини танлаш;
Регистр...	бош ёки кичик ҳарфни танлаш;
🏠 Автоформат...	ҳужжатни автоформатлаш;
Библиотека стилей...	ҳужжатни расмийлаштириш;
Стиль...	матнни ёзилиш усулини танлаш;

Бу бўлимниг **Шрифт** бандига мурожаат қилинганда, ҳарфларни тури, ўлчами, ранги, ёзилиш усулини танлашга доир мулоқотли дарча очилади. 8-расмда кўриб турганингиздек, мулоқотли дарча ўзининг меъносига эга. Шрифт банди ҳарфларнинг ёзуричилигини танлайди. Интервал банди ёрдамида ҳарфлар ва сатрлар орасидаги интерваллар танланади.



8 — расм Шрифтларни танлаш.




Анимация бўлими ёзувларнинг жилоланишини ҳосил қилиб беради.

Абзац

бўлими фаоллаштирилганда ҳосил бўлган мулоқотли дарча ёрдамида ҳошиялар, сўз боши учун ўлчамлар

танланади, матннинг саҳифада жойлашиши аниқланади.

Список бўлимида абзацлари кўп босқичли маркерлаш усулини танлаб олишимиз мумкин (9-расм).



9 – расм. Абзацни маркерлаш



10 – расм. Чегаралаш ва ранглаш

Формат бўлимининг **Границы и заливка** банди матн бўлақларини чегаралаш ва чегараланган қисмларни ранглаш усулларини танлаш имконини


эртади(9 — расм). Бу мулоқотли дарчадан фойдаланиб амалга оширилиши мумкин бўлган вазифалар 10 — расмда яққол кўрсатилган. Бу ерда чегаралаш чизиқларнинг қалинлиги, турланиши, рангланиши, чегараланган соҳани ранглаб кўрадиришнинг хилма — хил вариантларини танлаш имконияти жуда кенг. Масалан:

"Информативностиканаш ҳақида"ги, "Эҳам учун асослар ва маълумотлар базасининг ҳуқуқий қамроғи ҳақидаги" "Алоқалар ҳақидаги" қонунлар билан Ўзбекистон Республикасининг 2010 йилдаги информатизацияни қайта қароошнинг амаллий асослари ва телекоммуникацион тармоқни ривожлантириш ҳақидаги қонценцияси эратилди.

Баъзи ҳолларда, масалан, рўзномаларда буюжатни устунлар кўринишида расмийлаштириш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу вазифани Колонки банди кўмагида амалга ошириш мумкин.

Абзацларнинг бош ҳарфини алоҳида ажратиб кўрсатиш учун **Буквица** бандига мурожаат қилинади ва натижада жорий абзацдаги вазият пужудга келади.

Ҳужжатнинг ишлатилиш мақсадига мувофиқ ҳар хил кўринишда расмийлаштиришимиз мумкин, бунинг учун **Библиотека стилей ... ёки Стил...** бандларидан фойдаланишимиз мумкин.



11 — расм. Саҳифада матн ва тасвирларни чегаралаш ва ранглаш

Библиотека стилей ёрдамида жорий ҳужжат учун расмийлаштириш усули танланади, Стиль ёрдамида абзац учун ёзилиш усули белгиланади.

Фон ... банди ёрдамида ҳужжат фонини танлаб олинган ранг билан тўлдириш мумкин.

Ҳужжатларни таҳрир қилиш

Ҳужжатни компьютер хотирасига киритгандан кейин, кўпинча унинг матнини таҳлил қилиш, мавжуд камчиликларни бартараф қилиш зарур бўлади. Бу вазифани Меню нинг Сервис бўлими бандлари

Вилолга оширади ва бу бандларнинг моҳияти қуйидагича:

Таблица	Окно
Присоединение	грамматик ва стилистик хатони тузатиш;
Поиск	ҳужжатнинг тилини белгилаш;
Статистика	Статистик маълумотлар;
Автореферат	файлнинг қискача моҳияти;
Автозамена	белги ва сўзларни алмаштириш
Исправление	ўзгартиришни кўрсатиш ва солиштириш;
Объединить исправления	ўзгартиришларни жамлаш;
Использовать защиту	ҳужжатни ҳимоялаш;
Скрытие	файллардаги ҳужжатларни умумлаштириш;
Конверты и наклейки	конверт ва наклейка ҳосил қилиш;
Макрос	макросни аниқлаш;
Шаблоны и надстройки	шаблонлар ва устқурмалар;
Настройка	меню бандларини таҳрирлаш;
Параметры	Word нинг параметрлари;

Word нинг муҳим ютуқларидан бири унинг компьютерда мавжуд драйверлар ёрдамида турли халқларнинг тилларида ҳужжатлар тайёрлаш имконияти мавжудлигидир. Бунинг учун **Сервис** бўлимининг **Язык** бандидан **Выбрать язык** қисмига ўтилади. Ҳосил бўлган дарчадан мавжуд тил танлаб олинади.

Танлаб олинган тил асосида киритилган ҳужжатдаги грамматик, стилистик ва



орфографик хатолар **Правописание** банди ёрдамида тузатилади.

Эслатма. Айрим компьютерлардан фойдаланувчилар ўз компьютерлари учун кирилл алифбосида ўзбек тилида ёзиш имкониятини яратганлар.

Статистика банди ёрдамида компьютер хотирасига киритилган ҳужжатнинг ҳажми, ундаги сўзлар, белгилар ва сатрлар сонини аниқланади.


Автореферат банди ёрдамида инглиз тилида ёзилган рисоланинг қисқача моҳиятини асосий сўзлардан фойдаланиб, изоҳ кўринишида олиш мумкин.

Автозамена банди кўп учрайдиган белгилашларни қулай кўринишга келтириш ва нотўғри сўзларни керакли тўғри сўзларга алмаштириш вазифасини бажаради.

Исправления банди ўзгартиришларни аниқлаб беради ва ҳужжатнинг дастлабки варианты билан солиштиради. Ҳосил бўлган дарчада солиштириш усули танлаб олинади.

Объединить исправления банди барча ўзгартиришларни бирлаштириб алоҳида файл куришишида сақлаб қўяди.

Установить защиту банди ҳужжатни ҳимоялаш нақсидида калит ўрнатади, баъзи ўзгартиришларни таъқиқлайди.



12—расм. Менюни таҳрирлаш

Настройка... банди фаоллаштирилганда мулоқот дорчаси ҳосил булади. Бу ерда банд менюсининг **Панели инструментов**, **Команды**, **Параметры** бўлимлари мавжуд бўлиб, биринчи бўлим ёрдамида ускуналар панелига қўшимча тутмалар мажмуасини қўшиш ёки кераксизини олиб ташлаш мумкин. **Команды** бўлими ёрдамида Wordда ажратиб олинган ихтиёрий бўлимларни таҳрир қилиш мумкин. Ҳуңдан ташқари ускуналар панелига янги вазифали тутмаларни қўшиш мумкин. Бунинг учун **Настройка** дорчасининг ўнг қисмидаги керакли ёрлиқнинг устига курсаткич олиб келиниб, у сичқоннинг чап тутмаси босилган ҳолда кўчирилади.

Жадвал ташкил этиш



Жадвал ташкил этиш учун менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Нарисовать таблицу** қатори танланади. Натижада экранда сўрақ вазифасини бажарган ҳолда сатр ва устунлар сонини киритишни талаб қилувчи ойна ҳосил бўлади. Керакли устун ва сатрлар сонини киритилиб [Enter] ёки OK тугмачалари босилади. Киритилган жадвалдаги сатр ёки устунлар сони кўп бўлганда уларни камайтириш учун керакли сатр танлаб олиниб, менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Удалить ячейки** қатори танланади. Киритилган жадвалдаги сатрлар сони етмай қолганда уларнинг сонини ошириш учун ихтиёрий бир сатр танлаб олиниб, менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Добавить строки** қаторига келиб, [Enter] тугмачаси ёки

сичқончанинг ўнг тугмачаси босилади. Жадвалдаги катакчалар ўлчамларини ўзгартириш учун менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Высота и ширина ячейки..** қаторига келиб, [Enter] тугмачаси ёки сичқончанинг ўнг тугмачаси босилади, натижада катакчаларнинг ўлчамларини ўзгартириш имкони яратилади.

Сортировка банди жадвалдаги маълумотларни барор белги бўйича ошиб ёки камайиб бориш ёрдами — кетлигида тартибга солади. /

Ҳужжатда тасвирлар чизиш



Ускуналар панелида саҳифага тасвирлар туширишга мўлжалланган махсус тугма бўлиб, фаоллаштирилган ҳолда **Word** саҳифасининг қуйи қисмида тасвирлар тушириш сатри пайдо бўлади.

Бу ерда мавжуд вазифали тугмалар ёрдамида ҳар қил чизмалар ҳосил қилиш учун имкониятлар очилади.



Действия тугмаси фаоллаштирилганда саҳифадаги тасвирнинг жойлашишини тартибга солиш, расм матнининг устида ёки аксинча жойлаштириш ва ҳ.к. амалларни бажариши учун




қуйидаги мулоқотли дарча ҳосил бўлади.

Бу ердаги ҳар банд алоҳида мулоқот дарчасига эга. Масалан , Порядок бандига мурожаат қилинганда ҳосил бўлган дарчадаги қисм бандлар ёрдамида тасвирларни жойлаштириш тартиби аниқланади.

Автофигуры тугмаси саҳифада стандарт шаклларни чегаралаш белгиларини ҳосил қилади.


Буларнинг жумласига турли чизиқлар, блоклар ва схемалар киради.




Основные фигуры банди ёрдамида турли ҳужжатларда ишлатилиши мумкин бўлган чизма ва шакл элементларини ҳосил қилишимиз мумкин.

Выноски бандида тасвирларни изоҳлашда қулайлик туғдирувчи элементлар жамланган. Худди шу сингари бошқа бандларга мурожаат қилиб керакли элементларни матнга туширишимиз мумкин.

Тасвирларни таҳрирлаш сатрида чизини, кўрсаткич, тўртбурчак, эллипс ҳосил килувчи алоҳида вазифали тугмалар ҳам мавжуд.



Кўринишидаги вазифали тугма тасвирлар устига ёзув тушириш учун хизмат қилади.



Тугмаси WordArt дастури алифбосига тегишли турли шаклдаги жилоланувчи ҳарфлар шиорлар ёзиш, зарварақларни тўлдиришда ишлатилиши мумкин




Юқорида келтирилган тугмалар ёрдамида ёпик элементларни ранглаш, чизиқларни — ва шрифтлар рангини ўзгартириш мумкин


Заливка тугмаси тасвирнинг ёпик элементларини ранглайди, истеъмолчи ҳоҳиши бўйича тўлдириш усулини танлайди.



қуйидаги энг сўнги тўртта тугма чизиқларнинг қалинлиги, чизиш усули, кўрсаткичлар йўналиши, шаклларнинг сояси ва ҳажмли элементларни ҳосил қилишга мўлжалланган.



Тень тугмаси тасвирларни соялари билан бирга ҳосил қилади. Соя туширишнинг 18 хил варианты



мавжуд.

Тип линии тугмаси чизиқларнинг қалинлигини билдиради.

Эслатма: Тасвирлар сатрида юқорида ёритилгандан кўраки чизиқ, кўрсаткич, тўртбурчак, эллипс чизиш, расмлар тасвирини ёзувлар ҳосил қилувчи тугмалар мавжуд. Уларнинг баъзиласи **Paint** дастури функцияларига ўхшаш бўлгани учун кўпроқ батафсил тўхталамиз.

?

Бевосита компьютерда қуйидаги амалларга амалий жавоб беринг:

1. **Word** матн муҳарририни юкланг.
2. Маълумотларни киритинг.
3. Киририлган маълумотни дискка файл шаклида ёзинг.
4. Кириллча шрифтдан латинча шрифтга ўтинг.
5. Дискдан файлни экранга чақиринг.
6. Матнни таҳрирланг ва хотирада сақланг.
7. Таҳрирланган қисмни бекор қилинг.
8. Матн қисмини ажратинг, уни қирқиб олинг ва махсус жойга нусхаланг.
9. Қуюқ, оғма (курсив) ва одатдаги шрифтлар билан ишланг.
10. Шрифтларни ўзгартиринг (матндаги белгиларини алталаштиринг ва кичрайиринг).
11. Матнни саҳифаларга бўлинг.
12. Матнни чалга, ўнгга ёки ўртага суринг.
13. Махсус символлар билан ишланг (математик, кимёвий формулалар матн тайёрланг).
14. Жадвалли маълумот ташкил этинг ва уни маълумотлар билан тўлдиринг.
15. Формула ва функциялар билан ишланг.
16. Матнга график ва расмлар қўйинг.
17. **Word** нинг бошқа меню буйруқлари билан ишлаш тавсифи билан танишинг.
18. Матнни кўздан кечиринг (10%, 25% да).
19. Матнни чоп қилинг.
20. **Word** матн муҳарриридан чиқинг.



Microsoft Excel

VII ҚИСМ

Электрон
жадваллар билан
ишлан,
Microsoft
Excel дастури



● Сиз китобнинг VII қисмини
мутоала қилиб, *EXCEL* дастури
хақида қуйидаги назарий билим ва
амалий қўникмаларга эга бўласиз:

- EXCEL дастурини юклаш;
- EXCEL да ҳисоблаш ишларини бажариш;
- EXCEL менюси бандлари тавсифи;
- Жадвалга мавзу киритиш;
- Устун кенглигини аниқлаш ва киритиш;
- Устун номини киритиш;
- Жадвални маълумот билан тўлдириш;
- Маълумотли жадвални дискка ёзиш;
- Дискдан жадвални чақириш;
- Формула ва функциялар билан ишлаш;
- Натижавий маълумотли жадвал ҳосил қилиш;
- Жадвални чоп қилиш;
- Устунли ва доиравий диаграммалар ҳосил қилиш;
- Диаграммаларни чоп қилиш;
- Excel дан чиқиш.

Умумий маълумотлар

Excel Microsoft Office пакети таркибидаги дастур бўлиб, у Windows операцион тизими бошқарувида ишловчи ҳамда маълумотли электрон ҳаддаларни тайёрлаш ва қайта ишлашга мўлжалланган.

Excel да тайёрланган ҳар бир ҳужжат (маълумотли жадвал) ихтиёрий исм ва .XLS кенгайтмадан иборат файл бўлади. Excel да одатда бундай файл "Иш китоби" (Workbook) деб юритилади.

Microsoft Excel нинг асосий иш соҳаси — бу "Иш китоби" бўлиб, у бир ёки бир нечта иш варақларидан иборат. Иш варағида бухгалтер (ҳисобчи) китоби каби, сонлар, матнлар, арифм

ифодалар, ҳисоблар қатор ва устунларда жойлашган бўлади. Excel нинг бухгалтер китобидан асосий фарқи барча ҳисоб ишларини унинг ўзи бажаради, лекин маълумотларни киритиш фойдаланувчи зиммасига қолади.

Excel электрон жадвали 16384 қатор (row) ва 256 устун (column)дан иборат. Қаторлар 1дан 16384гача бўлган бутун сонлар билан тартибланган, устунлар эса латин алифбосининг бош ҳарфлари (A, B, ... , Z, AA, AB, ... , IV) билан белгиланган. Қатор ва устун кесишмасида электрон жадвалнинг асосий таркибий элементи — ячейка (cell) жойлашган. Ҳар бир ячейкага сон, матн ёки формула тарзидан маълумотлар киритилади. Устун кенглигини ва қатор баландлигини ўзгартириш ҳам мумкин.

Жадвалнинг танланган ячейкасига ўтиш учун аниқ манзил (адрес) кўрсатилиши керак. У қатор ва устун кесишмасида, масалан A1, B4, F9, AB3 каби кўрсатилади.

Excel дастурини юклаш ва унда ишни тугаллаш

Excel 97 дастурини юклашдан олдин Windows 98 (Windows 95) дастурини юклаш лозим. Бу эса содда, яъни ҳозирги пайтда компьютер юкланиши билан амалга ошади.

Excel дастурини юклаш жараёни қуйидагича:

1. Компьютер ёқилади. Экранда мулоқот ойнаси пайдо бўлиб, фойдаланувчи исми ва пароли сўралса, улар киритилиб Enter тугмачаси босилади.

2. Сичқонча кўрсаткичи экраннинг қуйи қисмида жойлашган Пуск (Start) тугмачасига келтирилиб, чап тугмаси босилади.




1 – расм

3. Сичқонча кўрсаткичи "Программы" бандига натижади ва босилади(1 – расм).

4. Дастурлар рўйхатидан Microsoft Excel танланади сичқонча тугмачаси босилади натижада Excel дастурининг зарварағи экранга чиқади(1 – расм), сўнгра Excelнинг иш жадвали экранга чиқади (2 – расм).

Эслатма. Windows 3.1 да Excel 5.0 версиясини юклаш юқоридагидан фарқли ўлароқ, Microsoft Office гуруҳида Excel пиктограммаси устида сичқонча тугмасини икки марта босиш приқали юкланади.



2—расм.


Excel меню бўлимлари тавсифи

Excel дастури ўз менюси ва ускуналар мажмуасига эга бўлиб, унинг менюсида қуйидаги бўлимлар мавжуд:

**Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис,
Данные, Окно ва ?**

Юқорида келтирилган бўлимларнинг бандларининг шакли Microsoft office дастурлариникига аксарият ҳолларда ўхшаш бўлса—да, мазмунан Excel нинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб тузилган. Бундан ташқари баъзи бўлимлар фақат мазкур дастурга тегишли вазифаларни бажаради

Файл буйруқлар тўплами кўмагида



янги жадвал ташкил этиш;
хотирадаги жадвални очиш;
жадвални ёпиш;
жадвални хотирага киритиш;
файлга янги ном бериш;
файлни мослаштириб сақлаш;
ишчи соҳасини сақлаш;
саҳифа параметрлари;
чоп қилиш соҳасини бериш;
жадвални дастлабки кузатиш;
жадвални чоп этиш;
файлни керакли манзилга узатиш;
жадвалнинг ҳоссалари;
файллар мажмуаси;
чиқиш;

каби амалларни бажариш мумкин бўлиб, қайд этилган илтифалар **Microsoft Office** гуруҳидаги дастурлар учун умумийдир. Қўшимча **Сохранить рабочую область** ишлатилаётган дастурни экран учун жорий дастурга айлантиради. **Область печати** дастурнинг белгиланган қисмини чоп этади.


Отправить банди ёрдамида ҳосил қилинган электрон жадваллар ташқи хотираларда сақлаш учун диск юритувчиларига, интернет тармоқларидаги керакли манзилларига жўнатилади.

санаси ва ҳоказо.

Правка бўлими



Правка бўлимидаги
Заполнить ва Очистить
бандлари катаклариини
белгиланган йўналишда
нухасини олади ёки тозалайди.
Удалить... банди файл қисмини
олиб Outluck китобига
жойлаштиради. Удалить лист
банди варақни йўқотади.
Қолган бандлар Microsoft Office
гуруҳидаги дастурлар
учун умумий бўлган
вазифаларни бажаради.



Вид бұлыми.

Обычный банди варақниш Excel дастури учун табиий бўлган кўринишини экранда ҳосил қилади. Разметки страницы варақни чоп этишга тайёрлайди. Строка формул формулалар билан ишлан сатрини экранда ҳосил қилади. Представления банди файлни чоп этишда қўшимчи параметрларини киритади.

Мисал банди жадвални экранда чиқариш
 бандларини аниқлайди

Вставка бўлими.

Бўлим бандлари катак, сатр, устун, ва варақ
 ушунда амаллар бажариш учун мўлжалланган бўлиб,
 уларнинг мазмуни қуйидагича:

Вставка	Формат	Сервис
Ячейки...	катаклар нусхасини олади;	
Строки	саҳифага янги сатр қўшиш;	
Столбцы	янги устунлар қўшиш;	
Лист	файлга янги варақ қўшиш;	
Диаграмма...	Диаграммаларни танлаш;	
Разрыв страницы	саҳифани ажратиш;	
Функция...	функциялар танлаш;	
Имя	файлга ном бериш;	
Примечание	изоҳлар ҳосил қилиш;	
Рисунок	тасвирларни чақириш;	
Карта...	хариталар ҳосил қилиш;	


Мазкур бўлимнинг дастлабки тўртта банди
 дастур ишлаши давомида вужудга келувчи жорий
 натижаларни(янги катак, устун, сатр ҳосил қилиш)
 бажаришга мўлжалланган. **Диаграмма** банди эса
 дастур натижаларини фойдаланиш қулай бўлган
 чизма, гистограмма, диаграмма кўринишларида ҳосил
 қилиди. Бандга мурожаат қилинганда экранда
 мулоқотли ойна ҳосил бўлади. Мазкур ойнада

электрон жадвалда олинган натижаларни тасвирлашни 75 хил усули фойдаланувчи учун тақаб қилинади. Уларнинг орасидан,



3 — расм. Диаграмма кўринишни тасвирлаш

масалан, доиравий диаграмма танлаб олингандан сўнг, **Далее** тугмаси босилади ва экранда қийматларнинг чегарасини белгиловчи ва тасвир ҳошияларида изоҳли ёзувлар ҳосил қилувчи **Диагностика данных** деб номланувчи ойна пайдо бўлади (5 — расм). Бу ерда керакли изоҳлар ёзилгандан сўнг **Далее** тугмаси орқали тасвирнинг параметрларини аниқловчи **Параметры диаграммы** деб аталувчи ойнага ўтилади ва тасвир номи, координата



4 – расм Доиравий диаграммани танлаш



5 – расм. Диаграммаларни жойлаштириш

ўқларидаги белгилашлар ҳамда тасвир кўриниши аниқланади. Сўнгра диаграммани жойлаштириш усули белгиланиб, натижа саҳифага олинади.

Масала. Авиа — лицей ўқувчиларининг фанлар бўйича тўплаган баллари ва гуруҳнинг ўртача рейтинг натижалари (1 — жадвал)ни Excelда қайта ишлаб, натижаларни диаграма кўринишида экранда ҳосил қилинг.

Ечиш :

Ўқувчиларнинг ҳар бир фандан тўплаган баллари жадвал кўринишида киритилади ва гуруҳнинг фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$\begin{aligned} & \text{гуруҳнинг фандан ўзлаштириш фоизи} = \\ & (\text{ўқувчиларнинг фан бўйича} \\ & \text{баллар йиғиндиси}) / \\ & (\text{ўқувчилар сони}) / \\ & (\text{фан бўйича максимал балл}) * 100 \% \end{aligned}$$

Олинadиган натижа гуруҳнинг фан бўйича **оралиқ кўрсаткичи** бўлиб, у охириги сатрдан олдинги сатрда юқоридаги формула асосида ҳисобланган. Кейинги сатрда **дастлабки назорат** натижалари берилган ва эришилган кўрсаткичлар солиштирилган. Натижаларни солиштириш орқали гуруҳнинг ҳар бир фандан ўзлаштириши таҳлил қилинган.


Мазкур гуруҳ ҳар бир ўқувчисининг тўплаган **жами баллари** охириги устунда келтирилган ва олинган натижалар бўйича ўқувчининг умумий ўзлаштириш кўрсаткичи таҳлил қилинган.

Қуйида лицей ўқувчиларининг фанлардан тўплаган баллари бўйича гуруҳнинг ўртача рейтинг натижалари (1 — жадвал) уч хил кўринишда тасвирланган. Ўқувчиларнинг фанлар бўйича


Улаштиришининг барча фанлар ичидаги салмоғини аннотаций диаграммада кўриш мақсадга мувофиқдир (6 — расм). Натижаларнинг гистограмма кўриниши Улаштириш фоизини яққол аниқлаб беради. (7 — расм). Дастлабки ва оралиқ назорат натижаларини нисмалли диаграмма орқали солиштириш таҳлил учун қулайдир (8 — расм).

1 — жадвал


Ф а н л а р								
Фам.и.ш.	Адаб	Алге	Физ.	Хим	Инф.	Инг	Та	Ж ри ам
Ашимов С	30	25	32	36	30	26	36	215
Акмедов	22	15	25	25	22	21	21	151
Пахобов	36	26	27	30	31	29	38	217
Ухсумов	37	25	30	37	32	36	32	229
Нуримов	23	22	25	21	21	21	29	162
Норбеков	38	36	30	30	32	30	31	227
Окунов	30	13	16	22	22	20	30	153
Рахмонов	36	26	32	33	33	25	33	218
Рихсиев	32	26	25	35	30	29	29	206
Уракулов	34	27	27	36	34	30	37	225
Ор. назор.	84,18	65,65	70,94	80,1	76,8	69,2	79	
Дастлабки назорат	70	54	59	76	61	57	69	



6-расм . Доуравий диаграмма




7 — расм. Гистограмма



8 – расм. Чизиқли диаграмма

Диаграмма турига қараб Сиз ҳар хил таралаётган масала бўйича маълумотлар олишингиз ва хулоса чиқаришингиз мумкин.



9 – расм

Айтайлик, чизиқли ва гистограмм кўринишидаги диаграммалар, масалан сотун ҳажмларини таққослашга қулай бўлса, доиравий диаграммалар соҳалар орасидаги боғлиқликни таққослашга ўнғай. Microsoft Excel нинг яна бир имконияти шундаки, диаграммани унинг турини танлаб олдиндан экранда кўриш мумкин. Бунинг учун Сиз **Просмотр результата** (Press and hold to view sample) тугмасини босишингиз мумкин ва диаграммалар тури ва кўринишини ўзингизга ўнғай қилиб танлашингиз ва сўнгра чоп қилишингиз мумкин.

Диаграмма тури ва кўринишини танлаш

Мастер диаграмм мулоқот ойнасида **Стандартные** (Standart type) бандини танлаймиз.

Тип (Chart type) гуруҳида Сиз **Гистограмма** (Column) бандини танласангиз, **Вид** (Chart subtype) гуруҳида гистограммалар кўринади. **Далее** (Next) тугмачаси орқали диаграмма кўринишини алмаштиришингиз мумкин.


Алоҳида варақда диаграмма чизиш

Вставка (Insert) менюсига кириб **Диаграмма** (Chart) буйруғини танланг. **Мастер диаграмм** нинг мулоқат ойнаси очилади, ундан Сиз диаграмма турини ва кўринишини танланг.

Стандартные гуруҳини танлаб, **Тип** (Chart type) гуруҳида **Круговая** (Pie)ни, **Вид** (Chart sub type) гуруҳида юқори қатордаги биринчи диаграммани танланг, **Далее** >(Next) тугмачасини босинг. Натижада **Мастер диаграммнинг** мулоқот ойнаси очилади. **Название диаграммы** (Chart title) майдонида Сиз диаграммага ном қўйишингиз мумкин. **Подписи данных** (Data labels) ва **Подписи значений** (Data


g) гуруҳлари ёрдамида диаграммага изоҳлар беришингиз мумкин.

Форматлаш бўлими бандларининг вазифалари



Excel дастурида форматлаш асосан катак, сатр ва устунларнинг устида бажарилади. Бўлим бандларида сатрнинг баландлиги, устуннинг эни, катак чизиқларини ҳосил

қилиш ва йўқотиш, янги варақ ҳосил қилиш, унга ном бериш вазифалари амалга оширилади.




10 – расм

Стиль бандида сатр ёки устун номи белгиланиши, катакда маълумотларнинг берилиш ва тўлдириш усуллари аниқланади. Катакда ёзувларнинг шрифти ва ўлчами белгилаш мумкин (10 – расм).

Сервис бўлими


Мазкур бўлим бандлари Office муҳитидаги амалий дастурларникига ўхшаш бўлиб, мазмунни қуйидагича аниқланади.

✓ Орфография... F7	матннинг хатосини аниқлаш;
Автозамена...	белгини авто алмаштириш;
✓ Автосохранение...	ўзгаришларни сақлаш;
Доступ к книге...	китобга кириш;
Исправления	ўзгартиришларни белгилаш;
Объединить книги...	китобларни бирлаштириш;
Защита	дастурни ҳимоялаш;
Подбор параметра...	катак қийматини таҳрирлаш;
Сценарии...	янги йўналишларини бериш;
Зависимости	боғланишларни ўрнатиш;
Макрос	боғланишлар билан ишлаш;
Надстройки...	макро маълумотлар ;
Настройка...	янги устқурмалар киритиш
Параметры...	ускуна панелини таҳрирлаш ;
Мастер	жадвал хусусиятлари;
	Web саҳифасида ишлаш ;



11 — расм Excel жадвалларида рангларни таҳрирлаш

Excel дастурида фойдаланувчиларга иш тартибини тартибга солиш уларга устиворликлар белгилаш, китобга кириш учун рухсат бериш каби ишларни **Доступ к книге** банди бажаради.




12 –расм Excel жадвали хоссаларини танлаш

Параметры банди дастур ҳақида умумий, қийматлар, ҳисоб ишлари, диаграммалар, ўзгартириш хусусиятлари ҳақида батафсил маълумотлар беради, бундан хоссаларини таҳрирлаш имкониятларини таъминлайди(11 ,12 – расм).



Excel'da қийматлар устида амаллар

Данные бўлими бандлари катаклардаги қийматлар устида амаллар бажаришга мўлжалланган.



қийматларини тартиблаш;
бирор белги бўйича саралаш;
бирор шаклда тартиблаш;
якуний натижаларни аниқлаш;
маълумотларни текшириш;
қийматларни жадвалга солиш;
матнни устунларга бўлиш;
қийматларни бирлаштириш;
янги тузилмалар олиш;
натижавий жадваллар тузиш;
ташқи маълумотларни киритиш;

Мазкур банднинг дастлабки икки банди устун ёки сатр элементларини бирор белгиси бўйича саралаш ва тартиблаш вазифасини бажаради.

Форма банди танлаб олинган ҳисобот шакли бўйича сатр элементларини текшириш ва таҳрирлаш ишларини амалга оширади.

Итоги банди устун ёки сатр бўйича умумий натижаларни олиш шаклини белгилайди.

Қўйилган масала бўйича киритилаётган маълумотларнинг тўғрилигини текшириш **Проверка** банди орқали амалга оширилади. Бунда мулоқот ойнаси ҳосил бўлиб, киритилиши зарур бўлган маълумотлар хусусиятлари ва ҳосил бўлган хатоликлар ҳақидаги хабарнома мазмуни белгиланади.

Электрон жадвалда маълум қийматларнинг танлаб олинган қисми бўйича, бирор қонуният бўйича

нинг жадваллар ҳосил қилиш вазифасини Таблица
подстановки банди бажаради.

Кейинги бандлар жадвал элементларини
айриштириш, яхлитлаш ва ажратиш, ташқи
тармоқлардан маълумотлар тўплаш учун хизмат
қилади.

Excel да формула ва функциялар билан ишлаш

Формула берилиши

Excel да тайёрланадиган маълумотли жадваллар
матри ёки сонлар билан тўлдиришлини айтиб ўтдик.
Биздан ячейкалардаги қийматлар устида айрим
ҳисоблашларни бажариш зарурияти туғилади, бундай
ҳолда формулалардан фойдаланилади.

Excel ячейкасидаги формуланинг дастлабки
символи ҳамма вақт “=” (тенглик) ҳисобланади.
Унгра, арифметик операция белгилари билан ўзаро
боғланган арифметик ифодалар терилади. Масалан,
III ячейкасида

$$= A5 + 4 * B6$$

Формула ёзилган бўлса, H8 нинг қиймати A5 ва тўртта
H8 нинг йиғиндисидан иборатлигидан далолат беради.

Excelда ишлатиладиган арифметик амал
белгилари қуйидагилар:

+ (қўшиш);

- (айириш);

* (кўпайтириш);

/ (бўлиш)

^ (даражага кўтариш).

Математик функциялар

PRODUCT (<аргументлар рўйхати> (ПРОИЗВЕД) — аргумент қийматлари кўпайтмасини ҳисоблайди;

SQRT (сон) (илдиз) — соннинг квадрат илдизини ҳисоблайди;

FACT (сон) (ФАКТОР) — аргумент сифатида берилган бутун сонгача бўлган натурал сонлар кўпайтмасини ҳисоблайди;

RAND (тасодифий сон) — 0 ва 1 оралиғдаги тасодифий сонни ҳисоблайди.

ABS (сон) — аргумент қийматининг модулини ҳисоблайди;

LN (сон) — соннинг натурал логарифмининг аниқлайди;

EXP (сон) — соннинг экспонентасини ҳисоблайди;

SIN (сон) — соннинг синусини ҳисоблайди;

COS (сон) — соннинг косинусини ҳисоблайди;

TAN (сон) — соннинг тангенсини ҳисоблайди (радианда);

.Статистик функциялар

AVERAGE (<аргументлар рўйхати>) — барча аргументлар қийматининг ўрта арифметигини ҳисоблайди;

MAX (<аргументлар рўйхати>) — аргументлар рўйхатидан энг каттаси (максимал сон)ни топади;

MIN (<аргументлар рўйхати>) — аргументлар рўйхатидан энг кичиги (минимал сон)ни топади;

SUM (<аргументлар рўйхати>) — барча аргументлар қийматининг йиғиндисини ҳисоблайди.

ДИСП(<аргументлар рўйхати>) барча аргументлар учун дисперсиясини ҳисоблайди.

ДОВЕРИТ(a;b; n)

a - ишончлилиқ даражаси учун танлаб олинган қиймат. Масалан, а 0 га тенг бўлса ишончлилиқ 100% ни ташкил қилади, агар а 0,05 бўлса ишончлилиқ даражаси 95% ни ташкил қилади

b - танлаб олинган тажриба натижа тўплами учун ўртача фарқланиш бўлиб, олдиндан маълум деб қарол қилинади.

n - танланмадаги элементлар сони.

КВАДРОТК (<аргументлар рўйхати>) барча аргументлар учун квадрат фарқланишни аниқлайди.

Мантиқий функциялар

Айрим амалий масалаларни ечишда ҳисоблашлар у ёки бу шартларга боғлиқ бўлиши мумкин. Бундай ҳолатда IF шартли функциясидан фойдаланиш мумкин. Бу функциянинг формати қуйидагича:

IF (<мантиқий ифода>;1-ифода;2-ифода)

Унинг ишлаш принципи қуйидагича:<мантиқий ифода>нинг қиймати "чин" (1) бўлса 1-ифода, "барон" (0) бўлса <2-ифода> бажарилади.

Excel да иқтисодий масалаларнинг ечилиши

Масала. Excel дастури ёрдамида қуйидаги маълумотли жадвал тайёрлансин. Натижа жадвал ва диаграмма кўринишида чоп қилиш қурилмасини чиқарилсин:

Корхонанинг хизмат сафари харажатлари

Т F P	Борилади ган жой	Йўл Нархи	Кун лар сони	Кун лик ҳара	Киши лар сони	Жами харажат
1.	Тошкент	800	5	150	4	
2.	Бухоро	860	4	150	5	
3.	Киев	18600	12	480	4	
4.	Москва	17800	10	510	6	
5.	Лондон	85000	15	1050	5	

Мазкур масала учун "Жами ҳаражат" банди қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

"Жами ҳаражат" = (2* "Йўл нархи" + "Кунлар сони" * "Кунлик ҳаражат") * "Кишилар сони"

Excel дастури ёрдамида масалани ечишни қуйидаги режа асосида олиб борамиз.

Иш режаси:

1. Excel ни юклаш.
2. Жадвал мавзусини киритиш.
3. Устун кенглигини аниқлаш ва киритиш.
4. Устун номини киритиш.

5. Жадвални маълумот билан тўлдириш.
6. Маълумотли жадвални дискка ёзиш.
7. Дискдан жадвални чақириш.
8. Охирги устун формуласини бериш.
9. Натижавий жадвални ҳосил қилиш.
10. Жадвални чоп қилиш.
11. Устунли ва доиравий диаграммалар ҳосил қилиш.
12. Диаграммаларни чоп қилиш.
13. Excel дан чиқиш.

Ечиш.

1. Windows 95 (Windows 98)ни юклаймиз. Сўнгра Пуск (Start) тугмаси орқали, "ПРОГРАММЫ" бандини очиб, Microsoft Excel нинг танлаймиз ва сичқонча чап тугмасини босамиз. Натижада Excel 97 ёрдамчи учун асосий мулоқот ойнаси очилади.

2. Жадвалнинг биринчи сатрига жадвал маълумотларини киритамиз:

ҚОРХОНАНИНГ ХИЗМАТ САФАРИ ХАРАЖАТЛАРИ

3. Устун ва сатр кенглиги етарли бўлмаганлиги сабабли уни керакли миқдорда ўзгартирамиз. Бунинг учун сичқонча кўрсаткичи орқали А,В,С,Д,Е,Ғ устунларга мос келувчи чизиқни қистириб олиб аслим миқдорда сурилади.

4. Иккинчи сатрдан бошлаб, устунлар номларини киритамиз:

Т	Борила	Йўл	Кунлар	Кунлик	Киши	Жами
Т	диган	Нархи	Сони	ҳаража	лар	ҳаража
Р	жой				сон	

5. Ячейкаларни керакли маълумотлар билан тўлдирамиз:

1.	Тошкент	800	5	150	4
2.	Бухоро	800	4	150	5
3.	Киев	18600	12	480	4
4.	Москва	17800	10	510	6
5.	Лондон	85000	15	1050	5

6. Файл (File) буйруқлар тўпламида Сохранить как (Save as) буйруғини берамиз. Компьютернинг **Имя файла** сўровига файл номини, масалан <сonting.xls> ни киритамиз.

7. Дискдан жадвални юклаш учун Файл (File) буйруқлар тўпламидан Открыть бандини танлаймиз. Файллар рўйхатидан керакли файлни танлаб (хусусан, <сonting.xls>), сичқонча тугмаси босилади.

8. Охирги устун формуласини берамиз, хусусан шу устун биринчи сатри учун қуйидаги формула ўринли:

$$=(2 * C4 + D4 * E4) * F4$$

Қолган сатрларига учун ҳам худди шу формулаларни жорий эттириш учун, жорий сатр па устун кесишувидаги ячейкани ўнг паст бурчагига сичқонча кўрсаткичи олиб келиниб, чап тугмаси босилган ҳолда сурилади, яъни

Т р	Борилади Ган жой	Йўл нархи	Кун лар сони	Кунли к ҳаража т	Киш илар сони	Жами ҳаражат

1	Тошкент	800	5	150	4	$=(2 * C4 + D4 * E4) * F4$
2	Бухоро	860	4	150	5	$=(2 * C5 + D5 * E5) * F5$
3	Киев	18600	12	480	4	$=(2 * C6 + D6 * E6) * F6$
4	Москва	11080	10	510	6	$=(2 * C7 + D7 * E7) * F7$
5	Лондон	85000	15	1050	5	$=(2 * C8 + D8 * E8) * F8$

9. Натижада қуйидаги жадвални ҳосил киламиз.

1	Ворилади Ган жой	Йўл нархи	Кун лар сони	Кунли к ҳаража т	Киш илар сони	Жами ҳаражат
1	Тошкент	800	5	150	4	94000
2	Бухоро	860	4	150	5	11600
3	Киев	18600	12	480	4	171840
4	Москва	11080	10	510	6	244200
5	Лондон	85000	15	1050	5	928750

10. Натижавий жадвални чоп қилиш учун Файл (File) буйруқлар тўпламидан Печать (Print) буйруғини берамиз.

11. Дастлаб В ва G устундаги маълумотлар сичқонча кўрсаткичи орқали силжитиб ажратилади. Сўнгра, "Вставка" менюсининг буйруқлар тўпламидан "Диаграмма" банди танланади. Компьютернинг "На новом листе" ёки "На новом листе" сўровига мос жавоб танланади. Диаграмма кўриниши "Мастер диаграмм" дан танланади, сўнгра "шаг" (продолжить") тугмачасини босиш лозим.

12. Диаграммаларни (9 банддаги каби) Файл менюси буйруқлар тўпламидан Печать банди орқали чоп қилиш мумкин.

14. Excelдан чиқиш учун Файл менюсига чиқиб, дастлаб Закрьт банди устида сичқонча тугмаси босилади ва сўнгра шу Файл менюсидаги Выход бандига сичқонча кўрсаткичи келтирилиб босилади.

Тажриба натижаларини қайта ишлаш

1 — мисол.

Фараз қиламиз, битта ускунада тайёрланган на ихтиёрий равишда танлаб олинган 10 та асбоб устида синдириш тажрибаси ўтказилди. Танланманинги мустақамлик чегараси қуйидаги тўпламни ҳосил қилди (1345, 1301, 1368, 1322, 1310, 1370, 1318, 1350, 1303, 1299). Бу танланмага ДИСП функциясини қўллаш орқали қуйидаги натижани олишимиз мумкин.

ДИСП((1345, 1301, 1368, 1322, 1310, 1370, 1318, 1350, 1303, 1299A)

754,3 тенг бўлади. Дисперсия қуйидаги формула орқали ҳисобланади:

$$D = \frac{n \sum x_i^2 - (\sum x_i)^2}{n(n-1)}$$

2 — мисол.

50 та йўловчининг ишга етиб келиш вақти ўртача 30 минутни ташкил қилиб, ўртача фарқланиш 0,5 бўлсин. Агар а 0,05 танлаб олинса, 95 % ли ишонч даражасида ДОВЕРИТ(0,05;2,5;50) 0,692951 тенг эканлигини аниқлаш мумкин. Бошқача қилиб ўнгтанда, ишга етиб олишнинг ўртача сарфланиши 30 + 0.692951 минутни ташкил қилади. Ишонч оралиғи қуйидаги формула асосида ҳисобланади:

$$d = x \pm (1-a) \frac{b}{\sqrt{n}}$$



Машқлар.

1. Ташкилот бўлимларида хизмат сафари ҳаражатлари ҳисоби(минг сўм ҳисобида)

Г / Р	Бўлимлар	Йиллар			Жами
		1998	1999	2000	
1.	Техника таъминоти	131,5	14,6	152,6	
2.	Ҳисобхона	141,6	112,7	114,6	
3.	Ходимлар бўлими	128,4	153,3	143,8	
4.	I — Бўлим	132,3	173,2	202,1	
5.	II — Бўлим	178,3	207,6	107,4	
6.	III — Бўлим	672,4	709,2	221,6	
	Жами				

2. Ташкилот бўлимларида хизмат сафари ҳаражатларининг ошиши (минг сўм ҳисобида)

Т/ Р	Бўлимлар	Йиллар		% ҳисобида Ўсиш кўрсаткичи
		2000	2001	
1.	Техника таъминоти	142,7	146,6	
2.	Ҳисобхона	124,5	117,7	
3.	Ходимлар бўлими	128,4	154,7	
4.	I — цех	221,3	103,4	
5.	II — цех	168,4	128,6	
6.	III — цех	172,4	129,7	
	Жами			

3. «Зарбанд» жамоа ҳўжалигида истиқомат қилувчи жисмоний шахсларнинг жамғарма банкига қўйган суммасидан олган фойда ҳисоби (сўм ҳисобида)

Т/р	Фамилия, исми, Шарифи	қўйилга н сумма	9 % йиллик фойда	Жам и
1.	Исломов М.Х.	115000		
2.	Мамадиёров	95000		
3.	Нодиров К.	144000		
4.	Боймирзаев Қ	85000		
5.	Маъмирзаева	76000		
6.	Тайлоқов Н.	84000		

4. "Авиалицей" ўқитувчиларининг 2000/2001 ўқув йили юкламасини бажариши.

№	Фамилия, исми, Шарифи	Режа	Бажар ди	% ҳисобида
1.	Алишеров У.	780	780	
2.	Юлдашева О.	806	798	
3.	Мирсоатова Д.	810	804	
4.	Нуритдинова З.	504	506	
5.	Шодмонов И.	715	730	
6.	Турсунов Б.	494	506	
7.	Юсупов М.	706	690	
8.	Баратов Н.	514	530	
	Жами:			

5. Самарқанд молия коллежи ходимлари иш ҳақини маҳаллий коэффициент ва зарарни инобатга олиб ҳисоблаш.

№	Фамилия, исми, шариф и	Маош и	Маҳалли й коэф.	Зара рлик	Жам и
1.	Бердиқулов	14000	1,05	1,2	
2.	Саидов Қ.И.	13000	1,05	1,3	
3.	Ёрбеков Ё.	12800	1,1	1,3	
4.	Диёров А.	15800	1,1	1,3	
5.	Каримов А.	12200	1,1	1,3	
6.	Караматов К	12400	1,1	1,2	
7.	Синдоров М.	11200	1,1	1,3	
8.	Очилов А.	11200	1,1	1,3	
	Жами:				

6. Самарқанд — Тошкент авиарейс йўловчилари йўл ҳақи ҳисоботи (сўм ҳисобида)

Т р	Тайёра	Йўловчилар сони	Йўл ҳаки	Жами
1.	АН – 24	57	3400	
2.	ИЛ – 62	250	3800	
3.	TU – 32	125	3460	
4.	TU – 154	120	3460	
	Жами:			

7. Самарқанд шаҳрида истиқомат қилувчи ҳамқишлоқларнинг «Зарбанд» жамоа ҳўжалигига моддий ёрдам бериш ҳисоби

Т. р	Фамилия, исми, шарифи	1999	2000	Жами
1.	Жайнаров Ф.	14000	12400	
2.	Рабимов А.	13600	14000	
3.	Рузиев Э.	12000	12300	
4.	Эштемиров С	13800	15300	
5.	Имомқулов Н	13200	12600	
6.	Хўжаеров М.	13600	14600	
9.	Саидахмедов	13500	14000	
10.	Абдусаломов	12500	14800	
11.	Саидқосимов	13500	14800	
12.	Тайлоқов Н.	14200	14200	



VIII ҚИСМ ТАСВИРЛАРНИ ЯРАТИШ ВА ТАҲРИРЛАШ

Microsoft Paint



Сиз китобнинг VIII қисмини
мутоала қилиб, **PAINT** график
таҳрирчиси ҳақидадаги назарий
билим ва амалий кўникмаларга эга
бўласиз:




- *Paint* ни юклаш;

- Янги шакл ёки расмни экранга чизиш;
- Экрандаги расмни хотирага файлга кўринишида ёзиш;
- Хотирадаги расмни экранга чақириш;
- Paint менюси ва унинг бандлари тавсифи;
- Paint ускуналари билан ишлаш;
- Расм қисмини ажратиш;
- Расм қисмини махсус жойга нусхалаш;
- Расмни ўз жойидан кўрсатилган жойга кўчириш;
- Янги расм келтириб қўйиш;
- Расмни катталаштириш;
- Расмни кичиклаштириш;
- Чизиклар қалинлигини танлаш;
- Буёқ (ранглар)ни танлаш;
- Paint да рангларни таҳрирлаш;
- Расм ёнига (тагига, устига) ёзиш;
- Ёзишда турли хил шрифтлардан фойдаланиш;
- Катта расмларни экранда тўлиқ кўриш;
- Рангларни таҳрирлаш;
- Рангни қўйиш ва сақлаш;
- Босмага чиқариш қурилмасини танлаш;
- Расмни босмага чиқариш;
- Paint дан чиқиш.

Умумий маълумотлар

Paint тасвирлар муҳаррири бўлиб, мазкур дастур турли хил расм ва шаклларни ҳосил қилиш ва қайта ишлашда фойдаланилади. Унда ҳосил қилинган тасвир бошқа амалий дастурларда қўлланилиши мумкин. Бу бобда **Windows — 98** таркибига кирувчи

Paint график муҳаррири ҳақида маълумот берилади. Антиб ўтилгандек, дастур кўмагида оддий матнли жадвал ва диаграммалар ҳамда юксак савияли санъат асарларини яратиш мумкин. Ишни тоза оқ варақда шакл чизишдан ёки тайёр расмларни таҳрирлашдан бошлаш мумкин. Дастур кўмагида Windows нинг бошқа дастурларида яратилган ихтиёрий матн ёки график маълумотлар нусхасини олиш ёки сканер қурилмаси ёрдамида ўта қийин талқиндаги санъат асарларидан нусха олиш, таҳрирлаш ва



чоп қилиш ишлари мажмуини бажариш мумкин.

Paint ни ишга тушириш учун Пуск тугмаси орқали Проводник бандига кириб, унда Program files мажмуасидаги Accessories дастурининг Mspaint бўлигига мурожаат қилинади.

Кўпчилик ҳолларда Mspaint ёрлиғи Windows – 98 иш столига кўчирилган бўлади. Бундай ҳолатда Mspaint ёрлиғи устида сичқонча тугмаси босилади ва дастур тезда ишга туширилади. Paint муҳарририга мурожаат қилингандан сўнг экранда дастурнинг таҳрирлаш дарчаси пайдо бўлади. Дастур муҳитида


Paintнинг шахсий менюси, жиҳозлаш мажмуаси ва ранглаш соҳаси мавжуд (1 – расм).

Paint менюсининг бўлимлари

Paint тасвир муҳаррирининг менюси бўлимлари қуйидагилардан иборат :

Файл, Правка, Вид, Рисунок, Палитра, Справка.

Менюнинг дастлабки икки бўлим бандлари **Windows – 98** амалий дастурлари учун умумий бўлган вазифаларни бажаради.



1 –расм
Дастур ойнасининг умумий кўриниши

[illegible]

расмни хотирадан олиш.

Тасвирни файлда сақлаш.

саҳифа ҳолатини кўриш.

Файлни бирор манзилга узатиш

Windows иш столи ўртасига қўйиш.

охирги файллар.

Paintдан чиқиш.

Иконка	Вид	Рисунок	Палитра
	Удалить		Ctrl+Z
	Рисовать		F4
	Вырезать		Ctrl+X
	Копировать		Ctrl+C
	Вставить		Ctrl+V
	Очистить выделение		Del
	Выделить все		Ctrl+A
	Копировать в файл...		
	Оставить из файла...		




Олдинги ҳаракатни такрорлаш.

расм ёки шаклни нусхалаш.

ажратилган қисмни тозалаш .

файлга тасвирни кўчириш.

Бошқа файлдан кўчириш




2 — Расм

Вид бўлимида жиҳозлар мажмуаси — Набор инструментов, ранглаш соҳаси — Палитра, ҳолат сатри — Строка состояния, матн белгилари панели — Панель атрибутов текста ва тасвирни экранда тўла кўриш — Посмотреть рисунок каби

амалларни бажариш мумкин. Масалан, матн шрифларини танлаш ва ўлчамларини ўзгартириш учун **Панель атрибутов текста** га мурожаат этилади (1 – расм).

Рисунок бўлими кўмагида тасвирни инвертириш (90^0 , 180^0 , 270^0 градусга расмни буриш) айлантириш, кенгайтириш ва оғдириш амаллари бажарилади. Тасвирнинг ўлчамлари ва рангланиши **Атрибуты** банди ёрдамида бажарилади.



3 – расм. Тасвир элементлари

Палитра бўлимида тасвирларнинг рангланишида қизғишлик, кўкишлик, яшиллик даражаси ва ёрқинлиги белгиланиб **Добавить в набор** тугмаси ёрдамида янги ранг рангланиш соҳасида ҳосил қилинади. (3 – расм)

Жиҳозлаш мажмуаси

Экраннинг чап қисмида жойлашган жиҳозлар мажмуаси ёрдамида саҳифадаги тасвирни керакли элементларни ҳосил қилиш ажратиб олиш,


нусхалаш ёки ўзгартирш мумкин (2 – расм). Қуйида
ҳар бир жиҳоз вазифаси билан танишамиз:

ихтиёрий
қирқиш
Ўчиргич
Ранг

Қалам
Пуркагич
Тўғри
чизиқ
Тўртбурчак

Эллипс

Элемент
танлаш



тўртбурчак
қирқиш
Соҳани ранглаш
Тасвирни танлаш
кенгайтириш
Муйқалам
Ёзув тушириш
эгри чизиқ

Кўпбурчак

Соҳа

белгиларини

Чизиқлар, ёзувлар ҳосил қилиш ва тасвирлар устида амаллар

Жиҳозлаш мажмуасининг ҳар бир тутмасидан
фойдаланиб, тасвирнинг бирор элементини яратиш
мумкин. Масалан, **Эгри чизиқ** тутмасидан
фойдаланиб ихтиёрий чизиқни ҳосил қилиш мумкин.
Мазкур жиҳозлаш ускунаси эгри чизиқни 2 та
эгилиш ҳолатини чизиши мумкин. Эгри чизиқнинг
чизиш учун қуйидаги кетма — кетликда иш тутиш

керак.

1. Эгри чизиқ ускунаси устида тугмачани босиш;
2. Ускуналар мажмуасидан чизиқ қалинлигини танлаш;
3. Сичқонча кўрсаткичини расм соҳасининг чизиқ бошланадиган жойига келтириш ва чап тугмани босган ҳолда керакли жойга кўрсаткични кўчириш ва тугмани бўшатиш, натижада экранда тўғри чизиқ ҳосил бўлади;
4. Кўрсаткични тўғри чизиқни эгилиши лозим бўлган жойига келтириб, тугмачани босган ҳолда керакли йўналиш бўйича чизиқни эгиш мумкин. Юқоридагиларни бажариб сиз бир эгилишли чизиқ ҳосил қиласиз.
5. Иккинчи эгри чизиқни ҳосил килинган эгри чизиққа туташтириш учун кўрсаткични эгри чизиқнинг охириг нуктасига олиб келиб юқоридаги 3 ва 4 бандни бажаринг.

Тўғри тўртбурчаклар ва квадратлар чизиш

Прямоугольник ускунасидан фойдаланиб, тўғри тўртбурчак, квадрат чизиш мумкин. Бунинг учун мазкур ускуна ҳамда тўғри тўртбурчакни тури танланади.


Paint тасвирларига ёзув тушириш


1. Жиҳозлаш мажмуасидан  тугмаси босилади.
2. Тасвирда ёзув рамкасини керакли ўлчамини ҳосил қилиш учун сичқон кўрсаткичи диагонал бўйича силжитилади.
3. Форматлаш панелидан шрифт тури, ўлчами ва ёзилиши танланади.

4. Рамканинг ичида сичқон тугмаси босилади ва клавиатурадан матн киритилади.
5. Сўнгра ёзув жойини ўзгартириш ва рангини танлашимиз мумкин.

Эслатма: форматлаш панелини экранга чиқариш учун **Вид** бўлимида **Панель атрибутов текста** бандига мурожаат қилинади.

Тасвирнинг нусхасини олиш.



1. Жиҳозлар мажмуасидан  тугмаси тўртбурчакли соҳани ажратиш учун босилади
2. Кўрсаткич нусхаланувчи соҳага олиб келинади, белгилашнинг керакли ўлчами ҳосил қилинади.
3. **Правка** бўлимида **Копировать** банди фаоллаштирилади.
4. Кўрсаткич экраннинг керакли қисмига ўтказилиб, **Вставить** фаоллаштирилади.
5. Ажратилган бўлакни бир неча нусхасини олиш учун сичқон кўрсаткичи клавиатурадаги **ctrl** босилган ҳолда керакли жойга силжитилади. Бу жараёни бир неча марта қайтариш мумкин.
6. Экранда ҳосил бўлган тасвирни Windows иш столига кўчириш учун **Файл** бўлимида **Замостить рабочий стол Windows** га мурожаат этилади.
7. Жорий тасвир иш столининг ўртасига жойлашиши учун **В центр рабочего стола Windows** га мурожаат — қилинади.

Демак, **Paint** дастури кўмагида фойдаланувчи учун зарур ихтиёрий тасвирни экранда ҳосил қилиш, файл кўринишида хотирага киритиш, бошқа амалий дастурлар учун қулай кўринишга келтириш ва нихоят тасвирни чоп этиш мумкин.



Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга амалий жавоб беринг:

1. Paint ни юкланг.
2. Бирор янги шакл ёки расмни экранга чизинг.
3. Экрандаги расмни хотирага файл кўринишида ёзинг.
4. Хотирадаги расмни экранга чақиринг.
5. Расм қисмини ажратинг.
6. Расм қисмини махсус жойга ўрнатинг (нусхаланг).
7. Расмни ўз жойидан кўрсатилган жойга кўчиринг.
8. Янги расм келтириб қўйинг.
9. Расмни катталаштиринг.
10. Расмни кичрайтиринг.
11. Чизиклар қалинлигини танланг.
12. Буёқ (ранглар)ни танланг.
13. Расм ёнига (тагига, устига) ёзинг.
14. Ёзишда турли хил шрифтлардан фойдаланинг.
15. Расмларни экранда тўлиқ кўринг.
16. Рангларни таҳрирланг.
17. Рангни қўйинг ва сақланг.
18. Босмага чиқариш қурилмасини танланг.
19. Расмни босмага чиқаринг.
20. Paint дан чиқинг.

КОМПЬЮТЕРДА ИШЛАШ УЧУН ҚИСҚАЧА МАЪЛУМОТНОМА

1-ИЛОВА

MS DOS Операцион тизимининг асосий буйруқлари

1-жадвал

№	Буйруқ	Бажарадиган вазифаси
1.	[диск]	Бошка дискка ўтиш.
2.	CD	Жорий каталогни алмаштириш.
3.	CLS	Компьютер экранини маълумотлардан тозалаш.
4.	COPY	Файлларни нусхалаш.
5.	DATE	Сана ҳақида маълумот ёки уни нусхалаш.
6.	DEL	Файлни ўчириш.
7.	DELTREE	Каталогни барча файллари билан

		ўчириш.
8.	DIR	Каталогдаги мавжуд файллар рўйхатини бериш.
9.	DiskCopy	Дискетани нусхалаш.
10.	FA	Файл атрибутини ўзгартириш.
11.	FC	Файлларни таққослаш.
12.	FIND	Файлни қидириш.
13.	FOR	Цикл ташкил этиш.
14.	FORMAT	Дискни форматлаш.
15.	GOTO	Пакетли файлда белгига ўтиш.
16.	IF	Пакетли файлда шартни текшириш.
17.	LABEL	Дискка белги қўйиш.
17.	MD	Янги каталог ташкил этиш.
18.	MOVE	Файлни бошқа каталогга кўчириб ўтиш
19.	NDD	Диск яроқлилигини текшириш.
20.	PAUSE	Пакетли файл бажарилишини тўхтатиш.
21.	PRINT	Файлни чоп қилиш.
22.	PROMPT	MS DOS таклифномаси кўринишини ўрнатиш.
23.	QU	Файлни қайта тиклаш.
24.	RD	Каталогни ўчириш.
25.	REM	Пакетли файлда изоҳ бериш.
26.	REN	Файл номини ўзгартириш.
27.	SYSInfo	Компьютер ҳақида маълумот олиш.
28.	TIME	Жорий вақт ҳақида маълумот ёки уни ўзгартириш.
29.	TYPE	Файл мазмунини экранга чиқариш.
30.	VER	MS DOS версияси номерини чиқариш.
31.	VOR	Диск белгисини чиқариш.

II-илова

NORTON COMMANDER ҚОБИҚ ДАСТУРИ МЕНЮ БУЙРУҚЛАРИ

НСнинг инглизча версиясида	НСнинг русча версиясида	Функционал тугмачаларда
Left (Right)	Левая (правая)	
Brief**	Краткий	
Full**	Полный	
Info**	Информационная	
Tree**	Панель	
Quick view**	Дерево	
Compressed File**	Быстрый	
Link	Просмотр	
On/off	Сжатый файл	
Name**	Связь компьютеров	
Extension**	Включение/ выключение панели	
Time**	По именам	
Size**	По расширениям	
Unsorted**	По времени	Ctrl+F1(F2)
Re-read	По размеру	
Filter...	Нерассортированные	Ctrl+F3
Drive...	Повторное	Ctrl+F4
Files	Чтение	Ctrl+F5
Help	Фильтр	Ctrl+F6
	Дисковод	Ctrl+F7
	Файлы	
	Справка	

User menu	Меню пользователя	
View	Просмотр	Alt+F1(F2)
Edit	Редактирование	
Copy	Копирование	F1
Rename or move	Перемещение или переименование	F2
		F3
Make directory	Создание каталога	F4
Delete	Удаление	F5
File attributes	Атрибуты файла	F6
Select group	Выделение группы	F7
		F8
Deselect group	Отмена выделения Группы	Gray-
Invert selection	Инверсия выделения	Gray*
Restore selection	Восстановление Выделения	
Quit	Выход из NC	F10-
Commands	Команды	
NCD tree	Дерево каталога	Alt+F10
Find file	Найти файл	Alt+F7
History	Хронология	Alt+F8
IOA lines	Строки EGA	Alt+F9
System information	Системная Информация	
Swap panels*	Поменять местами Панели	Ctrl+U
Panels on/off	Включить/ выключить панели	Ctrl+O
Compare directories	Сравнить каталоги	
Terminal Emulation	Эмуляция терминала	

Menu file edit	Редактировать меню пользователя	
Extension file edit	Редактировать файл расширений	
Options	Опции (параметры)	
Configuration...	Конфигурация	
Editor...	Текстовый редактор	
Confirmation...	Подтверждение	
Compression...	Выбор метода сжатия	
Auto menus*	Автоменю	
Path promrt*	Путь в приглашении	
Key bar*	Строка функциональных клавиш	Ctrl+B
Full screen*	Полный экран	
Mini status*	Мини-статус	
Clock*	Часы	
Save setup*	Сохранить установки	Shift+F9

III-ИЛОВА

WINDOWS ДАСТУРИ БУЙРУҚЛАРИ

Инглизча версияда	Русча версияда	Тугмачалар
File	Файл	
New...	Создать...	
Open	Открыт	
Move...	Переместить...	Enter
Copy...	Копировать	F7
Delete	Удалить	F8
Properties...	Свойства...	Del

Run...	Выполнить...	Alt+Enter
Paint Windows...	Выход из Windows...	
Options	Параметры	
Auto Arrange*	Автоупорядочивание	
Minimize on	Сворачивать при	
Use*	Работе	
	Сохранять	
Save Settings	Параметры при	
On Exit*	Выходе	
Windows	Окно	
Cascade	Каскад	Shift+F5
File	Мозаика	Shift+F4
Arrange Icons	Упорядочить Значки	
Список	<список групп (до 9)>	
групп (до 9)>		
More		
Windows...		

IV-НЛОВА

WINDOWS PAINT ГРАФИК МУҲАРРИРИ БУЙРУҚЛАРИ

Ўнги тугма версияда	Русча версияда	Тугмачалар
File	Файл	
New	Создать	
Open...	Открыть...	
Save	Сохранить	Ctrl+S
Save As...	Сохранить Как...	
Page Setup...	Параметры страницы...	

Print...	Печать...	
Print Setup...	Выбор принтера...	
Exit	Выход	
Edit	Редактирование	
Undo	Отменить	Ctrl+Z
Cut	Вырезать	Ctrl+X
Copy	Копировать	Ctrl+C
Paste	Вставить	Ctrl+V
Copy To...	Копировать в...	
Paste From...	Вставить из...	
View	Просмотр	
Zoom In	Приблизить	Ctrl+N
Zoom Out	Отодвинуть	Ctrl+O
View Picture	Просмотреть рисунок	Ctrl+P
Tool and Linesize*	Инструменты и Ширина линии	
Palette*	Палигра	
Cursor Position*	Координаты курсора	
Text	Текст	
Regular	Обычный	
Bold*	Полужирный	Ctrl+B
Italic*	Курсив	Ctrl+I
Underline*	Подчеркнутый	Ctrl+U
Outline***	Контурный	
Shadow***	Оттененный	
Fonts...	Шрифты...	
Pisk	Преобразования	
Filp Horizontal	Повернуть по Горизонтали	

Flip Vertical	Повернуть по Вертикали	
Inversion	Инвертировать	
Shrink + Grow	Сжать + Растянуть	
Tilt	Наклонить	
Clear*	Очистить	
Options	Параметры	
Image	Атрибуты Образа...	
Attributes...		
Brush Shapes...	Форма Кисточки...	
Edit Colors...	Редактирование Цветов...	
Get Colors...	Получить Цвета...	
Save Colors...	Сохранить Цвета...	
Omit Picture	Пропустить Формат	
Format*	Рисунка	

V-ИЛОВА

MICROSOFT WORD процессори меню буйруқлари

Инглизча версияда	Русча версияда	Тугмачалар
File	Файл	
New...	Создать	Ctrl+N
Open...	Открыть...	Ctrl+O
Close	Закреть	
Save	Сохранить	Ctrl+S
Save As...	Сохранить Как...	
Save All	Сохранить все	

Find File...	Поиск файла...	
Summary Info...	Сводка...	
Templates...	Шаблоны...	
Page Setup...	Параметры страницы...	
Print Preview	Просмотр	
Print...	Печать...	Ctrl+P
<имена файлов>	<имена файлов>	
Exit	Выход	
Edit	Правка	
Undo	Отменить	Ctrl+Z
Cut	Вырезать	Ctrl+X
Copy	Копировать	Ctrl+C
Paste	Вставить	Ctrl+V
Paste Special...	Специальная вставка...	
Clear	Очистить	Del
Select All	Выделить все	Ctrl+A
Find...	Найти...	Ctrl+F
Replace...	Заменить...	Ctrl+H
Go To...	Перейти...	Ctrl+G
Auto Text...	Автотекст...	
Bookmarks...	Закладка...	
Links...	Связи...	
Object	Объект	
View	Вид	
Normal**	Нормальный	
Outline**	Структура документа	
Page Layout**	Разметка страницы	
Master	Главный документ	
Document		
Full Screen	Полный экран	

Toolbars...	Панели Инструментов...
Ruler*	Линейка
Header and Footer	Колонтитулы
Footnotes	Сноска
Annotetions	Примечения
Zoom...	Масштаб...
Insert	Вставка
Break...	Разрыв...
Page	Номера страниц...
Numbers...	
Annotation	Примечение
Date and Time...	Дата и время...
Field...	Поле...
Symbol...	Символ...
Form Field...	Поле формы...
Footnotes...	Сноска...
Caption...	Название...
Cross- References...	Ссылка...
Index and Tables...	Оглавление и указатели...
File...	Файл...
Frame	Кадр
Picture...	Рисунок...
Object...	Объект...
Database...	База данных...
Format	Формат
Font...	Шрифт...
Paragraph...	Абзац...
Tab...	Табуляция...

Border and Shading...	Обрамление и Заполнение...	
Columns...	Колонки...	
Change Case...	Регистр...	
Drop Cap...	Буквица...	
Bullet and Numbering...	Список...	
Heading	Нумерация	
Numbering...	заголовков...	
Auto Format...	Автоформат...	
Style Gallery...	Таблица стилей...	
Style...	Стиль...	
Frame...	Кадр...	
Picture...	Рисунок...	
Drawing	Рисованный	
Objects...	объект...	
Tools	Сервис	
Spelling...	Орфография...	
Grammar...	Грамматика...	
Thesaurus...	Синонимы...	
Hyphenation...	Перенос слов...	
Language...	Язык...	
Word Count...	Статистика...	
Auto Correct...	Автокоррекция...	
Mail Merge...	Слияние...	
Envelopes and Labels...	Конверты и наклейки...	F7
Protect Document...	Установить защиту...	Shift+F7
Revisions...	Исправления...	
Macro...	Макрокоманда...	
Customize...	Настройка...	
Options...	Опции...	

Table	Таблица	
Insert Rows	Вставить строки	
Delete Rows	Удалить строки	
Merge Cells	Объединить ячейки	
Split Cells...	Разбить ячейки...	
Select Row	Выделить строку	
Select Column	Выделить столбец	
Select Table	Выделить таблицу	
Table	Автоформат	
Auto Format...	таблицы...	
Cell Height and Width...	Высота и ширина ячеек...	Alt+Num 5
Headings	Заголовки	
Convert Table to Text...	Преобразовать таблицу в текст...	
Sort...	Сортировка...	
Formula...	Формула...	
Split Table	Разбить таблицу	
Gridlines*	Линии сетки	
Windows	Окно	
New Windows	Новое окно	
Arrange All	Упорядочить все	
Sprit	Разбить	
<список окон документов>	<список окон документов>	

Microsoft Excelда ишлаш учун қисқача маълумотнома

	Иш мазмуни	Бажариш тартиби
1.	Excel 97ни юклаш.	Windows 98 юклангандан сўнг, Пуск (Start) тугмаси кўмагида "ПРОГРАММЫ" бандини очинг, дастурлар рўйхатидан Microsoft Excel ни сичқонча кўрсаткичи ёрдамида танланг ва "сичқонча" нинг чап тугмасини босинг.
2.	Маълумот ларни киритиш:	Дастлаб керакли ячейкани ажратинг, сўнгра уни янги маълумот билан тўлдириш, сўнгра Enter тугмачасини босинг ёки бошқа ячейкада сичқонча тугмачасини босинг.
3.	Маълумот ларни тузатиш:	Маълумот ўзгартирилиши лозим бўлган ячейкада икки марта сичқонча тугмачасини босинг. Курсор (кўрсаткич)ни ўзгарадиган жойга келтириб янги матнни теринг ёки Backspace тугмачаси орқали эски матнни ўчириб янгисини киритинг.
4.	Ячейкани тозалаш:	Ячейкани ажратинг ва Del тугмачасини босинг ёки Правка (Edit) менюсига кириб, очистить (Clear) буйруғини беринг, натижада ҳосил бўлган менюда Содержимое (Contents) қаторида

		сичқонча тугмасини босинг.
5.	Тузатмалар ни бекор қилиш:	Правка (Edit) менюсида Отмена (Undo) буйруғини беринг.
6.	Тузатмалар ни такрорлаш:	Вернуть (Redo) ёки Вернуть (Repeat) бандини Правка менюсида беринг.
7.	Варақни қайта номлаш:	Варақ ёрлигида сичқонча тугмасини икки марта босинг, янги номни киритинг, сўнгра Enter тугмасини босинг.
8.	Иш китобида бирор варақни ўчириш:	Сичқончанинг ўнг тугмасини ўчирилаётган варақ ёрлигида босинг ва меню Удалить (Delete) буйруғини танланг.
9.	Иш китобига янги варақ қўйиш.	Сичқончанинг ўнг тугмасини варақ ёрлигида босинг ва менюда Вставить (Insert) буйруғини беринг.
10.	Иш китобини хотирада сақлаш.	Сохранить (Save) буйруғини беринг. Мулоқот ойнасида пайдо бўлган Имя файла (File Name) сўровга ном(имя) беринг ва Сохранить (Save) тугмачасини босинг.
11.	Иш китобини ёпиш:	Файл (File) буйруқлар тўпламидан Закреть (Close) буйруғини беринг ёки иш китобининг ўнг юқори бурчагида

		жойлашган Закреть (Close) тугмасини босинг
12.	Microsoft Excel ишини тугаллаш.	Файл (File) буйруқлари тўпламида выход (Exit) буйруғини беринг.
13.	Иш варағини чоп қилиш.	Чоп қилинадиган ячейкалар блокини ажратинг. Файл (File) менюга буйруқлар тўпламидан Печать (Print) буйруғини киритинг. Вывести на печать (Print what) ни Выделенный диапазон (Selection) билан ажратинг, ОК тугмасини босинг.
14.	Устун ва қатор кенглигини ажратиш.	Файл (File) менюси буйруқлар тўпламидан Параметры страницы (Page Setup) буйруғини танланг. Мулоқат дарчаси ёрдамида Поля (Margins) нинг устида сичқонча тугмасини босинг. Устун ва қатор (йўллар) кенглигини юқоридан қуйидан, чап ва ўнгдан керакли миқдорда беринг ва ОК тугмасини босинг.
15.	Диаграмма чизиш	" Вставка " менюсида Диаграмма (Chart) буйруғини танланг, Мастер диаграмм (Chart Wizard) нинг дастлабки қадами (Шаг) очилади. Бу ердан диаграмма (1 дан 4 гача қадами) тури танланади. Далее >(Next) тугмасини босинг ва диаграмма чизиладиган қатордаги

		маълумотларни ажратинг. Охирги қадамда "На новом листе" ёки "На отдельном листе" бандининг кераклигисини ажратинг.
16	Диаграмма ни хотирада саклаш	Файл (File) менюсида Сохранить (Save) буйруғини беринг
17	Диаграмма ни чоп ёилиш	Файл (File) менюсида Печать (Print) буйруғини беринг.

АДАБИЁТЛАР

1. Шафрин Ю. Основы компьютерной технологии. Учебное пособие. — М.: 1997. — 560 с.
2. Фигурнов В.Э. IBM PC для пользователя. — М.: ИНФРА — М. 1998. 478 с.
3. Лейко И.П. Осваиваем Windows 98. — М.: ЗАО «Издательство БИНОМ», 1999. — 368 с.
4. Раҳмонкулова С.И. IBM PC шахсий компьютерларида ишлаш. — Т.: НМК «Шарқ» — INSTAR, 1996
5. Рыжков В. Microsoft Excel 2000, Санк — Петербург. «Питер», 2000. — 320 с.
6. Холматов Т.Х., Тайлақов Н.И. Информатика ва ҳисоблаш техникаси. Самарканд. Ўқув қўлланма. 1994. 182 б.
7. Холматов Т.Х., Тайлақов Н.И. Амалий математика, дастурлаш ва компьютернинг дастурий таъминоти. — Т.: «Меҳнат», 2000, 304 б.

Илмий-оммабон нашр

**Тайлақов Норбек Исақулович
Ахмедов Акрам Бурхонович**

Теришга берилди 12 Ү-2001. Босишга рухсат 30 Ү-2001й этилди.

Формати 60*84 $\frac{1}{16}$. Тираж 5000 Ҳажми 13 п/л Буюртма 170

IBM PC компьютари. Мустақил ўрганувчилар
учун. — Т.: «Ўзбекистон», 2001. — 204 бет.

**Ўзбекистон Республикаси Давлат матбуот кўмитаси
М.Ч. «Рангли Туркистон» жамиятининг буюртмасига
асосан. Тошкент рангли босма фабрикаси,
Тошкент, Усмон Юсупов кўчаси, 86-уй**

1500e